

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON MILLIY DAVLAT UNVERSITETI

Abdulla Sher

AXLOQSHUNOSLIK

Ma'ruzalar matni

O'quv dasturlari, darsliklar va o'q,uv ko'llanmalarini o,ayta ko'rib chio,ish va yangilarini yaratish
bo'yicha Respublika muvofio,lashtirish komissiyasi tavsiya etgan

Toshkent - 2007

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON MILLIY DAVLAT UNVERSITETI**

AXLOQSHUNOSLIK

Ma'ruzalar matni

O'q,uv dasturlari, darsliklar va o'q,uv ko'llanmalarini o,ayta ko'rib chio,ish va yangilarini yaratish bo'yicha Respublika muvofio,lashtirish komissiyasi tavsiya etgan

Taqrizchi: G. Abdukarimova, Z. Umarova.

Redaktor: T.Qo'yliyv.

Toshkent – 2007

АХЛОҚШУНОСЛИК ФАНИ, УНИНГ ТАДҚИҚОТ ДОИРАСИ, МАҚСАДИ ВА ВАЗИФАЛАРИ (2 соат)

Режа:

1. Ахлоқшунослик фанининг тадқиқот доираси.
2. Ахлоқшуносликнинг ўзига хос фалсафий фан сифатидаги ўрни.
3. Ахлоқшуносликнинг бошқа ижтимоий фанлар билан алоқаси.
4. Ахлоқшунослик фанининг ахамияти ва вазифалари.

1. Ахлоқшунослик бир неча минг йиллик тарихга эга бўлган қадимий фан. У бизда «Илми равиш», «Илми ахлоқ», «Ахлоқ илми», «Одобнома» сингари номлар билан атаб келинган. Оврўпода эса «Этика» номи билан машхур, биз ҳам яқин-яқингача шу атамани кўллар эдик. Уни биринчи бўлиб юнон файласуфи Арасту муомалага киритган. Арасту фанларни тасниф қиларкан, уларни уч гуруҳга бўлади: назарий, амалий ва ижодий. Биринчи гуруҳга у фалсафа, математика ва физикани; иккинчи гуруҳга — этика ва сиёсатни; учинчи гуруҳга эса — саноат, хунурмандчилик ва амалий фанларни киритади. Шундай қилиб, қадимги юнонлар ахлоқ ҳақидаги таълимотни фан даражасига кўтарганлар ва «Этика» (та этҳика) деб атаганлар.

Ҳозирги кунда бу фанни илмий ва замонавий талаблар нуктаи назаридан «Ахлоқшунослик» деб аташни мақсадга мувофиқ деб ўйлаймиз.

Ахлоқшунослик ахлоқнинг келиб чиқиши ва моҳиятини, кишининг жамиятдаги ахлокий муносабатларини ўрганади. «Ахлоқ» сўзи арабчадан олинган бўлиб, «хулк» сўзининг кўплик шаклидир. «Ахлоқ» ибораси икки хил маънога эга: умумий тушунча сифатида фаннинг тадқиқот объектини англатса, муайян тушунча сифатида инсон феъл-атвори ва хатти-ҳаракатининг энг камровли қисмини билдиради. Ахлоқни умумий тушунча сифатида олиб, уни доира шаклида акс эттирадиган бўлсак, доиранинг энг кичик қисмини одоб, ундан каттарок қисмини хулк, энг камровли қисмини ахлоқ эгаллайди.

Одоб — инсон ҳақида ёқимли таассурот уйтсотадиган, лекин жамоа, жамият ва инсоният ҳаётида у қадар муҳим аҳамиятга эга бўлмайдиган, миллий урф-одатларга асосланган чиройли хатти-ҳаракатларни ўз ичига олади.

Хулк — оила, жамоа, маҳалла-қўй микёсида аҳамиятли бўлган, аммо жамият ва инсоният ҳаётига сезиларли таъсир кўрсатмайдиган ёқимли инсоний хатти-ҳаракатларнинг мажмуи.

Ахлоқ эса — жамият, замон, инсоният тарихи учун намуна бўла оладиган ижобий хатти-ҳаракатлар йиғиндиси.

Бу фикрларимизни мисоллар орқали тушунтиришга ҳаракат қиламиз. Дейлик, метрода ёшгина йигит, талаба ҳамма катори ўтирибди. Навбатдаги бекатдан бир кекса киши чиқиб, унинг рўпарасида тик туриб қолди. Агар талаба дарҳол: «Ўтиринг, отахон!» деб жой бўшатса, у чиройли аъмол қилган бўлади; четдан қараб турганлар унга ич-ичидан миннатдорчилик билдириб: «Барақа топгур, одобли йигитча экан», деб қўяди. Аксинча, талаба ё тесқари қараб олса, ёки ўзини мудраганга солиб, қарияга жой бўшатмаса, гашимиз келади, қўнғлимиздан: «Бунча беодоб, сурбет экан!» деган фикр ўтади, ҳуллас, у бизда ёқимсиз таассурот уйғотади. Лекин, айти пайтда, талабанинг қарияга жой бўшатгани ёки бўшатмагани оқибатида вагондаги йўловчилар ҳаётида бирор-бир ижобийми, салбийми — муҳим ўзгариш бўй бермайди.

Хулкка қуйидагича мисол келтириш мумкин: маҳалламиздаги оила бошлиқларидан бири имкон борида қўни-қўшнилари билан барча маъракаларида хизматда туради, ҳеч қимдан қўлидан келган ёрдами аямайди, очик қўнғил, очик қўл, доимо ўз билимини ошириб боришга интилади, тиришқок, оила аъзоларига меҳрибон ва х. к. Ундай одамни биз хушхулк инсон деймиз ва унга маҳалламизнинг намунаси сифатида қараймиз. Бордию, аксинча бўлса, у қўни-қўшнилари билан қўпол муомала қилса, тўй- маъракаларда

жанжал кўтарса, сал гапга ўдагайлаб, мушт ўкталса, ичиб келиб, оилада хотин-болаларини уриб, хакоратласа, уни бадхулк деймиз. Унинг бадхулклигидан оиласи, баъзи шахслар жабр кўради, махалладагиларнинг тинчи бузилади, лекин хатти-харакатлари жамият ижтимоий ҳаётига ёки инсоният тарихига бирор бир таъсир ўтказмайди.

Ахлокка келсак, масала жиддий мохият касб этади: дейлик, бир туман ёхуд вилоят прокурори ўзи масъул ҳудудда доимо конун устуворлигини, адолат қарор топишини кўзлаб иш юритади, лозим бўлса, ҳокимнинг ноқонуний фармойишларига қарши чикиб, уларнинг бекор қилинишига эришади; оддий фуқаро наздида на фақат ўз касбини эъзозловчи шахс, балки ҳақиқий ҳуқуқ посбони, адолатли тузум тимсоли тарзида гавдаланади; у – умрини миллат, Ватан ва инсон манфаатига бағишлаган юксак ахлоқ эгаси; у, ўзи яшаётган жамият учун намуна бўларок, ўша жамиятнинг янада тараккий топишига хизмат қилади. Агар мазкур прокурор, аксинча, конун химоячиси бўлатуриб, ўзи конунни бузса, шахсий манфаати йўлида окни қора, қорани оқ деб турса, у ахлоқсизлик қилган бўлади: оддий фуқаро наздида биргина киши прокурор-амалдор эмас, балки бутун жамият адолатсиз экан, деган тасаввур уйғонади. Бу тасаввурнинг мунтазам қучайиб бориши эса, охир-оқибат ўша жамият ёки тузумни таназзулга олиб келади.

Албатта, ҳар учала ахлокий ҳодиса ва уларнинг зидди нисбийликка эга. Чунончи, ҳозиргина мисол келтирганимиз прокурорнинг ахлоқсизлиги даражаси билан ўз яққа ҳукмронлиги йўлида миллионлаб бегуноҳ инсонларни ўлимга маҳкум этган Ленин, Сталин, Ҳитлер, Пол Пот сингари шахслар орасида фарқ бор: агар прокурорнинг ахлоқсизлиги бир миллат ёки мамлакат учун зарар қилса, тоталитар тузум ҳукмдорлари хатти-харакатлари умумбашарий микёсдаги фожиаларга олиб келади.

Бу ўринда шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, ахлокий тарбия натижасида одоблилик-хушхулкликка, хушхулклик – юксак ахлокийликка айлангани каби, ахлокий тарбия йўлга қўйилмаган жойда муайян шахс, вақти келиб, одобсизликдан – бадхулкликка, бадхулкликдан – ахлоқсизликка ўтиши мумкин.

Шундай қилиб, ахлоқшунослик мазкур уч ахлокий ҳодисани бир-бири билан узвийликда ва нисбийликда ўрганади.

2. Ахлоқшунослик қадимда физика ва метафизика билан биргаликда фалсафанинг узвий (учинчи) қисми ҳисобланар эди. Кейинчалик (Арасту дан сўнг) алоҳида фалсафий йўналишдаги фан макомини олди. Бу фикрни қуйидагича кенгайтириброк талқин этиш мумкин. Маълумки, фалсафанинг фанлар подшоҳи сифатидаги вазифаси барча табиий ва ижтимоий илмлар эришган ютуқлардан умумий ҳулосалар чиқариб, инсониятни ҳақиқатга олиб боришдир. Шундан келиб чиққан ҳолда, фалсафанинг тадқиқот объектини тафаккур деб белгилаш мақсадга мувофиқ. Ахлоқшунослик ахлокий тафаккур таракқиётини тадқиқ этади ва амалиётда инсонни эзгулик орқали ҳақиқатга олиб боришга хизмат қилади. Шу боис уни ахлоқ фалсафаси ёхуд эзгулик фалсафаси деб аташ мумкин.

Ҳозир у фалсафий фан сифатида уч йўналишда иш олиб боради, яъни ахлокий тафаккур таракқиётини тадқиқ этар экан, у ахлоқни: 1) баён қилади; 2) тушунтиради; 3) ўргатади. Шунга кўра, у тажрибавий-баёний, фалсафий-назарий ва расмона-меъёрий табиатга эга. Қадимгилар уни амалий фалсафа деб атаганлар. Зеро соф назарий ахлоқшуносликнинг бўлиши мумкин эмас. У инсоният ўз тажрибаси орқали эришган донишмандлик намуналарини ҳикматлар, нақллар, матал-мақоллар тарзида баён этади, кишиларни ахлокий конун-қоидаларга ўргатади, уларга ахлоқнинг мохиятини тушунтиради ва фалсафий ҳулосалар чиқаради. Яни, ахлоқшунослик фанида Афлотун, Арасту, Эпикур, Тситсерон, Сенека, Августин, Форобий, Ибн Сино, Ҷаззолий, Спиноза, Кант, Ҳегел, Шопенхауер, Фюрбах, Киркегаард, Ниттше, Вл. Соловёв, Лосский сингари буюк файласуфлар яратган ахлоқ назариясига доир таълимотлар билан биргаликда «Патанжали», «Қобуснома», Саъдийнинг «Ғулистон», Жомийнинг «Баҳористон», Навоийнинг «Маҳбуб ул - қулуб», Монтеннинг «Тажрибаном», Ларошфуконинг «Ҳикматлар», Гулҳанийнинг «Зарбулмасал» каби амалий ахлоққа бағишланган асарлар ҳам ўз мустақкам ўрнига эга. Ахлоқшуносликнинг бошқа фалсафий фанлардан фарқи ҳам, ўзига хослиги ҳам ундаги назария билан амалиётнинг омукталигидадир.

3. Ахлоқшунослик бошка ижтимоий-фалсафий фанлар билан ўзаро алоқадорликда ривожланиб келмоқда. Айниқса, унинг нафосатшунослик (эстетика) билан алоқаси кадимий ва ўзига хос. Аввало, инсоннинг ҳар бир хатти-ҳаракати ва нияти ҳам ахлоқийликка, ҳам нафосатга тегишли бўлади, яъни муайян ижобий фаолият ҳам эзгулик (ички гўзаллик) ҳам нафосат (ташки гўзаллик) хусусиятларини мужассам қилади. Шу боис Сукрот, Афлотун, Форобий сингари кадимги файласуфлар кўп ҳолларда ахлоқийликни ички гўзаллик, нафосатни ташки гўзаллик тарзида талкин этганлар. Бундан ташқари, маълумки, санат нафосатшуносликнинг асосий тадқиқот объекти ҳисобланади. Ҳар бир санат асарида эса ахлоқнинг долзарб муаммолари кўтарилади ва санъаткор доимо ўзи яшаётган замонда эришилган энг юксак ахлоқий даражани бадиий киёфалар орқали бевосита ёхуд билвосита акс эттиради. Демак, нафосатшунослик ўрганаётган ҳар бир бадиий асар айни пайтда, маълум маънода, ахлоқшунослик нуктаи назаридан ҳам тадқиқ этилаётган бўлади.

Ахлоқшуносликнинг диншунослик билан алоқаси шундаки, ҳар иккала фан ҳам бир хил муаммо – ахлоқий мезон муаммосини ҳал этишга қаратилган. Чунки умумжаҳоний динлар вужудга келгунига қадар мавжуд бўлган маълум урф-одатлар ва қадриятлар муайян диний қонун-қоидаларга, муқаддас диний китобларга қатъи таъсир кўрсатган. Айни пайтда, динлар ҳам ахлоққа ана шундай таъсир ўтказганлар.

Чунончи, ислом динини оладиган бўлсак, Қурони карим, Ҳадиси шариф, Ижмў ва муайян фатволардаги мезонлар ҳамда талаблар мусулмон Шарқи миллатлари ахлоқий даражасининг шаклланишида қатъи аҳамият қасб этган. Шунингдек, қомил инсон муаммоси ҳар иккала фан учун умумий ҳисобланади. Фарқ шундаки, ахлоқшунослик бу муаммога замонавий тарбия нуктаи назаридан ёндошади.

Ахлоқшуносликнинг ҳуқуқшунослик билан алоқаси узок тарихга эга. Маълумки, жуда кўп ҳолларда ахлоқ меъёрлари билан ҳуқуқ меъёрлари моҳиятан ва мазмунан бир хил бўлади. Шунга кўра, ахлоқни жамоатчилик асосдаги ҳуқуқ, ҳуқуқни эса қонунийлаштирилган ахлоқ деб аташ мумкин. Зеро, ахлоқшунослик билан ҳуқуқшуносликнинг тадқиқот объектлари кўп жиҳатдан ўхшаш, улар факат ёндошув усули нуктаи назаридан фарқ қилади, яъни ҳуқуқ меъёрларининг бажарилиши, одатда, махсус адлия идораларидаги лавозимли кишилар орқали, мажбурий санкциялар воситасида йўлга қўйилади: ахлоқ меъёрлари эса умумий қабул қилинган миллий урф-одатлар, жамоатчилик фикри ёрдамида, алоҳида белгиланган кишилар томонидан эмас, балки муайян ижтимоий гуруҳ, жамият томонидан амалга оширилади. Шунингдек, ҳуқуқшунослик қасби учун муҳим бўлган амалий ахлоқ жиҳатларини ахлоқшуносликнинг ҳуқуқшунос одоби деб аталадиган махсус соҳаси тадқиқ қилади ва тавсия этади.

Ахлоқшунослик педагогика билан ҳам ҳамбарчас алоқада. Педагогикадаги шахсни шакллантириш, тарбиялаш, таълим бериш жараёнларини панд-насихатларсиз, одобнома дарсларисиз тасаввур қилиб бўлмайди. Шу боис ахлоқшунослик ўзининг назарий ва, айниқса, амалий жиҳатлари билан педагогиканинг асоси ҳисобланади. Зеро, маориф тизимидаги таълим-тарбия ўзини ҳар бир қадамда ахлоқий тарбия сифатида намоён қилади.

Қадимдаёқ ахлоқшуносликнинг руҳшунослик (психология) билан алоқаси алоҳида аҳамиятга эга бўлган. Зотан, бу иккала фан кишилар хатти-ҳаракати, феъл-атвори ва майл-истакларини ўрганади. Лекин бу ўрганиш икки хил нуктаи назардан олиб борилади: руҳшунослик у ёки бу хатти-ҳаракат, феъл-атвор, сабабий асос (мотив) ларнинг руҳий табиати ва шаклланиш шарт-шароитларини очиқ беради, ахлоқшунослик руҳшунослик тадқиқ этган ҳодисаларнинг ахлоқий аҳамиятини тушунтиради.

Ахлоқшуносликнинг ижтимоийшунослик (соцсиология) билан алоқаси ўзига хос. Бу иккала фан инсон фаолиятини бошқаришнинг ижтимоий муруватларидан бўлмиш ахлоқни ўрганади. Лекин ахлоқшуносликнинг микёси бу борада кенг. Маълумки, соцсиология инсонларнинг оммавий хатти-ҳаракати ва уларнинг қонуниятларини факат муайян ижтимоий тузум доирасидагина тадқиқ этади. Ахлоқшунослик эса, ўз моҳиятига кўра, лозим бўлганда, муайян ижтимоий тузум ёки давр доирасидан чиқиб, инсон ахлоқининг

юксак ютуги сифатида келгуси даврлар учун ҳам тарихий ва ахлокий аҳамият касб этган шахсий, истисноли хатти-ҳаракатларни ҳамда уларнинг сабабий асосларини ўрганади.

Ахлоқшуносликнинг сиёсатшунослик билан алоқаси, айникса, ўзига хос ва мураккаб. Чунки сиёсий кураш карама-карши ахлокий қоидалар ва талаблар курашини таказо этади. Шахсий интилишлар билан давлат ва жамият манфаатларининг мослиги, мақсадлар ва воситаларнинг пок ёки нопоклиги муаммолари ўртага чиқади. Лекин, аслида сиёсат қай даражада ахлокийлик касб этса, шунчалик у оқилона бўлади. Бу ҳозирги кунда ахлоқшунослик ҳам, сиёсатшунослик ҳам жиддий тадқиқ этадиган энг муҳим умумий муаммолардан биридир. Шунингдек, раҳбарлик одоби, партиявий одоб, этикет сингари ахлоқшуносликнинг муомала маданияти доирасига қирувчи махсус соҳалари ҳам сиёсатшунослик билан ҳамбарчас боғлиқ.

Бундан ташқари, кейинги пайтларда ахлоқшуносликнинг экология билан алоқаси тобора мустаҳкамланиб бормоқда. Тарихан ахлоқшунослик кўпроқ инсоннинг ўзи, ўзгалар ва жамият олдигаги мажбуриятларини таҳлил этиш билан шугулланган, унинг табиатга бўлган муносабати диққат марказидан четда қолиб келган. Лекин, кейинги даврларда, айникса, XX асрда табиатга нисбатан тор манфаатпарастлик доирасидаги ёндошувлар оқибатида пайдо бўлган экологик бухрон манзарани ўзгартирди. Эндиликда глобал экологик муаммолар кўпроқ одамларнинг ижтимоий-ахлокий нуқтаи-назарларига боғлиқ экани маълум бўлиб қолди. Шундай қилиб, ҳозирги кундаги экологик муаммоларни ҳал этиш ахлоқшуносликка бориб тақалмоқда. XX асрда экологик ахлоқшунослик деган махсус соҳа ҳам юзага келди. Лекин, бу - ахлоқшунослик экологияни тўлиқ ўз ичига олади, деган сўз эмас. Чунки бунда ахлокий баҳолаш ва бошқариш объекти сифатида табиатнинг ўзи эмас, балки одамнинг табиатга бўлган муносабати майдонга чиқади.

4. Ахлоқшунослик ҳамма даврларда ҳам юксак аҳамият касб этиб келган фан. Фақат зулм ва зўравонликка, адолатсизлик ва ҳуқуқсизликка асосланган тоталитар тузумлардагина ёлгонга бўйсундирилган, сохталаштирилган ҳамда шу йўл билан унинг аҳамияти пасайтирилган. Мамлакатимиз мустақилликка эришиши шарофати билан яна ахлоқшунослик янги жамиятда тобора ўз юксак мавқеини эгаллаб бормоқда.

Шу ўринда Республикамиз Президенти Ислоҳ Қаримовнинг қуйидаги қимматли фикрларини келтириш жоиз: «Аслини олганда, ахлоқ – маънавиятнинг ўзаги», «Инсон ахлоқи шунчаки салом-алиқ, ҳушмуомалалиқдангина иборат эмас. Ахлоқ – бу, аввало, инсоф ва адолат туйғуси, иймон, ҳалоллик дегани». Бу фикрлар, бир томондан, эски тузумдан қолган ахлоқсизлик кўринишларига лоқайд қаровчиларга ва ахлоқшуносликни энгил-елпи, иккинчи даражали фан сифатида тушунувчиларга адолатли зарба бўлса, иккинчи томондан, ахлоқнинг янги жамиятимиздаги улкан мавқеини ҳамда ахлоқшуносликнинг жиддий назарий тадқиқотларга суяниши кераклигини таъкидлайди. Зеро ҳозирги шароитда тоталитар тузум таъқиқи ёхуд таъқибига учраган миллий ва умуминсоний ахлокий қадриятлар ҳамда қадимий урф-одатларимиз, анъаналаримиз янги замон маънавий қадриятларини яратишда асос бўлиб хизмат қилиши мумкин.

Ана шу янгилашни жараёнида ахлоқшуносликнинг ўз ўрни бор. Унинг олдига янги демократик ва ҳуқуқий давлат барпо этишга қиришган мамлакатимиз фуқароларининг, айникса, ёшларнинг ахлокий даражасига масъулият ва ҳар томонлама қамол топган замон кишиси тарбиясини назарий асослашдек улкан вазифалар турибди. Уларни фақат қадимий ва ҳар доим замонавий бўлиб келган ахлоққа янгича ёндашувлар асосидагина амалга оширса бўлади. Айни пайтда, уларни ахлоқшунослик фани олдига турган вазифаларнинг бир қисми, таъбир жоиз бўлса, миллий ахлоқшунослик вазифалари деб аташ мумкин. Зеро фанимизнинг ҳозирги кунда умумжаҳоний глобал муаммоларни ҳал қилишдек муҳим вазифаси ҳам борки, у ҳақда алоҳида тўхталмасликнинг иложи йўқ. Улардан бири, энг муҳими сайёрамизда «этосфера» – ахлокий муҳит даврини яратиш билан боғлиқ.

Маълумки, юзлаб асрлар мобайнида инсон кичик биологик олам сифатида катта биологик олам ичида, унинг бир парчаси, жонли организмлар подшоҳи, оқил ва ҳукмрон қисми сифатида яшаб келди. XIX асрнинг охиридан бошлаб, айникса XX асрда у ўз тафаккур қуввати билан, илмий-техникавий инкилоблар туфайли ана шу биосфера ичида

ноосферани-техникавий мухитни яратди. Мана, хозирги кунда, каранг, эрталабдан кечгача биз ўз техникавий кашфиётларимиз ичида яшаймиз-еймиз, ичамиз, юрамиз, ухлаймиз уларсиз ҳаётимизни тасаввур кила олмаймиз. Булар метро, автобус, телевизор, радио, телефон, эскалатор, плеер, лифт, компьютер, поезд, тайёра, теплоход, газ плиталари, электр асбоблари, заводлар, локаторлар, кимёвий дори-дармонлар ва х. к. Бугун видео телефонда гаплашар эканмиз, юзлаб чакирим наридаги суҳбатдошимизни кўриш ва у билан гаплашиш учун от-уловда ёки пиёда борадиган бўлсак, неча кунлаб йўл босишимиз кераклиги хакида ўйлаб ўтирмаймиз, тўғрироғи, бу эсимизга ҳам келмайди. Чунки техника бизнинг яшаш мухитимизга айланиб қолган.

Факат бугина эмас. Инсон эндиликда ўзи яшаётган бутун бошли сайёрага таъсир кўрсата бошлади. Эр тарихида инсон биринчи марта улкан геологик қуч бўлиб майдонга чиқди. Инсоний тафаккур биосферадаги ўзгаришларнинг асосий сабабига айланди. Бу ҳақда ноосфера таълимоти асосчиларидан бири буюк рус олими В.И. Вернадский шундай деган эди: «Бутун геологик давр мобайнида яратилган, ўз мувозанатларида барқарорлашган биосфера инсон илмий тафаккури босими остида тобора қучлироқ ва теранроқ ўзгаришга киришди... Афтидан, инсон илмий тафаккури ҳаракатининг бу томони табиий ҳодиса бўлса керак... Ҳозир биз биосферадаги янги геологик эволютсион ўзгаришларни бошдан кечиряпмиз. — Биз ноосферага кириб боряпмиз». Аммо ноосфера факат ижобий эмас, балки салбий ҳодиса сифатида ҳам намоён бўлмоқда. Атом, водород, нейтрон бомбаларининг кашф этилиши, ядро қаллакли балеистик ракеталарнинг яратилиши ана шундай салбий ҳодисалардандир. Бундан ташқари, ноосферанинг вужудга келиши атмосферани, оламий океанни, эр ости ва эр усти сувларини, набототни, хайвонотни, ҳатто инсонни ич-ичидан кимёвий захарланишга олиб келди. Ҳозирги кунда тирик организмларнинг, ўсимликларнинг, хайвонларнинг кўпгина турлари жисман йўқ бўлиб кетиш арафасида турибди. Айниқса жой тополмай, океанда, кемаларда сузиб юрган радиоактив чиқиндилар ёки уларнинг кимсасиз гўзал оролларга қўмиб ташланиши, кислота ёмғирларининг қўпайиб бориши сингари ҳодисалар бағоят хатарли. Афсуски, инсон кўра-била туриб, ўзи ўтирган шохга болта уришни тўхтатмаётир. Бу муаммоларнинг ҳал этилиши факат атроф-мухитни кимёвий захардан экологик тозалашнигина эмас, балки, энг аввало, глобал маънода, ХХИ аср кишиси онгини технократия захаридан фориглантиришни такозо этади. Яъни, улар инсоният олдида эндиликда экологик ҳодиса эмас, балки том маънодаги ахлокий муаммолар сифатида қўндаланг бўлиб турибди. Машҳур австриялик этолог олим, Нобел мукофоти лауреати Конрад Лорентс: «Ёппасига ва тез ёйилиб бораётган жонли табиатга бегоналашиш ҳодисасининг асосий сабаби тсивилизатсиямиз кишисидаги эстетик ва ахлокий тўпосликдир», деган сўзлари шу нуқтаи назардан айна ҳақиқат.

Юкорида айтилганлардан чиқадиган ҳулоса битта: келажакда инсон ўзини ва ўз сайёрасини муқаррар ҳалокатдан қутқараман деса — ХХИ асрдан бошлаб этосфера даврига ўтиши керак; ахлокийлик ҳар биримиз учун ҳар қадамда бугунги техникавий мухит каби заруратга айлангандагина бунга эришиш мумкин. Бунда ахлоқшунослик фанининг ўрни ниҳоятда бекиёс.

Шунингдек, яна бир муҳим муаммо бу — биологик ахлоқшунослик. Мазкур ҳодиса сўнгги бир неча ўн йиллик ичида соф табобат муаммосидан тўлақонли ахлокий муаммога айланди: эндиликда, бировнинг муайян аъзосини бошқа беморга жаррохлик оператсияси йўли билан ўтказиш орқали киши ҳаётини сақлаб қолиш ахлокий нуқтаи назардан қандай баҳоланади, деган савол кун тартибидеа долзарб бўлиб турибди.

Чунки, табобат борасидаги сўнгги тадқиқотлар инсон ўлими бир лаҳзада рўй бермаслигини, юрак уриши ва нафас олиш тўхтаганда ҳам, мия ўлмасеа — инсонни ўлди дейиш мумкин эмаслигини исботлаб берди. Дастлаб мия қобиғи, ундан кейин мия танаси ҳалок бўлади. Шундай кейингина инсонни ўлган деб ҳисоблаш мумкин. Зеро ҳозир токи мия ўлмасеа экан, кўпгина ички аъзоларнинг янги тобобат техникаси воситасида ишлашда давом этишини таъминлаш ва шу орқали анча муддатгача инсонда тирикликнинг минимал даражасини сақлаб туриш мумкин. Демак, юракнинг ёки буйракнинг қўчириб ўтказилиши

хали ўлмаган одамнинг минимал тирикликка бўлган ҳукукини поймол қилишдир. Бунинг устига, америкалик нейрохирург Пол Персон ўз тажрибаларига асосланиб, юрак кўчириб ўтказилганда рух ҳам кўчиб ўтади, деган фикрни билдиради. Чунончи, 19 яшар кизнинг юраги 40 яшар эракка ўтказилганида, йигитнинг феъл-атворида жуда катта ўзгаришлар рўй берган. Ёки 20 яшар кизнинг юраги ва ўпкаси 36 яшар аёлга ўтказилганда ҳам шунга ўхшаш ўзгаришлар юзага келган: қулишигача ўзгариб кетган. Ахлокий нуктаи назардан буни қандай изохлаш мумкин?

Биологик ахлоқшуносликнинг анчадан буён кўпчиликка маълум муаммоси, бу – аборт. Маълумки, тўртинчи ҳафтанинг охирида ҳомилада дастлабки юрак уриши пайдо бўлади. Саккизинчи ҳафтанинг охирида эса миё танасининг электрофизиологик фаоллигини кузатиш мумкин. Демак, ҳар қандай аборт, халқ таъбири билан айтганда, жонлини жонсиз қилиш, тирик организмни тирикликка бўлган ҳуқуқдан маҳрум этишдир. Хўш, абортни ахлоқсизлик тарзида баҳолаш керакми ё йўқми? Бу саволларга ҳам ахлоқшунослик жавоб топтоми лозим. Бизнинг фанимиз олдида ана шундай глобал вазифалар турибди. Айнан шу вазифаларни бугунги кунда ахлоқшуносликнинг аҳамиятини белгилаб берувчи барометрлар, дейишимиз мумкин.

Таянч тушунчалар

Ахлоқшунослик, Этика, Одоб, Хулқ, Ахлоқ, Ноосфера, Этосфера, Биологик ахлоқшунослик.

Такрорлаш учун саволлар

1. «Ахлоқшунослик» ибораси нимани англатади?
2. Одоб нима?
3. Хулқнинг одобдан фарқи нимада?
4. Ахлоқшунослик қайси ижтимоий фанлар билан яқиндан алоқадор?
5. Замонавий ахлоқшунослик олдида қандай муҳим вазифалар мавжуд?

АДАБИЁТЛАР

1. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истикболининг асосий тамойиллари. Тошкент, «Ўзбекистон», 1995.
2. Каримов И.А. Ҳалоллик ва фидойилик фаолиятимизнинг асосий мезони бўлсин. Тошкент, «Ўзбекистон», 1994.
3. Ибн Сино. Бахманёр ал-Озарбойжоний билан мунозара. «Соғлом авлод учун» журнали, 1996 йил, 3-4-сонлар.

QADIMGI DUNYO AXLOKSHUNOSLIGI (2 soat)

Reja:

1. Qadimgi Shark dastlabki axlokiy ta'limotlar beshigi sifatida (Somir (Shumer), Bobilon, Qadimgi Misr).
2. «Avesto» – kadimgi dunyoning axlokiy komusi.
3. Hindi-Xitoy mintakasi mutafakkirlarining axlokiy ta'limotlari (vedachilik, buddxachilik, daoichilik, konfutsiychilik).
4. Kadimgi dunyoning mumtoz axlokshunosligi (Yunoniston, Rumo).

1. Ilm dunyosidagi, xar kaday ilmning tarixisiz nazariyasi bo'lmaydi, degan xikmat, ayniksa, axlokshunoslikka taallukli. Zero axlokshunoslik tarixi axlokiy tafakkurning vujudga kelishi xamda uning tarakkiyoti konunlarini o'rganadi, ma'naviy merosning ulkan kismi bo'lmish axlokiy ta'limotlar, xikmatlar, pand-o'gitlarni zamonaviy jamiyat xayotiga tadbik etish va targib kilish yo'llarini taxlil etadi. Garchand xar bir axlokiy kontseptsiya ma'lum bir mutafakkir muloxazalari va faoliyatining mevasi bo'lsa-da, u, moxiyatan, muayyan tarixiy davr talablaridan kelib chikadi. Ayni paytda, turli odob va etiket konun-koidalarini o'z ichiga oladigan axlokiy targibot muammolari, axlokiy pand-o'gitlar va me'yorlar talablarini bajarish, axlokiy boshkarish soxasiga kiradi xamda axlokshunoslikning odatda «amaliy axlok» deb ataladigan kismini tashkil etadi.

Darxakikat, avval aytib o'tganimizdek, «Kalila va Dimna»siz, Konfutsiy o'gitlarisiz, «Kobusnoma»siz xalk makol va matallarisiz bu fan tarakkiyotini tasavvur kilish kiyin. Shuningdek, muayyan axlokiy tizimni anglash, baxolash xam xuddi targibot singari, ma'lum ma'noda adabiyot vositasida amalga oshirilishini unutmaslik lozim.

Amaliy axlokning dastlabki namunalari bundan uch yarim ming yil avval dunyodagi birinchi yozuv bo'lmish mix xatda giltaxtalarga yozilgan makol va matallardir. Somir (Shumer) alkovlarida (gimnlarida) deyarli barcha bosh ma'budlar ezgulik, adolat, xakikat va yaxshilik tarafdorlari bo'lganlari uchun xam madx etiladi. Chunonchi, kuyosh ma'budi Utu axlokiy me'yorlarning bajarilishini maxsus kuzatib turgan, ma'buda Nanshe esa, ba'zi matnlarda xakikat adolat va shafkat xomiysi sifatida tasvirlanadi. Lekin, ayni paytda, ma'budlar tomonidan o'rnatilgan «Me» deb atalgan konunlar ro'yxatidan olam xarakatini tartibga solish, uning to'xtovsiz va uygun bo'lishini ta'minlash maksadida yukoridagi axlokiy fazilatlar bilan birgalikda – «yolgon», «nifok», «gina», «kudurat», «ko'kuv» tushunchalari xam o'rin olgan. Shuningdek, somiriyalarning makol va matallari, xikmat-iboralari xam dikkatga sazovor; ularning ko'pchiligi umuminsoniy xikmatlar darajasiga ko'tarilgan va Sharkda bir oz boshkacharok shaklda xozir xam ko'llaniladi. Bundan tashkari, turli axlokiy muammolar esa «Gilgamesh» eposi dostonlarida ko'tarilgan.

Somirliklar erishgan ilmiy, badiiy, axlokiy daraja, xukukka oid yutuklar bobilliklar axlokiy karashlari uchun asos bo'ldi. Bobilonida somirliklarnikiga nisbatan badiiy yuksak va mukammal «Gilgamesh» eposi vujudga keldi. Adolat va xakikatning ximoyasini asosiy maksad kilib olgan Bobilon podshosi Xammurapining mashxur Konunlar majmui esa kadimgi Somir konunlarining tadrijiy rivoji edi. Bu majmuada zaiflarni, etim-esir va kambagallarni adolat tamoyili asosida ximoya kilish asosiy maksad kilib ko'yilgan; Xammurapi unda o'zining kambagalparvarligi va adolatparvarligi bilan faxrlanadi.

Kadimgi Misrda esa odob-axlok masalalari o'ziga xos pandnomalarda ifoda topgan. Ular orasida «Pxatotep o'gitlari» bizgacha etib kelgan eng kadimiy pandnoma xisoblanadi. Bundan deyarli ikki yarim ming yil avval beshinchi sulola fir'avni Jadkara Isesidan vazir Pxatotep kariligi tufayli o'rniga o'z o'glini tayinlashni iltimos kiladi va o'gliga atab o'ttiz etti nasixatdan iborat mazkur pandnomani yozadi. Unda o'sha davr axlokiy konun-koidalari, o'zni tutish, muomala odobi singari muammolar ko'tariladi, axlokiy fazilatlar esa xikmatlar va nasixatlar tarzida targib kilinadi. Undagi o'gitlar yuksak badiiyati bilangina emas, balki kuldorlik davri talablarini chetlab o'ta olgan umuminsoniy demokratik fikrlar tarzida, xakikiy donishmandlik va insonparvarlik namunasi sifatida xanuzgacha kishini xayratga soladi: «Kimmatbaxo toshdek

yashirindir okilona so'z, xolbuki uni don tuyayotgan cho'ridan topish mumkin». Agar nafakat Kadimgi Misrda, balki undan bir necha ming yil keyingi Kadimgi Yunonistonda xam kul ezgulikka, donishmandlikka xos bo'lmagan jonzot sanalganini va odam o'rnida ko'rilmaganini xisobga oladigan bo'lsak, Pxatoteptning mazkur fikri insoniyat axlokiy tafakkur tarakkiyotida nakadar katta axamiyatga ega ekanini anglash mumkin.

2. Kadimgi Turonzamin va Eronzamindagi axlokiy tafakkur tarakkiyoti zardushtiylik dinining vujudga kelishi bilan boglik. Taxminan bundan XXX asr mukaddam yoyila boshlagan bu dinning Kadimgi Xorazmda yaratilgan, «Avesto» deb atalgan mukaddas kitobida asosiy axlokiy fazilatlar va illatlar sanab o'tiladi, talkin etiladi. Unda zardushtiylik iloxi Axura-Mazda – ezgulik, Axriman esa yovuzlik timsoli sifatida namoyon bo'ladi; ezgulik va yovuzlik, yoruglik va zulmat, xayot va mamot o'rtasidagi abadiy kurashning ibtidosi aks etadi. «Abadiy ezgulik», «Ezgu niyat», «Ezgu tartib», «Iloxiy tobe'lik», kabi ezgu tushunchalar real ma'no kasb kilib, insoniylashgan kiyofadagi ma'budlar siymosida namoyon bo'ladi, ular Axura-Mazda atrofida yaxshilik urugini sepib yuradi. Bunday tushunchalarning aksi esa Axriman atrofidagi yovuz kuchlarda reallashadi. Yovuz fikr tajassumi Apa Mana, so'lish va o'lim timsoli Tuarvi xamda Zarik ismli devlar shular jumlasidandir.

Zardushtiylik dinini ma'lum ma'noda axlokiy e'tikod, uning mukaddas kitobi «Avesto»ni kadimgi ajdodlarimiz amal qilgan axlokiy tushunchalar va ko'rsatmalar majmui deyish mumkin. Buni ushbu din paygomchisi Zardushtning «Avesto» dagi Asha alkovidan joy olgan kuyidagi so'zlarida yakkol ko'rish mumkin:

Kuvonsin Axura-Mazda –

«Eng loyik xakning irodasi ro'yobga chikib», Axriman daf bo'lsin.

Ezgu o'y, ezgu so'z va ezgu ishlarni alkayman,

O'zimni butkul ezgu uy, ezgu so'z va ezgu amallarga

baxshida etaman,

Barcha kabix uy, yomon so'z va yomon ishlardan tiyaman,

Yukunchim, maktovim, ezgu fikrim,

Ezgu so'z (savobli) ezgu ishlarim

«tanamdagi jonim» bilan birga

sidki dildan Sizlarga (baxshida) bo'lsin,

Ey o'lim bilmas Valiylar.

xakni sharaflab (deyman):

«xakikat – Oliy ne'mat. Bu ne'matdan ul kishi

baxramandkim, savob unga bo'lgay,

kim agar xak yo'lida savob (ishdan) kolmasa,

savob ishdan kolmasa, savob ishdan kolmasa».

«Avesto» dagi talkinlar insonning real xayoti bilan boglik ekanligi diqqatga sazovor. Undagi ezgulik ruxi – yaratuvchilik, ijodkorlik kuvvati, Yovuzlik esa buzish va buzgunchilik kuchi tarzida nomoyon bo'ladi.

Axura-Mazda kiyofasidagi bu ezgulik – xayot ramzi, erni inson, xayvonot va nabotot bilan boyitadi, inson ularni soglik kuch-kudrat, baxt, shodlik, umid, ishonch, go'zallik, farovonlik yordamida munavvar kiladi. Axriman kiyofasidagi yovuzlik esa kurgokchilik, ocharchilik, kasallik, mollar kirginini, jisman va ruxan xalokat singari ofatlarni keltirib chikaradi.

«Avesto»da umri davomida ezgulik, yaxshilik, poklik va tozalik tamoyillari bilan ish ko'rgan odam o'lgandan so'ng uning ruxi roxat-farogatda bo'lishi, gunoxkor, fosik kishiniki esa aksincha: azob-ukubat xamda xunuklik komiga maxkum etilishi aytiladi. Buni professor Tilab Maxmudov o'zining «Avesto» xakida» degan katta makolasida atroflicha yoritadi: solix odam o'lgach, ruxining joni uch kun uning boshida zavk-shavk, roxat-farogat ogushida turadi, keyin xushbo'y o'simliklar yuziga kalkib chikadi. Uni ajib bir shabada, muattar nasim karshilaydi. Shabada ko'ynida o'n besh yashar, barcha go'zalliklardan xam go'zal kiz namoyon bo'ladi. Bu go'zal kiz ezgulik va poklik, savob ishlarning timsoli. U ruxga karata: «Muloyim edim, yanada muloyimrok kilding, chiroyli edim, yanada go'zal kilding, balandda edim, ezgu o'y, ezgu so'z va ezgu a'mol bilan meni yanada balandga ko'tarding», deydi. Gunoxkor, yovuz odamning ruxi esa, vujud ustida uch kun kolib, tengsiz azoblarni boshdan kechiradi. Uch kundan so'ng u o'zi

yaratgan barcha yovuzliklar ustida parvoz kiladi. So'ng tirikligida xech kachon uchratmagan barcha xunukliklardan xam xunukrok badbashara kizni uchratadi. «Ey kora yurak, zaxar tilli, munofik gunoxkor, – deydi kiz, – men kiz emasman, sening tiriklik paytingda kilgan a'mollaringman. Sen tirikligingda Xudoga e'tikod ko'rganlarni ko'ra-bila turib, devlarga sigingansan. Yakin-uzokdan kelgan musofirlarga boshpana berganingda, mexnat kildirganingda xayr-sadaka ulashganingda, ularni kamsitgansan, yaxshi odamlarni xakorat kilgansan, ularning yuziga eshigingni yopib ko'ygansan. Men – sen o'ylagan yomon o'y, sen aytgan yomon so'z, sen kilgan yomon a'mollaringman. Nomussiz edim, sen tufayli battar orimni yo'kotdim, jirkanch edim, yanada jirkanchli bo'ldim, sharmanda edim, battarok sharmisor bo'ldim».

Bu erda rux va vujud muammosi ifoda topganini ilgab olish kiyin emas. Zero «Avesto»da jon-rux tushunchasi o'ta iloxiyashtirilmaydi, ma'lum ma'noda «dunyoviy»lashtiriladi va o'z egasi bilan mulokot kiluvchi vijdon sifatida namoyon bo'ladi.

Shuni aloxida ta'kidlash joizki, «Avesto»da inson oliy jonzot tarzida talkin etiladi. Ayni paytda eru ko'kdagi barcha ne'matlarni sevish, ardoklash insonning mukaddas burchi xisoblanadi. Ozodalik, tozalik gigienik tushunchadan axlokiy va iloxiy tushuncha darajasiga ko'tariladi: suvni, atrof-muxitni toza tutish, jonivorlarga, xususan, itga uchi o'tkir suyak yoki kaynok ovkat bermaslik – ularga nisbatan shafkatni anglatadi; inson shafkatli bo'lishi kerak. Bularning xammasi «Avesto»da ekologik axlokshunoslikning dastlabki kurtaklari xam mavjudligini ko'rsatadi. Bu mukaddas kitobdagi turli-tuman ma'budlar bizning tushunchamizdagi pir darajasidadir (masalan, temirchilikning piri-xazrati Dovud v.x). Ilox esa – bitta: Axura-Mazda, fakat ungagina sajda kilinadi. Demak, yakkaxudolikni, tavxidni targib etishda xam birinchilik «Avesto»ga mansub. «Avesto»dagi ba'zi bir urf-odatlar va irimlarning xozirgi kunda xam saklanib kolganini ko'rishimiz mumkin. Isirik tutatish, kurbonlik uchun so'yilgan jon kallasini davradagi o'tagasilar oldiga ko'yish odatlari xamda sevimli Navro'z bayramimiz fikrlarimizga dalildir. Xullas, «Avesto» yukorida aytganimizdek, ajdodlarimizning axlokiy estetik komusi, kadimiy urf-odatlarimizninig o'ziga xos majmui sifatida kimmatlidir.

3. Kadimgi Shark axlokshunosligida Kadimgi Hindiston axlokiy tafakkuri aloxida o'ringa ega. U tarixan vedachilik, yo'ga, jaynchilik, buddxachilik, «Bxagavadgita» va «Artxashastra» xamda lokoyata okimlaridan tashkil topgan.

Vedachilik axlokshunosligi kadimgi xind jamiyatini to'rt tabaka-varnaga bo'ladi; braxmanlar (koxinlar), kshatriylar (xarbiylar), vayshchilar (dexkonlar, kosiblar), shchudralar (kullar). Mashxur «Manu konunlari» da yozilishicha, braxmanning mashguloti – ta'lim berish, Vedani o'rganish, kurbonlik kilish, sadaka ulashish va tuxfalar olish; kshatriylar fukarolarni ko'riklaydilar; vayshchilar chorva, tijorat, sudxo'rlik va dexkonchilik bilan shugullanadilar; shchudralar esa ana shu uch ijtimoiy guruxga xizmat kiladi. «Xotin, o'gil va kul – uchalasi xususiy mulk egasi xisoblanmaydi, ular kimniki bo'lsa, o'shaning ko'lga kiritgan mulkidir» – deyiladi «Manu konunlari»da. Vedachilik axlokiga ko'ra, braxmanlar tugma axlokiy yuksak odamlar, shchudralar esa tugma tuban axlok egalari xisoblanadi.

Lekin keyingi okimlarda, yo'ga, jaynchilik, ayniksa, buddxachilik axlokshunosligida, axlokiy fazilatlar egasi bo'lish insonning zoti ijtimoiy kelib chikishi bilan emas, balki uning shaxsiy kamoloti bilan boglik, degan fikr ilgari suriladi. Buddxa ta'limotiga ko'ra, dunyo iztirobga to'la va eng muxim muammo ana shu iztiroblardan kutilishning yo'lini topish. Nakl kilishlaricha, o'z tengdoshlari bilan ayshu ishratda umr kechirgan shaxzoda Sidxarta Gautama kunlardan birida sayr kilib yurib, kasal cholni va janoza marosimini ko'radi. Har bir kishini kasallik, karilik va o'lim kutishini eshitib, larzaga tushadi, odamlardan kochib, tarki dunyo kiladi va to'rt ezgu xakikatni anglab etadi xamda uni odamlarga etkazadi. Uning kiskacha bayoni shunday:

1. Bu dunyodagi xayot iztiroblarga to'la.
2. Bu iztiroblarning sabablari bor.
3. Bu iztiroblarga barxam berish mumkin.
4. Iztiroblarga barxam berishga olib boradigan yo'llar mavjud.

Buddxaning to'rtinchi xakikati, ayniksa, axlokshunoslik nuktai nazaridan muxim. U Buddxa o'tgan va xammaning o'tishi mumkin bo'lgan nirvanaga (extiros, nafrat, pushaymon asta-sekinlik bilan so'nib bo'lgandan keyingi xolatga) etishish yo'lidir. U sakkiz fazilatga erishuvdan iborat:

1) to'gri karashlar; 2) to'gri jur'at; 3) to'gri xatti-xarakat; 4) to'gri nutk; 5) to'gri xayot tarzi; 6) to'gri jaxd-jadal; 7) fikrni to'gri yo'naltirish; 8) diqqatni to'gri karatmok. Shunday kilib, sakkiz yo'l bir-birini takazo etuvchi uch omil – bilish, xatti-xarakat va diqqatning birligidan iborat. Bilim va axlok bu o'rinda yaxlitlikka ega; fazilat bilimdan (illat esa bilimsizlikdan) kelib chikadi, shu sababdan bilimni fazilatsiz takomillashtirish mumkin emas. Bu axlokiy komillikka etishishning tugallangan kontseptsiyasi «Sochlarining fatilasi, sulolasi yoki zoti tufayli braxman bo'lmaydi. Kimdaki xakikat va dxamma bo'lsa, o'sha baxtli va o'sha braxman», deyiladi buddxachilik axlokiy koidalari jamlangan kitobda. Shunday kilib, buddxachilik tomonidan vedalar obro'si, braxmanlarning istisnoli xolati inkor etiladi, jamiyatni varnalarga bo'lish koralandi. Shubxasiz, bu axlokiy tarakkiyot ko'rinishlaridan biri edi.

Buddxachilik axlokshunosligi nafakat Hindistonda, balki Kadimgi Xitoyda xam o'ziga xos mavke egalladi. Lekin u erda yana ikki axlokshunoslik yo'nalishi katta axamiyatga va kamrovga ega edi. Ulardan biri daochilik.

Daochilik ta'limotining asoschisi Lao-tszi (miloddan avvalgi VI-V asrlar) yirik namoyondasi Chjuan-o'zi (miloddan avvalgi 369-286 yilar) xisoblanadi. Lao-o'ziga nisbat beriladigan «Dao de o'zin» kitobida daochilikdagi asosiy yo'nalishlarning mohiyati aks etgan. «Dao – xamma narsadan ustun», «ildiz», «Er va osmonning onasi». «dunyoning ilk asosi», «tsi» esa moddiy asos, dao «de» ni – fazilatni undan yaratadi. Shuningdek, «dao» yo'l ma'nosini xam anglatadi. «Dao de 'zin» ni «fazilat yo'li» deb xam atash mumkin.

Inson mavjud olam kabi dao konunlari asosida vujudga kelgan, u tabiatning bir qismi, uning vazifasi fazilat (de) yo'lidan borish. xar kanday sun'iy aralashuv, tabiatning muvofiklik tartibini o'zgartirishga intilish-odamlar uchun xalokatli, barcha yovuzliklarning, son-sanoksiz baxtsizliklarning manbai tabiat joriy etgan konunlardan chekinishdadir. Shu sababli Lao-tszi nazdida faoliyat daoga karshi karatilgan va xalkka zarar keltiradi, uning asosiy axlokiy tamoyili «uvey» – faoliyatsizlik; donishmand kishining «dao»si, bu – kurashsiz faoliyat. Lekin bu kurashsiz faoliyat aslida tabiatga karshi bo'lmagan faol xatti-xarakat, fakat daoga xos, tabiat konunlariga mos faoliyat.

Ayni paytda, Lao-'zyning fikricha, donishmand bilimini oshira borib, uni odamlarga tarkatmaydi, fakat xalkning farovonligi uchun ishlatadi; «Xalkning bilimi kuchli bo'lsa, uni boshkarib bo'lmaydi. Uning emagini totli, kiyimini chiroyli, uy-joyini tinch, xayotini kuvonchli kilish kerak». Ana o'shanda, ya'ni ilm fan tarakkiy etmasa, 'ivilizatsiya kirib kelmasa, bir davlat ko'shni davlatga ko'z olaytirmaydi, urush bo'lmaydi. Xullas, donishmand ibtidoiy davrlarni ideallashtiradi.

Xulosa kilib aytadigan bo'lsak, daochilik axlokshunosligidagi asosiy maksad – odamlarning tabiat ko'rsatgan yo'ldan borishiga erishish; tamoyili – faoliyatsizlik; xalkning baxti – uning urugchilik, kabilachilik munosabatlaridagi tenglik va soddalikka kaytishida; donishmandlarning baxti esa mo'tadillik; xotirjamlik, tabiatga yakinlikdadir.

Daochilikning asosiy rakibi xisoblanmish konfutsiychilik esa kora xalkdan nodonligi uchun jirkanadi, uni axlokiy xayotga nomunosib deb biladi. Zero, konfutsiychilikning axlokiy ideali tszyun-tszi ximmatli jo'mard. Uning yuksak fazilatlarlari – fidoyilik, sofdillik, sadokat, adolat. U muomala bobida muloyim, yuksak martabalilarga xurmat bilan murojaat kiladi, xalkka nisbatan esa ximmatli, adolatli munosabatda bo'ladi.

Konfutsiy ta'limotida asosiy axlokiy konun, asosiy axlokiy tushuncha-jen (insoniylik). «Lun yuy» («Hikmatlar») kitobida shunday deyiladi; «Kimki chin dildan insonni sevishga intilsa, u yovuzlik kilmaydi». «o'zingga ep ko'rmagan narsani o'zgaga munosib ko'rma, shunda davlatda xam, oilada xam o'zingga nisbatan yovlik xis kilmaysan». Demak, jen – xam jamiyat, xam oila a'zolari orasidagi munosabatlarni belgilaydigan axlokiy tamoyil. U bilan «syao» – ota-onani, kattalarni xurmat kilish, «li» – urf-odat, marosimlarni e'zozlash tushunchalari mustaxkam boglik. Ayni paytda «li» tushunchasining ma'nosi ancha keng, u davlatga bo'lgan munosabatni xam o'z ichiga oladi. Hokon (imperator) – Osmon o'gli, u Osmon ostidagilarning barchasiga ota. Osmon ostidagi tartib-koida esa kuyidagicha: «Podsho–podsho, ota—ota, mulozim–mulozim, o'gil–o'gil bo'lishi kerak».

Fazilat egasi bo'lishning konfutsiychilikda ikki xil yo'li anik ko'zga tashlanadi: xalk uchun – urf-odatlariga so'zsiz, o'ylab o'tirmasdan bo'ysunish; ximmatli jo'mard uchun esa o'zini axlokiy jixatdan takomillashtira borish va axlokiy burchini ongli ravishda bajarish. Konfutsiychilikning ximmatli jo'mard tarbiyasi tizimidagi xikmatlari xozir xam o'z axamiyatini yo'kotgan emas.; «Ustoz, debdi: YU, sen olti illatning olti boskichini bilasanmi?» 'zin-lu: «Yo'k,» deb javob beribdi. Ustoz debdi; «Unday bo'lsa, o'tir, aytib beraman. Insonparvarlikni sevish-u, ilm olishni sevmaslik, illat shundaki, bu – befarosatlikka olib keladi, donishmandlikni sevish-u, ilm olishni sevmaslik illat shundaki, bunda inson o'z umrini mayda ishlarga sarflaydi, xakikatgo'ylikni sevish-u, ilm olishni sevmaslik, illat shundaki, bu – o'ziga zarar etkazishga olib keladi, to'g'rilikni sevish-u, ilm olishni sevmaslik, illat shundaki, bu – ko'pollikka olib keladi; mardlikni sevish-u ilm olishni sevmaslik, bu-isyonkorlikka olib keladi, kat'iylikni sevish-u, ilm olishni sevmaslik, bu-boshboshdoklikka olib keladi».

Konfutsiy karashlarini uning izdoshlari Men-tzi, Syun-tszilar davom ettirdilar. Bu ta'limot Xan davridan (miloddan avvalgi II asrdan milodning II asri) boshlab, to XX asrning boshlarigacha Xitoy mafkurasiga asos bo'lib xizmat kilib keldi. Bundan tashkari konfutsiychilikka karshi turgan Mo-tszi, Xan Fey-tszi, Van Chun singari axlokshunoslarning karashlari xam Xitoy axlokiy tafakkuri tarixida o'z o'rniga ega.

Kadimgi Shark axlokshunosligi erishgan yutuklar shunchaki tarix bo'lib kolmadi. Ularni o'zlashtirish natijasida, Shark bilan yakin aloka kilish uchun jugrofiy kulayliklarga ega bo'lan Kadimgi Yunonistonning polislarida (shaxar-davlatlarida) axlokshunoslik yangi boskichga ko'tarildi. Keyinchalik Kadimgi Sharkda ilgari surilgan goyalar, ko'llangan tushunchalar, nazariy-amaliy tajriba bilvosita butun Ovro'po uchun xam axamiyat kasb etdi. Chunonchi, mashxur afsonaviy donishmand Pifagor misrlik va eronlik allomalardan talim oldi. U zardushtiylik dini xakida fikr yuritar ekan, Axura-Mazdani «Ularning xudosi Oramazdaning kalbi xakikatdan, vujudi nurdan iborat», deb tariflaydi. Shuningdek, Sukrot, Aflotun, Arastu singari Kadimgi Yunon allomalari xam Kadimgi Sharkdagi falsafiy-axlokiy ta'limotlardan keng foydalanganlar. Masalan, ruxning ko'chib o'tishi borasidagi Aflotun nazariyasining falsafiy va axlokiy asoslari Kadimgi Hindiston falsafasiga borib takaladi.

4. Kadimgi Yunon axlokshunosligi xakida gap ketar ekan, asosan, to'rt buyuk faylasufning nomini tilga olish odat bo'lib kolgan; Sukrot, Aflotun, Arastu, Epikur. Lekin, aslida, ulargacha xam Kadimgi Yunonistonda axlokshunoslik borasida ancha-muncha ishlar kilingan. Chunonchi, Demokrit, Pifagor, Gippiy, Gorgiy singari sofistlar (donishmandlar) okimiga mansub faylasuflarning karashlari diqqatga sazovor. Misol tarikasida Demokritning (taxminan miloddan avvalgi 450-370 yillar) karashlarini olib ko'raylik. U donishmandlikni eng yuksak fazilat, aklni esa axlokiy xatti-xarakatning mezoni deb biladi va donishmandni axlokli, nodonni axloksiz odam sifatida tariflaydi. Demokritning fikriga ko'ra, inson uchun xayotdagi birinchi ustoz extiyoj va tajribadir. Aynan shular insonni foydali va zararli narsalarni farklash darajasiga olib keladi.

Demokrit Kadimgi Yunon faylasuflari ichida birinchi bo'lib insonning ichki dunyosiga murojaat kildi. U niyatni (xatti-xarakat sababini) xarakatdan ajratadi. Ayni paytda; «Nomusli va nomussiz odamni nafakat kilmishi, balki niyati orkali xam bilib olsa bo'ladi», deydi mutafakkir. Demokrit xayo va ishonchni insonni kingir ishlardan kaytarib turuvchi kuch tarzida ta'riflaydi. Fakat ruxan zaif va gumrox odamlargina o'z muvaffakiyatsizliklarini ma'budlar, takdir va tasodifdan ko'radilar. Nodon va yomon odam lazzat, baxt xamda xayotning maksadi xakida noto'g'ri tasavvurga ega bo'lgani uchun o'zini baxtsizlikka muhtalo kiladi.

Sukrot (miloddan avvalgi 470-399 yillar) karashlariga kelsak, u, Konfutsiyga o'xshab, axlok bilan xukukni bo'linmas yaxlitlikda olib karaydi: «Nimaiki konuniy bo'lsa, o'sha adolatdandir». Ikkala mutafakkir xam xukmronlikning yaxshi yoki yomon deb baxolanishini fukarolar tarbiyasi bilan boglaydi, jasorat va betama' xizmat namunalarini o'z davlatlari o'tmishidan topadi.

Sukrotning fikricha, polis bilan fukaro o'z xukuklari jixatidan teng emas; ular ota bilan o'gilga o'xshaydi. Axlokning asosiy moxiyati-o'zgarmas va abadiy asl fazilat bo'lmish donishmandlik. U axlokiy xatti-xarakat mezoni xisoblangan iloxiy yozmishga mos keladigan benukson faoliyatdir. Axlokning manbai esa insondan tashkarida, iloxiydir. Sukrot ruxni (jon, kalb, nafsni), vujudan farkli ravishda, o'lmas deb xisoblaydi, lekin o'z karashlarini

rivojlantirmaydi. Uning fikricha, bu boradagi ortikcha kizikuvchanlik zararli. Chunki ma'budlarga o'zlari odamlarga ochishni istamagan narsalarning tadqiq etilishi yokmaydi.

Sukrotdan farkli o'larok, Aflotun (miloddan avvalgi 427-347) axlokshunosligi uchun, aksincha, goyalar va rux xakidagi ta'limotlar asos bo'lib xizmat kiladi. Aflotunning goyalar ta'limotiga ko'ra, bizga ko'rinib turgan, biz kilayotgan dunyo bor-yo'gi soyalar o'yini, xakikiy dunyoni ko'rish uchun esa inson akli ojizlik kiladi. Inson gor devoriga kishanband kilib ko'yilgan tutkunga o'xshaydi, u fakat xakikiy borlikning noanik soyalarini kuzatadi, xakikiy borlik esa soyalar orkasida, ko'rinmaydi. Uni inson ko'rmaydi, biroq o'sha asl borlikni ko'ra oladigan mangu – o'lmas rux mavjud. U goyalar dunyosiga daxldor, lekin uning fakat akliy kismigina ana shu dunyoga karatilgan, extiros va xirsli kismi esa doimo gunoxkor erga tomon tortadi. Aflotun ruxning bu ikki xillik jixatini aravakash (akl) bilan ko'pirgan otlar (extiros va xirs) orasidagi kurash sifatida talkin etadi. Otlar baland kelganda rux (kalb, jon) goyalar dunyosidan vujudga yikiladi va inson tugiladi. Insonning tugilishi shunday kilib, ruxning gunoxga botishi barobarida voke bo'ladi. Barcha bilimlar xotira natijasidir; rux goyalar dunyosidan bilganlarining bazilarini eslaydi va vujudagi xayotida biror-bir dikkatga sazovor yangilikni o'ziga kasb etmaydi. Shunday kilib, Aflotunning fikricha, axlok, iloxiy asosga ega va axlokiy fazilat insonga azaldan berilgan.

Aflotun donishmandlikni oliy fazilat, ruxdagi akliy kismning namoyon bo'lishi deb biladi va davlatni boshkarishga loyik yagona toifa sifatida donishmand-faylasuflarni tan oladi. Yovkurlik – ko'rikchilarga, davlatni ximoya kiluvchi askarlarga xos. Ruxning xirsli kismi bilan boglik bo'lgan mo'tadillik xunarmand-kosiblar, dexkonlarga, yani. xalkka xos. Ular avvalgi tabakaga bo'ysunishi shart. Ulardan so'ng kullar turadi. Kullar axlokdan tashkarida, xar kanday fazilatdan yirok, zotan ularning ruxga egaligi gumon. Bundan tashkari, Aflotunnning fikriga ko'ra, adolat-shaxsiy fazilat emas, davlatga xos fazilat. Shu sababdan u: «Biz tabiatiga ko'ra uchga bo'lingan tabakalarning xar biri fakat o'z yumushi bilan shugullangan davlatnigina tan olamiz», deydi. Shuningdek, tijorat fukarolarni yo'ldan ozdiradigan soxa bo'lgani uchun, u bilan adolatli davlatda xorijliklar shugullanishi kerak.

Aflotun axlokshunosligining muxim xususiyati shundaki, unda axlokning asosi, axlokiy namuna sifatida iloxiylik olinadi. Faylasufning fikricha, kimda-kim Xudoning marxamatiga erishmokchi ekan, unga iktido kilmogi, undan namuna olmogi kerak; Xudo barcha narsalar uchun mezon; fakat Xudoga ishonuvchi va taklid kiluvchi kishigina donishmand bo'lishi mumkin. Xullas, Aflotunning axlokshunosligi kat'iy diniy tabiatga ega. Ayni paytda u ko'p jixatdan vedachilik axlokshunosligidagi goyalarni o'z ichiga oladi va ularni rivojlantiradi.

Aflotundan so'ng ikki kadimgi yunon allomasi – Arastu (miloddan avvalgi 384-322 yillar) va Epikurning (milodan avvalgi 341-270 yillar) axlok nazariyalari dikkatga sazovor. Aflotunning shogirdi Arastu birinchi bo'lib axlokshunoslikni ruxshunoslik bilan siyosatshunoslik oraligidagi aloxida falsafiy fan sifatida takdim etdi va unga (keyinchalik Ovro'poda kabul kilingan) « Etika » degan nomni berdi.

Arastuning axlokiy karashlari, asosan o'gliga bagishlangan «Nikomaxning axlok kitobi» va «Evdemning axlok kitobi» xamda «Katta axlok kitobi» risolalarida o'z aksini topgan. Arastu Kadimgi Yunon mutafakkirlari ichida birinchi bo'lib ixtiyor erkinligini axlokning asosi sifatida olib karaydi va axlokiy fazilatni Aflotunga karama-karshi o'larok, ruxning tugma xususiyati emas, balki kasb etiladigan (xosil kilinadigan) sifat ekanini aytadi. U barcha fazilatlarni ikkiga bo'ladi: birinchisi, ruxning donishmandlik, tajribakorlik, topkirlik singari ma'naviy soxa bilan boglik akliy kismiga oid fazilatlar va, ikkinchisi, ruxning intiluvchan (ixtiyoriy) kismi – sof axlok bilan boglik fazilatlar. Uning fikricha, asosiy fazilat adolatdir. «Fazilat, – deydi Arastu, – ma'lum ma'noda o'rtalikdir, zero, doimo o'rtalikka intiladi». Masalan, mardlik telbavor jasorat bilan ko'rkoklik orasidagi o'rtalik va xokazo. Shuningdek, mutafakkir niyatga katta axamiyat beradi va uni xarakatning tamoyili, boshlanishi deb ataydi. Lekin u pirovard maksad emas, niyatning tamoyili esa intilish va akl, shu sababli niyat akldan, es-xushdan va odobdan tashkarida bo'lmaydi.

Arastu, Aflotundan farkli o'larok, vujud va rux yaxlitligi nuktai nazarini ilgari suradi; inson kamolotga, oliy ezgulik va erkinlikka bilish faoliyati, vokelikka faol munosabati orkali, xirsu

extiroslar ustidan xukmronlik kila olishi tufayli erishadi, degan fikrni aytadi. Demak, insonda ixtiyor erkinligi bor, zero u ezgulik yoki yovuzlikni, fazilat yoki illatni tanlashda bir xil xukmronlik mavkeiga ega.

Maksad bilan vositani Arastu yaxlitlikda ko'radi; maksad vositani belgilaydi, shu sababli maksadning axlokiy tabiati fakat axlokiy vositalarnigina tan oladi va, ayniksa, axloksiz maksad axloksiz vositalarni talab kiladi.

Arastu akl-idrok faoliyatini xayot va faoliyatning oliy shakli, xech bir narsa bilan kiyoslab bo'lmaydigan kadriyat deb xisoblaydi. Oliy akl doirasida subekt va ob'ekt, fikr va fikrning narsa xodisasi bir-biriga mos, ya'ni Oliy akl (Xudo) tafakkur xakidagi Tafakkurdir. Garchand inson xech kachon iloxiy xayot darajasiga etisha olmasa-da, lekin unga, ideal sifatida imkon boricha intilishi kerak; inson erishgan komillik doimo nisbiy bo'ladi.

Shunday kilib Arastuning fikricha, axlokli inson akliy fazilatlar bilan yo'grilgan kishidir; aklni inson emas, insonni akl belgilaydi. Ayol zoti esa past darajali, zaif, ko'z yoshiga erk beradigan, o'zini tutolmaydigan inson, ularda extiros akl-idrokdan yuksak turadi, illatlarga erkaklarga nisbatan ko'prok moyil bo'ladilar, shuning uchun xam donishmandlik ularga xos emas; xotin erga bo'ysunishi adolat tamoyilini buzmaydi. San'at, siyosat va ilm fan ozod kishilar uchun. Kul, umuman, axlokdan tashkaridagi mavjudot.

Kullarni past tabakali kishilar, xatto jonli narsalar katoriga kiritish Arastuning inson moxiyatini ijtimoiy-siyosiy mavjudot sifatida tushunishidan kelib chikadi. Uning uchun jamiyatdan, kabila, jamoa, davlatdan tashkaridagi odam – yo Xudo, yoki xayvon. Shu bois yot kabiladan kelgan, polis fukaroligi xukukiga esa bo'lmagan kullar odam xisoblanmaydi. Kul fakat ozodlikka erishgandagina insonga aylanadi.

Arastu, yukorida keltirganimizdek, ilmni (aklni) axlokdan (viydondan) yuksak ko'yadi va bu bilan mushoxadakor xayotni, nazariyaga, ijodga bagishlangan xayotni axlokiy ideal tarzida talkin etadi. Shunga ko'ra, buyuk mutafakkir antik dunyo fukarosining an'naviy fazilatlarini bo'lmish donishmandlik, mardlik, odillik, do'stlikni yuksak kadrdaydi. Birok, uning insonga muxabbati, insonparvarligi bizning xozirgi barcha bandalar Xudoning oldida baravar, degan tushunchamizdan fark kiladi. Yukorida ko'rganimizdek, uning nazdida odamlar teng emas, tenglik tushunchasi Arastuga yot. U fakat odamlar o'rtasidagi do'stlik va xayrixoxlikni tan oladi.

Epikur esa o'z karashlarida falsafaning amaliy maksadini, axlokiy mazmunini ta'kidlaydi: «Insonning biror bir iztirobiga davo topolmaydigan faylasufning so'zlari ma'nosizdir. Badandan kasallikni kuva olmaydigan tabobatdan xech kanday foyda bo'lmagani kabi, ruxni (kalbni) davolay olmaydigan falsafadan xam foyda yo'k».

Epikurning fikriga ko'ra, insonda tanlov ixtiyori bor. U xam Demokrit kabi ezgulik xakidagi ta'limotni lazzat va iztirob muammosidan boshlaydi. Uning uchun eng muximi ruxiy xotirjamlik. Do'stlaridan biriga u shunday deb yozadi; «Zarrin to'shagu to'kin dasturxoning bo'lib, bexalovat yashagandan ko'ra, poxol to'shakda xotirjam yotganing afzal!» Fazilatlar orasida Epikur adolat bilan donishmandlikka aloxida e'tibor bilan karaydi. Adolat tushunchasida mutlaklik va nisbiylik xollari mavjudligini ta'kidlab o'tadi: «Umuman, adolat xamma uchun bir xil, chunki u odamlararo munosabatlardagi foydali xodisa; lekin muayyan mamlakatlarning o'ziga xosligi nuktai nazaridan va shunga o'xshash boshka sharoitlarda adolat barcha uchun bir xilda bo'lolmay koladi.» Fazilatlarining moxiyati insonni lazzatga olib borishdan, xotirjamlikka xamda ruxning faoliyatli xolatiga xizmat kilishdan iboratdir. Baxt esa axlokiy va jismoniy soglomlikdan yuzaga keladi.

O'lim karshisidagi ko'rkuv borasida gapirib, Epikur, uning manbaini ruxning o'lmasligi va iztiroblarning abadiyligi xakidagi noto'gri tasavvurlarda deb xisoblaydi. Zero rux xam vujud singari atomlardan iborat. Tabiatdagi xamma narsa atomlar birikuvidan xosil bo'lgan, ularning parchalanishi bilan rux xam parchalanadi. O'lim xavfining asossiz ekanini isbotlash uchun u shunday deydi; «Yovuzlikning eng daxshatlisi bo'lmish o'limning bizga xech kanday alokasi yo'k, chunki biz xali mavjud ekanmiz, o'lim kelmaydi, o'lim kelganda esa, biz mavjud bo'lmaymiz. Shunday kilib, o'limning tiriklarga xam, o'liklarga xam alokasi yo'k, chunki birlari uchun u mavjud emas, boshkalarining esa o'zlari mavjud emas».

Epikur iztirobdan kochishni emas, uni engish kerakligini ta'kidlaydi. Buning uchun axlokiy kat'iyat, fikr yorqinligi, fikr kudrati iztirobga karshi ko'yilishi kerak. Uning axlokiy ideali – erdagi xayotga nafrat bilan karamaydigan, aksincha, tabiat bilan xamnafas bo'lib, ya'ni tabiat belgilab bergan xayotiy maksadga muvofik yashaydigan donishmand, faylasuf. Aynan tabiatga muvofiklikda, turli bid'at va aldamchi fikrlardan kutilib, o'z extiyojlarini tabiiy zarurat bilan moslashtirgan xoldagina donishmand tafakkur va ichki erkinlik borasida oliy darajadagi lazzatga erishadi. Donishmand o'z kuchi me'yorini biladi va undan okilona foydalanadi. Unga baxt manbai-fakat ma'naviy ezgulikda, do'stlik bilan bilimda bo'lgan nisbatan mustaxkam va uzok muddatli lazzatda ekani ayon. Epikur odamlarning munosabatlarida xammasidan avval tenglik va xamfikrlilikka asoslangan do'stlikni kadrlaydi. Falsafa bilan shugullanish xam xuddi do'stlik singari ruxan xotirjamlikka etishishga olib keladi.

Kadimgi Shark axlokshunosligi erishgan yutuklarni yuksak nazariy darajaga ko'targan Kadimgi Yunon axlokshunosligi jaxonshumul axamiyat kasb etdi. Yunonlik mutafakkirlar ilk bor inson shaxsini, inson xatti-xarakatiga asoslangan niyatni tadqiq etishga va axlokiy kilmish muammolarini tushuntirishga urindilar.

Kadimgi Yunon axlokshunoslari ilmiy an'alarini Tsitseron, Lukretsiy Kar, Seneka, Epiktet, Mark Avreliy, Sekst Empirik singari Kadimgi Rumo mutafakkirlari davom ettirdilar.

Tit Lukretsiy Kar (miloddan avvalgi 99-44 yillar), Epikur axlokiy ta'limotining izchil ximoyachisi sifatida, mashxur «Narsalarning tabiati xakida» degan dostonida rux va vujudning ajralmas alokasini ta'kidlaydi, ruxning o'lishi to'grisida fikr yuritadi, insonning o'lim ko'rkuvidan xalos bo'lishida axlokiy ma'no borligini aytib o'tadi. O'lim ko'rkuvidan va ma'budlar oldidagi ko'rkuvdan xalos bo'lgan kishi baxtli yashashi mumkin, akl-idrok va xis-tuygular sharofati bilan narsalar xakida u xakikiy tasavvurga erishadi.

Lutsiy Anney Seneka (miloddan avvalgi 5-milodiy 65 yillar) xam yozuvchi, xam axlokshunos faylasuf. Uning «Çazab xakida», «Shafkat xakida», «Baxtli xayot xakida» singari axlokshunoslikka doir risolalari ko'pchilikka ma'lum. Ayniksa, «Lutsiliyga axlokiy maktublar» asari mashxur. Senekaning fikriga ko'ra, dunyo moddiy, biroq, unda kandaydir jonli ibtido xukmron: uni akl-idrok deymizmi, tabiat, bashorat yoki takdir deymizmi-axamiyati yo'k. Muximi shuki, uning yozigi albatta amalga oshadi. Faylasuf fazilatlarining ma'nosini takdirdan rozilikda, uning zarbalariga insoniy kadr-kimmatni yo'kotmay, mardona va chidam bilan dosh berishda ko'radi. U o'limni sovuk, tund, lekin ozodlikning kafolati sifatida talkin etadi. Ozodlikni o'z-o'zini o'ldirishda ko'rish, shubxasiz, u yashagan davrning goyatda fojialiligi bilan boglik. Seneka kul bilan ozod kishining ma'naviy tengligini ta'kidlaydi: «Ular kullarmi? Yo'k odamlar. Ular kullarmi? Yo'k, ular uyingdagi ko'shnilar. Ular kullarmi? Yo'k, sening itoatkor do'stlaring. Ular kullarmi? Yo'k, ular sening kullikdagi birodarlaring, negaki, sen xam, ular xam takdirning kullarisiz». Albatta, bu o'rinda Seneka ijtimoiy tenglikni emas, balki kul bilan kuldorning axlokiy tengligini nazarda tutmokda. Faylasufning aytishicha, rux ozodligi-shaxs uchun o'z-o'zini kadrlash va gurur-iftixor manbai. Kimki botiniy ozodlikka erishgan ekan, u takdir ko'rgiliklariga bo'ysunmaydi, kismet zarbalarini mardona kutib olishga tayyor turadi.

Yana bir Kadimgi Rumo axlokshunosi ozod kilingan kul Epiktetdir (50-138 yillar atrofida). Uning axlokiy koidalari kuyidagicha: takdir mukarrar; akl-idrok axlokning yagona va ishonchli mezon; tashki dunyo ma'budlar irodasiga kat'iy boglik, ichki dunyo insonning xukmi ostida; xakikiy donishmandning erki shundaki, u o'ziga boglik bo'lgan narsalarni o'ziga boglik bo'lmagan narsalar bilan chalkashtirib yubormaydi; xayotning maksadi va ma'nosi shaxsiy ichki erkinlikni anglash va uni ko'lga kiritish; unga eltadigan yo'l bitta – ma'budlar irodasiga so'zsiz itoatkorlik, extiyojda mo'tadillik, beparvolik, sovukkon akl bilan ish ko'rish.

Epiktetning fikriga ko'ra, baxt, xakikiy saodat-fazilatda, fazilat esa butunlay insonning ijodidir, zero uni inson shakllantiradi. Faylasuf o'zing yoktirmaydigan sharoitni o'zgalarga ravo ko'rma, agar kul bo'lishni istamasang, atrofingda kullikka yo'l berma, degan fikrni ilgari suradi.

Shunday kilib, Kadimgi Rumo axlokshunoslari xam inson xatti-xarakatlari muammosini o'rta tashlaydi va insonning olamdagi o'rni xamda xayotning maksadini belgilashga intiladilar. Bunday intilish, ayni paytda, butun Kadimgi dunyo mumtoz axlokshunoslariga xosdir. Xullas, Kadimgi

dunyoning mumtoz axlokshunoslari oddiy axlok-odob koidalari, pand-o'gitlar va xikmatlardan tortib, to axlokshunoslik nazariyasi tizimigacha yaratdilar. Bu meros xanuzgacha o'z ta'sir kuchini yo'kotgani yo'k, xanuzgacha jaxon axlokshunosligi ko'p xollarda o'sha tushunchalar va tamoyillarga yangicha yondoshuv asosida tarakkiy etib kelmokda.

Shu o'rinda yana bir, xozirgacha etarli e'tibor kilmay kelinayotgan masalaga oydinlik kiritishni maksadga muvofik deb o'ylaymiz. Bu – Kadimgi Yunon tafakkuri bilan o'rta asrlar musulmon Sharki falsafasining – xususan axlokshunosligining boglikligi masalasi. Nima uchun bizning alloma ajdodlarimiz Kadimgi Shark, jumladan, Hindi-Xitoy mintakasi mutafakkirlari izidan emas, ovro'palik yunonlar izidan bordilar, Sukrot va Aflotunni o'rgandilar, ko'klarga ko'tardilar, Arastuni esa eng ulkan ustoz – birinchi muallim deb atadilar?

Gap shundaki, musulmonchilikning asosi tavxidda – yakkaxudolikda. Ollox yagona, uning sherigi yo'k va bo'lishi mumkin emas. Kadimgi Yunon mutafakkirlari aynan ana shu tavxid yo'lidan bordilar. Birinchi bo'lib bu masalani Sukrot anik o'rta tashladi. U o'limga maxkum etilganida, unga yunonlar xudolarini xurmat kilmaganligi, yoshlarni boshka yo'lga (aslida tavxid yo'lga) burib yuborayotgani ayb kilib ko'yiladi. Sukrotning o'limi oldidagi so'nggi gapi xam shuni tasdiklab turadi, tsikuta ichgach: «Men Uning (ularning emas! –A. SH.) yoniga ketyapman!», deydi u. Shuningdek, Aflotunning goyalar, olamiy rux, emanatsiya xakidagi fikrlari xam to'gridan-to'gri yakkaxudolik masalasiga borib takaladi. Lekin Sukrot va Aflotun tavxidni falsafiy-nazariy nukta nazardan isbotlashni o'z oldiga vazifa kilib ko'ymadilar, bunga urinmadilar. Bu ishni Arastu uddaladi. U o'zining mashxur «Metafizika» asarida Xudoning yakkaligini jimsiz, xech narsa tomonidan xarakatga kelmaydigan, aksincha, birinchi xarakatga keltiruvchi kuch ekanini nazariy isbotlab berdi. Uni «Oliy shakl» (forma) deb ataydi. Arastu talkinida Xudo olam va barcha olamiy jarayonlarning maksadi xisoblanadi, u, yukorida keltirganimizdek, Oliy tafakkur, tafakkur xakidagi Tafakkurdir.

O'rta asrlar, musulmon Sharki mutafakkirlarining Kadimgi Yunon tafakkuriga, xususan, axlokshunosligiga ulkan e'tiborining, taklidining asl sababi ana shunda.

Tayanch tushunchalar

Ezgulik, Yovuzlik, Fazilat, Illat, Rux, Ixtiyor erkinligi, Iztirob, Adolat, Donishmandlik, Do'stlik.

Takrorlash uchun savollar

1. Somirliklar va bobilliklarning axlokiy karashlari nimalarda ifodalangan?
2. «Pxatotep o'gitlari»da kanday axlokiy muammolar o'rta tashlanadi?
3. «Avesto»ning axlokiy axamiyati nimalarda ko'rinadi?
4. Vedachilik axlokshunosligida asosiy e'tibor nimalarga karatiladi?
5. Buddxachilik ta'limotining demokratik xususiyatlari nimalarda aks etadi?
6. Daochilik axlokshunosligidagi o'ziga xoslik kay tarzda namoyon bo'ladi?
7. Konfutsiy va uning izdoshlari ilgari surgan asosiy goyalar nimalardan iborat?
8. Arastugacha bo'lgan Kadimgi Yunon axlokshunosligining o'ziga xosligi nimalarda aks etgan?
9. Arastu axlokiy ta'limotining mumtozlik moxiyati nimada?
10. Epikur ta'limotida iztirobdan kochish muammosi kanday talkin etilgan?
11. Kadimgi Rum mutafakkirlarining axlokiy karashlarida kanday muxim muammolar ko'tarilgan?

ADABIYOTLAR

1. Avesto. Asha alkovi. «Soglom avlod uchun» jurnali, 1996 yil, 5-6- sonlar.
2. Konfutsiy. Pand-o'gitlar.»Soglom avlod uchun» jurnali, 1997 yil, 5-6- sonlar.
3. Maxmudov T. «Avesto» xakida. «Guliston» jurnali, 1999 yil, 4-5-sonlar.
4. Aristotel. Nikomaxova etika. || Aristotel. Sochineniya v 4-x tomax, tom 1, Moskva, «Мысль», 1983.
5. Законы Ману. Moskva, 1960.
6. Guseynov A, Irrlits G. Kratkaya istoriya etiki, Moskva, «Мысль», 1987.
7. Ivanov V. Istoriya etiki Drevnogo mira. Leningrad, Izdatelstvo LGU, 1980.
8. Kramer S. Istoriya nachinaetsya v Shumere, Moskva, «Nauka», 1989.
9. Filosofiya i jizn. Seriya № 10, 1990, №3 1991, Moskva, «Znanie».
10. Xaydegger M. Ucheniya Platona ob istine || Istoriko-filosofskiy ejegodnik. Moskva, «Nauka», 1986.

O'RTA ASRLAR MUSULMON SHARKI MUTAFAKKIRLARINING AXLOKIY TA'LIMOTLARI

(2 soat)

Reja:

1. O'rta asrlar musulmon Sharki axlokshunosligida mashshoiyyunlik va tasavvuf yo'nalishlarining o'rne (Forobiy, Ar-Roziy, Ibn Sino, Ibn Rushd, G'azzoliy).
2. Temur va Temuriylar davri axlokshunosligi (Navoiy, Koshifiy).
3. Mashhur pandnomalarning axlokiy mohiyati («Kalila va Dimna», «Kutadgu bilig», «Guliston» v.b.).

1. O'rta asrlarga kelib nasroniylik Ovro'po xalklarining ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotini cherkovga bo'ysundirdi, xamma soxalar bo'yicha cherkov nazorati o'rnatildi. Bu bilan ilm-fan va san'at cherkov belgilab bergan chegaralar doirasidagina rivojlanishga maxlum etilgan edi. Islom dinida esa, ayniksa, tasavvufning vujudga kelishi tufayli, muayyan ma'noda xurfiylik mavjud bo'lib, ilm-fan va sanat tarakkiyotiga keng yo'l ochildi. Natijada Kadimgi dunyo mumtoz axlokshunosligi ilgari surgan goyalarni rivojlantirish, u o'rtaga tashlagan muammolarni xal etish, o'sha davr va keyingi davrlar uchun dolzarb bo'lgan muxim nazariy xamda badiiy-axlokiy asarlarni yaratish, asosan, musulmon Sharki allomalarining zimmasiga tushdi.

Bu davr axlokshunosligi xam turli xil axlokiy-falsafiy okimlardan tashkil topgan. Lekin bunday okimlar yoki yo'nalishlarning o'ziga xosligi shundaki, ular Kadimgi dunyo axlokshunosligi singari nisbatan kat'iy chegaralarga ega emas. Chunonchi, Umar Xayyom o'zining tabiiyyunlar yo'nalishiga mansub deb xisoblasa-da, aslida uning falsafiy-axlokiy karashlari ko'prok tanosux ul-arvox (ruxlarning ko'chib o'tishi) okimiga taalluklidir. Yoki mashshoiyyunlik okimining buyuk vakillari deb tan olingan Forobiy va Ibn Sinoning axlokiy karashlari ba'zi jixatlari bilan tasavvufiy axlokshunoslikka xam taallukli ekani ko'zga tashlanib turadi. Ammo, shunga karamay, umuman olganda, falsafiy-axlokiy okimlar borasida gap ketganda, musulmon Sharkida ikki yo'nalish aloxida o'rin tutadi. Bular – mashshoiyyunlik va tasavvuf axlokshunosligi.

O'rta asrlar musulmon Sharkida mashshoiyyunlik yoki, boshkacha kilib aytganda, arastuchilik okimini buyuk arab mutafakkiri al-Kindiy boshlab berdi. Uning asoschisi esa turkistonlik komusiy alloma Abu Nasr al-Forobiy (870-950) xisoblanadi.

Arastu izidan borib, Forobiy xam falsafani ikkiga – nazariy va amaliyga bo'ladi xamda axlokshunoslikni amaliy falsafa tarkibiga kiritadi. Axlokiy muammolar uning «Baxtga erishuv yo'lini ko'rsatuvchi kitob», «Baxtga erishuv xakida», «Davlat arbobining xikmatlari», «Fozil odamlar shaxri» singari asarlarida ko'tarilgan. Ularda inson baxti eng asosiy muammo sifatida o'rtaga tashlanadi. «Baxt – xar bir inson intiladigan maksad, zero u muayyan komillik xisoblanadi», deydi Forobiy. Ayni paytda alloma o'z karashlarida fazilatga xam juda katta o'rin beradi. Chunki, uning fikriga ko'ra, kimda-kim fazilat nimaligini bilsagina, xakikiy baxtga erisha oladi. Arastuga o'xshab, u xam fazilatlarini ikki kismga – fazoili nutkiya (akl-idrokka asoslangan fazilatlar) va fazoili xulkiya (xulkiy fazilatlar) ga ajratadi xamda ularning o'rtalik xususiyatlarini ta'kidlab o'tadi.

Forobiy xayot va mamot muammosiga xam batafsil to'xtaladi. Uning fikriga ko'ra, fazilatli kishi o'lim tufayli baxtni orttiruvchi xatti-xarakatlarni ko'prok amalga oshirish imkoniyatlaridan maxlum bo'ladi. Shuning uchun uning o'limdan ko'rkishi boshkalaridan butunlay o'zgacha; u o'lim tufayli ulkan bir yovuzlik kurboni bo'layotganidan emas, balki yaxshilikni kamrok kilishga maxlum ekanidan cho'chidi. Fazilatli odam o'lgan yoki o'ldirilganda, u erishgan baxtga xavas kilish lozim, unga emas, balki undan ajrab kolgan xamshaxarlarining xoliga yiglash kerak bo'ladi.

Buyuk vatandoshimizning fikr kilishicha, insonga uni go'zal a'mollar kilish uchun yo'naltiradigan odat maxsuli bo'lmish etuk xulk lozim. Xulkning yaxshiligi xatti-xarakatlarda

me'yor kay darajada saklangani bilan boglanadi. Odobni esa mutafakkir badavlatning davlatini bezaydigan va kambagalnig kambagalligini o'g'irlaydigan axlokiy xodisa sifatida ta'riflaydi.

Forobiy, ba'zilar o'ta lazzatga berilish, eyish-ichish va ayolga ruju ko'yish tufayli juda bo'shashib ketadi, irodasi zaiflashadi, unda risoladagi nafrat xamda gazab xissi yo'koladi, deydi. Butun kuchini o'z nafsiga sarflaydigan kishida ulug'vorlik tubanlikka xizmat kila boshlaydi, ya'ni fikrlash kobiliyati gazab va extiros kuchlari xizmatida bo'ladi, bu kuchlarning xarakati esa eyish-ichish xamda shaxvoniy nafsni kondirishga bagishlanadi. Faylasuf bunday kishilarni arab va turk zodagonlari orasida ko'prok uchrashini aytadi. Bunday kishilar shaxvoniy istaklari kutkusi bilan, ayollar oldida maktanishni xush ko'radilar, ularni takinchok, bezaklarga ko'mib tashlaydilar, foydali mexnatdan chetda tutadilar, ular nima desa shuni kiladilar. Natijada ayol uyning xakikiy xokimi bo'lib oladi, turli tantikliklarni odatga aylantiradi. Demak, Forobiy oila baxtini extirolarni yo'lga sola olishda deb biladi, ayol kishini bezaklarga ko'mib tashlangan ko'g'irchok bo'lishiga karshi turadi.

O'rta asrlar axlokshunosligida raylik mutafakkir Abu Bakr ar-Roziy (865-925) ta'limoti o'ziga xos o'rin egallaydi. Uning axlokiy karashlari «Lazzat», «Falsafiy xayot tarzi», «Ruxiy tabobat», «Baxt va farovonlik belgilari» singari kitoblarida aks etgan.

Ar-Roziy axlokshunoslikni insonda xushxulqlikni tarbiyalash va badxulqlikni yo'kotish yo'llari xamda usullari xakidagi fan deb biladi; u kishini akl bilan ish ko'rishga, me'yorida lazzatlanishga, o'z extirolarini jilovlab, laxzalik lazzatga umrini baxsh etmaslikka o'rgatadi. Xullas, Ar-Roziyning axlokiy karashlari, ilmiy til bilan aytganda, gedonizm va evdemonizmga asoslanadi. U ruxiy tabobatning eng muxim vazifasi insoniy baxt bilan chambarchas boglik bo'lgan lazzatning moxiyatini bilish va tushuntirishdan iborat deb xisoblaydi. «Lazzat, – deydi mutafakkir, – iztirobdan kutilishdir». Lazzatning bir shartini farovonlikda, ikkinchi shartini esa u xamma narsaga akl bilan yondoshuvda ko'radi.

Raylik mutafakkirning lazzat xakidagi ta'limotiga chukurrok nazar tashlansa, uning Epikur karashlariga asoslanganini ilgab olish mumkin. Ayni paytda Ar-Roziy Epikurning taklidchisi emas, davomchisi sifatida namoyon bo'ladi, undan ancha ilgarilab ketadi. Chunonchi, Epikur o'zini xavotir va xatardan, jamoat va davlat ishlaridan olib kochishni, tashki shart-sharoitdan mustakil bo'lishni, tabiat bilan xamnafaslikda yashashni iztirobdan kutilishning eng yaxshi usuli deb xisoblaydi. Ar-Roziy esa insonni ijtimoiy faollikka chakiradi, uni jamiyatga foyda keltirib yashashga da'vat etadi. Zero uning nazdida inson ijtimoiy mavjudot. Inson fakat insoniy jamiyatdagina axlokiy yuksaklikka, baxt va farovonlikka erishadi. Jamiyatdan tashkarida, yakkalikda, tanxolikda insonning yashashi mumkin emas. Bordi-yu, yashagan takdirda xam «yovvoyi, xayvoniy, to'pos bo'ladi, zero u bizning mavjudligimizni kulaylashtiradigan, orastalashtiradigan insoniy xamkorlik va ko'llab-kuvvatlanish imkonidan maxrum», – deydi mutafakkir.

«Ruxiy tabobat» kitobining o'n oltinchi bobida Ar-Roziy e'tikodiy fanatizmning zarari xakida to'xtaladi. Ideal darajadagi sof diniy e'tikodning xayotda bo'lishi mumkin emasligini ta'kidlar ekan, takvodorlikni fakat nisbiy tarzda tushunishga chakiradi. U suvni misol keltirib, shunday deydi: «Biz foydalanayotgan suv odamlar tomonidan ifloslantirilmagan yoki unda xayvonlarning, daydi yoki kuturgan itlar yoki boshka yovvoyi jonivorlarning sasigan o'liklari, tezaklari yoki kushlarning najaslari tushmaganiga kafolat yo'k. Shu bois biz uni kanchalik kayta-kayta tindirib kuymaylik, eng so'nggi xolati xam, bari bir, eng iflos, eng xarom bo'lib kolveradi». Ar-Roziyning fikriga ko'ra, suvdan ichganda xam, taxorat kilganda xam ular xakida o'ylamaslik lozim. Zero Ollox bizdan xech bir narsani murakkablashtirmaslikni talab kiladi. Fanatizmga oid turli-tuman diniy okimlar ana shunday–diniy e'tikodni murakkablashtirish, noinsoniylashtirish tufayli kelib chikadi. Ar-Roziyning bunday fikrlari xanuzgacha o'z axlokiy axamiyatini yo'kotgan emas.

Mashshoiyyunlik axlokshunosligining yana bir buyuk vakili Forobiyning shogirdi Ibn Sinodir. Ibn Sinoning axlokiy karashlari asosan «Axlok ilmiga doir risola», «Burch to'grisida risola», «Nafsni pokiza tutish to'grisida risola», «Adolat xakida kitob», «Turar joylardagi

tadbirlar» singari asarlarida va zamondoshlari bilan olib borgan munozara- yozishmalarida o'z aksini topgan.

Avvalo, Ibn Sino axlok ilmining amaliy falsafa tarkibidagi o'rnini aniklab olishga intiladi. «Hakimlarning, – deb yozadi alloma shogirdi Baxmanyor al-Ozarboyjoniy bilan munozara-yozishmasida, – falsafa nazariy va amaliy bo'ladi, deganini falsafa amaliy-axlokiy bo'ladi, deb tushunmaslik kerak. Chunki amaliy axlokning bunday namoyon bo'lish xolati falsafa degani emas, zero kiyosiy malaka axlokiy malakadan mutlako o'zgadir... Falsafa amaliy va nazariy kislmlarga bo'linar ekan, demak, uni (amaliy falsafani) axlok bilan aynanlashtirilmaydi. Shuning uchun (uni) axlok ilmi degan ma'kul». Ko'rinib turibdiki, Ibn Sino axlokshunoslikni amaliy falsafa, ya'ni nazariya ekanini ta'kidlaydi va axlokni uning tadkikot ob'ekti sifatida ta'riflaydi.

Ibn Sino o'z asarlarida bir kancha axlokiy fazilatlarga ta'rif beradi. Chunonchi, iffat, xikmat, shijoat, adolat, saxiylik, kanoat, kat'iyat, sadokat, xayo, kamtarlik va boshkalar shular jumlasidandir. Shuningdek, alloma ularning aksi bo'lgan – o'grilik, aldamchilik, fisku-fasod, nafrat, rashk, adovat, bo'xton, irodasizlik, takabburlik, nodonlik kabi illatlarni xam tavsiflaydi; xar ikki turdagi mazkur tushunchalarning bir-biri bilan boglikligini, bir-biriga o'tib turishini va bunday boglanish ijobiy xol ekanini ta'kidlaydi. Demak, axlokshunoslik ilmida fakat fazilatlar emas, balki illatlar xam o'rganilishi zarur. Ayni paytda, Ibn Sino ustozlari an'alarini davom ettirib, xar bir axlokiy fazilat ikki nukson oraligida bo'ladi, ya'ni o'rtalik xususiyatiga ega, deydi.

Alloma tasavvuf falsafasi va tasavvufiy axlokshunoslikka doir xam ko'plab asarlar yaratdi. Zero, u bejiz Shayx ur-Rais, ya'ni shayxlarning raisi degan nomni olgan emas. Bu borada uning mashxur «Ishk risolasi» dikkatga sazovordir. Undagi asosiy muammo – komil inson masalasi. Ibn Sinoning fikriga ko'ra, Yaratganga muxabbat odamni inson zoti kobil bo'lgan komillik darajasiga olib chikadi. Yani ruxning kuyi kuchlari va kislmlari uning ulugvor va olijanob kuchlari xamda intilishlari bilan yakinlikda bo'lib, ular ta'siriga tushishi natijasida fazilat kasb etadi. Bu fikr, Olloxga muxabbat fakat tarkidunyochilik orkaligina emas, balki rasmona insoniy xayotda xam ro'yobga chikishi mumkinligini anglatadi. Shu bois «Ishk risolasi»dagi bu kabi o'rinlarni Nakshbandiya tarikatining vujudga kelishida nazariy asos, umuman, tasavvuf falsafasi va axlokshunosligiga ilk nazariy poydevor bo'ldi deyish mumkin.

Ibn Sino takdir masalasiga xam o'ziga xos tasavvufiy yondoshadi. U Navoiyning «Lison ut-tayr» dostonida Xudoga etishgan shayxlardan biri sifatida tasvirlangan Abu Said ibn Abul Xayr Mexaniy bilan munozara-yozishmasida Ollox xech kachon biror-bir kimsaga yomonlik, yomon takdir istamasligini, kimning takdiri yomon bo'lsa, bunga uning o'zi sababchiligini, ya'ni insonning kilmishlari uning takdiri ekanini aytib, shunday deydi: «Asl Al-xakim (ya'ni, Ollox) inoyatiga ko'ra, olamda mavjud bo'lgan yomonlik – olamning maksadi emas. Olamning asl murodi yaxshilikdir, yomonlik emas!». Buyuk vatandoshimiz savob va akob (jazo) masalasida xam moxiyatan tasavvufiy yo'nalishda fikr yuritadi.

Mashshoiyyunlik okimining yana bir mashxur va so'nggi vakili, Ovro'poda «Avverroizm» degan yo'nalishning asoschisi, kurdobalik (ispaniyalik) mutafakkir Ibn Rushd (lotincha Avveroes) xam axlokshunoslik ilmi tarakkiyotiga ulkan xissa ko'shgan allomalardan. Uning fikriga ko'ra, ezgulik va yovuzlik, ular tabiiy yoki ijtimoiy xususiyatga ega bo'lishidan kat'iy nazar, o'z xolicha mavjuddir. Tabiiy ezgulikning manbai Ollox, lekin ezgulik yovuzlik bilan yonma-yon keladi. Chunonchi, olov foyda keltirishi barobarida, xayvonlar va o't-o'lanlarni xalok etish xususiyatiga ega. Garchand olovni Xudo yaratgan bo'lsa xam, uning bu xususiyatini o'zgartira olmaydi, xuddi shuningdek, rangni yaratgan Xudo unga eshitishimiz mumkin bo'ladigan xususiyat ato eta olmaydi.

Ibn Rushd butun islom olami uchun doimo muxim bo'lib kelgan ixtiyor erkinligi muammosiga xam katta axamiyat bergan. U, insonga mutlak ixtiyor erkinligi berilganini xam, inson xatti-xarakati mutlak oldindan belgilab ko'yilganiini xam inkor kiladi. Chunki, agar insonlar takdiri mutlak oldindan belgilab ko'yilgan bo'lsa, u xolda ularning jonsiz narsalardan farki kolmasdi, ular dexkonchilik, xarbu zarb, tibbiyot singari baxtni ko'lga kiritib, yovuzlikni uzluksiz yo'kotib borishni ta'minlaydigan xunar va sanat turlari bilan shugullana olmas edilar.

Asl baxtga esa fakat xayvoniy kuch xatti-xarakatlarini ruxning akliy kısmi nazorat kilib turganidagina, inson o'zi intilishi lozim bo'lgan narsalarga amaliy akl kay vaktida va kay tarzda intilishini lozim ko'rsa, o'shanday intilgandagina erishish mumkin.

Kurdobalik mutafakkir ideal davlatda fukarolarga fazilatlarni singdirish va tarakkiy ettirish uchun ikki xil usulni ko'llashni taklif kiladi. Birinchisi - ishontirish usuli. U xam, o'z navbatida, ikki xil yondoshuvni takazo etadi: keng ommani tarbiyalash uchun she'riy va xitobiy nutkdan, ya'ni, badiiy asarlar xamda notiklik san'atidan, «sara» kishilarda fazilatlarni rivojlantirish uchun esa isbotiy nutkdan, ya'ni, ilmiy-falsafiy nutkdan foydalanish lozim. Ikkinchisi – majburiy usul. U asosan, tashki dushmanlar bilan kurashni o'z ichiga oladigan xodisa. Mutafakkir bu usulni jixod bilan tenglashtiradi. Lekin Ibn Rushdning tushunchasidagi jixod – kofirlarga karshi olib boriladigan doimiy diniy urush emas. U Arastuning «Nikomaxning axlok kitobi» asariga yozgan sharxida doimo tinchlik zarurligini, urushga esa ba'zan-ba'zangina yo'l ko'yish kerakligini aytadi, jixodni fakat shariat talablari nuktai nazaridan tushunish musulmonlar boshiga ko'p ofatlar keltirganini ta'kidlaydi. Demak, Ibn Rushdning fikriga ko'ra, jixodni tarikat talkinlari asosida tushunmok lozim. Bu – kurdobalik mutafakkirning xam tasavvufdan yirok emasligini ko'rsatadi.

Tasavvuf axlokshunosligi xakida gap ketar ekan, eng avvalo, tasavvufning moxiyatini anglab olmok lozim. Bu borada dastlabki so'fiylardan bo'lmish Robiya al-Adaviyaning (713-801) Xudoga munosabati diqqatga sazovordir. Bu munosabatini u «muxabbat « deb ataydi va Yaratganga shunday iltijo kiladi; «YO, Ollox, yulduzlar charaklab turibdi, odamlarning esa ko'zlari yumilgan... xar bir oshik o'z maxbubasi bilan visol lazzatini totmokda, men esa yolgiz Sen bilanman. YO, Egam, agar Senga men do'zaxingdan ko'rkkanim uchun ibodat kilayotgan bo'lsam, meni do'zaxingda yondir, agar jannating ilinjida ibodat kilayotgan bo'lsam, meni unga yo'latma. Agar fakat o'zingni deb ibodat kilayotgan bo'lsam, mendan mangu go'zal jamolingni yashirin tutma!». Ko'rinib turibdiki, Robiya al-Adaviya Xudoga nimadandir ko'rkib, yoki nimaningdir ilinjida munojot kilayotgani yo'k, balki maxbub sifatida, ya'ni muxabbat izxori bilan murojaat etmokda. Demak, shariat Islomning tashki – xukukiy ko'rinishi bo'lsa, tarikat uning ichki-axlokiy, yuksak boskichdagi ko'rinishi xisoblanadi. Zero, Tangri insonni farishtalardan ulug ko'yib, erdagi xalifam deb atadi, ya'ni ayricha bir muxabbat bilan yaratdi. Demak, inson xam unga muxabbat ko'ymogi lozim. Insonga yuboriladigan azob-ukubatlar ana shu muxabbat darajasining Xudo tomonidan sinab ko'rilishidir. Tasavvufning moxiyati ikki tomonlama muxabbatni talkin etmok. Shuning uchun tasavvuf axlokshunosligida muxabbat xis-tuygulik makomidan tushuncha darajasiga ko'tariladi. Kiska kilib aytganda, tasavvuf islomiy axlok falsafasi sifatida ish ko'radi.

Tasavvuf axlokshunosligida xujjat ul-islom Imom ƣazzoliyning o'rni bekiyos. Uning axlokiy karashlari, asosan, xar jixatdan buyuk asar bo'lmish «Ixyoi ulum ad-din» deb atalgan to'rt jildlik kitobida o'z aksini topgan. Unda tavakkul (xamma narsada Olloxga suyanish) Xudoning yakkaligiga etikod sifatida talkin etiladi va muxabbat, ixtiyor erkinligi, takdir, niyat singari muammolar bilan boglik xolda taxlil kilinadi.

G'azzoliy muxabbatni bilishning maxsuli deb ataydi. Zero, inson nimaniki bilsa, o'shanigina sevishi mumkin. Masalan, toshda muxabbat bo'lmaydi u bilishdan yirok. Muxabbat fakat bilishning jonli sub'ektigagina xos sifatdir. Mutafakkirning fikriga ko'ra, muxabbatning besh turi mavjud: 1) insonning o'ziga, o'z kamoloti va sog-omonligiga muxabbati, 2) insonning o'z xayotini davom ettirishini ta'minlovchi, uni asrovchi, undan turli muxlikotlarni (xalok etuvchilarni) nari tutuvchi valine'matlariga muxabbati: 3) insonning, garchand shaxsan o'ziga yaxshilik kilgan zotlarga yaxshilik kilmagan bo'lsa xam, boshka insonlarga xizmat ko'rsatgan, yaxshilik kilgan zotlarga muxabbati; 4) Insonning tashki yoki ichki kiyofadagi barcha go'zallikka muxabbati; 5) insonning o'zi bilan botiniy (ichki), yashirin o'xshashligi bor bo'lgan zotlarga muxabbati. Mazkur muxabbat turlari xammasining zamirida Olloxga muxabat yotadi, ya'ni insonning o'ziga, o'zgalarga. atrof-muxitga munosabati muxabbat orkali amalga oshadi va bu muxabbat turlarining xammasi Olloxga muxabbatning bilvosita ko'rinishidir. Zero: «O'zini anglab etgan kishigina o'z yaratganini anglab etadi, u o'z-o'zicha mavjud emas, uning borligi,

mavjudligining davomi, kamolotga erishuvi Olloxdan, Ollox va Ollox vositasidadir», deydi Imom g'azzoliy.

Mutasavvif faylasufning ixtiyor erkinligi borasidagi karashlarida takdir mutlak makarrar xodisa sifatida talkin etiladi. Bunda xam bilim (bilish) birinchi o'rinda turadi; ixtiyor bilimga bo'ysunadi. Zero, insonni nima o'ziga yokish yoki yokmasligini bilim (bilish) orkali anglab etadi. Umuman, ixtiyor erkinligi ixtiyorning o'ziga xos turi, u nimagaki inson ishonchsizlik tuysa, o'shanga nisbatan bo'lgan akliy munosabatdan yuzaga chikadi. Ixtiyor erkinligi «kasb» tushunchasi bilan boglik. Kasb – kasb etmok, o'ziga olmok, o'ziga yuktirmok singari ma'nolarni anglatuvchi tasavvufiy atama. Masalan, Xudo bir bandasini sinab ko'rish uchun unga yomonlikni ravo ko'rdi, deylik. Bu uning takdiri, mutlak mukarrar xodisa. Lekin yomonlikning ijrosi boshka bir odam ixtiyoriga beriladi, ya'ni sinalayotgan bandaga yomonlik kilish-kilmasligi ana shu vosita-odamning ixtiyoriy tanloviga boglik. U – erkin. Agar u yaxshilikni tanlasa – savob, yomonlikni tanlasa – gunox uning bo'yniga tushadi. Xuddi shuningdek, yomonlik ob'ekti bo'lgan banda agar Xudoning sinoviga shukr bilan javob bersa, u suyuk, aksincha, shakkoklik kilib, Xudodan nolisa yoki yuz o'girsas, u gunoxkor banda. Demak, g'azzoliy takdirning mukarrarligini ta'kidlagani xolda, insonga ma'lum ma'noda ixtiyor erkinligi berilganini kayd etadi.

Imom g'azzoliy niyat masalasida xam o'ziga xos fikrlar bildiradi. U niyatni yurakning ikki narsa – bilim va xarakat kamrovidagi sifati deb ta'riflaydi. Bilim niyatdan oldin turadi, u niyatning ildizi va sharti xisoblanadi. Harakat esa niyatdan keyin turadi. Uni niyatning mevasi va butogi deyish mumkin. Har bir erkin tanlangan xarakat uch narsa – bilim, ixtiyor etish va kobiliyat yordamida ro'yobga chikadi. Zero, inson bilmay turib- xoxlamaydi, xoxlamas ekan, xarakat kilmaydi; shuning uchun ixtiyor etmok lozim. Ixtiyor etish xodisasi yuz bergandagina navbat kobiliyatga keadi va kobiliyat inson a'zolarini xarakatga tushirishga kirishadi. Demak, niyat o'rtalikdagi sifatdir. Niyat tasavvuf axlokshunosligida ba'zan xarakatdan xam katta axamiyat kasb etadi. Agar yaxshi niyat kilinsa-yu, lekin banda ixtiyoriga boglik bo'lmagan sabablar tufayli u ro'yobga chikmay kolgan bo'lsa, bunday niyat amalga oshgan deb xisoblanadi. Shunday kilib, xar bir xarakat o'zini uygotadigan niyatga bo'ysunadi, zero, u o'z zaruriyatini o'sha niyatdan oladi.

Xullas, tasavvuf axlokshunosligining o'ziga xos tabiatidan kelib chikib, shunday deyish mumkin: bu ta'limot Xudoga-mutlak fazilatlar Egasiga, mutlak komil Zotga etishish yo'lida insonning nisbiy komillikka erisha borishi goyasini ilgari suradi. Bu goya insonning Yaratgan oldidagi ko'rkuvini muxabbatga aylantirish uchun xizmat kiladi. Kiskasi, tasavvuf axlokshunosligi insondan Xudoning ko'r-ko'rona kuli bo'lib, emas, balki Uni tanigan, bilgan Uning erdagi xalifasi va oshigi sifatida xarakat kilishni talab etadi.

2. O'rta asrlarning to mo'gullar boskiniga kadar bo'lgan davrlarida biz yukorida ko'rib o'tgan komusiy allomalardan tashkari Az-Zamaxshariy, Al-Beruniy, Axmad Yassaviy, Abdulxolik çijduvoni, Jaloliddin Rumiy, Najmiddin Kubro singari o'nlab mutafakkirlar axlok ilmining nazariy yoki amaliy soxalarida faoliyat ko'rsatdilar. Lekin mo'gullar boskini musulmon Sharkida madaniy xayotni izdan chikarib yubordi. Fakat soxibkiron Amir Temur davridagina ilm-fan va sanat tarakkiyoti yana o'z yo'liga tushdi.

Soxibkironning «Kuch – adolatda!» degan tamoyili shunchaki gap emasdi. Amir Temur amalda xakikat va adolat tarafdori edi. Shu sababli xatto Temurni o'zining shaxsiy dushmani deb bilgan tarixchi Ibn Arabshox, agar noxaklik yuz bersa-yu, noxaklik kilgan kishi Temurga ota yoki farzand makomida bo'lsa xam, u kishi juda kattik jazoga maxkum etilardi, deb yozib koldirgan. Buyuk bobokalonimizning say'i xarakatlari bexuda ketmaydi. Natijada Temur va temuriylar davri ilm-fan va madaniyat tarakkiyotining oltin davri sifatida xanuzgacha jaxonni xayratga solib kelmokda. Bu davrda yuzlab komusiy olimlar buyuk shoirlar va sanatkorlar etishib chikdi. Ular orasida ulug o'zbek shoiri Alisher Navoiy aloxida axamiyatga molik. Nafakat uning asarlaridagi yuksak badiiyat, balki falsafiy -axlokiy karashlar xam xanuzgacha o'z oxorini yo'kotgan emas.

Ma'lumki, Navoiy she'rlari va dostonlarida ilgari surilgan axlokiy tamoyillar xamda ijobiy kaxramonlar kiyofalarida tajassum topgan adolat, sadokat, burch, muxabbat, raxm-shafkat, mardlik, kamtarlik singari fazilatlar xakida ko'p yozilgan. Ayni paytda, Navoiy so'fiylikning nakshbandiya sulukiga mansub yirik shaxs – mutasavvif sifatida xam axlokshunoslik nazariyasi xamda amaliyasi tarakkiyotiga ulkan xissa ko'shgan mutafakkirdir. U «Kanoat nakshining ifshosi va nakshbandiya tarikatining adosi» degan she'rida o'zi mansub bo'lgan tarikatning to'rt tamoyilini shunday tushuntiradi:

Desang xilvatim anjuman bo'lmasun,
Kerak anjuman ichra xilvat sanga.
Vatan ichra sokin bo'lib soyir o'l,
Safardin agar bo'lsa mexnat sanga.
Nazarni kadamdin yirok solmagil,
Bu yo'l azmi agar bo'lsa ragbat sanga.
Damingdin yirok tutmagil xushni,
Ki yuzlanmagay xar dam ofat sanga.
Bu to'rt ish bila rub'i maskun aro,
Cholinmok ne tong ko'si davlat sanga.
Bu oxang ila bo'lgusi nakshband,
Navoiy, agar etsa navbat sanga

Ma'lumki, diling Xudo bilan, ko'ling ish bilan band bo'lsin, degan shior nakshbandiya tarikatining asosiy tamoyilidir. Navoiy butun umr, avvalo, shaxsan o'zi ana shu tamoyilga amal kildi, kolaversa, deyarli xamma asarida insonni zamindan oyogi uzilmagan kaxramon tarzida talkin etdi. Shuning uchun xam alloma Bertels Navoiyni, nafakat buyuk shoir xamda mutafakkir, balki buyuk va pokiza, nomi bosh xarflar bilan yozilishga loyik Inson edi, deb ta'riflaydi.

Navoiy o'z asarlarida inson kadr-kimmatini birinchi o'ringa ko'yadi, nomus, oriyat va insoniy gurur tushunchalarining o'ziga xos talkinini beradi. «Tavakkul sifati va betavakkullar mazammati» she'rida mutafakkir shoir, Yaratganga tavakkul kilish o'rniga o'zini tama' yuzasidan shoxlar oldida kuldek tutgan yaltoki kishi, agar afsonaviy Korun boyligini mo'ljallasa-da, uning nasibasi bor-yo'gi bir tovok osh bo'ladi, deydi. Zero, unday odam nafsi xurujida, katta da'vo-maksadlarni darxol unutib, oldiga tashlab ko'yilgan suyak bilan ovora bo'lib kolaveradi: kichik bir tovokdagi osh uchun kullik kiladigan bunday inson yuziga ulkan kozonning korakuyasi munosibdir:

Tavakkulni ulkim ko'yub xotiriga,
Tushar shox ollinda kulluk xavosi.
Nasibi oning bir ayok osh erur, bas,
Agar ganji Korun erur muddaosi.
Biravkim, bo'lur bir ayok osh uchun kul,-
Yuziga keraktur kazonning karosi.

Navoiy asarlari orasida tasavvuf axlokiga doir yana bir mashxur kit'a borki, uning ichki-botiniy mazmuni aloxida dikatga sazovor;

Kamol et kasbkim, olam uyidin,
Senga farz o'lmagay gamnok chikmok.
Jaxondin notamom o'tmak biaynix,
Erur xammomdin nopok chikmok.

Bu she'rga yuzaki karaganda, gap dunyodan biror kasbning boshini tutmay o'tib ketish yaxshi emasligi xakida ketayotgandek ko'rinadi. Aslida esa u, yukorida aytib o'tganimiz-tasavvuf axlokshunosligining «kasb» tushunchasi bilan boglik. Navoiy xazratlari bu dunyoga kelib, Ollox inson uchun yaratgan barcha fazilatlar va ezguliklarni o'ziga kasb kilib olmagan, yuktirmagan kishi tiriklik olamidan boshi kuyi solinganicha chikib ketadi, chunki dunyodan notamom, ya'ni komillikka erishmay o'tish xuddi xammomga kirib, yuvinmay chikib ketish bilan barobar, deydi. Demak, ulug mutafakkirning fikriga ko'ra, xar bir inson Xudo unga ne'mat sifatida yaratgan fazilatlar egasi bo'lmogi, komillika intilmogi zarur, ana o'shandagina u o'z insonlik burchini bajargan, inson degan nomni oklagan sanaladi.

Buyuk mutafakkirning «Maxbul ul-kulub» asari, ayniksa, Temuriylar davri axlokshunosligi tarakkiyotiga katta xissa ko'shdi. Uch kismdan iborat bu asarda nafakat tasavvuf axlokshunosligi va axlokning, balki butun musulmon Sharki axlok ilmining nazariy muammolari ko'tariladi. Shuningdek, u pandnoma sifatida xam dikkatga sazovor. Unda ra'yyat axli barcha tabakalarining odobi, xulki va axlokiy tamoyillari xakida fikr yuritir ekan, Navoiy, Sukrot izidan borib, konunni adolat bilan aynanlashtiradi: «Zindon axli-do'zax axli», deydi mutafakkir. Ayni paytda, xalol mexnat bilan kun kechiruvchi dexkonga ulkan saxovat egasi, kurt-kumurskadan tortib, gadoyu musofirga emak berguvchi, novvoyu allofni ish bilan ta'minlovchi, darveshlar kachkuliyu mamlakat xazinasini to'ldiruvchi, barchaga rizk ulashuvchi olijanob jannatiy inson, axlokiy namuna sifatida karaydi. «Dexkonki dona sochar, erni yormok bila rizk yo'lin ochar», deydi shoir va uning ko'sh xaydayotgan paytini Odam Atoning xolatiga o'xshatadi. Dexkonga berilgan bunchalik yuksak baxoga, dexkonchilikning boshka kasblardan yukori ko'yilishiga sabab shuki, boshka soxadagi odamlardan, deylik, xunarmandlardan ajoyib ash'yolar, me'mor-kuruvchilardan buyuk binolar, necha o'n yuz, xatto ming yillarga yodgor bo'lib koladi va bu yodgorliklar bilan ularning nomlari birga uzok vakt yashaydi. Dexkonning mexnati esa shu jixatdan ma'lum ma'noda fiysabullo chekilgan zaxmat. Uning mexnat maxsuli er ustida kolmaydi, erdan paydo bo'lib erga singib ketadi. Ammo uning maxsuli bilan inson tirik va dasturxon ochik.

«Maxbub ul-kulub» da komil inson masalasi xam o'ziga xos tarzda o'rtaga tashlanadi. Navoiy, nakshbandiya sulukining axlokiy talablaridan kelib chikib, o'z zamonasi bilan xamnafas bo'la oladigan va doimo komillikka intilib yashaydigan insonni axlokiy namuna deb biladi. Chunki xar bir inson fakat o'z zamonasidagina mavjud va shu mavjudlik doirasidagina biror ish kilishga kodir; ox, o'tmish zo'r edi, oltin davrlar edi, yoki kelajakda xamma narsa ajoyib bo'ladi, deb gapiravergan bilan xech narsaga erishib bo'lmaydi. Inson o'z zamonasi imkoniyatlaridan foydalanib, xam o'zini, xam zamonasini go'zal kilishga intilmogi lozim. Shu bois «Maxbub ul-kulub» kuyidagi xotima bilan yakunlanadi: «o'tgan ro'zgor adamdir. Kelajakdan so'z aytkon axli nadamdir va xol mugtanamdir. Bir turk bu ma'nida debdurkim: «Dam bu damdir».

Bayt:

Moziyu mustakbal axvolin takallum ayla kam,
Ne uchunkim, dam bu damdir, dam bu damdir, dam bu dam.

Xulosa kilib shuni aytishimiz mumkinki, Navoiy asarlaridagi axlokka doir fiklar xox amaliy axlokka, xox axlok nazariyasiga tallukli bo'lsin, ular ulkan bir davr axlokiy karashlarining kvintessentsiyasi sifatida doimo tadbik va tadbikka loyikdir.

Temuriylar davri axlokshunosligida Navoiyning nazari tushgan alloma, uning zamondoshi Husayn Voiz Koshifiyning (1440-1505) siymosi aloxida dikkatga sazovor. Xondamirning ta'rifiga ko'ra, u «ma'kul va maxsus ilmlarning barchasidan to'la naflangan va baxramanddir». Koshifiyning axlokshunoslikka doir eng mashxur asari «Axlokli Muxsiniy»dir. Husayn Boykaroning o'gli, Marv xokimi shaxzoda Muxsin Mirzoga bagishlangan bu kitobda Koshifiy axlokshunoslikning juda ko'p tushunchalariga sharx beradi, ularni jonli, xayotiy misollar, shuningdek, kadimgi xikoyalar asosida talkin etadi. U yaxshilik va yomonlik xakida fikr yuritir ekan, yaxshilikni asosan ezgulik ma'nosida tushunadi. Ezgulikning ibtidosini Koshifiy

xushxulklilikda ko'radi. Insoniy fazilatlarini u tarbiya, bilim, tajriba orkali tarkib topadi deb xisoblaydi. Halollik, rostgo'ylik, mexnatsevarlik, insonparvarlik singari axlokiy me'yorlar va tamoyillar ezgulikning poydevori sifatida olib karaladi.

Koshifiy adolat tushunchasiga, ayniksa, batafsil to'xtaladi va uni o'ziga xos sharxlaydi. Mufakkir adolatni insonning eng yaxshi fazilati, adolatsizlikni esa yomon odamlardagi eng yomon illat tarzida takdim qiladi. Shuningdek, Koshifiy adolatning ijtimoiylik xususiyatini xam nazardan ko'chirmaydi: «Adl natijasi, – deb yozadi u, – mulk boki-yu, mamlakat vasig va xazona ma'mur, kentlaru shaxarlar obod bo'lmokdur. Va zulm samarasi mamlakat zavol topmogi erur». Koshifiyning fikriga ko'ra, jamiyat tabakalari bir-biri bilan mustaxkam ijtimoiy bog'liklikka ega; agar jamiyatda adolat xukm surmasa, zaiflar yo'koladi, zaiflarsiz esa zo'ravonlarning xam bo'lishi mumkin emas. Ya'ni, adolatsiz tuzumda jamiyat tanazzulga uchraydi. Adolat – insoniy jamiyatni baxt-saodatga olib boruvchi yo'l.

Buyuk axlokshunosning burch xakidagi karashlari xam e'tiborga molik. U burchni Tangri oldidagi o'z karzini bajarish, iloxiy mas'uliyat deb tushunadi. Lekin bu mas'uliyat, ayni paytda, muxtojlariga xayr-exsonni, Yaratgan va banda oldidagi pokizalikni xam o'z ichiga oladi. Burchni anglab etish esa, fakat bilim (bilish) orkali ro'y beradi. Shuningdek, Koshifiy, an'anaviy sharkona fazilatlarga bafurja to'xtaladi. Sabr, xayo, avf, saxiylik, rostgo'ylik, farosat, tavoze' singari fazilatlarning mohiyatini ochib beradi, ularni nasriy va she'riy misollar bilan isbotlaydi. Ayni paytda, ularning ziddi bo'lmish illatlar xam mufakkirning diqqat markazidan chetda kolmaydi.

Bundan tashkari, Husayn Voiz Koshifiy axlokiy madaniyat muammolarini xam tadqiq etadi. Uning «Futuvvatnomai Sultoniyy yoxud javonmardlik tarikati» asarida muomala odobi, kiyinish odobi, xamda mexmondo'stlik va tanovul etiketi borasida o'ziga xos fikrlar o'rtaq tashlangan. Chunonchi, u, suxbat odobi borasida gap ketganda, shayxlar va boshqa martabaga erishganlar uchun xam, xali martabaga erishmagan kishilar, muridlar uchun xam rioya kilinishi zarur bo'lgan bir kancha suxbat odobi mavjud ekanini aytib, xar ikki toifa suxbatdoshlar uchun aloxida-aloxida sakkiztadan koida tavsiya etadi. Bu o'rinda mufakkir so'zga lingivistik emas, axlokshunoslik nuqtai nazaridan yondoshib, unga insonning axloklilik darajasi namoyon bo'ladigan vosita sifatida karaydi: axlokshunoslikda so'zni insondan, insonni so'zdan ajratib taxlil etish mumkin emasligini ta'kidlaydi. «Agar so'z senikimi yoki sen so'znikimi, deb so'zlasalar, aytgil: men so'zniki va so'z menikidir, chunki so'z insonlik daraxtining mevasidir, daraxtni mevadan, mevani esa daraxtdan ajratib bo'lmaydi», deb yozadi mufakkir.

Kitobda alloma axlokshunos kasbiy odob muammolariga xam to'xtalib o'tadi. Kitobning o'n to'rtinchi, o'n beshinchi va o'n oltinchi fasllari turli kasb egalari odobiga bagishlangan. Masalan, o'n to'rtinchi fasl «kasb-kor va savdo-tijorat odobi xakida» deb nomlanadi va umuman kasb egasi, ayni paytda, savdo-tijorat axli odobi konun-koidalarini o'zi ichiga oladi. Koshifiy yozadi: «Bilgilkim, xamma kasblarga birday taallukli kiskacha koida-adablar mavjud, shuningdek, xar bir kasb uchun aloxida odob xam bor». Shundan keyin mufakkir kuyidagicha davom etadi:

«Agar barcha kasblar uchun zaruriy odoblar xulosani nechta, deb so'rasalar, sakkizta deb aytgil: birinchidan, o'z kasbini xaromdan, shubxali mol-mablagdan pok saklasin. Ikkinchidan, rizk-ro'zi zarurati uchungina kerakli kasb bilan shugullansin, kasbni mol-dunyo to'plashga sarflamasin. Uchinchidan, kasbni obro' olish, yaxshi nom chikarishning sababi, deb bilsin. To'rtinchidan, moli xarom odamlar (amaldorlar, poraxo'rlar, karokchilar, o'grilar, kimorbozlar, kazzob do'kondorlar) bilan muomala kilmasin...» va xokazo.

Koshifiy sotuvchi odobi, xaridor odobi, xodimlar (xizmatkorlar) odobi, maddoxlar odobi singari masalalarda xam xuddi shunday asosli fikrlar bildiradi. Garchand, «Futuvvatnomai Sultoniyy» javonmardlik (jo'mardlik) tarikati darveshlariga atab yozilgan bo'lsa-da, undagi ilgari surilgan axlokiy tamoyillar va goyalar umummintakaviy, umuminsoniy kamrovga ega. Zero buyuk forsigo'y o'zbek shoiri Paxlavon Maxmud asos solgan bu tarikat darveshlik xirkasini kiygan, lekin zarur bo'lsa, barcha kurollar turini ishga solib, Vatan ximoyasiga otlanishni birinchi galdagi vazifasi deb bilgan erkparvar jangchilar sulukidir. Shu bois mazkur kitobda diniylik dunyoviylikdan ajratilmay bir-birini to'ldirishi bilan inson xayotini axlokiylashtiradigan,

go'zallashtiradigan xodisalar sifatida talkin etiladi. Javonmardlikning xarbiylashtirilgan nasroniylar ritsarlik ordenlaridan farki xam shunda. Koshifiy ilgari surgan axlokiy goyalar xozirgi kunda ko'p jixatdan o'z ta'sir kuchini yo'kotgan emas. Ayniksa, uning tijoratchi, sotuvchi va xaridor odobiga doir koidalarini zamonaviy bozorlarimiz, tijorat markazlarimiz va do'konlarimiz devorlariga yozib ko'yish ayni muddao bo'lar edi.

Temuriylar davri axlokshunosligining yana bir vakili Jaloliddin Davoniydir (1427-1502). Uning axlokshunoslik muammolariga bagishlangan yirik asari «Axloki Jaloliy» risolasida, professor, Haydar Alikulov tadkikotlariga ko'ra, XV asrning ilgor axloki musulmon Sharki axlokiy ta'limotlarining yutuk va kamchiliklari aks etgan. Asar uch kismdan iborat bo'lib, uning birinchi kismi asosiy axlokiy tushunchalar bo'lmish adolat, shijoat, donishmandlik, iffat singari fazilatlar taxlili va talkiniga, ikkinchi kismi oilaviy xayot, bolalar tarbiyasi, muomala odobi masalalariga bagishlangan. Kitobning uchinchi kismida esa shaxar madaniyati va podsholarning siyosat yurgizishi, fukarolarning shaxar (davlat) boshliklari bilan o'zaro munosabatlari kalamga olinadi. Kiskacha kilib aytadigan bo'lsak, «Axloki Jaloliy»da axlokshunoslik kishilarning amaliy faoliyati, karashlari bilan, boglik fan sifatida, axlokiy muammolar esa falsafiy, ijtimoiy-siyosiy masalalarga daxldor xodisalar tarzida olib karaladi.

3. O'rta asrlar musulmon Sharki mintakasi tafakkurida axlokning mohiyatini tushuntiruvchi va axlokiylikni targib etuvchi mashxur pandnomalar – xalk ichida keng tarkalgan badiiy-didaktik asarlar xam o'ziga xos o'rin egallaydi. Ular uchun umumiy bo'lgan xususiyat, bu – axlokiy me'yorlarni, tamoyillarni, axlokiy madaniyat omillarini ko'pchilikka tushunarli, rang-barang shakllarda, kizikarli xikoyatlar orkali kitobxonga etkazish. Shu jixatdan pandnomalar asrlar mobaynida axlokiy tarbiyaning o'ziga xos sharkona vositasi sifatida xizmat kilib keldi va xozir xam xizmat kilmokda.

Ularning eng mashxurlaridan biri taxminan III-IV asrlarda yaratilgan kadimgi xind adabiy-didaktik yodgorligi «Panchatantra»dir. U bizda «Kalila va Dimna» nomi bilan mashxur. U o'zbek tiliga bir necha bor tarjima kilingan. Asarda ko'z oldimizda ikki dunyo namoyon bo'ladi: biri – insof, adolat, diyonat, xalollikka suyangan, axlokiy fazilatlarining tajassumi bo'lmish insonlar dunyosi, ezgulik olami, ikkinchisi – yolg'onn, kalloblikni, munofiklikni, xudbinlikni kasb kilib olgan, illatlar tajassumi bo'lgan odamlar dunyosi, yovuzlik dunyosi. Ana shu ezgulik va yovuzlik orasidagi kurash asarning o'k tomirini tashkil etadi. Unda axlokiylik asl baxt, axloksizlik inson uchun xalokat girdobi ekani ajoyib xikoyatlarda, masallarda o'z aksini topadi. «Kalila va Dimna»ning shakli, kompozitsion kurilishi, uslubiy jixatlari keyinchalik juda ko'p pandnomalar uchun badiiy kolip rolini o'tadi.

Musulmon Sharki mintakasi axlokiy tafakkurida XI asr aloxida diqqatga sazovor. Unda ikki buyuk pandnoma yaratildi. Biri turkiy tilda – Yusuf Xos Hojibning «Kutadgu bilig» («Yaxshilik keltiruvchi bilimlar»), ikkinchisi forsiyda – Kaykovusning «Kobusnoma» asari.

«Kutadgu bilig» 13000 misrani o'z ichiga olgan axlokka, siyosatshunoslikka doir monumental asar. Uni turkiy xalklarning axlokiy komusi deb atash mumkin. Kitobda ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, olijanoblik va tubanlik, xalollik va xaromlik singari tushunchalar batafsil kalamga olinadi. Ularning mohiyati obrazli, badiiy yuksak misralarda, she'riy xikmatlarda, makollarda ochib beriladi.

Mana, ezgu odamga Yusuf Xos Hojib kanday ta'rif beradi: «Ezguning barcha kilmishi va yo'riklari xalkka foyda va manfaat beradigan bo'ladi. Barchaga birdek yaxshilik kiladi, lekin evaziga ulardan mukofot minnatini kilmaydi. Ezgu o'z manfaatini ko'zlamaydi, boshkalar manfaatini ko'zlaydi, boshkalarga keltirgan foydasidan o'ziga manfaat tilamaydi». To'grilikni esa, u shunday ta'riflaydi: «To'grilik odam uchun juda kerakli sifatdir, u odamiylik demakdir». Insonning kadr-kimmatini xam mutafakkir insoniylikda, odamgarchilikda deb biladi: «Odam kadrli emas, odamgarchilik kadrli, odam noyob emas, odamgarchilik noyob».

«Kutadgu bilig»da fakat axlokiy tamoyillar yoki tushunchalar emas, balki muomala odobi va etiket muammolari xam o'rtacha tashlanadi, til bilan dil birligi axlokiylikning asosi sifatida talkin

etiladi. Axlokiylikning yana bir asosini buyuk bobokalonimiz bilimda ko'radi: u akl-zakovatni inson kadr-kimmatini yuksaltiruvchi ne'mat deb biladi.

Kaykovusning «Kobusnoma» asarida xam ana shu jixatlarga e'tibor kilinadi. Ayni paytda, «Kobusnoma» inson xayoti va faoliyatining deyarli barcha tomonlarini kamrab oluvchi o'git-ko'rsatmalardan iboratdir. Unda mexmonga borish, mexmon kutish, savdogarchilik odoblaridan tortib, chavgon o'yini – sportchi odobigacha kalamga olinadi. Kaykovus axlokiylikka erishuv ikki xil – tabiiy-tugma va tarbiya orkali ro'y berishini aytadi. Shu bilan birga axlokiy tarbiya xar ikki xolatda xam shart ekanini ta'kidlaydi.

Sharkona pandnomalarning eng mashxuri, shubxasiz, Shayx Muslixiddin Sa'diyning (1184-1292) «Guliston» asaridir. Jaxonda bu asar tarjima kilinmagan biror bir madaniy til bo'lmasa kerak. O'zbek tiliga u birinchi marta buyuk o'zbek mumtoz shoiri Sayfi Saroyi tomonidan XIV asrda tarjima kilingan.

«Guliston»ning bu kadar mashxur bo'lib ketishiga asosiy sabablar shundaki, avvalo, u muallifning xayotiy tajribalari va ko'rgan-kechirganlarini, o'z kulogi bilan eshitgan voqea-xodisalarni o'z ichiga oladi; ikkinchidan, pandnoma buyuk Sa'diyga xos tengsiz badiiylik bilan sugorilgan; uchinchidan, uning uslubida yuksak axlok egasining donishmandligi va samimiyati kishini o'ziga tortib turadi. Nasriy xikoyatlar bilan me'yoriy xikmatlar – axlokiy xulosalarning uzviy boglanib ketganligi esa asarni yana xam o'kishli kiladi. Sa'diy, birinchi navbatda, odamlar kiyofasidagi ezgulik va yovuzlikning munosabatlarini ochib beradi. Oddiy muomala odobidan tortib, yuksak axlokiy tamoyillargacha ana shu munosabatlarni aks ettirishga xizmat kiladi. Mufakkir shoir inson axlokiyligini, ezgulikni o'zgalar manfaatini o'z manfaatidan ustun ko'yishda, odamlarga kayishishda ko'radi; ilmiy til bilan aytganda, Sa'diy, inson inson uchun vosita emas – maksad, degan goyani ilgari suradi. Yovuzliklar ichida u, ayniksa, yolginni kattik koralaydi: «Yolgon gapirmok xam, – deydi shoir, – xanjar zarbi kabidir: jaroxat tuzalsa-da, izi koladi». Bundan tashkari, Sa'diy kashf etgan xikmatlar xam o'zining obrazlilik, falsafiy kudrati va nazokati bilan kishini xayratga soladi. Kuyidagi xikmatga e'tibor bering: «Gavxar loyga tushsa xam avvalgidek kimmatbaxo, chang osmonga ko'tarilganda xam kadsizdir». Yoki mana bu kichkinagina xikoyatni olib ko'raylik: «Olamda birinchi marta barmogiga uzuk takkan odam Jamshiddir. Undan so'radilar: «Nega xamma zebu ziynatni chap ko'lingga berding, vaxolanki, fazilat o'ng tarafdadir». Jamshid javob berdi: «O'ng ko'lining – o'ng ko'l ekanining o'zi buyuk ziynatdir».

Sa'diyning «Guliston»iga taklidan juda ko'p asarlar yaratildi. Ulardan biri Jomiyning «Baxoriston», shuningdek Poshshoxojaning turkiyda bitilgan «Miftoxo ul-adl» va «Gulzor» asarlaridir. Har uchala asar xam xikoyatlar va she'riy parchalarda bayon etilgan xikmatlarni o'z ichiga oladi. «Baxoriston»da sakkiz bob–ravzaning ettinchisi shoirlar zikriga bagishlangan, sakkizinchi ravza esa masallardan tashkil topgan. Har ikkala muallif asarlarida buyuk podsholar va sarkardalar xayotidan ko'plab xikoyatlar keltiriladi.

Temuriylar davrida yaratilgan eng ajoyib va o'ziga xos pandnomalardan biri, bu – Xondamirning (1481-1535) «Makorim ul-axlok» («Yaxshi xulklar») asari. Uning o'ziga xosligi shundaki, undagi kalamga olingan barcha fazilatlar bir buyuk inson – Alisher Navoiy kiyofasi misolida ochib beriladi, talkin etiladi. Shu bois uni buyuk shoir va mufakkir xakidagi xotira yoki biografik ma'lumotlar deb emas, aynan bir shaxs bosh kaxramon kilib olingan pandnoma deb atash maksadga muvofik. Unda bo'lgan voqealar, xikoyatlar, latifa va mutoibalarga o'ralgan Navoiyning axlokiy xayoti ko'z oldimizda gavdalanadi, gavdalanganda xam fakat o'z zamonasi uchun emas, balki barcha zamonlarga namuna bo'la oladigan axlokiy ideal tarzida yuz ko'rsatadi.

O'rta asrlarda keyin xam pandnomalar yaratish an'analari davom etdi. Lekin ular orasida mashxur bo'lganlari ko'p emas. Ana shunday istisnolardan biri – o'zbek mumtoz shoiri Gulxaniyning (XVIII asr oxiri ikkinchi yarmi –XIX asr boshlari) «Zarbulmasal» asari. U, avvalo, o'zining shakliy yangiligi bilan ajralib turadi. Asar koliplash usulida yozilgan – katta masal-xikoya ichida masal-xikoyatlar, masallar ichida esa, yuzlab o'zbek xalk makollari joy olgan. Asarning yana bir o'ziga xosligi shundaki, uning asosiy kaxramonlari – o'z kiyofalarida

axloksizlik illatlarini mujassam etgan salbiy obrazlar. Gulxaniy bu illatlarga yuksak axlokiy mezonlar nuqtai nazaridan karab, o'kuvchiga takdim etadi. Ana shu usul bilan insonlarni insof, adolat va diyonatga, xalollik va sofdillikka chorlaydi.

Avvalgi ma'ruzada aytib o'tilganidek, xurfikrlilik borasida o'rta asrlar Ovro'posida Kadimgi Yunon va O'rta asrlar musulmon Sharkiga solishtirib bo'lmaydigan darajada kashshoklik mavjud edi. Gap shundaki, O'rta asrlar Ovro'posida nasroniylik falsafa, adabiyot va san'at kabi ma'naviy soxalarga yondosh turish bilan kifoyalanmadi, balki ular orasida birinchi bo'lishga, mutlak xukmronlikka intildi. Axlokshunoslik oldida nasroniylik ta'limotining ratsional tarzda umumlashtirish vazifasi turardi—cherkovning talabi, moxiyati ana shu edi. Mazkur vazifa esa Bibliyodagi axlokiy kontseptsiyadan kelib chikadi; uni kuyidagi to'rt koidaga bo'lish mumkin: 1. Xudo olamning yaratuvchisi va unga jon baxsh etuvchi moxiyatdir. U – mutlak ijodiy-yaratuvchi ibtido, ayni paytda, olamning oliy maksadi, yashirin ma'nosi. Xudo nimaniki yaratadigan bo'lsa, uni o'zi uchun yaratadi va fakat birgina U o'z faoliyatining sababi, me'yor va maksadini o'zida mujassam etadi. Boshka barcha mavjudot bunday muxtorlikdan benasib: ular Xudo sababli va Xudo uchun mavjud. Inson xam bundan mustasno emas. Lekin inson, shuning barobarida, muayyan imtiyozga xam ega zot. Zero, u Xudoga o'xshash, ammo Xudo bilan aynan emas: xissiyotli, o'limga maxkum erdagi mavjudot. U erkin kilib yaratilgan va oliy maksadi bo'lmish—Xudoga ibodat uning uchun majburiyat shaklida yuzaga chikadi. Chunki insonning erdagi, o'z baxtini izlashga karatilgan butun xayoti—inkor etilishi lozim bo'lgan gunoxkorlikdan iborat. Ilk ajdod – Odam Atoning kilmishi bunga yorkin misoldir. Xullas, nasroniylik ta'limoti mantikiga ko'ra, inson Xudoga ibodat kilish uchun yaratilgan, biroq u o'zi Xudo bo'lgisi kelib koladi: barcha insoniy baxtsizliklarning sababi mana shu kibru xavo, axlokiy mustakillikka da'vodan kelib chikadi, umuman, xamma yovuzliklarning ildizi shunda. Shunday kilib, nasroniylik axloki mavjudlikning moxiyat bilan mos kelmasligiga asolanadi. Inson o'zining moxiyatan belgilangan o'zligini amalga oshira olmaydi. Chunki u gunoxkor zot; u fakat Xudo yordamidagina gunoxdan kutilishi mumkin. Iso—insonning Xudo bilan birlashuviga va, ayni paytda, bunday birlashuvning fakat Xudo tufayligina ro'y berishiga dalolatdir. Shu bois Xudoga iktido Isoga iktido kilishda o'zini namoyon etadi. Odam Atodan gunoxkorlik boshlangan bo'lsa, Isodan yangilanish, ruxan kayta tugilish boshlanadi, chunki aynan u gunoxdan kutilish yo'lini ko'rsatdi. Iso o'z mavjudligining oliy va yagona ma'nosini Xudo-Otaga etishishda deb biladi. U xavoriylarni ota-onayu, o'gil-kizlarini tark etishga chakiradi, chunki kimda-kim gunoxdan kutilish yo'lga kirsar, uning kalbida Xudodan o'zga zotga joy bo'lmasligi kerak; yon-veringdagilarni xuddi o'zingdek sevmok Xudoga muxabatning inikosidir; Xudoni sevmok ularni sevish orkali amalga oshadi, xammani sevish kerak, degan talab shundan. Agar inson tanlab sevsar, birovga ezgulik, boshkasiga yovuzlik kilishi mumkin va bu bilan u bo'yniga Xudolik xukukini olgan, ya'ni nima adolatli-yu, nima adolatsiz ekanini o'zi xal etgan bo'ladi.

O'rta asrlar Ovro'po axlokshunosligining yirik vakili Avgustin Blajenniy – Iloxiy Ogustin (354-43) «Tazarru» xamda «Ezgulik va erkin ixtiyor xakida» degan asarlarida ana shu muammolarni o'rta tashladi va xal kilishga urindi. Uning fikriga ko'ra, Xudo barcha go'zalliklar manbai va eng oliy go'zallikdir. Xudoning irodasi – muayyan, mazmunidan kat'iy nazar, ezgulik, ne'mat, yagona oliy ne'mat. xamma narsa, Xudodan bo'lgani uchun, ezgu; «Nimaiki mavjud ekan, xammasi ezgu», – deydi Avgustin. Borlik – kadriyatlarining tartibli boskichlaridan iborat. Borlik ichidagi eng muxim fark Xudo bilan olam, Yaratgan bilan yaratilmish orasidagi farkdir, mana shu fark axlokning asosi xisoblanadi. xar kanday xatti-xarakat fakat borlik tartibini aks ettirishi va Xudoga intilish bilan boshka intilishlarni farqlashi, ya'ni oliy intilishni tuban intilishlardan kat'iy ajratib olishi orkali baxolanadi. «Tartib shunday narsaki,-deydi Avgustin,- agar biz xayotimizda unga suyansak, u bizni Xudoga etishtiradi, unga suyanmasak, Xudoga etisha olmaymiz». Shu sababli inson faoliyatida ikki xil munosabatni farqlamok lozim – lazzat va foydaga intilish. Lazzat – fakat birgina Xudodan; kolgan xamma narsalar foydalanish ob'ekti xisoblanadi. Erdagi ne'matlar fakat erdan tashkaridagi ne'matlarni targib kilish uchun vositadir. Xudodan kuvonch tuygun-u, lekin undan foydalanma, erdagi

ne'matlardan foydalan-u, lekin ulardan kuvonch tuyma. Avgustin axlokiy ta'limoti ana shu talabdan kelib chikadi.

Xudo, Avgustin nuktai nazaridan, insonni – Odam Atoni erkin, gunox kilmaslik imkoniyatiga ega zot kilib yaratdi. Ayni paytda U ixtiyor erkinligi faoliyatining anik yo'nalishini belgilab berdi. Lekin Odam Ato, nima kilish kerakligini o'zim bilaman, degan kibr bilan Xudoning ko'rsatmasini buzdi; inson ixtiyor erkinligini nojoiz ko'llagani uchun gunoxga botdi. Odam Ato kanday bo'lsa, undan paydo bo'lgan boshka odamlar xam xuddi shunday. Birinchi odam kilagn gunoxga xamma odam javobgar, xar bir odam o'z tishida Odam Ato egan olmadan kolgan kamashishni xis etib turadi, demak, xamma narsa, barcha ezgulik Xudodan; yovuzlik-ezgulikning yo'kligi, ezgulikdan yuz burish, nuks, xato. U inson ixtiyorining xususiyati, ixtiyorning tubanlikka karatilishidir; u – Xudo ko'rsatmalaridan chekinish, gunox.

Shuni ta'kidlash joizki, Avgustin ta'limotini ma'lum ma'noda muxabbat axloki xam deyish mumkin. Faylasuf-iloxyotchi muxabbatni xar bir narsani o'z tabiiy, konuniy o'rnini egallash uchun intilishga majbur kiluvchi fazoviy kudrat sifatida talkin etadi. Muxabbat – tugallikka, oromga intilish. Inson nafakat sevadi, Ayni paytda u muxabbatni o'z munosabatlarining ob'ekti xam deb biladi; inson muxabbatning o'zini sevishtirish yo sevmaslik kobiliyatiga ega. Axlokiy vazifa mana shu muxabbatni inson tabiatiga o'xshash ob'ektga yo'naltirishidir. Bu ob'ekt esa – Xudo. Muxabbatning sezgi a'zolariga xech kanday alokasi yo'k, u ruxning sirli ka'ridan, rux paydo bo'ladigan makondan iborat.

Shu tarzda Avgustinning axlokiy ta'limoti jaxon axlokshunosligi tarixida muxabbat masalasini birinchi bo'lib o'rtaga tashladi va bu ta'limot keyingi davr mutafakkirlari karashlariga katta ta'sir ko'rsatdi. Lekin, umuman olganda, O'rta asrlar Ovro'po axlokshunosligi u kadar yuksak darajaga ko'tarila olmadi. Shu bois, bu davr xakida aloxida to'xtalib o'tish shart emas.

O'rta asrlar musulmon Sharki axlokiy ta'limotlari Kadimgi dunyo mumtoz axlokshunosligining tadrijiy rivoji sifatida keyingi davrlar Ovro'po axlok ilmi tarakkiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Shark allomalari ilgari surgan goyalar, o'rtaga tashlagan muammolar Ovro'po axlokshunosligida yangi karashlar va, xatto, okimlarning vujudga kelishiga turtki bo'ldi. Ovro'po tarixida «Buyuk tarjimalar davri» deb ataladigan XI - XIII asrlarda nafakat Forobiy, Ibn Sino, g'azzoliy, Ibn Rushd va boshka Shark alomalari kitoblari, balki ular Ovro'poga kaytadan kashf etib bergan Aflotun, Arastu singari Kadimgi Yunon mutafakkirlarining asarlari xam arab va suryoniy tillaridan lotinchaga tarjima kilindi, G'arbning dastlabki universitetlarida o'kitildi. Zotan Hegelning: «G'azzoliy o'ta noziktab' faylasuf», «Koyilmakom Jaloliddin Rumiy», E. Renanning: «G'azzoliydan keyin Hyumga aytadigan gap kolgan emas», degan so'zlari bejiz aytilmagan. Shuningdek, Ibn Rushdning moxiyat bilan mavjudlik munosabatlarida yakka javxarlarda (substantsiyalarda) mavjudlik moxiyatdan oldin kelishi va ular ontologik jixatdan yaxlitlikni tashkil etishi xakidagi goyasi keyinchalik 19-asrda katta amaliy ahamiyat kasb etgan – Ovro'po xalklari mentalitetiga singib ketgan ekzistentsiyachilik falsafiy-axlokiy okimining paydo bo'lishiga olib keldi va xokazo.

Tayanch tushunchalar

Mashshoiyyunliklik, Tasavvuf, Hayot va mamot, Ixtiyor erkinligi, Muxabbat, Niyat, Kadr-kimmat, Lazzat, Fazilat, Maksad, Vosita, Akl, Pandnoma.

Takrorlash uchun savollar

1. Mashshoiyyunliklik axlokshunosligining moxiyati nimada?
2. Forobiy va uning izdoshlari ta'limotlaridagi muxim o'rinlarni nimalar tashkil etadi?
3. Tasavvuf va uning axlok falsafasi sifatida namoyon bo'lishi kaysi xususiyatlarga asoslanadi?
4. Imom G'azzoliyning muxabbatga oid karashlari zahirida kanday axlokiy tamoyillar yotadi?

5. Navoiyning axlokiy ta'limotida «Maxbub ul-kulub» kanday o'rin egallaydi?
6. Koshifiyning axlokiy karashlaridagi muxim jixatlar kaysilar?
7. «Kutadgu-bilig» asaridagi asosiy axlokiy goyalar nimalarda ko'rinadi?
8. Kaysi pandnomalarni o'kigansiz?

ADABIYOTLAR

1. Ibn Sino. «Baxmanyor al-Ozarboyjoniy bilan munozara». «Soglom avlod uchun» jurnali. 1996 yil. 3-4-sonlar.
2. Ibn Sino. Abu Said Abul Xayr Mexaniy bilan munozara. «Soglom avlod uchun» jurnali. 1996 yil 5-6-sonlar.
3. Komilov N. Tasavvuf. Toshkent. «Yozuvchi». 1996 yil.
4. Koshifiy. Futuvvatnomai sultoni. T., A. Kodiriy nomidagi xalk merosi nashriyoti, 1994.
5. Navoiy. «Maxbub ul-kulub».|| Navoiy. Asarlar, o'n besh tomlik, 13-tom. Toshkent, Badiiy adabiyot nashriyoti, 1966 yil.
6. Forobiy. Fozil shaxar odamlari. Toshkent, «Meros», 1990 yil.
7. Sher A. Ibrat ko'zi. «Soglom avlod uchun» jurnali, 1996 yil. 7-8, 9-10 sonlar.
8. Abu Bakr ar-Razi. Duxovnaya meditsina. Dushanbe, «Irfon», 1992.
9. Al-Gazali. Voskreshenie nauk o vere. Moskva, «Nauka», 1987.
10. Bertels E.E. Sufizm i sufyskaya literatura. Moskva, «Nauka», 1965.
11. Sagadeev A. Ibn Rushd. Moskva, «Misl», 1973.

**YANGI DAVR AXLOKSHUNOSLIGIDAGI ASOSIY TA'LIMOTLAR VA
YO'NALISHLAR
(2 soat)**

Reja:

1. Ovro'po Uygonish davri axlokiy ta'limotlarining O'rta asrlardan Yangi davr axlokshunosligiga o'tish boskichi sifatida namoyon bo'lishi (Valla, Makiavelli).
2. Olmon mumtoz axlokshunosligi (Kant, Hegel, Foyerbax).
3. Olmon mumtoz axlokshunosligidan keyingi Ovro'poda yuzaga kelgan asosiy ta'limotlar (Shopenxauer, Nittsshe va boshkalar).
4. XX asr axlokshunosligidagi asosiy yo'nalishlar (ruxiy taxlil, ekzistentsiyachilik, gayri zo'ravonlik, tasavvuf).

1. O'rta asrlar musulmon Sharkida o'rta tashlangan ko'pgina axlokiy muammolar Ovro'po Uygonish davrida xam muxim axamiyatga ega bo'ldi. Lekin endi ularga ko'prok – insonparvarlik, insonni ulug'lash, insonning aqliy kudratiga ishonch singari yangicha nuktai nazardan yondoshildi. Uygonish davri o'rta asrlardan yangi davrga o'tish boskichi sifatida namoyon bo'ldi.

Uygonish davrining diqqatga sazovor axlokshunoslaridan biri italiyalik faylasuf Lorentso Valladir (1407-1457). Vallaning «xakikiy va yolg'on ezgulik», «Ixtiyor erkinligi xakida» kabi asarlarida barcha jonzotlarning tabiatan o'zini asrashga va iztirobdan kochishga intilishi xakidagi fikrlarni o'z axlokiy karashlariga asos kilib oladi. «Hech kaysi jonzot kaygu va ruxiy iztirob xolatida ne'matga ega deb xisoblanishi mumkin emas» – deydi faylasuf. – Shu sababli ne'mat uning uchun kuvonch xissidir».

Valla insonning jonli tabiat bilan alokasini rux orkali chukurlashtiradi. Uning fikriga ko'ra, xayvonlar xam odamlarga o'xshash xotira, akl, iroda, tanlov, kobiliyat, achinish singari ba'zi ruxiy xolatlarga ega. Lekin nutkka, kulgiga egaligi, ayniksa, abadiylikka taallukli ekani bilan inson xayvondan yukori turadi. «Biz Xudoga o'xshab abadiyatga daxldorligimiz bilan xayvonlardan ajralib turamiz, boshka jixatlar bilan esa xuddi yulduzlar biz yokkan olovga o'xshaganidek, ularga o'xshaymiz,» – deydi faylasuf.

Valla lazzatni xamma erda xamma intiladigan, rux va vujud zavklanishini o'z ichiga olgan ne'mat deb ataydi. U – xamma intilishlarning maksadi, yagona ne'mat; xech kim kandaydir maksadlar uchun lazzatlanmaydi, zero lazzatning o'zi – maksad. Avgustindan farkli o'larok, Valla, muxabbat lazzatga o'xshash, chunki ular ikkisinin asoosida xam xissiy idrok etish yotadi, deydi. Shunig uchun u, Xudoni fakat Xudo bo'lgani uchungina sevish kerak, degan fikrga karshi boradi. Faylasuf Xudoni insonlarga iloxiylik beradigan ibtido sifatida, ko'prok maksad emas, vosita tarzida talkin etadi, yani, Xudo ne'matlar manbai bo'lganligi uchun muxabbatga loyikdir.

Ixtiyor erkinligi masalasiga xam Lorentso Valla katta e'tibor beradi. Uning fikriga ko'ra, xar bir inson farovonlik uchun intiladi. yovuzlikdan esa, - u o'z yovuzligimi, o'zganikimi, – kochishga urinadi. Ba'zan inson kimgadir zarar etkazsa, albatta yovuzligi tufayli emas, balki o'z farovonligini ko'zlab shunday ish kiladi. Demak, inson o'z farovonligiga intilar ekan, u to'g'ri yo'lni tanlashi kerak. Ne'matga, farovonlikka egalikning eng muxim sharti – baxtsizlik, xavf-xatar, bezovtalikdan yirok va xamma tomonidan suyukli bo'lish. xammaga suyukli bo'lish esa barcha lazzatlarning manbai xisoblanadi; nafrat kurshovida yashash – o'lim bilan teng. Shularga karab, insonning yaxshi yoki yomonligiga baxo beriladi.

Fazilat, Vallaning fikriga ko'ra, ne'mat bo'lmish – lazzatga zaruriy-tabiiy intilishni yo'lga solishda yordam beradi. Bunda fazilat o'z xolicha maksad emas, balki lazzatga – fazilatlar malikasiga bo'ysunadi; demak, fazilat o'ziga xos nazorat, zero ketidan katta iztiroblar keladigan bo'lsa, yoki oldinda katta lazzatga erishish imkoni yuzaga chiksa, ma'lum chidam va tokat bilan kichik lazzatdan kochish lozim. Umuman, Valla, kichik va katta lazzat masalasiga o'z ta'limotida keng o'rin beradi. Ana shu nuktai nazardan kelib chikib, faylasuf, fazilatni – ne'matga ixtiyor yoki muxabbat deb ataydi va uni matonat bilan takkoslaydi. O'zi kashf etgan mana shu axlokiy mezon asosida, Valla, insonning o'z manfaatini to'g'ri anglashiga katta ishonch bilan karagani

xolda, uning o'zgalarga munosabatlarini o'rganishga intiladi. Shu bois u odamlar xakida yaxshi fikrda bo'lishga, ular kilmishi xali axlokiy jixatdan anglanmagan xollarda, bu kilmishlarni yaxshilikka yo'yishga chakiradi; insonni boshkalarning farovonligidan nafakat kuvonishga, balki boshkalarga kuvonch baxsh etishga xam kodir deb xisoblaydi.

Valla zoxidona fazilatlariga dunyoviy fazilatlarini ma'lum ma'noda karshi ko'yadi: «Fazilat nafakat kambagallikka chidashda, – deydi u, balki boylikdan okilona foydalanishdadir; nafakat tok o'tishda, balki oila kurishdadir; nafakat bo'ysunishda, balki okilona boshkarishda xamdir». U zoxidona fazilatlar asosida muxabbatni emas, ko'rkuvni ko'radi, Faylasuf Xudoga ixlos emas, tokat bilan, muxabbat emas, ko'rkuv bilan ibodat kilishni ma'kul ko'rmaydi.

Lorentso Vallaning axlokiy karashlariga xulosa yasaydigan bo'lsak, u odamlar aro bo'ladigan barcha alokalar va munosabatlarda manfaatni chetga surib ko'ymaydi, xatto Xudoga munosabatni xam ana shu manfaat bilan boglaydi. Insonlarning bir-biriga bo'lgan munosabatida bir-biridan foydalanish maksadi yotadi; manfaat, shaxsiy farovonlik barcha insoniy kilmishlarni xarakatga keltiruvchi kuchdir. Bundan, shaxsiyat va ijtimoiylik bir-biri bilan ajralmaydigan darajada boglikdir, degan fikr kelib chikadi. Vallaning bu va bunga o'xshash fikrlari keyinchalik Spinoza, Hobbs, Loka singari ma'rifatparvarlar ta'limotiga turtki bo'ldi.

Uygonish davri axlokshunosligida keyingi davrlar uchun xam xarakterli bo'lgan ikki yo'nalish ko'zga tashlanadi. Birinchisi-inson tabiati ibtidodan ezgu, ikkinchisi-ibtidodan yovuz, degan goya. Lekin ikkala yo'nalish xam, real tajribadagi inson xudbin mavjudot, degan fikrda to'xtaladi. Fark shundaki, birinchi yo'nalishdagi axlokshunoslar xudbinlikni tarixiy sharoitdan, jamiyatning okilona tashkil etilmaganidan, tengsizlikdan kelib chikkan deb bilsalar, ikkinchi yo'nalishdagilar uni inson tabiatining ixtiyori sifatida talkin etadilar. Ana shu yo'nalishlardan birinchisiga moyillikni Lorentso Valla karashlarida ko'rgan bo'lsak, ikkinchi yo'nalishning yirik vakili boshka bir italiyalik mutafakkir Nikkollo Makiavellidir (1469-1527).

Makiavelli deganda, darxol xayolimizga «makiavellichilik» iborasi keladi. Ma'lumki, «makiavellichilik» deganda, o'z maksadiga erishish yo'lida (asosan siyosat borasida) xar kanday axloksizlikdan xazar kilmaydigan xarakat tarziga da'vat etuvchi yo'nalish tushuniladi. «Maksad vositasini oklaydi», degan tamoyil bu yo'nalishning asosini tashkil etadi; bundan axlok va siyosat bir-biri bilan chikishmaydi, degan xulosa kelib chikadi, Nikkolo Makiavelli ilgari surgan axlokshunoslik va siyosatshunoslik borasidagi goyalar bu yo'nalishning asosi sifatida kabul kilinadi xamda necha asrlardan buyon italiyalik faylasuf-axlokshunos ko'pchilikka tankid ob'ekti bo'lib keladi. Xo'sh, xakikatdan xam shundaymi? Makiavellining axlokiy karashlari asosan uning «Hukmdor» (1513) asarida o'z aksini topgan. Unda mutafakkir saxiylik va tejamkorlik, shafkat va shafkatsizlik, muxabbat va nafrat singari tushunchalarga batafsil to'xtaladi. Lekin ularga faylasuf O'rta asrlardagiga nisbatan yangicha mazmun va ma'no beradi. U shafkat va shafkatsizlik xakida fikr yuritib, xukmdor fukarolarni maxkam tutib turish yo'lida o'zini shafkatsizlikda ayblashlaridan ko'rkmasligi kerak, deydi. Uning bir kadar shafkatsizligi tartibsizliklarni keltirib chikaradigan davomli shafkatsizliklardan afzaldir. Zero, o'grilik, karokchilik, kotillikni tugdiradigan bunday tartibsizliklardan butun axoli aziyat chekadi. Bu fikrlarni Makiavelli, ayniksa, yangi xukmdorlarga nisbatan ma'kul ko'radi. Uning fikriga ko'ra, yangi xumdomni boshka xukmdorlarga nisbatan shafkatsizlikda kamrok ayblaydilar. Chunki yangi davlatga juda ko'p xavf-xatar taxdid soladi.

Makiavelli xukmdor o'z fukarolarining ko'prok mexr-muxabbatiga emas, ko'rkuviga erishishi kerakligini aytadi: «... kaysi biri yaxshi-xalkning xukmdorni sevganimi yoki undan ko'rkkanimi? Aytishlaricha, birvarakayiga xam ko'rkkani, xam sevgani yaxshi; biroq mexr-muxabbat ko'rkuv bilan chikisha olmaydi, shu bois tanlashga to'g'ri kelganda, ko'rkuvni tanlagan durust. Zotan, odamlar xakida, umuman, xech kachon minnatdor bo'lmaydigan, bekaror munofiklik va yolgonchilikka moyil, o'z foydasini ko'zlab xatardan kochadigan jonzot deyish mumkin: toki sen yaxshilik kilib turar ekansan, ular butun borligi bilan seniki, sen uchun xamma narsasidan, koni-jonidan xam, bola-chakasidan xam, boyligidan xam kechishga tayyor, lekin ishing tushganda, shu xaxoti yuzini burib ketadilar... Bundan tashkari, odamlar o'zida mexr-muxabbat uygotgan kimsalardan ko'ra, ko'rkuv uygotgan kimsani xafa kilishdan ko'prok tiyinadilar».

Hukmdorning o'z so'zi ustidan chikish-chikmasligi masalasida esa Makiavelli «xukmdor» risolasining XVIII bobida shunday deydi: «Tajribadan shuni bilamizki, bizning davrimizgacha

ulug' ishlarni amalga oshirishga fakat bergan so'zining ustidan chikmaslikka va kerak odamni lakillatib ketishga uringanlargina erishgan; bundaylar oxir-okibatda rostgo'ylikka intilgan xukmdorlarga nisbatan juda katta yutuklarni ko'lga kiritganlar. Shuni bilish kerakki, dushmanga karshi ikki yo'l bilan kurashish mumkin: biri – konun yo'li, ikkinchisi – kuch ishlatish. Birinchisi – insonga, ikkinchisi – yirtkichga xos; ammo birinchisi etarli natija bermaganligi uchun, ko'pincha ikkinchi yo'lga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Bundan chikadigan xulosa shuki, xukmdor xam inson, xam yirtkich tabiatini o'zida mujassam etmogi kerak. Yirtkichlar orasida xukmdor ikkitasiga o'xshash uchun xarakat kilmogi zarur: bularning biri – arslon, ikkinchisi – tulki. Gap shundaki, okil xukmdor o'z bergan va'dasini bajarishga doim xam intilishi shart emas. Chunki odamlar o'lib-tirilib va'dani bajarish uchun urinishga arzimaydi, ularning o'zlari va'dalarida turmaydi. Va'dani buzish uchun esa baxona doimo topiladi. Kanchadan-kancha tinchlik shartnomalari, kanchadan-kancha kelishuvlar xukmdorlar so'zlarining ustidan chikmaganlari uchun amalga oshmay kolgan. Bunda kimda-kim tulkilik qilgan bo'lsa, o'sha yutib ketgan. Lekin yolg'onn xam eplash kerak, kotirib ko'yish lozim: chuv tushadigan odam esa doimo topiladi.»

Darxakikat, yuzaki karaganda, Makiavellining bu fikrlari axlokiylik nuqtai nazaridan xech bir mezonga to'g'ri kelmaydigandek ko'rinadi. Aslida esa unday emas. Buni anglash uchun kuyidagi omillarni nazarda tutmok lozim. Birinchidan, mutafakkkir o'z Vatani Italiyani ozod va birlashgan xolda ko'rishni istaydi. Bu ezgu yo'lda vatan dushmanlarini aldash, ularga bergan so'zining ustidan chikmaslik ozodlik va birlikka olib keladigan vosita sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni ezgulik xamda ulug'vor orzular tantanasi yo'lida xizmat kiladi. Ikkinchidan, juda ko'p o'rinda Makiavelli «Yangi xukmdor» iborasini ishlatadi. Yangi xukmdor, to'g'rirog'i yangi paydo bo'lgan davlat xukmdori kuvlik va kattikko'llik siyosatini olib bormasa, davlatni xam, mamlakatni xam, mustakillikni xam saklab kololmaydi; ya'ni o'tish yoki tiklanish davridagi turli xil ichki xamda tashki igvogarliklaru kiyinchiliklarni fakat tulkiing tadbirkorligi-yu, arslonning xamlasi bilan engib chikib keta olish mumkin. Uchinchidan, Makiavelli fikr yuritayotganda, Ovro'poda yangi vujudga kelgan milliy davlatni nazarda tutadi. Unig tankidchilari esa ko'p xolarda, allakachon o'tish yoki tiklanish davrini boshidan kechirgan, o'n yillar, xatto yuz yillar mobaynida o'ziga xos muxim demokratik yo'nalishni ishlab chikkan va axolisi shu yo'nalishga ong'li ravishda munosabatda bo'la olish darajasiga ko'tarilgan mamlakatlarning siyosiy arboblari, faylasuflaridir. Makiavelli ta'limotini esa yukoridagi xar uchala xolatda xam Italiya tarixidan ajratib olib taxlil etish mumkin emas. To'rtinchidan, Makiavelli barcha mashxur xukmdorlar tutgan yo'lni, xukmronlik sirlarini shafkatsiz tarzda avra-astarigacha ochib tashlaydi. Bunday «surbetlik» shunday yo'lni bosib o'tgan, lekin o'zini bunaka yo'lga alokasi yo'kdek ko'rsatmokni istagan siyosiy arboblarning gashini keltiradi –ularga o'zi uchun xozirda yokimsiz bo'lgan xolatlarni eslatadi. Beshinchidan, shuni doim yodda tutish kerakki, barcha axlokshunoslar ichida fakat Makiavelligina davlat raxbarini aloxida, boshkalardan tubdan fark kiladigan axlokiy tip sifatida oladi. Makiavelli tankidchilarining va boshka ko'pgina axlokshunoslarning xatosi shundaki, ular xukmdor axlokini oddiy axlokiy tamoyillarga nisbat bergan xolda baxolashga urinadilar. Makiavelli esa xukmdor axlokini mavjud ijtimoiy sharoitdan, uning jamiyatda va millat tarkkiyotida egallagan real, istisnoli o'rnidan kelib chikib talkin etadi. Faylasuf bunga dabdurustdan erishgan emas. U tarixiy voqealar va dalillarni bilgan xamda ularni ilmiy taxlil etgan, «Florentsiya tarixi» degan fundamental asar yaratgan ulkan tarixshunos olim. U tarixiy tajribaga suyanib shunday xulosaga keladi. Shu bois Makiavelli nomini siyosatda axloksizlikni targib etuvchi, demokratiyaning dushmani kabi sifatlashlar bilan «bezash» ilmdan ko'ra, extirosning, soxta demokratchilikning mevasidir. Aslida esa xakikiy donishmand, xar jixatdan kuchli, ma'rifatli, umumlashtiruvchi falsafiy iktidorga ega xukmdorgina Makiavelli ta'rifiga jonli misol bo'la oladi. Masalaga ettinchi osmondan emas, real xayotdan turib yondoshilsa, buni anglash kiyin emas.

Mana, tariximizdan bir misol. Soxibkiron Amir Temur o'gli Mironshox va uning a'yonlarini o'zlariga ishonib topshirilgan xududni boshkarishda adolatsizlikka yo'l ko'ygani, kayfu safoga berilib, raiyyatga jabr kilgani uchun shafkatsizlarcha jazolaydi: barcha a'yonlar o'limga xukm etiladi. Mironshox esa otasining piri Sayyid Baraka maslaxati tufayligina o'limdan saklanib koladi va sazoyi kilinadi. Ko'llari bog'lik, tiz cho'ktirilgan Mironshoxning ko'zi oldida barcha

a'yonlari bo'gizlanadi, maxsus o'rnatilgan tarnovdan okib turgan kon Mironshoxning yodida umrbod koladi – bu xam o'limga teng bir ruxiy iztirob edi. Bu jazo, xakikatdan xam shafkatsizlik. Birok, o'n besh-yigirma odamning o'limi va shaxzodaning ruxiy iztiroblari evaziga Mironshox tasarrufidagi Eron, Ozarboyjon, Arran singari ko'plab o'lkalarni o'z ichiga olgan ulkan bir xududdagi millionlab axoli amaldor xamda sipoxiylarning bosh-boshdokligidan, o'z fukarolik xukuklariga tajovuzidan kutiladi, ya'ni, Amir Temurning shafkatsiz degan nom olishdan ko'rkmay, ota emas, xukmdor sifatilda ish ko'rishi tufayli adolat o'rnatiladi; kichik shafkatsizlik ulkan shafkatga aylandi.

Endi davlat boshligining o'z so'zi ustidan chikish-chikmasligini axlokiy baxolash borasida zamonaviy bir misol keltiramiz. Sho'rolar Ittifoki endigina tarkalgan va davlatlararo MDH tashkiloti tuzilayotgan paytda o'tkazilgan matbuot konferentsiyasida muxbirlardan biri O'zbekiston va Ukrainada fukarolik makomi kanday bo'ladi, MDH tarkibidagi boshka davlatlar fukarolari bu ikkkala davlatning xam fukarolari xisoblanadimi-yo'kmi, degan mazmunda savol berdi. Savol moxiyatan igvogarona edi. Chunki MDH davlatlaridan birortasi o'sha paytda bu masalani kun tartibiga ko'ymokchi emasdi, xammasi xozircha fakat kogozdagina bo'lgan mustakilligini mustaxkamlashga intilardi. Lekin, ayni paytda, bu savolga kaysi davlat raxbari salbiy javob brsa, o'sha davlatda rusiyzabon axolining junbushga kelishi, ma'lum tartibsizliklar ro'y berishi, bundan mamlakat ma'naviy va moddiy zarar ko'rishi shubxasiz edi. Zero, bu davlatlardagi mudofaa, xarbiy sanoat, ogir sanoat, rangli metallurgiya va boshka muxim soxalar asosan mustamlakachilik da'volaridan voz kechishni istamagan rusiyzabon kishilar ko'lida bo'lib, ilk o'tish davrining demokratiya nikobi ostidagi bosh-boshdokliklari natijasida ular muayyan mamlakat mustakilligiga sezilarli zarba bera olishga kodir edilar. Agar javob ijobiy bo'lsa, o'sha raxbar davlatidagi axolining bu kismi igvogarlik uchun baxona topolmasdi va gazabini birkancha vakt bosib turishga majbur bo'lardi. Eng muximi, ana shu fursat edi. Birok, mamlakatdagi mustakillikdan mast yoshlar, milliy partiyalar, muxolifatdagi kuchlar bu davlat boshligini moxiyatan milliy mustakillikka karshi raxbar sifatida baxolardilar. Ikki davlat raxbari oldida ana shunday muxim tanlov turardi. O'zbekiston davlati raxbari, barcha MDH davlatlari fukarolari O'zbekiston fukarolari bo'la oladi, deb, Ukraina raxbari esa, aksincha, bunday bo'lishi kat'iyon mumkin emas, deb javob berdi. O'sha matbuot konferentsiyasidan, Ukraina davlati raxbari zimdan olkish olib, O'zbekiston raxbari esa istexzoli jilmayishlar ostida chikib ketdi. Oradan sal o'tmay, O'zbekistondagi rusiyzabon xarbiylar va mutaxassislar baxona topolmay, tinchib koldilar, tez orada Rossiyaga olib o'tib ketiladigan xarbiy taxnika xakidagi shov-shuvlar xam sekin-asta to'xtadi. Ukrainada esa, rusiyzabon axolining noroziliklari boshlandi, «rus vatanparvarlari» tomonidan yuzlab xarbiy texnika vositalari, xususan, yangi jangovar xavo kemalari xam Rossiyaga olib o'tildi... Oradan bir necha yil o'tgach, mazkur masala real kun tartibiga ko'yildi: Rossiya davlati o'z makeini Markaziy Osiyo mamlakatlari ichkarisida mustaxkamlash va, kerak bo'lganda, ularning ichki ishlariga aralashish uchun zamin tayyorlash maksadida ikkiyoklama fukarolik borasida tashabbus bilan chikdi. Shunda O'zbekiston davlati raxbari okilona va anik javob berdi: O'zbekiston demokratik va xukukiy yo'nalishdagi davlat, unda barcha millatlar teng xukukka ega. Shu bois rus millatiga mansub axoliga ikkiyoklama fukarolik tadbik etilsa, boshka millat vakillariga xam shunday xukuk berilishi kerak, masalan, koreyslarga, ukrainlarga, yunonlarga, kozoklarga, tojiklarga va xokazo. Aks xolda, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab ko'yilgan millatlararo tengxukuklilik tamoyili buziladi. Ayni paytda, bunday keng mikyosli ikkiyoklama fukarolikning, muayyan favkulodda xodisalar yuzaga kelganda, O'zbekiston davlati xavfsizligiga, xatto mustakilligiga xatar tugdirishi xech kimga sir emas. Bunday javobga Markaziy Osiyo davlatlarining xammasiga o'z ta'sirini o'tkazib kelgan Rossiya davlati xech nima deya olmadi: uning ro'parasida xam iktisodiy, xam siyosiy, xam xarbiy jixatdan o'ziga yarasha kudratli davlat turardi. Bundan tashkari, O'zbekiston davlati raxbariga xech kim, bundan bir necha yil avvalgi gapingiz boshkacha edik-ku, deya olmadi va deya olmasdi xam. Chunki fikr, umuman olganda, bekarorlik xususiyatiga ega; fikr bekarorligi – o'zgaruvchanligi tarakkiyot garovi, fikr barkarorligi, fikrning kotib kolishi insoniyatni tanazzulga, xatto, umuman, biologik tur sifatida yo'k bo'lib ketishiga xam olib kelishi mumkin. Bu insoniyatning ming yillar mobaynidagi tarixiy tajribasidan chikarilgan falsafiy xulosaga xech kim karshi turolmaydi.

Shunday kilib, muxim bir xalkaro masalada O'zbekiston davlati to'la yutib chikdi: bir tomondan, Ukraina singari xam moddiy, xam ma'naviy zarar ko'rmadi, ikkinchi tomondan, juda katta xalkaro obro'ga musharraf bo'ldi. Lekin bu kuvonarli xol, ma'naviy lazzat, O'zbekiston davlati raxbarining ruxiy iztiroblari, ta'na-dashnomlarga sabr-tokat bilan chidashi natijasida, fidoyiligi tufayli ro'y berdi. O'zbekiston davlati raxbari o'ziga shafkatsizlik kilib, millatga, Vatanga shafkat kildi, Lorentso Valla aytganidek, kichik lazzatdan kechib, vaktinchalik iztirob evaziga katta lazzatga noil bo'ldi.

Yana shuni ta'kidlash joizki, Makiavelli kattik ko'llilik, so'zining ustidan chikmaslik singari xatti-xarakatlarni fakat umumdavlat, umummillat nuktai nazaridan kelib chikib amalga oshirilsagina ma'kullaydi, xukmdorning bosik bo'lishini, xadeb jazolashga intilmasligi kerakligini aytadi; o'z xalkida nafrat va xazar xissini uygotgan xukmdorning axvoliga voy ekanini ta'kidlaydi. Muta'fakkir, ana shunday okil, moxir xukmdorlarga ega mamlakat o'z ozodligini ko'ldan bermaydi, deb xisoblaydi. Umuman, shuni ta'kidlash kerakki, Makiavelli uchun eng muximi – ozodlik, ozod Italiya, ozod jamiyat, shaxs erkinligi, faoliyat erkinligi kabi tushunchalar uning uchun eng asosiy tushunchalardir. Ayni paytda, odamlardan nasroniylik talab kiladigan bo'ysunish, sabr-tokat, xamma narsaga shukur kilish singari axlokiy tamoyillarni ko'rkmay kattik tankid ostiga oladi. U Italiya ozodligini ikki narsa emirganligini aytadi: biri – millatni bo'shashtirib – o'jizlashtirib yuborgan nasroniylikning xulkiy-axlokiy tamoyillari bo'lsa, ikkinchisi – xar kanday respublikachilik va xar kanday ozodlikning dushmani bo'lgan, kudratli Rumo saltanati edi.

Xulosa kilib shuni aytishimiz mumkinki, Makiavelli o'z asarlarida xususan, «xukmdor» risolasida ilgari surgan axlokiy ta'limot, davlat raxbari axlokiy faoliyatidagi fazilat va illatning o'zaro alokasi, bir-biriga o'tib turishi, ba'zan esa, biri ikkinchisini keltirib chikarishi xakidagi yangicha fikrlari xaligacha o'z axamiyatini yo'kotgani yo'k.

Uygonish davri axlokiy ta'limotlari axlokshunoslik tarixida, shubxasiz, olga tashlangan kadam bo'ldi. Zero bu davr mutafakkirlari Kadimgi dunyo axlokshunoslari ilgari surgan nazariya va goyalarni o'rta asrlar musulmon Sharki axlokshunoslari tafakkuri prizmasidan o'tkazib, xulosalar chikarishga intildi, muayyan ma'noda ularni Ovro'po axlok ilmida sintezlashtirish jarayonini boshlab berdilar.

2. Tarixda olmon mumtoz falsafasi deb nom olgan tafakkur o'zining mikyosiyligi va teranligi bilan xanuz fikrlovchi kishilarni xayratga soladi. Olmon mumtoz faylasuflari ingliz, frantsuz faylasuflaridan farkli o'larok, o'z asarlarini keng kitobxon ommasiga emas, balki tor doiradagi o'kuvchilarga, falsafani mutaxassislik deb bilgan olimlarga va talabalarga mo'ljallab bitganlar. Shu bois ularning ko'pchilik kitoblari, xususan, axlokshunoslikka oid asarlari xam kuruk ilmiy akademik tilda yozilgan va tushunilishi ogir. Lekin ular o'z asarlarida jaxon falsafiy tafakkuri XIX asrning birinchi yarmigacha erishgan barcha yutuklarni ilmiy tizimlarda umumlashtirganlari va ulardan nixoyatda chukur ilmiy xulosalar chikarganliklari bilan ajralib turdilar.

Olmon mumtoz falsafasining asoschisi Immanuil Kant (1724-1804) xisoblanadi. Uning «Axlokiy metafizikaning asoslari» (1785), «Amaliy aklning tankidi» (1788) va «Xulklar metafizikasi» (1797) asarlari asosan axlokshunoslik va axlokiy muammolarga bagishlangan.

Axlokshunoslikni ob'ektiv konunlar xakidagi fan sifatida, Kant, matematika bilan tenglashtiradi: geometrik kat'iy koidalarni, inson ularga o'zi to'la amal kilish-kilmasligi bilan xisoblashmagani xolda shakllantirgani kabi, axlokshunoslik xam insonning imkoniyatlari bilan xisoblashmaydigan, balki nima axlokiy ekanligini ko'rsatadigan koidalar takdim etmogi kerak. Shu bois faylasuf xukuk va axlok xakidagi fanlarni aklning shak keltirib bo'lmaydigan yoki kat'iy talablarga asolangan nazariyalar sifatida olib karaydi. «Shunday kilib, – deydi Kant, – amr (imperativ), bu shunday koidaki, u xakdagi tasavvur sub'ektiv tasodifiy xatti-xarakatni zaruriy kilib ko'yadi...» Kat'iy amr eng avvalo, shuning uchun oliy va pirovard axlokiy konunki, u insonni fakat maksad sifatida mavjud deb xisoblaydi va insonga vosita deb karashni, ayniksa, undan shunchaki vosita tarzida foydalanishni man' etadi. Bu oliy axlokiy tamoyilga Kant bir necha misollar keltiradi. Mana, ulardan biri. Deylik, men bir yokka ketayotgan do'stimdan xech kimning guvoxligisiz kanchadir pulni saklab berish uchun olib koldim. Bu xakda o'zimdan boshka xech kim xech narsa bilmaydi. Daf'atan do'stim xorijda vafot etadi. Xo'sh, men uning pulini o'zimda olib kolishim mumkinmi? Bu savolga yo'k deb javob berish uchun Kant kat'iy

amrga murojaat kiladi; pulni o'zida olib kolishi, agar biz bu koidaga umumiylik shaklini beradigan bo'lsak, unda boshka xech kim o'z pulini birovga ishonib koldirmaydi, degan gapni anglatadi. Chunki bu xolatda xar bir kishi karzga berilgan pul ba'zi sharoitda yo'olib ketishi mumkinligini bilgan bo'ladi. Shunday kilib, Kant nazarida, axlokiylik moxiyat e'tibori ila insonning kundalik mayda tashvishlaridan yuksakka, ulugvorlikka, iloxiylikka ko'tarilishidir. Axlok xudbinlik manfaatlariga amal kilishdan burchni anglashga o'tishdir. Inson doimo o'z shaxsiy baxtiga yo'naltirilgan mayllari natijasida kat'iy amr bilan karama-karshi kelib kolishi mumkin. Shu jixatdan inson doimo burch bilan mayl oraligida turadi. U ixtiyor tufayli aynan ana shu o'z burchini bajarishiga erkin karor kiladi, ya'ni kat'iy amrga bo'ysunadi va fakat mana shu doiradagina o'z mayllariga erk beradi. Katiy amrga amal kilish imkonini amaliy aklning «sen kila olasan, chunki kilishing kerak», degan konuni beradi. Axlokiy e'tikod kandaydir ichki zo'rlikka asoslangan tizim sifatida ish ko'radi, usiz inson o'zini ko'zguda ko'rsa daxshatdan sapchib tushadi. «xakam insonning ichida» va axlokiy karor pirovard natijada xar bir odam uchun o'z-o'zini sud kilish demakdir. Zero inson, u yoki bu muxim karorni kabul kilar ekan, tashki tartiblar (amal, boylik v.x.) emas, balki fakat burch amri nuktai nazaridan ish tutmogi lozim. Buning aksi ro'y bermasligi insonga o'zini-o'zi nazorat kilsin deb ajoyib nazoratchi – vijdon berilgan. Vijdon insonning ikkiga bo'linib yashashiga chek ko'yadi: xammasini to'g'ri tushungan xolda noto'g'ri xatti-xarakat kilishi mumkin emas. Vijdon bilan berkinmachok o'ynab bo'lmaydi, uni aytganingga ko'ndira olmaysan. Uni uxlatib ko'yish xam mumkin emas, ertami-kechmi uygonadi-da, kilmishingga javob berishga majbur etadi. Buyuk mutafakkirning axlokshunosligini ma'lum ma'noda burch xakidagi ta'limot xam deyish mumkin. U burchning ikki xili borligini ta'kidlaydi: xukukiy burch va axlokiy burch. xukukiy burchni bajarish uchun tashkaridan majbur etilsa, axlokiy burch aksincha, fazilatga, ya'ni ichki xodisaga ixtiyor erkinligiga boglik. Shu bois insonni axlokiy burchga muvofik xatti-xarakat kilish kobiliyatini Kant fazilat deb ataydi.

Axlokiy burchning o'zini xam faylasuf ikkiga bo'ladi: insonning o'z oldidagi burchi va boshkalarga nisbatan, ularning aybdorligi yoki xurmatga munosibliklariga karatilgan burch. O'ziga nisbatan burch, avvalo, insondan o'z-o'ziga xurmatni talab etadi. Uning ziddi – o'z xayotiga kasd kilish, sogligiga putur etkazish, yolg'onchilik, ochko'zlik va soxta itoatkorlik-xushomadgo'ylik. O'zgalarga nisbatan burch esa, avvalo, boshka odamlarni xurmat kilishni talab etadi. U – Kant, «dunyoning buyuk axlokiy bezagi», deb atagan xayr-exsonda, minnatdorchilikda, Kuvonchu gamni baxam ko'rishda, umuman, insonga muxabbatda aks etadi. Ularning ziddi – manmanlik, dilozorlik, xasad, ko'rnamaklik va ichkoralik. Xatti-xarakatning maksadi xam, uning samarasi xam emas, balki uning niyati, ya'ni axlokiy amrga muvofikligi axlokiy xisoblanadi. Ana shu mezon, axlokiy burch insondan xatti-xarakatning ezgu ixtiyor bilan kilinishini talab etadi. «Biror erda, bu dunyoda xam, xatto undan tashkarida xam, fakat birgina ezgu ixtiyordan boshka narsani cheklanmagan darajadagi ezgulik deyish mumkinligini xayolga keltirib bo'lmaydi,» – deydi Kant. Ezgu ixtiyor xarakatni tashki shart-sharoit va manfaatni xisobga olmasdan baxolaydi, zero burchning mazmuni biz intilayotgan baxtda emas, balki baxtli bo'lishga loyikligimizdadir. «Shu bois, – deydi faylasuf, – axlok, sirasini aytganda, o'zimizni kanday tarzda baxtli kilishimiz mumkinligi xakida emas, balki o'zimiz kanday kilib baxtga munosib bo'lishimiz to'grisidagi ta'limotdir.»

Shuni xam ta'kidlash o'rinliki, Kant ixtiyor muammosiga diniy-nasroniy nuktai nazardan yondoshadi: dastavval u yovuz ixtiyor tarzida yuzaga chikadi. Yovuz ixtiyor inson tabiatidagi burch talabini xarakat koidasiga aylanishiga karshi turadigan mayldir. Ana shuning uchn xam o'z-o'zini bilish va aklga asoslangan ezgu ixtiyor zarur. Odamlar ana shu ezgu ixtiyor asosida bir-birlariga munosabat kilishlari kerak. Bu munosabatdagi majburiyatlarning ikkitasini Kant eng muxim deb xisoblaydi. Bular – muxabbat va xurmat. «Har bir kishining burchi, – deb yozadi Kant, – xayrli ishlar kilishidan, ya'ni biror bir mukofotga umid boglamasdan, imkon kadar odamlarga yordam berishidan va ularning baxtli bo'lishiga ko'maklashuvidan iboratdir.» Mutafakkir insonparvarlikni eng muxim fazilat, insonni sevmaklikni asosiy illat deb xisoblaydi. Shuningdek, Kant adolat, rostgo'ylik, do'stlik singari tushunchalarga xam bafurja to'xtaladi.

Kant axlokshunosligining cho'kkisi-abadiy tinchlik goyasi: «xech kanday urushga yo'l yo'k: na men bilan sening orandagi tabiiy xolatdagi urushga, na oramizdagi davlatlar sifatidagi

urushga yo'l yo'k... urush xar kim o'z xukukini ko'lga kiritishi uchun zarur bo'lgan usul emas.» Ayni paytda, insoniyat uchun axlokiy komillikka erishuvning faol vositasini mutafakkir ma'rifatda ko'radi. Ma'rifat uchun esa fakat erkinlik, erkinlik bo'lganda xam juda zararsiz, xar bir xolatda o'z aklidan oshkora foydalanadigan erkinlik zarur. Erkin, xayratlanib, ixlos bilan yashash lozim. Kant axlokshunos sifatida xam shunday yashab o'tdi: «Ikki narsa xakida kancha ko'p, kancha uzok o'ylaganing sari kalbing tobora yangi, tobora kuchayib boruvchi xayrat va ixlos bilan to'lib toshaveradi, bular – boshim ustidagi yulduzli osmon va mening botinimdagi axlokiy konun.»

Bu davrning mashxur axlokshunoslaridan yana biri buyuk mutafakkir Georg Vilxelm Fridrix Hegeldir (1770-1831). Uning axlokiy karashlari «Ilmga ishonch» (1802), «Rux fenomenologiyasi» (1807), «Falsafiy fanlar komusi»(1817), «Hukuk falsafasi» (1821) singari asarlarida aks etgan. Hegel axlokshunosligininng o'ziga xos xususiyati, eng avvalo, shundaki, u xulkiylik bilan axlokiylikni ikki xil tushuncha sifatida takdim etadi. «Hukuk falsafasi» asarida u shunday deb yozadi; «Odatda axamiyatiga ko'ra, bir xil deb xisoblanadigan xulkiylik va axlokiylik bu erda bir-biridan jiddiy fark kiladigan ma'nolarda olinadi.» Hegel o'zining murakkab falsafiy tizimidan kelib chikib, xulkiylikka shunday ta'rif beradi; «Xulkiylik nuktai nazari erkning nafakat o'zida, balki o'zi uchun xam cheksiz bo'lgan darajadagi nuktai nazardir. Bu ixtiyor refleksiysi o'zida va uning o'zi uchun xakikiy aynanligi o'zida-borlikligiga xamda bevositaligiga va unda rivojlanayotgan muayyanliklarga karama-karshi kiyofani sub'ekt sifatida belgilaydi.» Sodda kilib aytadigan bo'lsak, Hegel tushunchasidagi xulkiylik doirasi insonlardagi shaxsiy va xususiy o'zaro munosabatlarni, sub'ektiv fikrdagi majburlikni, idealni, ijtimoiy-tarixiy xodisalarga nisbatan tankidiy kayfiyatlarni o'z ichiga oladi.

Axlokiylikni esa Hegel mana bunday ta'riflaydi: «Axlokiylik xuddi axlokiy borlikda o'zining o'zida va o'zi uchun xakikiy asosiga va xarakatga keltiradigan maksadiga ega bo'lgan o'zini anglash kabi, o'zidagi o'zini anglashda o'z bilimiga, ixtiyoriga, bu ixtiyorning xarakat kilishi orkali o'z vokeligiga ega jonli ezgulik kabi, erkinlik goyasidir; axlokiylik o'zini anglashning mavjud dunyosi va tabiiyyati bo'lgan erkinlik tushunchasidir... Umuman olganda, axlokiylikda xam ob'ektiv, xam sub'ektiv jixatlar bor, biroq, ular axlokiylik shaklining moxiyati xolos. Ezgulik – bu erda substantsiya, ya'ni, ob'ektivlikning sub'ektivlik bilan to'ldirilishidir.» Hegel axlokiylik deganda, odamning tarixan axlokdan oldin paydo bo'lgan urf-odatlar va rasm-rusumlarga, ikkinchi tomondan, davlat, tabakalar, oila oldidagi axlok bilan boglik muayyan majburiyatiga munosabatini nazarda tutadi.

Hegel xulkiylikka kasd va ayb, niyat va ezgulik, ezgulik va vijdon juftlik tushunchalarini kiritadi; axlokiylikka esa oila, fukarolar jamiyati, davlat tushunchalarini taallukli deb biladi va ularni batafsil taxlil etadi. Ezgulik – erk darajasiga ko'tarilgan ixtiyor; amalga oshirilgan erkinlik, olamning mutlak so'nggi maksadi. Yovuzlik – zaruriyat, biroq u ro'y bermasligi kerak. Axlokiy bo'lish yovuzlikning ziddiga etishish, aks xolda esa ezgulik jo'n tabiiy xolatdir. Agar yovuz kilmishdan kandaydir yaxlitlikning jixati sifatidagi ijobiy tomonni topib, uni ezgulik deb talkin etilsa, u kisman o'ziga, kisman boshkalarga kilingna munofiklikdir. Vijdon esa mukaddas, ko'l etmas narsa, insonning o'z-o'ziga pok ishonchi; u ezgulikni bilishdir.

Axlokiylik borasida Hegel konikish tushunchasini o'rtaga tashlaydi. Bu borada faylasuf kuyidagicha fikrlaydi. Hatto arziyas bir faoliyatdan konikishim shunday bo'ladiki, men o'z ro'paramda turaman; ana shu menga konikish beradi. Men o'zimda olamni xis kilaman. Inson nimaniki bajarsa, xammasida ishtirok etadi, zero ixtiyor erkinligi xam ana shundan iboratdir. Inson, avvalo, o'z maksadidan konikishi kerak, o'shanda uning amalga oshuvidan xam konikish xosil kiladi. Okil odam, avvalo, o'zini koniktirishi kerak, ko'p xollarda aynan shuning uchun xarakat kiladi, u o'z tushunchasini, o'zidagi goyasini koniktiradi boshkalarnikini emas, boshkalar konikishi xam, konikmasligi xam mumkin, u o'z tushunchasini, o'z aklini tadbik etishi lozim. Inson manfaatdan maxrum bo'lsin, degan talab bo'lmagur gap. Ulug odamlar ko'pincha o'zlarini o'zlari koniktirganlar, agar ular bu xakda avval boshkalardan so'rganlarida edi, ularning ishlari, shubxasiz, arziyas narsa bo'lardi.

Hegel muxabbat, nikox, oila, fukarolar jamiyati va davlat xakida xam o'ziga xos fikrlar bayon kiladi. Sevgini faylasuf boshka bilan birlashishni anglab etish, o'zining boshka bilan, boshkaning o'zi bilan birlashishini bilish orkali o'zidan kechish tarzida talkin etadi. Sevgi – xissiyot,

boshkacha kilib aytganda, shaklga tushgan tabiiyyatdagi axlokiylik; davlatda sevgi bo'lmaydi, unda birlik konun sifatida anglanadi.

Xullas, Hegel xam Kant kabi insonga nixoyatda katta mas'uliyat yuklaydi. Uning xulosasi kat'iy: «Konun xarakat kilmaydi, fakat inson xarakat kiladi.»

Olmon mumtoz axlokshunosligida bizga ruscha matnlar orkali Lyudvig Feyerbax nomi bilan tanish bo'lgan Ludvix Foyerbaxning (1804-1872) karashlari o'ziga xos o'rin egallaydi.

Foyerbax yangi falsafani yaratish kerakligi xakidagi goyani ilgari suradi; bu falsafasining markazida tabiatdan uzilmagan inson turadi. Shuning uchun uni falsafiyashtirilgan insonshunoslik xam deyish mumkin. «Hakikiy falsafa, – deb yozadi Foyerbax, – kitob yozishdan emas, odamlarni yaratishdan iborat... Yangi falsafaning ildizi muxabbatning xakikiyligida». Bu fikrlardan kelib chikib, shuni aytishimiz mumkinki, Foyerbax falsafasi, ma'lum ma'noda, axlokshunoslikka borib takaladi. Axlok masalalari, ayniksa, uning «o'lmaslik xakidagi masalaga insonshunoslik (antropologik) nuktai nazardan karash» (1846-1866), «Spiritualchilik va moddiyatchilik xamda ixtiyor erkinligiga ular munosabatining o'ziga xosligi xakida» (1863-1866), «Evdeymonchilik»(1867-1869) degan asarlarida, kundalik va xatlarida ko'tarilgan. Faylasufning o'zidan avvalgi mumtozchilardan yana bir farki shundaki, u muammolarga moddiyatchilik nuktai nazaridan yondoshadi va aklni emas, xissiyotni birinchi o'ringa ko'yadi. Uning axlokiy ta'limoti asosan ixtiyor erkinligi va baxt tushunchasiga yo'naltirilgan.

Foyerbax ta'biriga ko'ra, insonning moxiyati xayoliy mavxumot, «rux» emas, balki xissiyotdir, bas, shunday ekan, shu tamoyilga karshi bo'lgan barcha falsafa barcha din nafakat moxiyatan xato, xatto zararlidir. Agar odamlarni yaxshilashni istasangiz, ularni baxtli kiling; agar ularni baxtli kilishni istasangiz, barcha baxtu kuvonchlar manbai bo'lmish xislarga murojaat kiling. Insonning mavjudligi xissiyot bilan boglik. To'g'ri, xayvonlarda xam xissiyot bor. Lekin ularning xissiyoti, sezgilari cheklangan, ya'ni, bir sezgi a'zosi kuchli, boshkalari zaif, kuchlisi xam fakat xis etilguvchi muayyan – u yoki bu narsaga karatilgan. Inson esa barcha xis etiladigan narsa-xodisalar, olam, cheksizlik bilan boglik va uning xissiyotliligi, eng avvalo, boshka insonni xis etishdan iborat. Ayni paytda, insonga, xayvondan farkli o'larok, tanlov ixtiyori, ixtiyor erkinligi berilgan. xissiyotli inson bu erda xoxlovchi, intiluvchi, ixtiyor bildiruvchi sifatida namoyon bo'ladi. Lekin shunchaki o'z-o'zicha, «sof», o'zining jismoniy, moddiy tashuvchisidan xoli, vujudsiz, xayotsiz ixtiyor – xech narsa emas. Ixtiyorning tashuvchisi yoki egasi umuman inson emas, balki muayyan, tirik, o'ziga xos odam. Zero ixtiyor-xoxlovchi insondir. O'zgarmas, zamondan tashkaridagi ixtiyorning bo'lishi mumkin emas, u – doimo mazmunli ixtiyor, nimagadir ixtiyor. xayotning xar bir davri o'zi bilan yangi material va yangi ixtiyor olib keladi. «Ixtiyor xakidagi tadjikotimning asosiy goyasi – ixtiyor va baxtga intilishning birligi, – deydi maktublaridan birida Foyerbax, – «Men xoxlayman» degani, men baxtsiz bo'lishni istamayman, ya'ni men baxtli bo'lishni xoxlayman degan ma'noni bildiradi.»

Darxakikat, Foyerbax ta'limotida «ixtiyor» so'zi «baxtni ixtiyor kilish» iborasi bilan bir xil tushuniladi. Baxt tushunchasi esa ko'p ma'noli, xar bir insonning o'ziga xosligi bilan boglik. Baxt xakidagi va baxtga olib boradigan vositalar to'grisidagi aldamchi tasavvurlar natijasida insonning xoxlagani – baxt deb o'ylagani aslida uni baxtsizlikka etaklashi xam mumkin. Lekin, xar kimning baxti o'ziga xos bo'lishiga karamay, barchasi intilish va extiyoj nuktai nazaridan umumiylikka ega. Faylasuf, insonni jinoyatdan axlok borasidagi «aklli» gaplar, emas, balki baxt asrab koladi, deydi. Lekin u zodagonlarga xos, dabdabali baxtni emas, oddiy odamlarning, ko'pchiliknng baxtini bajarilgan ishdan keyin keladigan, zarur bo'lgan farovonlikdan lazzatlanish baxtini nazarda tutadi. Shu bois insonni illat va jinoyatdan yirok tutish uchun, ya'ni, axlokni muomalaga kiritish uchun avval uning yo'lidagi moddiy to'siklarni yo'kotish kerak. Ayni paytda boshkalarning baxtsizligi xisobiga baxtga erishish mumkin emas. Menning oldida Sen yo'k ekan, umuman, axlokning o'zi namoyon bo'lmaydi. Axlok uchun kamida ikki kishi kerak; Sensiz Menning baxtga erishuvi mumkin emas. Axlok insonga o'zini-o'zi cheklashni, sabr-kanoatni takazo etadi. Ana shu cheklash, sabr-kanoat xam baxt; xakikiy oila boshligi, axlokli ota, o'zi ko'chada lazzatli taom tanovul kilgani xolda, xotin, bola-chakasini och koldirishini o'zi uchun kulfat deb biladi, uning o'rniga oilasi bilan oddiy non-choyni baxam ko'rishdan baxt xissini tuyadi. Kaerda bo'lmasin, yovuzlikni yo'kotish uchun boshka odamlarning baxti va baxtsizligida amaliy ishtirok etish baxtlilar bilan baxtli, baxtsizlar bilan baxtsiz bo'lish – mana, sizga yagona

axlok, deydi mutafakkir. Insonning o'ziga munosabati boshkalarga nisbatan bilvosita majburiyat deb e'tirof etilgandagina axlokiy kimmatga ega bo'ladi: mening oilam, jamiyatim, xalkim, Vatanim oldida majburiyatim bo'lgani uchungina o'zimga nisbatan majburiyatliman, Yaxshi va axlokiy degani bir xil. Birok fakat kimki boshkalar uchun yaxshi xisoblansagina, o'sha yaxshi odam.

Faylasuf baxtga intilishning vijdon bilan uygunligi to'grisida xam batafsil to'xtaladi, uning fikriga ko'ra, vijdon, bu – Mendagi boshka Men, meni o'ziga nisbatan yomonlikdan tiyib turadigan yoki yomonlik kilib bo'lgach, azob beradigan, ta'kib etadigan, tasavvurimdagi boshkaning kiyofasi, timsoli. Boshkaning kiyofasi mening o'zimni anglashim bilan shu kadar boglanib-chirmashib ketganki, men uyim bo'lmish o'z Menimning eng yashirin, eng sirli burchaklarida xam undan kochib, panox topa olmayman; o'zimdan tashkarida boshka odam mavjudligini unutilmayman. Demak, men yovuzlik kildim, bunga guvox bo'lgan odam – yovuzligim kurboni, boshka xech kim xech narsa bilmaydi. Shunga karamay, mening sherigim bor, o'zimda meni sotishi mumkin bo'lgan, ayblovchi guvox bor, bu – vijdon. Birok, xarakat oldidan yoki xatti-xarakat paytida u yo jim turadi yoki ovozi shu kadar zaif va sekin bo'ladiki, xatti-xarakat kiluvchi unga kulok solmaydi.

Foyerbax ta'limotini ba'zilar muxabbat axlokshunosligi deb xam atashadi. Bu bejiz emas. U xayot muxabbatdan iborat, o'z, xususi Menining kobigida xudbinlarcha burkanib yotganidan ko'ra, juda xam arzimas, goyat nomunosib narsani sevgan avlo. Zero fakat bitta yovuzlik mavjud. U xam bo'lsa-xudbinlik, fakat bitta ezgulik bor, u xam bo'lsa-muxabbat. Insonni bilish uchun uni sevish kerak. Foyerbaxni tom ma'noda daxriy deyish nojoiz. To'g'ri u Xudoni tan olmaydi, cherkovdan nafratlanadi, lekin odamga siginishni taklif etadi. «Iso, – deb yozadi faylasuf, – odam edi, xammaga o'xshagan odam. Isoga e'tikod insonga e'tikoddir... Inson inson uchun Xudo... insonga muxabbat insonning eng oliy, eng birinchi konuni bo'lishi kerak.» Shu bois Foyerbaxga zamondosh faylasuflardan biri Shtirner; «Foyerbax dinni axlokshunoslikka, axlokshunoslikni dinga aylantirib yuboradi», deganida ma'lum ma'noda xak edi.

Avvalgi adabiyotlarda, ko'pincha Foyerbaxning insonga munosabati tankid kilinadi. Bunda Marks va Engelsning fikrlariga suyaniladi: go'yo buyuk faylasuf insonni o'z zamonidan, ijtimoiy muammolardan tashkarida taxlil etadi. Aslida gap bunda emas. Foyerbax insonni sinfiylikdan yukori turuvchi umuminsoniy kadriyat sifatida olib karaydi, uni inkilobiy zo'ravonlikka chakirmaydi, uni o'ziga xos tarzda iloxiylashtiradi.

Xulosa kilib shuni aytish mumkinki, olmon mumtoz axlokshunoslari insoniyat jamiyati tarakkiyotiga, uning axlokiy yuksalishiga, shubxasiz, kiyoslab bo'lmaydigan darajada ulkan xissa ko'shdilar. Lekin, bu – ularning nazariyalari, ilgari surgan goyalari va axlokiy karashlari xar kanday nuksondan xoli, degan gap emas. Chunonchi, Kant axlokiylikni asosan burch tushunchasiga olib borib takab ko'yadi, burchning bajarilishida xatti-xarakatlarni mavjud shart-sharoitdan ustun ko'yadi, natijada uning axlokiy talabi ko'prok tirik odamga emas, ideal odamga karatilgan me'yorga aylanib koladi; Fixte va Shelling axlokning moxiyatini fakat insonning trandentsial poklikka intilishda ko'radilar; Hegel axlokiy munosabatlarining sub'ektiv jixatlarini, shaxsning axlokiy javobgarligini bir chetga surib ko'yadi, jamiyat va davlat manfaatlarini xar kanday xolatda xam ustun ko'yadi. Foyerbax esa axlokiy munosabatlarda inson xissiyotiga nixoyatda ortikcha baxo berib yuboradi va, aksincha, aklga o'rin koldirmaydi. Birok, bu nuksonlar olmon mumtoz mutafakkirlarining erishgan yutuklari oldida juz'iylik makomiga ega. Shu bois xam ular tafakkuri kelgusi davrlar axlok ilmi uchun u yoki bu jixatdan asos vazifasini bajaruvchi ta'limotlar bo'lib koladi va yangidan-yangi falsafiy-axlokiy okimlarning vujudga kelishida xal kiluvchi axamiyat kasb etdi.

3. Olmon mumtoz axlokshunosligidan keyingi davrda vujudga kelgan okimlarni, ta'bir joiz bo'lsa, ikki yirik guruxga bo'lish mumkin. Ularning biri – idealistcha-noratsionalcha, ikkinchisi – moddiyatchi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Lekin, xar ikkala guruxdagi yo'nalishlar olmon mumtoz falsafasi ta'sirini inkor etish-etmasliklaridan kat'iy nazar, ma'lum ma'noda bevosita yoki bilvosita o'sha ta'sir ostida o'zlarini namoyon etdilar. Fark shundaki, birinchi gurux ularni inkor etish yo'lidan borsa, ikkinchisi tankidiy tasdik etish yo'lidan boradi. Ularning axlokiy ta'limotlari o'zlari mansub bo'lgan falsafiy okimlar bilan chambarchas boglik.

Yangi davr Ovro'po axlokshunosligidagi noratsional yo'nalishning yana bir asoschilaridan biri buyuk olmon faylasufi Artur Shopenxauerdir (1788-1860). Axlokiy muammolar uning «Olam ixtiyor va tasavvur sifatida»(1819-1844), «Hayot maktabining xikmatlari»(1851), «Axlokshunoslikning ikki asossiy muammosi» (1896) singari barcha yirik asarlarida o'rta tashlangan.

Shopenxauer ta'limotiga ko'ra, olam – inson ko'z ochishi bilan ko'rgan, xidlaru ranglarga, tovushlaru sukunatga, issigu sovukka to'la dunyo fakat va fakat tasavvurdan iborat. «Olam – mening tasavvurim», deydi faylasuf... Olamga xoziru kelajakda nimaiki taallukli bo'lsa, xammasi sub'ekt bilan sifatlanishga albatta maxkum va sub'ekt uchun mavjuddir. Olam – tasavvur». Shunday kilib, olam sub'ekt va ob'ektning o'zaro munosabati sifatida namoyon bo'ladi. Chunki biz fakat ko'zimizni, kulogimizni, ko'limizni, tilimizniginna bevosita bilamiz, olamni emas. Olam, – men uni o'z tasavvurimda kanday kabul kilayotgan bo'lsam, – u shunday. Bu masalaning bir tomoni, ikkinchi tomoni – ixtiyor. U tasavvurga o'xshamaydi, butunlay boshka, sirli, xali kashf etilmagan, extimol, umuman kashf etib bo'lmaydigan narsa. U barcha mavjudlikning ibtidosi. Ixtiyor, bu – mutlak erkin xoxlash, istash, uning na sababi, na asosi bor. U – olamning ichki mazmuni, o'z-o'zicha anglanmagan xolat, ko'r-ko'rona to'xtatib bo'lmaydigan shiddat. xatto daraxtlar uchida xam ixtiyor xukmron, ular yukoriga, nurga karab intiladi, ildiz pastga intiladi – namni ixtiyor etadi. Jism fakat yukoridan pastga – vertikal tarzda ko'llaydi... Ixtiyor, bu – makon va zamonda yashaydigan mavjudotlarning paydo bo'lishini ta'minlaydigan kuch. Lekin uning o'zi makon va zamonga bo'ysunmaydi, uni bilish mumkin emas. Inson esa, eng avvalo, ixtiyor etguvchi, istaguvchi, xirs ko'yguvchi, va fakat undan keyingina, bilguvchi, fikrlovchi mavjudot. Ixtiyorning namoyon bo'lish shakli fakat xozir, kelajak xam o'tmish xam emas. Shu «xozir»ning manbai va mazmunini o'zida mujassam etadigan narsa – yashashga ixtiyor, ya'ni o'zimizdan iborat bo'lgan «narsa o'zida».

Olamiy ixtiyor yoki ixtiyor sifatidagi olam insonnni o'z yo'rigida tutadi. Inson odatda ixtiyor ko'lida, xoxish-istaklar iskanjasida yashaydi. Uning yashashga bo'lgan ixtiyori, istagi goyatda kuchli. U yashash istagida yangidan-yangi ixtiyor iskanjasiga tushaveradi. Insondagi xudbinlik uni ixtiyorga kul klib ko'yadi: o'zim bo'lsam, xammasi meniki bo'lsa, degan akida bilan, ish ko'radi. Bir istak bajarilishi bilan ikkinchisiga xarakat boshlanadi, undan keyin uchinchisiga, to'rtinchisiga va xokazo... Inson bir istak bilan kifoyalanmaydi. Natijada uning xayoti tinimsiz xarakatdan iborat bo'ladi. O'zi to'ysa xam, ko'zi to'ymaydi. Bu xayot – xayot emas, yovuzlik, yolg'on, azob, fojialardan iborat mavjudlik. Insonni baxt deb intilgani oxir-okibat baxtsizlik bo'lib chikadi. Chunki tom ma'nodagi insoniy baxtning o'zi yo'k. Yashashga ixtiyor, xullas, cheksiz iztiroblar manbai; o'z baxtiga intilgan xar bir odam boshkalar uchun iblis bo'lmogi lozim; aslida iblis shaxsiylashgan yashashga ixtiyordan boshka narsa emas. Demak, baxtga intilish – barcha illatlarni keltirib chikaruvchi manba. Bu xodisa Pushkinning «Balikchi va balik xakidagi ertak» asarini eslatadi. Ixtiyor changalidagi inson balikchi cholning xotiniga o'xshaydi: eng ulkan baxtga erishaman deb, baxtsizlikka erishadi. Zero Shopenxauer nazdida xayotda doimo xudbinlar ko'pchilikni tashkil etadi. Ixtiyor changalidagi xudbin o'limdan ko'rkadi, chunki o'lim ixtiyorga, barcha xoxish-istaklarga chek ko'yadi. Asl inson, yuksak axlok egasi ixtiyorga, eng avvalo, xayotga, yashashga bo'lgan ixtiyorga chek ko'ymogi lozim. Yani, inson o'limdan ko'rkmasligi, unga intilmogi kerak. Chunki inson uchun cho'ng maksad – o'lim. Insonning butun xayoti o'limga tayyorgarlikdan iborat; inson o'lim uchun tugiladi.

Xo'sh, inson ixtiyor changalidan kutilaman, barcha azob, iztirob, fojialardan forig bo'laman desa nima kilishi kerak? O'zini-o'zi o'ldirishi lozimmi?. Shopenxauer bunga, yo'k, deb javob beradi. Chunki o'zini o'zi o'ldirayotgan odam yashashni xoxlaydi, fakat u berilgan xayotdagi shart-sharoitdan norozi. Shu bois o'zini o'ldirgan kishi xayotga bo'lgan ixtiyordan emas, xayotning o'zidan yuz o'giradi. Vaxolanki, buning aksi bo'lmogi lozim. Inson barcha xoxish-istaklardan bosh tortmogi, ixtiyor panjalaridan kutilmogi kerak. O'shanda inson yashayveradi, lekin xayot uning uchun xech narsa emas; endi insonni xech narsa bezovta kila olmaydi, u xakikiy xotirjamlikka, istaksiz umrga erishadi.

Bunday darajaga erishishi, o'z xakikiy «Men»imizning xodisasi bo'lmish butun olam bilan birgalikdagi to'lakonli mavjudlikni ko'lga kiritish imkoni shafkat orkali amalga oshadi. Shafkat o'zida o'z «Men»imizning azaliy, ibtidoiy teranligida, barcha boshka iztirob chekayotgan

mavjudotlarga nisbatan ko'ngli ochiklikda, ularga bo'lgan mexr-muxabbatda namoyon bo'ladi; shafkat kandaydir umumbashariylik va umumjaxoniylikning ideal miqyosi; u bizdan izn so'ramay o'z axamiyatini ko'rsatadi va biz aybsiz aybdor bo'lib kolamiz – bor mavjudotning iztiroblariga aybdor xamda alokador jonzotga aylanamiz. Bu xolatni Shopenxauer yigi xodisasi bilan dalillaydi: biz iztirobni xis etayotganligimiz uchun emas, balki o'zimizga yoki boshkalarga achinganimiz uchun yiglaymiz; xatto bola ogrikni shunchaki xis kilganidan emas, ko'pincha unga achinganimizdan, raxmimiz kelganidan yiglab yuboradi. Biz yiglayotgan paytda o'zimizni darxol iztirob chekayotgan odam o'rniga ko'yib ko'ramiz yoki uning takdirida butun insoniyat chekiga tushgan kismatni, avvalo, o'zimizning kismatimizni angalaymiz, deydi faylasuf. Ana shu xodisa barcha mavjudotlar bilan borlik barkarorligining ichki birdamligini namoyon etadi. Demak, boshka odam yoki boshka jonzot azobiga xamdard bo'lish, achinish orkali inson barcha tirik zotlar bilan moxiyatan yakiniqligini, kardoshligini anglaydi. «xakikiy axlokiy xatti-xarakat, bu boshkalar uchun kilingan xatti-xarakatdir. Bu – uning baxti yo kaygusi xatti-xarakatimning bevosita sababi bo'lishi kerak, degani. Boshkacha kilib aytganda, men o'zimda o'zimni u bilan aynanlashtiraman. Bu – shafkat xissi», – deydi Shopenxauer. U yana bir o'rinda shafkatni inson tabiatidagi axlokiylikning so'nggi asosi, deb ataydi.

Shunday kilib, Shopenxauer xayot falsafasi okimiga asos solgan bo'lsa, uning etakchisi yana bir buyuk olmon faylasufi Fridrix Nittsshedir (1844-1900). Uning axlokka munosabati «Zardusht dediki...»(1883-1884), «Ezgulik va yovuzlikning narigi tarafida» (1886), «Axlokning kelib chikishiga doir» (1887). «xukmronlikka ixtiyor. Barcha kadriyatlarini kayta baxolash tajribasi» (1889-1901) singari asarlarida aks etgan.

Nittsshe xakida xozirgacha bir-birini tubdan inkor kiladigan ikki umumiy fikr mavjud. Biri – uni fashizmning asoschisi, urushlar tarafdori, axloksizlikni, zo'ravonlikni ma'kullovchi, mafkurachi-faylasuf sifatida, ikkinchi umumiy fikr – uni inson shaxsi ozodligini, inson xususiyligini bo'rtirib ko'rsatgan, insonni ulug mavjudot ekanini yodiga soluvchi, shaxs erki tarafdori bo'lgan mutafakkir tarzida talkin etadi. Ho'sh, aslida u kanday faylasuf?

Avvalo, Nittsshening inson xakidagi fikriga, ta'rifiga e'tibor beraylik; «Butun koinotda inson kiyofasidan xam jirkanchlirok biror bir narsa topish gumon.» Yoki; «Erning terisi bor va bu terida esa kasalliklar mavjud. Ana shunday kasalliklardan birini inson deb atashadi.» Agar bu fikrlarni to'gridan-to'gri olib karaydigan bo'lsak, xakikatan xam kishi daxshatga tushadi: naxotki, inson, ulug mavjudot, tabiat sarvari, Xudoning Erdagi xalifasi shunday jirkanch bo'lsa?! Bu-bo'xton, telbalik, arzon shov-shuv uchun aytilgan gap, ma'naviy olihtagarchilik. Lekin ularni ramziy tarzda tushunadigan bo'lsak, mana kanday manzaralar ko'z oldimizga keladi; Firdavsiydagi Zaxxok, Navoiydagi Jobir, Shekspirdagi Yago; Neron, Chingizxon, Lenin, Stalin, Hitler, Pol Pot... Xo'sh, bulardan xam jirkanchlirok kiyofalar bormi olamda? Endi terisi kasallangan Erni tasavvur kiling! Alam bilan Xirosimani, Nagasakini, Birinchi va Ikkinchi jaxon urushi yaralarini kashiyotgan Ona-Er timsolini ko'z oldingizga keltiring, xozirgi kundagi ekologik buxronni o'ylang... Demak, Nittsshening gapida jon bor.

Faylasuf odamlarni uch toifaga bo'ladi: oxirgi odamlar, yaxshi odamlar va alo odam (odamdan yuksak odam). U Zardusht tilidan shunday deydi; «Karangiz! Men sizga eng oxirgi odamni ko'rsataman. «Muxabbat – nimadir? Yaratmok – nimadir? Intilmok-chi? Yulduz degani nima?» Oxirgi odam ana shunday deb so'rab turadi va ko'zlarini pirpiratadi. Er kichkina bo'lib koldi va uning yuzasida xamma narsani kichraytiruvchi mitti odam sakrab-sakrab yuribdi. Uning urugi suvarak kabi kirilib bitmagay: oxirgi odam xammadan ko'prok yashaydi. Ular vakti-vakti bilan andak zaxar yutadi. Shundan yaxshi tushlar ko'radi... Cho'bon yo'k, xammasi – poda! xar kim tenglik istaydi, xamma-teng. Kimda-kim boshkacha anglasa, o'z ixtiyori bilan jinnixonaga yo'l oladi. «Ilgari butun olam telba edi», deydi ularning eng okillari va ko'zlarini pirpiratadi. «Baxt-ikbolni biz topganmiz», deb aytadi oxirgi odamlar va ko'zlarini pirpiratadi».

Mana yaxshi odamning ta'rifi; «Men shunday odamni sevamanki, u alo odamga makon kurmok uchun zaxmat chekadi va ixtirolar kiladi va uning kelmogi uchun er, maxlukot va nabototni xozirlab ko'yadi. Zotan, shu tarzda o'z xalokatini istaydi. Men shunday odamni sevamanki, u yaxshiligidan intilish va tole'ni yasaydi. Zotan u xuddi mana shunday – o'z yaxshiligi uchun yashashni istaydi va boshkacha umr kechirishni bilmaydi.»

Alo odam to'grisida esa Nittsshe kuyidagicha fikrlaydi: «Men sizlarga Alo odam to'grisida ta'limot keltirdim. Odam shunday bir xilkatdirki, undan oshib o'tmok kerak. Siz undan o'tmok uchun nima kildingiz? Shu damgacha barcha xilkatlar o'zidan yukorirok nedir bir narsa yaratdi. Siz shu ulug to'lkidan sachragan ko'pik bo'lib o'tirdingizmi? Odamdan o'tish o'rniga, tezrok boz yana yaxshiy xayvon tusiga kirishga oshikdingizmi. Alo odam – zaminning mazmuni. Birodarlarim, men sizga iltijo kilib, zaminga sodik bo'ling va sizga er uzra umid to'grisida so'zlayotganlarga ishonmang! O'zlari bilarmi, bilmasmi, biribir, ular zaxarlaguvchilar, deb ayturman... Chindan xam, odam – loyka seldir. Uni o'ziga yutib toza kilmok uchun fakat dengiz bo'lmok kerak. Karang, men sizga alo odam to'grisida so'zlayapman; U o'sha dengiz, unda sizning ulug nafratingiz cho'kib ketgay... U – chakmok, U – telbalik!...» (I. ʔafurov tarjimasi).

Endi uchala odam turini tasavvur kilib ko'raylik. Misol tarikasida «Alpomish» dostoniga murojaat kilaylik. Oxirgi odamlar kichkina joydagi kichkina issik o'rinlari uchun Alpomishning o'gli Yodgorni xo'rlagan bakovul, Ultontozni xon ko'tarib, uning dasturxoni sarkitlarini zavk bilan kutib yashayotgan kichkina odamlar emasmi? Ular agar katta xarflar bilan yoziladigan «Muxabbat» so'zining ma'nosini bilganlarida, yulduzlar bilan akalli biror tun so'zsiz suxbatlashganlarida pastkashlik kila olarmidilar? Nittsshe ular xakida boshka bir o'rinda maydalashib ketgan bunday odamlar, xukmronlikka layokati bo'lmagan, noloyik shaxslarning muvaffiqiyatlari uchun yo'l ochib beradi, ular buyruk beradigan xar kanday iroda kuchi oldida tiz cho'kadilar, deydi. Yaxshi olam-chi? Yaxshi fazilatli odam Korajon emasmi? Korajonlar Alpomishning kelishi uchun, yuzaga chikishi uchun xamma narsani kilishga, kerak bo'lsa, jonini berishga tayyor. Alpomishlarning ularsiz ro'yobga chikishi mumkin emas. Alpomishlar esa – zaminning mazmuni. Shu sababli Nittsshe ularni insoniyatning orzu-umidi deb tariflaydi; «Bizning moxiyatimiz – o'zimizdan yuksakrok mavjudotni yaratishdan iborat. O'z chegaramizdan naridagi o'zimizni yaratish...» Kachondir u – erga maksad, kutkaruvchi inson kelishi kerak...» Xudo o'ldi; va bizning istagimiz – alo odam yashasin». Bunday odam oldida konunlar bosh egadi, unda xam konunchi, xam san'atkor omuxtalashib ketgan bo'ladi. «Darajalar pillapoyasida inson egallaydigan o'rin u cheka olishi mumkin bo'lgan iztirobalar bilan belgilanadi», deydi faylasuf. Buning uchun, ya'ni, alo odam bo'lish uchun inson an'anaviy axlokiy kadriyatlardan kechishi kerak: shafkatli emas, shafkatsiz bo'lishi lozim, rost – bor yo'gi kat'iy amr, yolg'on esa – xayotning doimiy yo'ldoshi, xatto sharti, xar kanday fazilat nodonlikka, xar kanday nodonlik fazilatga etaklaydi... – Mana, Nittsshening kadriyatlarni kayta baxolashi. «Axlok, – deydi u, – insonning tabiat koshidagi oliftagarchiligi». Zero axlok tufayli, yovvoyi, erkin, darbadar, insonning barcha tabiiyyati (instinkti) doimiy majburlikda saklanishi natijasida tashkarida ko'llanish imkonini topmasdan ichkariga urib ketadi. Shu bois odam o'zini ichki sikuvda saklaydigan axlokiy kadriyatlardan kechishi kerak, erkin bo'lishi lozim. Bu esa, yukorida aytilganidek, iztirobni talab etadi. Iztirob o'zgalarga emas, o'ziga shafkatsizlikdan, ezgulik va yovuzlik doirasidagi fazilatlaridan kechib, undan nariga tarafga o'ta olishdan, ya'ni, muayyan davr uchun konunlashtirib ko'yilgan axlok me'yorlarini bajarmaslikdan, ularni kunfayakun kilib tashlashdan iborat. Prometey takdiri bunga yaxshi misol bo'la oladi. U Zevs o'rnatgan va xech bir ma'bud tasavvur eta olmaydigan, jinoyat kildi. Olimp iloxiy jamoasidagi azaliy axlok koidalarini buzdi – insonga, zulmatga maxkum mavjudotga olov o'g'irlab keltirib berdi va bu «o'gri» koyaga parchinlanib, ko'z ko'rib, kulok eshitmagan azobga maxkum etildi. Hitler xam, Stalin xam, Pol Pot xam emas, aynan ana shu «axloksiz» ma'budni alo odamning azaliy timsolidir, deyish mumkin.

Fridrix Nittsshening olmon millatchiligida ayblashadi. Vaxolanki u: «Olmonlar – ularni kachonlardir mutafakkirlar deb atashardi, xozir, umuman fikrlay oladilarmi? – Duetshland, Duetshland Über alles, ko'rkamanki, olmon falsafasining so'nggi shu bo'lmasa edi...». Nittssheni yaxudiylarning dushmani sifatida talkin etishadi. Vaxolanki, u mana bunday deydi: «Yaxudiylar, shubxasizki, xozir Ovro'podagi eng kuchli, eng tirishkok, eng toza irk»; «mamlakatdan aksilsemitchi bakiroklarni chikarib yuborish, extimol foydali va adolatli bo'lur edi». Yoki mana bu fikrga e'tibor kiling: «Hech kanakangi amerikacha kelajakning bizga keragi yo'k! Olmon va slavyan irklarini payvandlash lozim!». «Men xatto olmonlar slavyan konining kuchli aralashgani tufayli iste'dodli millatlar katoriga kirdi deb o'ylayman». Bu misollardan keyin Nittssheni irkchilikda ayblash kishiga erish tuyuladi. To'gri, u yaxudiylarni ba'zi o'rinlarda «kamchilab»

o'tadi. Lekin ularning asosiy, aybini Isoni dunyoga keltirganlikda ko'radi. Isoni esa odamlarni shalpaygan, erksiz mavjudotga aylantirib ko'yganlikda ayblaydi.

Yana shuni aloxida ta'kidlab o'tmok joizki, Nittsshe-Shopenxauerning shogirdi. Eslaylik: Shopenxauer axlokiy illatlarni birinchi o'rniga ko'yib, fazilatlarini mustakil xodisalar emas, balki illatlarning aksi tarzida talkin etgan edi. Nittsshe esa bu borada yana xam ilgarilab ketadi: illatlarni fazilat tarzida, fazilatlarini illat tarzida takdim kiladi. Uning nazdida, inson o'z illatlarini tuzatmasa xam, ularni ochik, xalol e'tirof etishi, illatlarimizni fazilatlar orasida berkitib turishdan, fazilatlar bilan nikoblashdan afzaldir. Nittsshe, shu sababdan xam ezgulik, shafkat, burch kabi tushunchalarni emas, to'grilik va axlokiylikni axlokning negizi deb biladi. Demak, Nittsshe ta'limotini o'rganish uchun ko'p o'rinlarda unga nivelirning durbini orkali karash, ya'ni, fikrlar ortidagi teskari ma'noni tushunmok lozim bo'ladi. Chunonchi, u Isoni, nasroniylikni, boya aytganimizdek, aybdor deb sanaydi, ular sha'niga achchik gaplar aytadi, o'zini aksilnasroniy deb ataydi; faylasuf xatto so'nggi asarlaridan biriga «Aksilnasroniy» nomini xam bergan. Lekin aslida u Isoni, nasroniylikni sevadi: «Men kalban xech kachon nasroniylikka karshi gunox ish kilmaganman», deydi Nittsshe. So'nggi maktublariga esa uning «Xochga parchinlangan kimsa» deb imzo chekkanligi malum. Bularning sababi shundaki, mutafakkir insonni xam, Isoni xam, axlokni xam sevadi, lekin ular o'zlari o'zligini namoyon kila olmaganidan, chekiga tushgan vazifani bajarmaganidan, ko'tarilishi mumkin bo'lgan yuksaklikka ko'tarilmaganidan – maydalashib ketgan buyuklikdan gazablanadi, alam bilan, jaxl bilan fikrlaydi. «Jaxl kelganda, akl ketadi», degan makol nazarimizda ko'prok Nittsshega taallukli.

Yana shuni xam aytish lozimki, ma'lum ma'noda, Nittssheni olmon Nostradamusi deyish mumkin. Sotsializm xakida u mana shunday bashorat kiladi: «... kiska vakt oraligida o'ta terrorchilik vositasi bilangina mavjud bo'lishga umid boglashi mumkin... Shuning uchun u astasekinlik bilan daxshat xukmronligiga tayyorgarlik ko'rmokda.» Darxakikat, Lenin, Stalin sotsializmi xam, Mao Tsze Dun, Pol Pot, Sharkiy ovro'po sotsializmi xam juda kiska umr ko'rdi va shu kiska muddatda o'zini katagonlar vositasidagina saklab turdi. Nittsshe eng tinch davrlarda, urush xayolidan yirok yillarda, tarixda misli ko'rilmagan urushlarning ketma-ket kelishi, ularda er yuzida xukmronlik kilish uchun Rossiya bilan birlashgan Ovro'po kuchlarining to'knashuvi xakida yozadi. Darxakikat, Nittsshe vafotidan keyin o'n to'rt yil o'tar-o'tmas Birinchi jaxon urushi boshlandi, keyin Rossiya inkilobi, Antanta xujumi, fukarolar urushi, Stalin va Hitler katagonlari dunyoning ko'p kismini konga botirdi; undan so'ng Ikkinchi jaxon urushi boshlandi: xirosima, Nagasaki fojialari, milliy ozodlik uchun olib borilgan urushlar, Vetnam urushi, Lotin Amerikasi va Afrikadagi partizanlik xarakatlari, fukarolar urushlari, Eron, Irok, Afgoniston, Tojikiston,... Bunday urushlar xozir xam davom etmokda. Uning Rossiya, Olmoniya, xatto Ovro'po Ittifoki xakidagi fikrlarini xam bemalol bashorat deyish mumkin. «Bu Ovro'po xalklari Ittifokida xar bir aloxida xalk, jugrofiy maksadlariga muvofiklashgan chegaralarda muayyan kanton o'rnini egallaydi, – deydi faylasuf. Ularning o'zaro munosabatlari kurolli kuchlar emas, balki «o'zaro foydalilik» tamoyili asosiga kurulishini ta'kidlaydi. Bu Ittifokning tuzilganiga, tamoyili xakikatan «o'zaro foydalilik» ekaniga, pul birligi «evro»ning muomalaga kirganiga o'zimiz guvoxmiz.

Birok, bularning xammasi Nittsshe kiyofasining bir tomoni, uning ikkinchi tomoni xam bor: «... bir tomondan, tabiiy tanlov yo'li bilan, ikkinchi tomondan – millionlab ojiz va omadsizlarni zo'rlik bilan yo'kotish yo'li orkali kelajak odamini yaratish kerak...» Yoki: «o'zining yirtkichlarcha jasoratidan keyin ular magrur va vijdoni engil tortib, o'zini kanday so'ygani, yondirgani, kiynokka solgani, zo'rlaganini xatto eslamay, xuddi talabalar bazmidan keyin uyiga kaytayotgan» ideal odamni, «malla shaytonni» ko'z oldingizga keltiring. Nittsshe, past irklarda, masalan, kora tanlilarda, ogrikni xis kilish kobiliyati kam, deydi. Boshka bir o'rinda u; «xayot – urushlar natijasi, jamiyat – urush kurolli. Urushdan bosh tortish katta mikyosdagi xayotdan bosh tortmok demakdir», degan fikrni aytadi. Bular shunchaki xazil emas. Nittsshe insoniyat kelajagida ikki yo'nalishni ko'rdi: biri sotsializm, ikkinchisi fashizm, u sotsializmning terrorlariyu, tenglashtirishlaridan nafratlanib, fashizmni ma'kul ko'rdi. Zero mana bu fikrlar xam uniki: «Ovro'poliklar xozir o'zlarini moxiyatan Er yuzidagi oliy odamlar deb xayol kiladilar. Aslida esa osiyoliklar xar jixatdan ovro'poliklardan bir bosh baland turadilar.» Shu o'rinda buyuk olmon

aksilfashist yozuvchisi Tomas Manning Nittsshe fashizmni emas, fashizm Nittssheni bunyodga keltirdi, degan fikrini eslatmok joiz.

Xullas, Nittsshe axlokiy ta'limotiga teran, extiyot bo'lib yondoshmok lozim. Bu ta'limotdagi ikki xil karash o'zaro dialektik munosabatni inkor etadi. Unga bekarorlik falsafasi-sinergetika nukta nazaridan yondoshmok lozim. Nittsshening timsolli tili bilan aytadigan bo'lsak, bu «yokimsiz xakikatlar» faylasufining bir yuzidan o'pib, ikkinchi yuziga tarsaki tushirmok kerak. Har xolda uning ta'limoti jaxon falsafasi tarakkiyotiga katta xissa bo'lib ko'shildi; xozir xam uning eng ilgor karashlari yangi-yangi falsafiy okimlarning yuzaga kelishi uchun turtki vazifasini o'tamokda.

Olmon mumtoz falsafiy tafakkuridan keyin paydo bo'lgan yana bir okim, nittsshechilik kabi amalda tadbik etilgan yo'nalish bu markschilikdir. Olmon mumtoz falsafasi zaminida, asosan, Kant, Hegel va Foyerbax karashlarini yangilash asnosida vujudga kelgan mazkur okimning asoschilari Karl Haynrix Marks (1818-1883) va Fridrix Engelsdir (1820-1895).

Marks va Engels o'z asarlarida axlokshunoslikka deyarli bevosita o'rin bermaganlar, balki axlokka moddiylik prizmasi orkali, ya'ni, bilvosita munosabatda bo'lganlar. Shu bois ularning axlokiy muammolarga bagishlangan maxsus asarlari yo'k. Ular asosan inson erk muammosini ishlab chikarish va sinfiylik tushunchasi bilan boglik xolda o'rgandilar. Chunonchi, Marksning uch jildlik «Sarmoya («Kapital») asarida ko'tarilgan iktisodiy masalalar, xususan, ko'shimcha kiymat, insonning iktisodiy begonalashuvi, mexnatdan begonalashuvi singari xolatlar odamning o'z asl moxiyatidan begonalashuviga olib kelishi, uni erksiz mavjudotga aylantirib ko'yishi xakidagi karashlarini ilgari suradi. Lekin bu ta'limotda insonning ma'naviy munosabatlari masalalari, afsuski, iktisodiy muammolar soyasida kolib ketadi, inson bor-yo'gi ob'ektning, moddiy tabiatning bir bo'lagi sifatida olib karaladi, bevosita bo'lmasa xam, bilvosita shaxs erkinligi deyarli inkor etiladi; shaxsning fikri, u kim bo'lishidan kat'i nazar, jamoatchilik fikriga bo'ysundiriladi. Bu ta'limot amalda tadbik etilganida, uning asoschilari buni kanchalik istamagan bo'lishsin, doim jamiyatda tenglashtirish xodisasi vujudga keladi. Bundan tashkari, markschilik insoniyatni, millatni, jamiyatni sinf deb atalmish bir necha bo'lakka bo'lib tashlaydi, natijada umuminsoniy kadriyatlar sinfiy nukta nazardan kayta baxolanadi.

Marks Yo'zef Vaydemaerga yozgan xatlaridan birida o'z ta'limotining yangiligini kuyidagi tarzda kiskacha ta'riflaydi: 1) sinflarning mavjudligi fakat ishlab chikarish tarakkiyotining muayyan tarixiy boskichi bilan boglik; 2) sinfiy kurashning yo'ksullar (proletariat) diktaturasiga olib borishi zarurat; 3) shu diktaturaning o'zi xar kanday sinfiylikni yo'kotish va sinfsiz jamiyatga o'tishdan iboratdir. Yo'ksullar diktaturasini o'rnatishga esa, «Kommunistlar partiyasi manifesti»da aytilganidek, «mavjud ijtimoiy zulmni butkul zo'rlik yo'li bilan agdarib tashlash orkaligina erishiladi». Inkilob va yo'ksullar diktaturasining moxiyatan avtoritarligi xakida Engels mana bunday deydi: «Inkilob, shubxasiz, o'ta avtoritar narsa. Inkilob shunday xodisaki, unda axolining bir kismi ikkinchi kismiga o'z xoxish-irodasini miltik, nayza va zambaraklar vositasida, ya'ni favkulodda avtoritar vositalar yordamida o'tkazadi. Agar galaba kilgan partiya o'z xarakatlari mevasini boy berishni istamasa, u xukmronligini reaksionerlarni ko'rkuvda tutadigan kurollar vositasida tutib turishi kerak.»

Markscha axlokshunoslik xam asosan, ana shu fikrlardagi moxiyatga bo'ysundiriladi: axlok ichki inkilobiy omil sifatida, omma xayotiy sharoitini yaxshilashga safarbar kiluvchi xodisa tarzida talkin etiladi. Marks va Engelsning fikriga ko'ra, inson o'z shaxsini tarakkiy ettirishi va erkinlikni ta'minlashi uchun fakat jamoadagina imkon topadi. Baxtning moxiyati – baxtga erishishda emas, balki kurashning o'zida. Inson fakat umumiy kommuna ishi manfaatlari uchun yashashi lozim. Aynan mana shu manfaat – eng oliy kadriyat xisoblanadi. Bu kadriyatni barkaror etish – kommunistcha mafkuraviylik orkali amalga oshadi va insoniyatni «bir kishi xamma uchun, xama bir kishi uchun» degan tamoyilda yashashga da'vat etadi. Xullas, yukorida aytganimizdek, markschilik ilgari surgan kommunistcha axlok – jamoatchilik axlokidir. Shaxs-ana shu jamoatchilik axlokini amalga oshiruvchi vosita, xolos.

Marks va Engels ta'limotining eng ulkan xatosi shundaki, u aklli, korinni to'ydirib, yaxshi kiyingan xolda, ibtidoiy jamoa tuzumiga, to'g'rirog'i, uning yangicha intellektual ko'rinishiga kaytishni targib etadi. Kaytish, u kanchalik tarakkiyot deb jar solinmasin, kanday nom bilan atalmasin, xech kachon olga kadam bo'lolmaydi. Ya'ni, tarix gildiragini zo'rlab ortga aylantirish,

u kay shaklda amalga oshirilmasin, insoniyat uchun bir emas ikki tomonlama zarar: bu ulkanlikda va ogirlikla tengsiz gildirak shunchaki ortga yurmaydi, o'z yo'lidagi allakachon yaratilgan umuminsoniy va milliy kadriyatlarni, ma'naviy boyliklarni majaklab boradi; bir kancha vaktidan so'ng, uni ortga aylantirayotgan kuch zaiflashganda esa, izidan chikib ketib, zudlik bilan yana avvalgi o'rniga kaytadi; bu ikkinchi kaytishda xam insoniyatning ma'naviy va moddiy kurbonlar berishi tabiiy xol. Shu nuktai nazardan markschilik, kanchalik bo'yab-bejalmasin, u zo'ravonlik mafkurasi, korin falsafasi sifatida, ortga kaytish tarzida, moxiyatan shaxs erkinligini yo'kka chikaruvchi, yuksak axlokka zid, reaksion ta'limotdir.

Mumtoz tafakkurining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, muayyan tarixiy davrda ma'naviyat soxasidagi erishgan yutuklarni tizimli tarzda boyitib, ularni yangicha karashlar va yo'nalishlar vositasida navbatdagi yukori boskichga olib chikadi. Olmonlardan so'ngra ana shunday mumtoz tafakkur XIX asr oxiri XX asr boshlarida ruslarda voke bo'ldi.

Bu davrda rus mutafakkirlari ma'naviyatning barcha soxalarida jaxonda etakchilik mavkeini egalladilar. L. Tolstoy, F. Dostoevskiy, I. Turgenev, N. Nekrasov, N. Chernishevskiy, Vl. Solovyov, N. Losskiy, N. Berdyaev, S. Bulgakov, S. Frank, P. Florenskiy, V. Rozanov, A. Chexov, A. Axmatova, B. Pasternak, I. Bunin, S. Esenin, M. Gorkiy, V. Nabokov, B. Vysheislavtsev, G. Shpet, V. Vernadskiy, A. Losev singari buyuk nomlarning ba'zilar ana shu davrda butun kuch-kuvvatlari bilan o'z faoliyatlarini nixoyasiga etkazgan bo'lsalar, boshkalari o'z faoliyatlarini chet ellarda davom ettirdilar. Ba'zilar ijodida badiiy tafakkur borasida realistik yo'nalish birinchi darajali o'rin egallagan bo'lsa, boshkalari falsafiy-axlokiy va estetik tafakkurda diniy-idealistcha yo'l tutdilar. Aynan ana shu diniy-idealistcha yo'nalish falsafiy-axlokiy tafakkurni mumtozlik darjasiga ko'tarishda muxim axamiyat kasb etdi. Mazkur yo'nalishning vujudga kelishi va tarakkiy topishida buyuk rus faylasufi Vladimir Sergeevich Solovyovning (1853-1900) xizmatlari katta.

Vladimir Solovyovning axlokiy karashlari uning kator asarlarida ifoda topgan. Ular orasida «Ezgulikni oklash. Axlok falsafasi»(1897-93) kitobi aloxida axamiyatga ega. Uning birinchi kismida uyat, shafkat yoki achinish va xudojo'ylikdan iborat axlokiy tushunchalar uchligi asosiy o'rinni egallaydi. Xo'sh, uyat nima? Nisbatan tubanlikka va nokomillika tushib kolgan, lekin bunday xolatni o'zi uchun noloyik deb bilgani uchun mazkur darajadan yuksalish zarurligini anglagan kishi uyaladi. Chunonchi, jinsiy aloka xayvonot olami uchun tabiiy va axlokiylikka alokasi yo'k. Birok u insoniyat dunyosida, tabiiy bo'lsa xam, axlokiy xatti-xarakat tamoyili emas, beparda xolida insonni uyaltiradigan xolatdir. Zero u, tabiiy bo'lsa xam, axlokiylik koshida o'zining ochik ko'rinishda amalga oshuv xukukini yo'kotadi, ya'ni, axlokka bo'ysunadi.

Solovyov, Dekartning tafakkur moxiyati xakidagi mashxur iborasini axlokiylikka nisbatan ko'llanganida maksadga muvofik bo'lur edi, degan muloxazani bildiradi: «Men uyalyapmanmi, demak, mavjudman, na fakat jisman, balki axlokan xam mavjudman, – men o'z xayvoniyligimdan uyalayapmanmi, demak, men xali xam odam sifatida mavjudman».

Shu o'rinda faylasufning zurriyot xakidagi o'ziga xos fikrlarini keltirish joiz. Toki bola tugilishi tom ma'noda insoniylikka bo'ysundirilar ekan va axlokiy ma'no kasb etar ekan, bu bilan o'zining gunoxkorlik xususiyatini yo'kotadi, ya'ni, nafakat bu dunyoda gunox kila-kila, oxir ular xam ota-onalari kabi o'limga maxkum bo'ladilar, balki insoniyatni yaxshilash uchun xizmat kiladilar: ularning ota-onalari bolalari o'zlaridan yaxshirok, axlokiyrok bo'lishiga ishonadilar, ularga ma'lum tarakkiyot tarzida karaydilar. Bundan faylasuf kuyidagicha xulosa chikaradi: «Mana mash'um ziddiyatning echimi: tugilishning yovuzlik moxiyati tugilishning o'zi orkali yo'kka chikariladi, ya'ni ezgulikka aylanadi... ular (bolalar-A. SH) boshka xayotning odamlari bo'ladilar, bizning va barcha ajdodlarimizning xakikiy najot topishi shundadir».

Solovyov nuktai nazaridan karaganda, achinish va shafkat uyatchanlikka zaruriy ko'shimchalardir, Zero ular ruximizning xayvoni junbushlarini cheklaydilar. Achinish va shafkatning eng yorokin misoli sifatida faylasuf onaning zaif, xech narsa ko'lidan kelmaydigan, butunlay o'ziga karam chakalokka – bir parcha etga munosabatini keltiradi. Birok shafkatlilikni axlokiylikning yagona tayanchi deb karash to'g'ri emas. Bu borada Shopengaxuer xatoga yo'l ko'yadi, deydi Solovyov. Chunki mechkay, ichkilikboz yoki xotinboz xam ko'ngli bo'sh, shafkatli bo'lishi mumkin, lekin bunday kishini axlokiy shaxs deb atash mumkin emas. Demak, uyat inson xatti-xarkatini boshkarib turuvchi axlokiy xodisadir.

Faylasuf uch avlod – bobolar, otalar va bolalarning tabiiy boglanishi xakida to'xtalar ekan, axlokiy tarakkiyot munosabati bilan ma'naviylashishning uch xili to'grisida – din, nikox va tarbiya orkali ma'naviylashish to'grisida fikr yuritadi. Bu uch axlokiy soxa insonni Xudo bilan boglaydi: biri – kechmish, ikkinchisi – hozirgi zamon va uchinchisi – kelajak orkali. Hakikiy nikoxda jinsiy aloka yo'kolmaydi, balki moxiyatan o'zgaradi, xayvoniy xissiyotni kondirishga emas, insondagi Xudo kiyofasini soglomlashtirishga xizmat kiladi. Shu nuktai nazardan karaganda, nikoxiy juftlik zoxidlikning, matonatning, jafokashlikning bir shaklidir.

Umuman olganda, Solovyov odamlarni yaxshi va yomonga, shafik va yovuzga ajratishni ilmiy nuktai nazardan xato, insoniylik nuktai nazaridan esa noxaklik deb biladi; insonni yaxlit va birato'las axlokiy baxolash mumkin emas, uning fe'l-atvoriga, kilmishiga karab baxo berish lozimligini ta'kidlaydi: «... Men ikki narsani tabiatda uchratmadim: anik-mukammal xalol odamni, anik-mukammal yovuz odamni», -deydi faylasuf.

Vladimir Solovyovning axlokiy ta'limoti, teran fikrlari axlok falsafasi bilan shugullangan mutafakirlarning bir necha avlodiga dasturilamal bo'ldi, hozir xam donishmandlikning yuksak namunasi sifatida tafakkur axlining dikkat markazidadir.

Ezgulik va yovuzlikning paydo bo'lishi, ularning inson xayotidagi o'rni, yovuzlikka karshi kurashishning yo'llari singari doimiy dolzarb axlokiy muammolar rus mumtoz axlokshunosligining boshka vakillari uchun xam muxim edi. Bu borada yirik ishlar kilgan mutafakirlardan biri ekzistentsiyachi faylasuf Nikolay Aleksandrovich Berdyaevdir (1874-1948). Uning ayniksa, «Insonning vazifasi xakida» (1931), «o'z-o'zini anglash» (1949) «Iloxiylik va insoniylikning ekzistentsial dialektikasi» (1952) kabi asarlari shu jixatdan dikkatga sazovor.

Nikolay Berdyaev falsafiy-axlokiy karashlarining yakkol ajralib turadigan o'ziga xos xususiyati shundaki, uning asosiy goyasi – erkinlik. Nima uchun o'z tabiatiga ko'ra erkin va ijodkor mavjudot bo'lgan inson Xudo bergan bu ne'matlardan o'rniga ko'yib foydalana olmaydi: nimaga insonning o'ylagan narsasi o'rniga tarixda butunlay boshkacha xolat ro'y beradi, nima uchun ilmu saloxiyatni odam bolasi o'ziga o'xshaganlarni ezish uchun, ya'ni yovuzlik yo'lida ishlatadi; nega iste'dodli odam ko'pincha yolgizlikka maxkum; nimaga daxo san'atkorlarning xayotida fojiaiy, o'rtamiyonalik doim golib keladi; nima sababdan inson erkinlik uchun tugilgan; lekin u doim va xamma erda kishanband-faylasufni ana shu muammolar kiziktiradi. «Mening falsafamdagi o'ziga xoslik eng avvalo, shundaki, men unga borlikni emas, erkinlikni asos kilib oldim», – deydi Berdyaev va xakikatan xam xar bir muammoni erkinlik xakidgi o'z tasavvuri prizmasidan o'tkazib taxlil etadi. Bu esa, tabiiyki, pirovard natijada barcha falsafiy muammolarga diniy-axlokiy nuktai nazardan munosabatda bo'lishga olib keladi. «Erkinlik, – deydi buyuk rus mutafakkiri, – mening mustakilligim va o'z shaxsimni ichdan belgilovchi muruvvat, erkinlik mening ijodiy kuvvatim, u oldimga ko'yilgan ezgulik va yovuzlik borasidagi mening ijodimdir». Bunday erkinlik – fakat insonning o'z erkinligi, xatto unga Xudo xam xukmronlik kilolmaydi. Inson agar o'z xoliga ko'yilmaganda, uni inson deb nomlanishi xam mumkin emasdi. xakikiy insoniy xayot – insonning karor kabul kilishdagi kuyushkonga sigmasligidir.

Faylasuf o'z ijodida tarixga katta e'tibor beradi. U tarixda inson ma'naviyatining ichki dialektikasiga mos tushadigan uch muxim davrni ajratib ko'rsatadi. Birinchisi –axdul kadim Xudosi, olamning Podshosi, Egasi davridagi insondan muxabbat emas, fakat bo'ysuninishni talab kiladigan, nasroniylikkacha bo'lgan konun va bo'ysunish axloki. U – erdagi vakt nuktai nazaridan, tarixning tabiiy-organik davriga to'gri keladi. Ikkinchi davr – inson gunoxga botganligiga o'zi aybdor ekanini xis etib, bashariyat ijtimoiy ijoddan bosh tortish bilan aybini yuvadigan, ijod kilmaydigan tazarru axloki. U-o'rta asrlarda tarkidunyochilik xukmronlik kilgan madaniy –organik davr. Nixoyat, uchinchi davr, endi boshlangan, lekin xali kelib ulgurmagan – dunyoni diniy yo'l bilan o'zgartiradigan ijod axloki. Mazkur davrlarning xammasi tarixiy zamondagi ijodiy a'mollarda xam mavjud bo'ladilar. Ayni paytda, ijod axloki shunday ulkan bir davrki, unda ezgulik va yovuzlik kurashining keskinligi yo o'zgargan dunyoga yoki umumxalokatga eshik ochib beradi. Birok kaysi eshikning ochilishi-insonga boglik. Inson dunyoni o'zgartirishda Xudoning xamkori bo'lishi mumkin. Ayni paytda, bu dunyoni yagona dunyo deyish bilan uning dushmaniga xam aylanishi mumkin. Zero tarix Xudo xakki uchun kilingan ishlar va yovuz ijod orasidagi kurashdan iboratdir.

Ho'sh, yovuz ijod yoxud yovuzlik mohiyatan nima o'zi? Faylasufning fikriga ko'ra, yovuzlik ijobiy borlikka ega emas, u ezgulikdan o'g'irlangan xususiyati bilangina kishini o'ziga ogdiradi. Shu bilan birga, u nafakat mavjud, balki dunyoda ezgulikdan ko'ra ko'prokdir. Yovuzlik bilan kurashning bir xavfli tomoni shundaki, bu kurash beixtiyor yovuzlik tabiatini o'ziga kabul qilishi, yuktirishi mumkin; yovuzlikni nixoyatda yomon ko'rgan yaxshi odamlar unga karshi yovuz usullardan boshqa kurash yo'llariga ishonchlarini yo'kotadilar va natijada o'zlari yovuzlik kilganliklarini bilmay koladilar. Shu bois xatto shaytonga xam insoniy yaxshilik bilan munosabatda bo'lmok lozim; ezgulikdan chikmay, ezgulikni nurlantirib turish kerak. Bizning davrimizdagi asosiy axlokiy muammo, bu – dushmanga munosabat masalasi: dushmanni odam deb xisoblamaslik, unga insoniy munosabat kilmaslik xozir odat tusiga kirgan. Aynan mana shunda Injildan chekinishni ko'rish mumkin. Zero shaytoniy odamlar mavjud emas, balki odamlarda shaytoniy xolatlar mavjuddir. Shu bois biror bir inson ustidan pirovard xukm chikarish mumkin emas. Aks xolda jinoyatchi uchun berilgan jazoning o'zi ko'pincha jinoyatga aylanadi. Odamlarda dushman izlash odati bor. Ayniksa, inkilob yashab turishi uchun doimo o'zida dushmanga muxtojlik sezadi va agar dushman yo'k bo'lsa, uni o'ylab topadi. Aksilinkilob xam shunday. Dushman topilganda odam o'zini yaxshi xis kiladi. Bu xol yovuzlikning ob'ektivlashtirilishi, uning tashki reallikka chikarilishidir.

Ezgulik va yovuzlik orasidagi munosabatlarning N. Berdyaev jo'n emasligini, ularda ekzistentsiyacha dialektika borligini ta'kidlaydi. Zero, yukorida aytilganidek, ezgulik yovuzlikka aylanishi mumkin. Lekin, shuning barobarida, yovuzlik xam ezgulik bo'lib kayta tugiladi. Ya'ni, inson agar barcha imkoniyatlar sinovidan o'tsa, ezgulik va yovuzlik tajribalarini boshdan kechirsa, u xolda yovuzlikning o'zi ezgulikning dialektik ibtidosi bo'lib koladi. Hegel aytganidek, salbiy xodisalardan o'tilgach, navbatda fakat ijobiy boskich koladi. Shunday kilib, xatto daxriylik Xudoni bilishning dialektik ibtidosiga aylanadi. Bu, mohiyatan, daxriylik, kommunizm va boshqa shunga o'xshash xodisalar orkali botiniy o'tmishlardan boyib, yoruglikka, nurga chikadigan inson takdiridir. Yovuzlarni kirib tashlash emas, balki ma'rifatli kilish lozim. Chunki yovuzlikdan zo'ravonlarcha yo'l bermaslik yoki yo'k kilib tashlash usuli bilan emas, balki uni ichdan botinan engish orkali kutilish mumkin.

4. Insoniyat jamiyati xech kachon XX asr darjasidagi yuksaklikka ega bo'lgan emas. XX asr arafasi va davomidagi tafakkurda ko'p va xilma-xil yo'nalishlar vujudga keldi. Ular uchun umumiy bo'lgan o'ziga xos ikki jixat aloxida dikkatga sazovor: birinchisi – ularning xammasi, asosan, insonni bevosita o'rganishga karatilgani, ya'ni, ma'lum ma'noda, sof antropologik xususiyatga egaligi; ikkinchisi – falsafiy bo'lmagan va falsafiylikdan «chikib» ketgan fanlarning asos nuktai nazaridan falsafiylik kasb etishi yoxud falsafaning tadjikot kuroliga aylanishi. Mazkur yo'nalishlarning eng muximlari sifatida ruxiy taxlil, falsafiy antropologiya, xayot falsafasi, ekzistentsiyachilik, falsafiy germeneytika, fenomenologiya, sinergetika singari ta'limotlarni keltirish mumkin. Ular orasida ruxiy taxlil yo'nalishi noodatiyligi, kamrovliligi va goyat teranligi bilan aloxida axamiyatga molik.

Ruxiy taxlil usulining vujudga kelishi juda katta shov-shuvlarga sabab bo'ldi. XX asr arafasidan to bugungi kungacha bu shov-shuvlar gox kuchayib, gox susayib davom etmokda. Ular bejiz emas. Zero ming yillardan buyon o'kitilib va amaliyotda ko'llanib kelinayotgan ruxshunoslik fani bir zarb bilan taxtdan tushirildi. Ana shu zarb egasi avstriyalik olim Zigmund Froyd – Zigmund Shlomo (1856-1939) edi. Gap shundaki, akademik ruxshunoslik tabiiy fanlar laboratoriyasining usullarini ko'llab, vijdon, kadriyatli muloxazalar, ezgulik va yovuzlikni bilish – ruxshunoslik muammolari tizimiga kirmaydigan metafizik tushunchalar, deb xisoblab, asosan, odatdagi «ilmiy usul» bo'yicha kabul kilingan mayda masalalar bilan shugullanib kelardi. Ruxshunoslik, shunday kilib, o'zining asosiy ob'ekti – kalbni nazardan kochirib, umumiy, yoshga, kasbga doir ruxiy xolatlar xamda reaksiyalar va tabiiyyatlarning-instinktlarning shakllanishi bilan, ya'ni ruxiy «muvratlar» bilan shugullanib, yukorida aytganimizdek, inson uchun nixoyatda muxim bo'lgan muxabbat, akl, vijdon, kadriyatlar singari xodisalarni chetlab o'tdi. Froyd esa kuzatuvlar, akl va o'z kechinmalariga suyanib, ruxiy kasallikni muvaffakiyatli davolashni axlokiy muammolarga murojaat kilmasdan xal etib bo'lmasligini anikladi va bemor o'z kalbi extiyojlarini xisobga olmaganini uchun kasallikka chalinadi, degan xulosaga keldi.

Froyd inson ruxiy xayotida uch boskichni ajratib ko'rsatadi: ong, ongoldi, va ongtubi yoxud onglanmagan, ya'ni, ongga aylanmagan xolat. Onglanmagan xolat va ongoldi ongdan nazorat (tsenzura) degan o'rta boskich orkali ajralib turadi. Nazorat ikki vazifani bajaradi: birinchisi, shaxs o'ziga makbul ko'rmagan va koralagan xis-tuygular, fikrlar, tushunchalarni onglanmagan xolat xududiga sikib chikaradi; ikkinchisi, ongda o'zini namoyon etishga intilgan faol onglanmagan xolatga karshi kurashadi. Onglanmagan xolatdagi fikrlar, xis-tuygular umuman yo'kolib ketmaydi, biroq xotiraga chikishi uchun yo'l ko'yilmaydi. Shu bois ular ongda bevosita emas, balki bilvosita – bilmay gapirib yuborish, xato yozib yuborish, tush, nevrozlar singari galat xarakatlar orkali namoyon bo'ladi. Shuningdek, onglanmagan xolatning sublimatsiyasi–ta'kiklangan intilishlarning ijtimoiy jixatdan makbul xarakatlarga aylangan tarzda ko'rinishi xam ro'y beradi. Onglanmagan xolat goyat yashovchan, vaktga bo'ysunmaydi. Undagi fikrlar, istaklar, xis-tuygular nazorat tufayli, xatto o'n yillardan so'ng ongga chiksalar-da, o'z extiros kuvvatini yo'kotmaydilar. Ongoldi xolatini muvakkat onglanmagan xolat, deyish mumkin, Uning ongga aylanish imkoni bor, U onglanmagan xolat bilan ong o'rtaligida bo'lib, ongning kundalik ishida xotira ombori vazifasini bajaradi.

Shunday kilib, kalb ka'rida yotgan, tiyiksiz extiroslar xisoblangan onglanmagan xolat intilishlariga dikkatni karatib, Froyd inson kalbining «kora» tomonlarini taxlilga oladi. Bu taxlil, insonning kanchalik zoxiriy axlokiylashuviga karamay, unda tabiiy jinsiy alokada o'zini namoyon kiladigan uyatsiz, aksilaxlokiy, «yomon» tomonlar mavjudligini isbotlab berdi. Bu tomonlarni Froyd tushlarda aks etishini ko'rsatadi, zero tushda ongning nazorati goyatda zaiflashishi tufayli ular o'zlarini ramziy tarzda namoyon etadilar. Shu vajdan buyuk taxlilchi-faylasuf Aflotunning, yaxshi odam yomon odam o'ngida kilgan ishlarni tushda ko'rish bilangina cheklanadi, degan fikrini eslatib o'tadi. Froyd onglanmagan xolatni inson kalbidagi barcha yovuzliklar saklanadigan xovuzga o'xshatadi. Tushlardagi madaniy kishini daxshatga soladigan tuban, xayvoniy xolatlar – jamiyatdagi axlokiy talablar bilan xisoblashish natijasida real xayotda amalga oshmagan shaxs xoxish-istaklarining evaz, tovon tarzida yuzaga chikishi. Inson fakat fikran, tushlarida, xayolan va orzularida onglanmagan xolat intilishlariga, «yomon» ibtidoga beriladi, real xayotda esa o'zining ochik jinsiy xirsini yoki tajovuzkorligini ko'rsatib, yomon otlik bo'lmaslikka, yaramas odam degan nom olmaslikka, boshkalariga xayoli, xalol, muloyim shaxs sifatida ko'rinishga urinadi. Bu urinish birovlarini ikkiyuzlamachilikka yoki mavjud xayotiy kadriyatlarini va axlokiy koidalarni so'zsiz, notankidiy kabul kilishga olib kelsa, boshkalar uchun u ruxiy nosoglomlikka, insonni ichdan kemiradigan, lekin tashkaridan bilinmaydigan asabiy kasallikka aylanadi. Froydning fikriga ko'ra, tushlardagi «yovuz» niyatlar va «yaramas» istaklarni xozirgi zamondan emas, ko'prok kechmishdan izlash kerak, zero ular «fakat infantilizmni», etnik ibtidomizga kaytganimizni o'zida aks ettiradi. Ana shu jixatlar axlokiy muammolarni, xususan, axlokning kelib chikishi, insoniyat tsivilizatsiyasi tarixida yuzaga kelgan turli xil axlokiy koidalar va talablarni ko'rib chikishda Froyd uchun ko'l keladi.

Shuni aytish kerakki, Froyd insondagi ezgu ibtidoni, olijanob intilishlarni inkor etmaydi. Uning axlokiy karashlarini tushunmaganlarga, uni yovuzlikni mutlaklashtirishda ayblaganlarga karshi Froyd shunday deydi: «Bizning insondagi barcha yovuzliklarni ta'kidlab ko'rsatishimizga sabab shuki, boshkalar ularni inkor etadi. Bu ta'kidlashdan insonning ruxiy xayoti yaxshilanmasa xam, xar xolda tushunarli bo'ladi. Agar biz bir tomonlama axlokiy baxolashdan yuz o'girsak, u xolda, shubxasiz, inson tabiatidagi ezgulik va yovuzlikning o'zaro munosabati shaklini aniklashimiz mumkin». Hakikatan xam Froyd axlokiy karashlarining o'ziga xosligi aynan ana shunga asoslangan. Birok, Froyd, barcha illatlarning va vijdon, ko'rkuv, aybni xis kilish, tazarru singari fazilatlarining kelib chikishini, faoliyatini, deyarli barcha axlokiy xodisalarni asosan «Edip kompleksi»ga olib borib takab ko'yadi.

Zigmund Froydning o'zi bir o'rinda: «Yangi xarakatni to'xtatib bo'lmasligiga dushmanlarim ishonch xosil kilganlari kabi, menga xam bundan buyon uni o'zim chizib bergan yo'ldan olib ketish mumkin emasligiga ishonishimga to'gri keldi», – degan edi. Darxakikat, ruxiy taxlilning keyingi tarakkiyoti – froydchilk va yangi froydchilik boshkacha yo'ldan, ruxiy taxlil asoschisi nazariyalarini tankidiy o'rganish xamda rivojlantirish yo'lidan ketdi. K. Yung, A. Adler, E. Fromm singari taxlilchi-faylasuflar inson kalbini o'rganishda katta muvaffakiyatlarga

erishdilar. Imkon nuktai nazaridan fakat ulardan biri – Frommning axlokiy karashlariga to'xtalamiz.

Erix Fromm (1900-80) asosiy diqqatini inson kalbining axlokiy talablariga munosabatini ochishga, totalitarchilik, insonparvarlik, tiriksevarlik (Biofillik) va o'liksevarlik (nekrofillik) xakidagi muloxazalarga karatadi. Uning «Sevish san'ati», (1956 yil) «Inson kalbi. Uning ezgulik va yovuzlik kobiliyati» (1964 yil) kabi asarlarida axlokiy muammolarga keng o'rin berilgan. Frommning fikriga ko'ra, yovuzlik fakat insoniy xodisa. U insoniylik xolatidan ortga katish, insonga xos, akl, muxabbat, erk xususiyatlarini yo'k kilishga bo'lgan intilish. Ayni paytda, u fojeiy xolatdir. Chunki inson, xayvoniy darajaga kaytsa-da, u biror bir soniya odam ekanini unutmaydi, demak, uni yovuzlik masalani xal kilishning yo'li sifatida xech kachon koniktirmaydi. Insonning yovuzlik xolati – o'zini ezib turgan insoniy turmushi ogirligidan ozod bo'lishga fojaviy urinishi tufayli ro'y beradi, u o'zini yo'kotishdan iborat. Ezgulik bizining mavjudligimizni tobora mohiyatimizga yakinlashtirib boradi, yovuzlik esa turmushimiz bilan mohiyatimizning o'sib boruvchi begonalashuvi demakdir.

Inson ortga va oldinga intilishga, boshkacha aytganda, ezgulik va yovuzlikka moyil. Toki ikkala mayl teng ekan, agar u o'z axvolini anglab etishga kobil bo'lsa, tanlash borasida erkin. Birok, agar insonning yuragi tosh kotib, mayllari ortik tenglashmaydigan darajaga kelsa, u bundan buyon tanlovda erkin bo'lolmaydi. Inson to tanlash erki kolmaydigan nuktagacha o'z xatti-xarakatiga javobgardir. Inson yuragi kanchalik tosh bo'lmasin, u insoniy yurak bo'lib kolaveradi. Biz inson bo'lib tugilganmiz va shu bois oldimizda doimo karor kabul kilish masalasi ko'ndalang turadi. O'z maksadlarimiz bilan birga, biz vositalarimizni xam tanlashimiz kerak. Agar kimki xayotga befark lokayd karasa, unday odamning ezgulikni tanlashiga umid yo'k.

Froyd karashlari xakida muloxaza yuritar ekan, Fromm o'z ustoziga nisbatan kengrok mikyosda xarakat kiladi: inson tabiati na fakat biologik balki tarixiylik bilan shartlanganini ta'kidlaydi. U Froydning inson muammosini to'g'ri xal etishda biologik va madaniy jixatlarni karama-karshi ko'yish usulini rad etadi, shaxsni o'rganishda odamning boshkalarga, tabiatga va o'z-o'ziga munosabatini tushunish muxim deb xisoblaydi. Shuningdek, Fromm iktisodiy, ruxiy va mafkuraviy jixatlar bir-biri bilan uzviy alokador ekanini, ular jinsiy alokaning jo'ngina refleksiya emasligini aytadi. Birok, Froydning buyuk xizmatlarini e'tirof etib, ruxiy taxlil jarayonidan asosiy maksad – ustoz ta'kidlagan xakikatni tan olish ekanini va ruxiy taxlil xakikatga yangicha mazmun berganini uktiradi. Ruxiy taxlilgacha bo'lgan tafakkurda agar inson o'z gapiga o'zi ishonsa, u xakikatni gapirayotgan xisoblanardi. Ruxiy taxlil sub'ektiv ishonch aslo xakkoniylilikning mezoni bo'la olmasligini ko'rsatdi. Inson xakikat yuzasidan xarakat kilaman deb ishonishi mumkin, lekin asl sabab – beshafkatlik. U xatti-xarakatning sababi muxabbatim deb biladi, lekin aslida uni mazoxcha bogliklikka intilish xarakatga keltiradi. Inson menga burch raxnamolik kilyapti deb o'ylaydi, ammo, asosiy sabab – uning shuxratparastligi bo'ladi. Gap shundaki, inson na fakat bularga boshkalarning ishonishini xoxlaydi, balki o'zi xammasiga ishonadi. Ruxiy taxlil jarayonida odam uning kaysi goyalari extirosli kobikka o'ralgan-u, kaysilari uning fe'l-atvori tizimida ildizga ega bo'lmagan, substantsiya va vazndan yirok shartli klishelar (nuxxalar) ekanini anglaydi. Ruxiy taxlil shu ma'noda xakikatni izlashdir. Uning asosiy tamoyili shundaki, tafakkurimiz va xissiyotlarimizni sinchillik bilan o'rganmasdan xamda kaysi joyda biz akliylashamiz-u, kaerda e'tikodlarimiz xissiyotga borib takalishini aniklamasdan turib, ruxiy soglomlik va baxtga erisha olmaymiz.

Erix Fromm muxabbat muammosiga xam juda katta e'tibor beradi. Muxabbat, bu – xar biri o'zligini saklagan xolatida ikki kishining birlashuvi. Muxabbat, bu – xarakat, orom emas, faollik, kuzatish emas. Sevish – olish emas, berish. Sevgida inson o'zi uchun eng bebaxo bo'lgan xayotining bir kismini – xissiyoti, bilimi, kechirmalarini bagishlaydi. Buni u o'rniga nimadir olish uchun kilmaydi, ana shu «bagishlash»ning o'zi nafis bir lazzatdir. Alloma faylasuf, yukorida ta'kidlaganidek, muxabbatni gamxo'rlik, mas'uliyat, xurmat va ilm unsurlaridan iborat deb bilar ekan, mas'uliyatga o'zgacha e'tibor bilan karaydi. Fromm mas'uliyatni odatda kabul kilinganidan boshkacharok tarzda talkin etadi. Odatda mas'uliyat deganda chetdan yuklangan, ya'ni odamga boshka kishilar, jamiyat va xokazolar tomonidan taklif etilgan, uktirilgan yoki majburan bo'yniga ko'yilgan kandaydir bir narsa tushuniladi. Fromm esa, mas'uliyatni mohiyatan kalbning xoxishi bilan boglik emin – erkin xolat, deydi. Mas'uliyatni xis etish, bu-boshka mavjudotning extiyoji

va talabiga labbay deb javob berishga tayyor turish. Shunday kilib, mas'uliyat kimgadir gamxo'rlik kilish bilan boglik. Boshka tomondan faylasuf mas'uliyatni xurmat bilan boglaydi. Hurmat, bu –ko'rkuv yoki ko'l kovushtirish emas, u insonni kanday bo'lsa, shunday kabul etishni talab etadi.

Frommning fikriga ko'ra, industrial jamiyatda xakikiy muxabbat kamdan-kam uchraydi. O'z farzandlarini tom ma'noda sevgan ota-onalar xam umumiy koidadagi istisnodir. Nikoxda esa muxabbat deb butunlay boshka sabab, boshka xislar tushuniladi. Unda xatto sevgi tasavvuri xam buziladi. Bu aynan inson o'zini muxabbatning «mo'jiza kushi»ni ko'lga kiritdim degan paytda ro'y beradi. Muxabbatning yo'kolishiga go'yo muxabbatni ko'lga kiritib olish mumkin degan noto'gri tasavvur olib keladi. Shu bois ko'p xollarda muxabbatdan boshlangan nikox ikki egalik kiluvchining, juftlashgan ikki xudbinning xamdo'stligiga aylanadi. Birok muammo nikoxda emas, balki ikki tomon shaxsining iste'molchilik xususiyati bilan boglik. Muxabbatga mavjud bo'lish, o'zini ifodalash kobiliyati tarzida emas, balki ma'budga karagandek munosabatda bo'lish ana shundan kelib chikadi. Shu bois birga yashashning tizimini o'zgartirishga, ya'ni ko'pxotinlilik, jazmanbozlik, jamoaviy jinsiy aloka va xokazolarga intilish – bor-yo'gi xakikiy muxabbat kiyinchiliklarini engib o'tish uchun yo'l kidirish. Agar inson o'z «yarmini» topish va sevisht baxtiga erishsa, u boshka juft izlashga xech kachon intilmaydi, butun borligini o'z seviklisiga bo'lgan muxabbatga bagishlaydi. Umuman, Fromm takdim etgan shaxs tizimida muxabbat diniy xissiyot va dunyokarash bilan birgalikda markaziy o'rinni egallaydi.

Ruxiy taxlil falsafasi, xususan, axlokshunosligi mulkiga nixoyatda-kiskacha kilgan ilmiy sayoxatimiz oxirida shuni ta'kidlash zarurki, bizda, o'zbeklarda bu ta'limot xakida, ochigi, ozginagina tasavvur xam yo'k. Uni millat tarbiyasini buzadigan, xayosiz, insonning yomon tomonlarinigina ko'radigan, dinni tan olmaydigan dunyokarash tarzida kabul kilamiz. Bu-totalitar tuzum, mustamlakachilik mafkurasining soxta ilmiy nikob ostida ilgari surgan zararli goyalarining ta'siridir. Ruxiy taxlil aslida totalitar tuzumga karshi, mustamlakachilik aldovlarini, «doxiylar» kalbining zulmatini va yovuzliklarini ochib berish kudratiga ega, butun insoniyat uchun, jumladan, biz uchun xam goyat zarur ta'limotdir. Axir, o'zbekning «Odam olasi ichida» degan makoli bor-ku! Ruxiy taxlil o'sha «ola»ning kaerdaligini, kandayligini, paydo bo'lishiga sabab nima ekanini va uni kanday kilsa bartaraf etish, «ok»ka aylantirish mumkinligini ko'rsatib berishda mislsiz axamiyatga ega.

XX asr axlokiy tafakkurida chukur iz koldirgan falsafiy-axlokiy yo'nalishlardan yana biri – ekzistentsiyachilikdir. Ekzistentsiyachilik insonni, eng avvalo, o'z xayotini insoniylik vazifasini bajarish uchun kurbon kilgan mavjudot sifatida olib karaydi. Bir jixatdan bunday karash an'anaviydek, barcha asrlarda xam ilgari surilgan nuktai nazardek tuyuladi. Aslida esa unday emas. Gap shundaki, avvalgi an'anaviy karashlarda insonning o'z xayotini kurbon kilishi «oliy manfaatlar» yuzasidan ro'y beradi: inson, ideal, umumtarixiy maksadlar o'zni fido etishga arizishini tushunadi. Kurbon bo'lishga tayyorlik, demak, insonning ibtidodagi belgisi emas, balki uning akl bilan ish ko'rishi okibatida ro'y beradigan xodisa sifatida olinadi. Ekzistentsiyachilik esa fidoyilikni insonning ibtidodagi xususiyati, uni belgilovchi oddiy xodisa deb karaydi. Ular, inson o'z xayotini nimagadir baxsh etmasdan mavjud bo'lolmaydi, degan fikrni ilgari suradilar. Bu fidoyilik esa aynan, barcha ijtimoiy barkaror kadriyatlar barbod bo'lganda, inson o'zi uchun munosib ogir, mukaddas bir yukni xuddi rizki kabi izlagan bir paytda o'zini ko'rsatadi. Inson o'z nazoratidan chikib ketgan, irratsional vokea-xodisalar girdobiga tushib kolgan paytida kanday ma'naviy sabrga, chidamga ega bo'lishi kerak? Ekzistentsiyachilikning bosh muammosi mana shu. Olmon faylasufi Martin Haydegger (1889-1976) ekzistentsiyachilikning asoschisi xisoblanadi.

Ekzistentsiyachilik Haydeggerdan so'ng, ikki yo'nalishda – diniy va daxriylik yo'nalishlarida davom etdi. Diniy ekzistentsiyachilikning eng yirik namoyandalaridan biri, olmon faylasufi Karl Yaspersdir (1883-1969). U o'z asarlarida, xususan, «Zamonning ma'naviy xolati»(1932), «Falsafiy e'tikod»(1948) degan kitoblarida inson mavjudligini XX asrda kanday tushunish masalasiga to'xtaladi va bu mavjudlikning axlokiy jixatlarini taxlil etadi.

Inson bilan xayvon orasidagi fark xakidagi, boshkacha kilib aytganda, insonning vujudga kelishi to'grisidagi masalani Yaspers eng muxim deb xisoblaydi. Insonni kandaydir bir boshka narsadan keltirib chikarish mumkin emas. Zero u xamma narsaning bevosita alosidir. Olamdagi

bogliklikning barcha turlari va barcha biologik tarakkiyot jarayonlari odamning o'ziga emas, balki insoniy moddaga, insoniy materialga daxldor. Inson doimo o'zi xakidagi o'ylaganidan ko'ra kattaroqdir. Bu fikr xam butun insoniyatga, xam aloxida odamga taallukli. Hech kachon inson xakidagi uzil-kesil xulosa chikarish, uni na umumiy tarzda, na aloxida odam sifatida to'lik tushunish mumkin emas.

Yaspersning fikriga ko'ra, insonga xayvondan «tarakkiy topgan» jonzot deb karash noto'gri. Chunki bilish uchun xammasi tushunarli bo'lishi kerak, bilish bilinadigan chegaradan nariga chikolmaydi, bilishdan tashkarida bilish uchun xech narsa yo'k. Bilish olamda mavjud bo'lgani xolda olamni tushunib etolmaydi. To'gri, matematika, tabiiy fanlardagi kabi universal bilish tevarak-atrofdagi xozir bo'lgan nimanidir ilgab olishi mumkin, lekin vokelikni xech kachon yaxlitligicha bila olmaydi.

Insonning xakikiy kadriyati u yakin turgan tur yoki xili bilan emas, balki o'zgartirib va almashtirib bo'lmaydigan tarixan yakkaligi bilan boglik. Har kanday aloxida insonning kadriyati muayyan odamlarga umumiy insoniy mezonni shakllantirishda bir-birini o'zaro almashtiradigan material sifatida karalmaganidagina daxlsiz bo'ladi.

Barcha odamlarning tengligi goyasi butunlay noto'gri. Zero gap odamlarning ruxiy tadqiqotga bo'y beradigan mavjudot sifatidagi fe'l-atvori va kobiliyati xakida bormokda. Ammo bu ijtimoiy voqe sifatida xam to'gri emas, nari borganda, konun oldida teng imkoniyat va teng xukukka ega bo'lish mumkin. Moxiyat jixatidan barcha odamlarning tengligi fakat va fakat ularning xar biriga, erkinlikdan kelib chikkan xolda, axlokiy xayot orkali Xudoga yo'l ochiladigan teranlikda mavjuddir. Bu insoniy bilim bilan o'rnatilib va ob'ektivlashtirib bo'lmaydigan kadriyatlar tengligi, abadiy rux sifatidagi yakkaliklar kadriyatlari tengligidir. Bu insonga jannat yoki do'zaxdan joy karomat kiluvchi tenglik, da'vo va abadiy xukm tengligidir. Bu tenglik insonni fakat vosita deb karashga yo'l ko'ymaydigan, balki unga birdan-bir maksad sifatida munosabat kilishni talab etadigan, xar bir insonga xurmat-extiromni anglatdigan tenglikdir.

Inson ekzistentsiya tarzida o'z erkini – transtsendentsiyaning ne'matini ko'rishi muximdir. O'shanda inson borligining erki transtsendentsiya raxbarligida, uning barcha imkoniyatlari moyasiga aylanadi; ana shu transtsendentsiya, Yakkayu Yagonaning sharofati bilan inson o'z xususiy yakkaligiga erishadi. Bu raxbarlik dunyodagi barcha boshka raxbarliklardan ajralib turadi, chunki u ob'ektiv bir ma'noli bo'la olmaydi; u insonning to'la erkinligiga mos tushadi, zero u o'z e'tikodining erki bilangina yueaga chikadi. Tangri da'vati an'analar va tevarak-atrofdagi dunyoga yuz ochgan yakka inson uchun xuddi o'z e'tikodi sifatida yangraydi. Garchand inson Xudo nimani xoxlayotganini bilishda ob'ektiv kafolatga ega bo'lmasa-da, o'z ichki teranligidan kelib chikib, karor kabul kilar ekan, u Tangri irodasiga bo'ysundim, deb xisoblaydi.

Xudoning raxnamoligi o'z faoliyati xakidagi insonning muloxazasi orkali amalga oshadi. Bunday muloxaza kishini xarakatdan to'xtatadi, xarakatga undaydi, xatolarini tuzatib turadi. Birok, aslida, butunlay va fakat inson xech kachon o'z muloxazalariga suyanishi mumkin emas. Unga boshkalarning muloxazalari xam zarur. Garchand bama'ni kishilarning muloxazalari bu xayotda inson erisha oladigan yagona yo'llanma esa-da, biroq u oxir-okibatda xal kiluvchi omil bo'la olmaydi. Xudoning xukmigina xal kiluvchi xususiyatga ega. Ammo insonda, xakikatan xam bu men o'zimmanmi, eshitgan da'vatim rostdan xam asl manba'dan kelyaptimi, degan xavf xech kachon yo'kolmaydi. Ana shu xavfni anglash o'sib boruvchi erkinlikning zamondagi sharti bo'lib kolaveradi. U ishonchning kat'iyligini inkor etadi, o'z fikrini xamma uchun talab darajasida umumlashtirishni ta'kiklaydi va shu bilan akidaparastlikka yo'l ko'ymaydi. Zero o'ziga to'lik ishonch man etiladi. Haklikka mutlak ishonch, kibr olamiy xakikatni yo'kotishga xizmat kiladi. Shunday kilib, Xudoning da'vati zamonda insonning o'zi xakidagi fikri sifatida ifodalanishi mumkin. Lekin u da'vatni fakat oliy, ulugvor xolatlardagina eshitish mumkin. Biz ana shu xolatlardan kelib chikib, ana shu xolatlarga intilib yashaymiz.

Xulosa kilib aytganda, Karl Yaspers karashlarida an'anaviy ma'naviy merosni egallash inson axlokiyligi darajisini belgilovchi omil sifatida nomoyon bo'ladi.

Ekzistentsiyachilik axlokshunosligining eng ko'zga ko'ringan nomoyandalaridan yana biri Jan-Pol Sartrdir (1905-1980). U ekzistentsiyachilikning daxriylik yo'nalishiga mansub faylasuf, yozuvchi, siyosatshunos sifatida mashxur. Sartrning fikriga ko'ra, inson eng avvalo, sub'ektiv

kechinmalar orkali yaralgan loyixadir. Bu loyixagacha xech narsa mavjud emas, akl bovar kiladigan samovotda xech narsa, yo'k, borligining loyixasi kanaka bo'lsa, inson xam shunaka. Agar mavjud bo'lish xakakatan xam moxiyatdan avval tursa, unda inson o'zining borligi uchun mas'uldir. Shunday kilib, ekzistentsiyachilik, birinchi navbatda, xar kanday insonning xukmiga uning borligini xavola kiladi va mavjudligi uchun to'lik mas'uliyatni uning o'ziga yuklaydi. Bu borada fikr yuritib, Sartr shunday deb yozadi: «Birok biz insonni mas'uldir, deganimizda, bu – fakat uning o'z shaxsiyatigagina javobgar, degani emas. U barcha odlamlar uchun mas'uldir. Biz, inson o'zini o'zi tanlaydi, deganimizda, xar birimizning o'zini o'zi tanlashini nazarda tutamiz, biroq, shu bilan birga, biz o'zimizni tanlar ekanmiz, barcha odamlarni tanlaymiz, degan gapni xam aytishni xoxlaymiz». Zero o'zimizni tanlashimiz, kanday xolda bo'lmasin, biz xech kachon yovuzlikni tanlamaymiz, ayni paytda, bu tanlov tanlovimizning kadryatini barkaror etishni takozo kiladi. Bizning tanlovimiz esa ezgulik bo'lishi shubxasizdir. Lekin, shuni aytish kerakki, xamma uchun ezgulik xisoblangan narsaning biz uchun ezuglik bo'lishi mumkin emas. Bizning mas'uliyatimiz butun insoniyatga taallukli, taxmin kilganimizdan ancha katta. Biz o'zimiz uchun xam, xamma uchun xam javobgarmiz va o'zimiz tanlagan muayyan inson kiyofasini yaratamiz; o'zimizni tanlash bilan biz umuman insonni tanlaymiz.

Sartr xavotir xissi xakida batafsal to'xtaladi. Yolg'on gapirayotgan odamlar xam baribir xavotirlanib turadilar. Chunonchi, ko'pincha odamlar o'zlarining xarakatini fakat o'zlarigina taallukli deb o'ylaydilar, ulardan agar xamma shunaka kilganda, nima bo'ladi, deb so'rasalar, xamma xam bunday kilavermaydi-ku, deya javob beradilar. Lekin «xamma shunaka kilsa nima bo'ladi»? deb doimo so'rash o'rinli. Bu savoldan fakat yolg'on ishlatibgina kochish mumkin, ya'ni, aldayotgan kishi, xamma shunday kiladi-ku, deb o'zini oklashga urinadi, o'z vijdoniga xilof yo'l tutadi. Zero sodir etilgan bu yolg'on yolg'onga universal kadriyat darajasi berilayotganini bildiradi. Yolg'onni sodir etgan odam, garchand, xavotirini yashirsa-da, uning mavjudligini sezib turadi. Har bir inson o'z-o'ziga: «xakikattan xam, kilmishlarimdan butun insoniyat namuna oladigan tarzda xarakat kilishga xakim bormi»? deyishi kerak. Agar o'ziga shu savolni bermasa, u o'z xavotirini o'zidan yashirgan bo'ladi. Bu, kay darajadadir, mas'uliyatni o'z bo'yniga olgan xar bir kishiga ma'lum bo'lgan xavotirdir. Sartr shu o'rinda xarbiy boshlikni misol kilib keltiradi: u xujumga buyruk berib, odamlarni o'limga yo'llar ekan, javobgarlikni o'z bo'yniga oladi, ya'ni moxiyatan bir o'zi karor kabul kilgan bo'ladi. Albatta, yukoridan berilgan buyruklar bor, lekin ular juda umumiy va anik-ravshan izoxlashni talab etadi. Bunday izox mazkur xarbiy boshlikdan chikadi; bir necha, o'nlab yoki yuzlab kishining xayoti ana shu izoxga boglik. xarbiy boshlik karor kabul kilar ekan, ma'lum bir xavotirni ko'ngildan o'tkazmasligi mumkin emas. Shunday xavotir barcha raxbarlarga xos. Lekin raxbarlarning xarakatiga u xalakit bermaydi, aksincha, ko'pdan-ko'p turli imkoniyatlar borligini bildiradi va xarakat shartini tashkil etadi. Xavotir, demak, bizni xarakatdan ajratib turadigan to'sik emas, balki o'sha xarakatning bir kismidir.

Erkinlikka fakat xolatdagi erkinlik sifatida karab fikr yuritar ekan, Sartr o'zga muammosini o'rtaga tashlaydi. Men, deb yozadi faylasuf, ma'nosi o'zgalar tomonidan belgilangan olamga itkilganman. Men xarakat kilayotgan va narsalarga ma'ni bagishlaydigan bu olamda narsalarning ma'nisi o'zgalar tomonidan allakchon belgilab ko'yilgan. Bu mening erkim uchun muxim, zero ma'nisi bor narsa mening oldimga anik maksad va talab ko'yadi. Shaxarlar, uylar, taramvaylar – bularning xammasi ma'niga yo'grilgan narsalardir; ular menga ma'lum xarakat tarzini belgilab beradi: uyda yashash, ko'chada yurish, tramvayga minish v. x. Bir so'z bilan aytganda, o'zi-uchun o'zgalar-uchun bo'lgan dunyoda paydo bo'ladi; bu dunyoning ma'nosi shu bois menga nisbatan belgilanmagan. Agar avval narsalarning o'zi mening erkimni cheklashi xakida gap ketgan bo'lsa, endi o'zgalar erki mening erkimga nisbatan cheklash sifatida yuzaga chikadi.

Zero biz erkinlikka intilar ekanmiz, u to'laligicha o'zga odamlar erkiga va o'zgalarning erki bizning erkimizga boglik ekanini ko'ramiz. To'g'ri, erkinlik, insonning belgisi sifatida, boshkalarga boglik emas, biroq xarakat boshlandimi – bas, men o'z erkim bilan birgalikda boshkalarning erkinligini xam xoxlashim shart: men fakat o'zgalarning erkini xam o'zimga maksad deb bilganimdagina, o'z erkimni maksad sifatida kabul kilsam bo'ladi. «Biz, – deb yozadi Sartr, – xar bir aloxida xodisada erkinlik erkinlik uchun bo'lishini istaymiz.. Shu

sababdan, garchand axlokning mazmuni o'zgarib tursa xam, o'sha axlokning muayyan shakli universaldir». Ayni paytda, buyuk frantsuz mutafakkiri, garchand, tevarak dunyo begona ma'nilarga to'la esa-da, ular mening ustimdan kismatnamo xukmronlikka ega emaslar, degan fikrni ta'kidlaydi. Ular, kabul kilsamgina – xukmron bo'ladi, inkor etsam – xar kanday kuch-kudratini yo'kotadi. Shu bois ko'rkok yoki kaxramon bo'lish insonning o'ziga boglik, deydi Sartr, ko'rkok ko'rkokligi uchun o'zi javobgar. U yurak yoki o'pkasi, yoki miyasi ko'rkok bo'lgani uchun shunaka emas; u o'z fiziologik tuzilishi natijasi o'larok shunaka emas, balki o'z kilmishlari bilan o'zini ko'rkok kilgan. Mizoj asabiy, zaif, chala yoxud to'lakonli bo'lishi mumkin, lekin zaif odam degani – albatta ko'rkok degani emas, chunki ko'rkoklik bosh tortish yoki yon berish okibatida yuzaga keladi. «Hamma vakt ko'rkok uchun ko'rkok, kaxramon uchun kaxramon bo'lmaslikning imkoni bor, deb yozadi buyuk faylasuf. U ekzistentsiyachilik muxoliflariga fikr bildirar ekan, bu yo'nalish insonning aslo tushkun tasvirini bermasligini, uni kilgan ishiga karab baxolashini, inson o'z takdirini o'zi belgilaydi, degan akida bilan ish ko'rishini ta'kidlaydi. Sartr xar bir inson axlokini uning xatti-xarakati tashkil etishini aytib, shunday deb yozadi: «Ekzistentsiyachilik, bu – insonning xarakterga bo'lgan xoxishini o'ldirishga intilishi emas, zero u insonga bor umid fakat uning xarakterida ekanini va fakat yagona xarakterigina insonning yashashi uchun imkon berishini aytadi. Demak, bu borada biz xarakter va jur'at axloki bilan ish ko'ramiz».

Hozirgi kunga kelib, ekzistentsiyachilik qarab olamida mashxur bo'lgan ko'pgina eng etakchi yoki faol xarakterdagi axlokiy yo'nalishlarga nisbatan «xayotiyrok» chikib koldi. Uning asosiy tamoyillari Ovro'po xalklari mentalitetiga singib ketdi. U bexuda xavoii parvozlarni cheklab, insonni ichki, rakamlarsiz xisob-kitob va shu xisob-kitob natijasi o'larok, jaxonga ishonch bilan karashga da'vat etadi.

Insoniyat tarixi mobaynida kadimda ilgari surilgan goyalar keyinchalik moxiiyatan yangilangan, o'zgargan xolda yana maydonga chikishini kuzatish mumkin. Bu xodisa axlokshunoslik soxasiga xam tegishli. XX asrda yuzaga kelgan va amaliyotda muvaffakiyatga erishgan yovuzlikka karshi zo'ravonlik ko'rsatmasdan kurashish – gayri zo'ravonlik axlokshunosligi ana shunday «yangilangan eski» goyalardan.

Ma'lumki, yovuzlikni yo'kotish, to'g'rirogi, kamaytirish, zaiflashtirish barcha davrlarda xam asosiy axlokiy muammo bo'lib kelgan. Kadimgi dunyodagi va o'rta asrlardagi Shark mutafakkirlari yovuzlikni kuchsizlashtirishning yo'li – unga karshi yovuzlik bilan javob bermaslik, deb bilganlar. Bunday yondoshuvni kadimgi xindlar va xitoylarda (yo'ga, jaynichilik, buddxachilik, daoschilik), nasroniylkdagi Iso alayxissalom da'vatlarida, musulmonlikdagi tasavvuf namoyondalarida ko'rish mumkin. Lekin bu davrlarda yovuzlikka yovuzlik bilan javob bermaslikni fakat sabr-tokat Xudoga tashlab ko'yish orkali amalga oshirish mumkin deb bilganlar. Agar xazrati Iso o'z ummatlariga «o'ng yuzingga ursa, chap yuzingni tut,» degan bo'lsalar, buyuk mutasavvif va shoir, yassaviya tarikatining asoschisi Xoja Axmad Yassaviy o'z xikmatlaridan birida shunday deb yozadilar:

Zolim agar jafu kilsa, Allox, degil,
Ilking ochib, duo aylab, bo'yin sungil.

Lekin avvalgi davrlardagi bu karashlarning moxiiyati chidam va bardosh bilan cheklangan bo'lsa, XIX asrning ikkinchi yarmida boshlangan xamda hozirgi paytda muvaffakiyatli davom etayotgan yovuzlikka karshi zo'ravonlik ko'rsatmaslik ana shu sabr-bardosh, chidam orkali bo'ysunishni emas, balki kurashishni takozo etadi. Ana shu yangilangan, moxiiyati o'zgargan axlokiy yo'nalishning ibtidosida XIX asr mutafakkiri amerikalik faylasuf-axlokshunos Henri Deyvid Toro (1817-1862) turadi. Bu yo'nalish doirasida keyinchalik, XX asr boshlarida Lev Tolstoy (1828-1910), keyinroq buyuk xind mutafakkiri va jamoat arbobi Moxandis Karamchand Gandi (1869-1948), amerikalik ruxoniy, faylasuf, jamoat arbobi Martin Lyuter King (1929-1968) singari mutafakkirlar izlanish olib bordilar. Shuningdek, AKShdagi Albert Aynshtayn instituti direktori professor Jin Sharp, Polsha fanlar Akademiyasi Falsafa instituti professori Anjey Gjegorchik, Rossiya Fanlar Akademiyasi Falsafa instituti professori Abdusalom Guseynov singari zamondosh olimlarimiz xam mazkur yo'nalishda tadkikotlar olib bormokdalar.

Mazkur yo'nalish asoschisi Toro o'zi yuktirmagan amerikacha jamiyatdan bosh olib chikib, 1845 yilning baxoridan 1847 yilning kuzigacha Uolden ko'li bo'yida kulba kurib, dexkonchilik bilan shugullanadi. Keyinchalik shu tajriba asosida «Uolden yoki o'rmondagi xayot» asarini yozdi. Bundan tashkari u «Fukaroviy itoatsizlik», «Massachusetdagi kulchilik» singari makola va esselarida xam gayri zo'ravonlik axlokshunosligi goyalarini ilgari suradi. Toro xayotda xam ana shu goyalarga amal kiladi: solik to'lashdan bosh tortadi. Kunlardan birida shaxarga tushganida, uni solik to'lamagani uchun kamab ko'yishadi. Kimdir uning o'rniga solik summasini to'lab yuborgandan keyingina Toroni kamokdan chikarishadi. U o'zining bu xatti-xarakatini kuyidagicha tushuntiradi: «Menda, agar shunday imkoniyatim bo'lgan takdirda xam, dollarlarimga odam sotib olishlarini yoki odamni o'ldirish uchun miltik sotib olishlarini kuzatib turishga ishtiyok yo'k». Mutafakkir kuldorlik xukm surayotgan Amerika Ko'shma Shtatlari xukumati bilan xar kanday alokani uzishni o'z oldiga maksad kilib ko'yadi va boshkalarni xam shunga chakiradi.

Toro gayri zo'ravonlik inkilobi goyasini o'rta tashlaydi. «Agar, – deb yozadi faylasuf, – minglab odamlar bu yili solik to'lamasa, u zo'ravonlik xam, konli chora xam xisoblanmaydi; aks xolda, solix to'lash davom etaversa, davlatga zo'ravonlik kilish va begunoxlarning konini to'kish uchun imkon berilgan bo'ladi». Fukaroviy itoatsizlikning zarur shartini faylasuf, shunday kilib, xammaning solikdan bosh tortishida ko'radi. Keyingi boskich, Toroning fikriga ko'ra, ish tashlash, davlat xizmatchilarining o'z xizmat vazifalarini bajarishdan bosh tortishlaridir. Ana shunda tinchilik yo'li bilan, konsiz inkilob amalga oshadi. Lekin mazkur boskichlardan avval xar bir inson o'zini axlokiy jixatdan tayyorlash boskichini boshdan kechirishi, ya'ni o'z ongi va kalbida shaxsiy inkilob kilishi zarur. Fakat yuksak darajadagi axlokiy tayyorgarlikkina pirovard maksadga ko'ngildagidek etkazishi mumkin.

Toro goyalarini asrimizda Gandi va King yanada yuksak pogonaga ko'tardilar. Ular gayrizo'ravonlik goyasini muxabbat bilan bogladilar va dushmanga xam mexrni darig tutmaslikka chorladilar. Gandi Xirosima va Nagasagika atom bombasi tashlanganida, atom bombasini boshka bomba bilan yo'kotib bo'lmagani kabi zo'ravonlikni zo'ravonlik kilib yo'kotish mumkin emas, degan fikrni bildirib, shunday deydi: «Insoniyat zo'ravonlikdan fakat gayrizo'ravonlik yo'li orkali kutilishi mumkin. ƣazabni fakat mexr bilan engsa bo'ladi. ƣazabga gazab bilan javob berish gazabning yoyilishiga va kuchayishiga xizmat kiladi».

Martin Lyuter King xam xuddi shunday goyani ilgari surar ekan, AKShning mashxur Prezidenti Linkoln xayotidan misol keltiradi. Nima sababdandir Linkolnning ko'rarga ko'zi yo'k Stenton degan kishi saylovoldi kompaniyasida ko'lidan kelgan yomonlik bilan unga karshi kurashadi. Linkolnni xar kadamda erga uradi, ming xil gunoxda ayblaydi, masxaralaydi, xatto uning tashki ko'rinishi ustidan kuladi. Linkoln Prezident bo'lib saylangach, xarbiy vazirlik lavozimiga aynan ana shu Stentonni ko'rsatadi. Atrofidagilar unga: «Janob Prezident, Siz xato kilyapsiz, u Sizning dushmaningiz, uning Siz xakingizda nimalarni gapirganini bilasizmi?!» deb karshi turadilar. Shunda Linkoln bunday deb javob beradi: «Ha, janob Stentonni bilaman. Uning men xakimda nimalar deganini xam eshitganman. Lekin xarbiy vazirlikka undan boshka biror bir loyik amerikalik yo'k». Oradan bir necha yil o'tgach, Linkoln o'ldiriladi. O'shanda kabr ustida so'zlangan barcha nutkdan Stentonning nutki aloxida ajralib turadi. U, Linkolnni eng buyuk insonlardan biri deb ta'riflaydi va: «Endi u manguqlikka daxldordir», deb o'z nutkini tugatadi. Agar Linkoln Stentonga gazab bilan karaganda, ikkisi xam o'lguncha bir-birining dushmani bo'lib kolar edi. Linkoln mexr-muxabbat vositasida dushmanni do'stga aylantirdi. U bir paytlar o'ziga savol bergan ayolga savol bilan shunday deb javob bergan ekan: «Xonim, axir men o'z dushmanlarimni do'stlarimga aylantirish yo'li bilan xalok etmayapmanmi?!»

G'ayri zo'ravonlik axlokshunosligiga kiskacha to'xtalib o'tishimizning o'zidayok, biz bu yo'nalishning kelajakdagi asosiy axlokiy ta'limotlardan biri bo'lib kolishini ilgashimiz mumkin. Shaxs, gurux, millat, xalklar o'z istaklarini, mavjud mustabid tuzum va xukumatdan noroziliklarini tinch yo'l bilan bildirishlari xamda o'z maksadlariga zo'ravonliksiz, kon to'kmasdan erishishlari mumkinligi – insoniyatning ulkan yutugi. Chunki konli kurashlar, inkiloblar, terror, kurolli ko'zgonlon singari xodisalar muayyan millat va mamlakat erishgan yutuklarni yo'kka chikaradi, o'lim, vayronagarchilik, ma'naviy kadriyatlarining oyokosti bo'lishi singari ulkan fojialarga olib keladi.

XX asrda vujudga kelgan yana bir yo'nalish – xayotga extirom axlokiy ta'limoti mashxur olmon faylasufi, shifokori Albert Shvaytser (1875-1965) nomi bilan boglik. Uning «Madaniyat va axlok» deb atalgan fundamental kitobida xayotning yuksak ma'nosini tan olish va barkaror etish asosiy tamoyil sifatida ko'zga tashlanadi. Shvaytserning fikriga ko'ra, xayot tabiat yaratgan eng oliy ne'mat sifatida buyuk xurmatga sazovor. Bu talab, tarakkiyot darajasidan kat'iy nazar, xamma xayot uchun bir xillik makomiga ega. «Hayotga extirom axloki, – deydi Shvaytser, – oliy yoki kuyi, nisbatan kadrli yoki kadsiz xayotlar orasida fark ko'rmaydi. Men – xayotman, mendek yashashni istagan xayotlar ichida yashashni istaguvchi xayotman». Shu nuktai nazardan karaganda, maysa xam, kaklik xam, kiyik xam men kabi yashashga xakli, ularning xayoti xam extiromga sazovor. Bu ta'limot zamonaviy insonda ekologik madaniyatning vujudga kelishida, biz birinchi ma'ruzamizda aytib o'tganmiz, etosferaning yaratilishida muxim ahamiyatga ega.

Yangi davr axlokshunosligida tasavvufiy yo'nalishining xam o'z o'rnini bor. Bu borada nakshbandiya tarikatining eng kenja bo'gin mutafakkirlaridan bo'lmish buyuk turk allomasi Muxammad Zoxid Kutku (1897-1980) va uning shogirdi, zamondoshimiz professor Maxmud As'ad Jo'shonning karashlari alohida diqqatga sazovor. Muxammad Zoxid Kutku besh jildlik «Tasavvufiy axlok» deb nomlangan fundamental asarida boshka axlokiy masalalar bilan birga jo'mardlik mezoniy tushunchasini, Jo'shon esa o'z asarlarida nafs va uni engish muammolarini o'rta tashlaydilar.

Ular asarlarida inson xayoti oliy kadriyat ekani ta'kidlangani xolda, o'zganing xayotini o'zingnikidan oliyrok kadriyat deb karash goyasi ilgari suriladi. Jo'mardlikning moxiyati ana shunda. Bunday karash, shubxasiz xozir zamondoshlarimiz xayotiga kirib kelgan salbiy ma'nodagi o'ta pragmatizmga karshi kurashda, axlokiy muxitni soglomlashtirishda muximdir.

Biz Yangi davr axlokshunosligi mavzuiga kiskacha to'xtalib o'tdik. Zero, u shunchalik rang-barang va mikyosliki, uni bir-ikki yo uch ma'ruza doirasida kamrab olish mushkul. Shu bois uning asosiy ta'limotlari va yo'nalishlarinigina nazardan o'tkazdik, xolos.

Tayanch tushunchalar

Lazzat, Maksad, Vosita, Rux, Kalb, Manfaat, Ezgulik, Yovuzlik, Ixtiyor erkinligi, Burch, Axlokiylik, Konikish, Muxabbat, Baxt, Vijdon, Iztirob, Alo odam, Hayo, Uyat, Insof, Vatan, Vatanparvarlik, Halollik, Achinish, Shafkat, xayri zo'rovonlik, Ruxiy taxlil, Ekzistentsiya, Ko'rkuv, Tazarru', Mavjudlik, Jo'mardlik.

Takrorlash uchun savollar

1. Lorentso Vallaning axlokshunoslikka doir asarlarida kaday muammolar ko'tarilgan?
2. Makiavellining «Hukmdor» asarida ilgari surilgan goyalar axlokiy jixatdan kay tarzda asoslangan?
3. Kant va Hegelning axlokshunosligiga nimalar asos kilib olingan?
4. Foyerbax axlokiy ta'limotining o'ziga xosligi nimada?
5. Shopenxauerning noratsional axlokiy karashlari asosida nimalar yotadi?
6. Nittsshe axlokiy ta'limotining baxsli tomonlari nimalarda ko'rinadi?
7. Rus mumtoz axlokshunoslarining asosiy goyalari kay tarzda aks etgan?
8. Ruxiy taxlil axlokshunosligi kiritgan yangiliklar nimalarda o'z ifodasini topgan?
9. Nima uchun ekzistentsiyachilik ta'limoti xarakat va jur'at axlokshunosligi deb ataladi?
10. XX asrda yana kaday axlokiy yo'nalishlar va ta'limotlar mavjud?

ADABIYOTLAR

1. Nittsshe F. Zardusht tavallosi. «Tafakkur» jurnali. 1995, 1-son.
2. Sartr J.-P. Ekzistentsializm to'grisida. «Jaxon adabiyoti» jur. 1997, 5-son.
3. Sher A. Shark falsafasi va ekzistentsiyachilik. «Soglom avlod uchun» jur. 1998, 1-son.
4. Valla L. Ob istinnom i lojnom blage. O svobode voli. M., «Nauka», 1989.
5. Gegel G. Filosofiya prava. M., «Мысль», 1990.

6. Гулыга А.В. Неметская классическая философия. М., «Мысль», 1986.
7. Кант И. Из лекции по этике // Этическая мысль 1988, 1990. М., Политиздат, 1998, 1990.
8. Макиавелли М. Избранные сочинения. М., «Художественная литература», 1982.
9. Ницше Ф. Сочинения в 2-х томах, том 1, М., «Мысль», 1990.
10. Шопенгауэр А. Свобода воли и нравственность. М., «Республика», 1992.
11. Фейербах Л. Избранные философские произведения в 2-х томах, т 1, М., 1955.
12. Фрейд, Введение в психоанализ. Лекции. М., «Наука», 1989.
13. Фромм Э. Душа человека М., «Республика», 1992.

TURKISTON MA'RIFATCHI-JADIDLARINING AXLOKIY KARASHLARI (2 soat)

Reja:

1. Turkiston ma'rifatchiligining o'ziga xos xususiyatlari.
2. Axmad Donish, Furkat, Mukimiy va boshka dastlabki ma'rifatchilarning asarlarida ko'tarilgan axlokiy muammolar.
3. Abay, Anbar otin, Abdulla Avloniy va Fitratning axlokiy karashlari.
4. Jadid matbuotining axlokiy tarbiya borasidagi xizmatlari.

1. Turkiston XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya tomonidan bosib olindi va mustamlakaga aylantirildi. Bu mustamlakachilik mohiyatini Turkiston o'lkasi general-gubernatorlaridan biri A.N. Kuropatkinning o'z kundaliklarida, biz Turkiston xalklarini yarim asr mobaynida jaxon madaniyati va tsivilizatsiyasidan chetda tutib turdik, degan so'zlari yakkol anglatadi. Lekin, ayni paytda, rus tarakkiyparvar ziyolilari orkali rus va jaxon ilm-fani va madaniyati xam chor ma'muriyati to'siklari orasidan sizib kirar edi. Shu ijobiy ta'sir asta-sekinlik bilan mazlum Turkistonda yangi Uygonish davrini boshlab berdi. Maxalliy ziyolilar orasida o'z xalkini ozod ko'rishga va jaxonning boshka millatlari bilan tenglasha oladigan darajaga olib chikishga intilish natijasida bu Uygonish Ovro'pa ma'rifatchiligiga nisbatan juda shiddatkor xamda mikyosli bo'ldi. Shuningdek, o'rta asrlar o'rtaga tashlagan ma'rifatparvarlik goyalari uchun xam endilikda amaliy shakllarda yangicha-ma'rifatchilik tarzida namoyon bo'lish imkoniyati yaratildi. Zero o'sha goyalarni yangilangan shakllarda amalga oshira oladigan faoliyatli ziyolilar vujudga kelgan edi. Ularni keyinchalik jadidlar deb atay boshladilar.

Ma'rifatchilik asosan uch soxa orkali tezkor tarzda tarakkiy topib bordi. Bular – maorif (yangicha maktablar ochish, ta'lim usulini yangilash), san'at (badiiy adabiyot, teatr) va matbuot. Pirovard maksad millatni, bir tomondan, ilmi-ma'rifatli kilish bo'lsa, ikkinchi tomondan, uning axlokiy darajasini yuksaltirish va ana shu ikki jixatning uygunlashuvi natijasida o'zligini, o'z kadrini anglagan bilimli shaxsni voyaga etkkazish edi. Turkiston ma'rifatchilari tomonidan ana shu maksadni amalga oshirish yo'lida katta ishlar kilindi.

Turkiston ma'rifatchiligining dastlabki boskichlarida axlokiy goyalar asosan badiiy va didaktik shakllarda o'z aksini topdi. Shu jixatdan o'zbek, va tojik xalklarining mutafakkirlari Axmad Donishning (1827-1897) «Navodir ul-vakoe» asari dikkatga sazovor. Axmad Donish o'z asarlarida Buxoro amirligi davlat tuzumini Rossiya davlat tuzumi bilan solishtirib, uni islox kilish lozimligini ta'kidlaydi. Ayni paytda, an'anaviy axlokiy tushunchalar bilan fikr yuritar ekan, u adolatni xam podsho-xukmdor shaxsiga, xam davlat tizimiga xos fazilat sifatida olib karaydi. Agar xukmdor adolatli siyosat yurgizsa, mamlakat xayotining xamma soxasi uchun adolatni mezon kilib olsa, san'atning gullab yashnashiga yo'l ochib bersa – xalk xayoti farovon bo'ladi, fazilatlar kuchayib, illatlar zaiflashadi. U, xukmdor donishmandlik fazilatiga albatta ega bo'lishi lozim, davlatning mohiyatini akl belgilaydi, degan xulosaga keladi: okilona boshkarilgan mamlakat axolisigina ma'rifatli va yuksak axlok egalari bo'la oladi.

Shuningdek, Axmad Donish o'z davridagi joxillik, riyokorlik, poraxo'rlik singari illatlar jamiyatni tanazzulga olib borishini ta'kidlar ekan, din peshvolarining noto'gri yo'lga kirib ketganini, shayxlarning yolg'onchiligini, ulamlarning poraxo'rligini fosh kiladi.

Korakalpok xalkining buyuk mumtoz shoiri Berdak (1827-1900) she'rlarida xam o'sha davr axlokiy muxiti o'z aksini topadi; u xam din peshvolarining o'zi oxiratga ishonmasliklarini, tovlamachilik, ochko'zlik, tekinxo'rlik illatlariga muhtalo bo'lganliklarini va bu bilan islom ildiziga bolta urayotganliklarini kattik tankid ostiga oladi.

Buyuk o'zbek mumtoz shoirlari Furkat (1858-1909), Mukimiy (1859-1903), Dilshod-Barno (1800-1906) asarlaridagi axlokiy muammolar tarakkiyparvarlik goyalari bilan chambarchas boglanib ketadi. Chunonchi, Furkat «Ilm xosiyati», «Gimnaziya», «Tarjimai xol» kabi asarlarida ma'rifatli bo'lish yuksak axlok egasiga xos xislat ekanini, lekin, nodonlik oxir-okibat turli xulkiy notavonlikka olib kelishini ta'kidlaydi. Shoir gazallaridan birida shunday deb alam bilan yozadi:

Charxi kajraftorining bir shevasidin dogmen,
Ayshni nodon surib, kulfatni dono tortadur.

Mukimiyning xajviy asarlarida esa o'sha davrda avj olgan firibgarliklar, amaldorlarning noinsofligi, adolatsizligi kattik tankid kilinadi. Shoirning «Vokeai Viktor», «Vokeai ko'r Ashurboy xoji», «Tanobchilar», «To'y» singari asarlari Turkiston xalklari oyogidan tobora tubanlikka tortayotgai illatlarni ayovsiz fosh etadi. O'sha davrdagi boylarning nafsdan boshka narsani bilmasliklarini, faxshu maishatga yuztuban ketganliklarini, chor atrofda adolatsizlik xukmronlik kilayotganining alam bilan yozadi. Endi Dilshodning bir muxammasidan olingan kuyidagi parchaga diqqat kiling:

Alam o'tidin kuyodir bu jon
Dudi ox ila to'la osmon,
Betokat o'lib chekaman figon,
Menga raxm etib yiglaydi makon,
Titrab bokadir zaminu zamon.

Boyonlarimiz nafsa ovora,
Tugyoni oshib to bora-bora,
Atlas to'kigon kizi bechora,
Yasanmay yuzga surtadi kora,
Kora kunlarga koldi Margilon.

Olma anoru mevalar koni,
Ammo mevaga zor bogboni,
Bugdoy nonini ko'rmas dexkoni,
Paxta ekadi, yirtik choponi,
Fargona zamin xusni Namangon.

Bu satrlarda ko'tarilgan adolatsizlik muammosi orkali o'sha davrdagi ijtimoiy-axlokiy manzara yakkol namoyon bo'ladi.

2. Turkiston xalklarining axlokiy yuksaklik va ma'rifat vositasida milliy o'zligini anglash darajasiga ko'tarishda kozok xalkining buyuk farzandi Abay (1845-1908) axlokiy karashlarining axamiyati katta.

Abay she'rlarida, shuningdek, «Iskandar», «Mas'ud» dostonlarida ezgulik, adolat, mardlik shijoat singari fazilatlar o'rnini illatlar egallab borayotganidan, xalkning yaxshilik bilan yomonlikni farklay olmaydigan darajaga tushib kolganidan faryod chekadi:

Otalarga o'xshamay koldi turking,
Yopiray muncha ketdi, elim, xulking!
Birlik yo'k, baraka yo'k, buzildi fe'l,
Kani yikkan davlating, bokkan yilking?

«Xulki ketgan», «fe'li buzilgan», «aldamchi», «suk», «ochko'z» singari, sirtidan karaganda o'z xalkiga nisbatan beshafkatlarcha, xatto xakorat darajasiga ko'tarilgan bu so'z va iboralar aslini olganda, millatni jondan ortik sevgan buyuk shoir kalbining alamli yigisidir.

Shunisi kizikarlili, Abayning axlokiy karashlari ma'lum jixatlari bilan garblik mashxur zamondoshi, buyuk olmon faylasufi, adibi Fridrix Nittssshening ba'zi karashlariga yaqin. Ammo, ta'kidlash kerakki, Nittssshedagi o'ta keskinlik, o'ta bekarorlik Abayga yot. Shunga karamasdan, kadriyatlarini kayta baxolash, lozim bo'lsa, butun millatni kayta tarbiyalash kabi goyalar Abayga xam xos. Xususan, u xalkni o'z fe'lini o'zgartirishga, bu yo'lda lozim bo'lsa, an'anaviy xayot tarzidan, ota-bobolardan kolgan o'git – makollardan, xatto asrlar mobaynida o'rgangan chorvachilikdan kechishiga da'vat etadi. Chunonchi, Abay o'zining mashxur «Nasixatlar» deb

atalgan axlokshunoslikka va amaliy axlokka doir kitobida shunday deb yozadi: «Kozoklarning bir-biriga dushman bo'lishining, birining tilagini ikkinchisi tilamasligining, rost so'zi kam, mansabparast, yalkov bo'lishliklarining sababi nimada? Bunga dunyoda o'tgan barcha donishmandlar shunday javob kiladi: xar kanday yalkov kishi – ko'rkok va gayratsiz bo'ladi; xar kanday maktanchok ko'rkok kishi – aksiz, nodon bo'ladi; xar kanday aksiz nodon kishi – orsiz bo'ladi; xar kanday orsiz kishi –yalkov, kishi oldida tilamchi, ochko'z, suk bo'ladi; bunday xunarsiz kishilar xech kachon birovga do'st bo'lmaydi. Bu illatlarning xammasi to'rt oyokli molni ko'paytirishdan boshka narsa xayoliga kelmaydigan kishilardan chikadi. Agar inson ekin-tikin, ilm-xunar, savdo ishlari bilan shugullansa, bunday yomon fazilatlar (ya'ni illatlar) unga dorimagan bo'lur edi».

«Nasixatlar» risolasininng boshka bir o'rnida Abay, makollarni taxlil etish orkali, yukorida aytganimizdek, ma'lum ma'noda an'anaviy kadriyatlarni kayta baxolashga intiladi: «Bizning kozoklarni aytib yurgan makollari ichida, – deydi Abay, – ishga yaroklisi xam, yaroksizi xam bor. Ba'zilar yaroksiz bo'lishi u yokda tursin, xatto na musulmonchilikka va na odamgarchilikka to'g'ri keladi. Avvalo: «Fakir bo'lsang – orsiz bo'!» deyishadi. Ordan ayrilib tirik yurgandan ko'ra, o'lgan afzal... «Oltinni ko'rsa farishta xam yo'ldan ozadi», deyishadi. Sadkai farishta ketgurlar-ey! Bu shunchaki ularning o'z shum niyatlarini ma'kullamokchi bo'lib aytganlari emasmi?... «Yarim kunlik umring kolsa xam, bir kunlik mol yig», «o'zingda yo'k bo'lsa, otang xam dushman», «mol – odamning jigar go'shti», «Moli ko'pning – yuzi yorug, moli yo'kning yuzi – chorik», «Egan ogiz uyalar», «Olagon ko'zim beragon»... Bundan ma'lum bo'ldiki, kozoklar tinchlik uchun gam emas ekan, balki aksincha mol-dunyo uchun gam chekar ekan... Agar moli bor bo'lsa, o'z otasi bilan xam yovlashishdan uyalishmas ekan... Ishkilib, o'grilik, shumlik, tilanchilik, ko'ying-chi, shunga o'xshash yaramas fazilatlar (ya'ni illatlar) bilan mol topsa xam buni ayb sanamasligimiz kerak ekan». Boshka bir o'rinda buyuk mutafakkir imon xakida so'z yuritib, yana ba'zi makollar to'grisida shunday deydi: «Imonga shak keltirgan bandalarni Ollox taolo afu etmaydi va paygambarimiz xam shafkat kilmaydi, bu mumkin xam emas. «Kilich ustida shart yo'k», «Xudoy taoloning kechmas gunoxi yo'k» – degan kalbaki makollarga suyanganning basharasi kursin!».

Abay o'z millatini nixoyatda sevgan mutafakkir. U xech kimni xakorat kilmokchi yoki kamsitmokchi emas; bu achchik gaplar xalk dardida o'rtangan mutafakkirning alamli fikrlaridir. Abay odamlarning torlashib, maydalashib ketayotganidan, erdagi o'z insoniy vazifasi va ma'suliyatini bajarmayotganidan gazablanadi: «Sukrotga ogu bergan, Ionna Arkni olovga tashlagan, Isoni dorga osib, paygambarimiz salolloxu alayxi va sallamni tuyaning o'limtigiga ko'mgan kim? Xalk! Shunday bo'lgach, xalkda akl yo'k. Yo'lini top-da, xalkka raxnamolik kil». Ko'rinib turibdiki, buyuk kozok mutafakkirining axlokiy ideali xalkka raxnamolik kila biladigan odam. Albatta, u alo odam emas, lekin alo odam vazifasini ma'lum ma'noda bajara oladigan inson. Bunday insonni tarbiyalash voyaga etkazish, lozim bo'lsa, yaratish (ma'naviy jixatdan) mumkin; «Odam onadan aklli bo'lib tugilmaydi, – deydi Abay, balki tugilganidan keyin, dunyoda nima yaxshi, nima yomon ekanligini eshitib, ko'rib, ushlab, topib, zexn ko'yib aklli bo'ladi». Boshka bir o'rinda esa, mutafakkir, mana bunday deydi: «Agar davlat mening ko'limda bo'lganida, inson farzandini tuzatib bo'lmaydi, degan odamning tilini kesib tashlardim...»

Shunday kilib, Abay tugma axlokiylikni butunlay inkor etmasa-da, insonning axlokiy darajasi tarbiya bilan boglikligini kat'iy ta'kidlaydi. Ayni paytda tarbiyaga va axlokiy darajaga muayyan ijtimoiy muxitning, zamonning ta'sirini asosiy sababchi deb biladi: «Inson bolasini zamona parvarish kiladi, kimda-kim yomon bo'lsa, ayb zamondoshlarida», -deydi faylasuf- shoir. Uning xakligini insonni axlokiy-ma'naviy jixatdan anchagina tubanlashtirib, uni e'tikodsizdik, yolg'onchilik kasaliga muhtalo kilib ko'ygan mustamlakachilik va, ayniksa, sho'rolar zamonasining salbiy ta'sirida yakkol ko'rishimiz mumkin.

Abayning xayo, uyat, insof, okillik, adolat singari fazilatlar va maktanchoklik, oliftagarchilik, kerilish, yolg'onchilik, ochko'zlik kabi illatlar xakidagi fikrlari xam dikkatga sazovor. Chunonchi, u uyat tushunchasini ikki xil ma'noga ega ekanligini aytadi. Birinchisi, odam o'zi uyat bo'larlik ish kilmaydi, lekin o'zganing uyatli ishidan uyaladi. Buning sababini mutafakkir uyatli ish kilgan odamga nisbatan achinish xissi ekanini ta'kidlaydi. «Ikkinchisi shuki, – deydi Abay, – kilgan

ishing xam shariatga, xam akлга, xam obro'-e'tiborga zid bo'ladi: sen bunday ishni bilmasdan, yo gaflat bosib, yo esa nafs balosida kilib ko'lasan. Mana buni chin ma'nodagi uyat desa bo'ladi». Ana shu ikkinchi ma'nodagi uyatni mutafakkir vijdon bilan boglaydi, uni vijdon azobining tashki ko'rinishi tarzida talkin qiladi: «... ba'zan uyatli kishilar uykudan, ishtaxadan koladi, xatto chidayolmay o'zini-o'zi o'ldiradiganlari xam bo'ladi. Uyat kishining or-nomusi, o'z yaramas fazilatlariga (ya'ni illatlarga) karshi ichki isyonidir».

Umuman olganda, Akbayning she'riy asarlarida va, ayniksa, « Nasixatlar» risolasida ko'tarilgan axlokiy muammolar bugungi kunda xar jixatdan ilmiy tadkikka loyik. Garchand buyuk Turkiston mutafakkiri ko'pgina illatlar xakida o'z xalkiga nisbat berib, fikr yuritsa-da, ular, ba'zi bir istisnoli – fakat kozoklarning an'anaviy turmush tarziga taallukli jixatlarni xisobga olmaganda, umumturkiy axamiyatga molik axlokiy nuksonlardir. Shu bois Abayning falsafiy-nazariy xamda amaliy-didaktik fikrlari va talkinlari biz uchun doimo kimmatlidir.

Turkiston ma'rifatparvarlarining yana bir yirik namoyandasi Dilshod Barnoning shogirdi Anbar otindir (1870). Uning axlokiy karashlari lirik-falsafiy she'rlarida va «Karolar falsafasi» (1898) risolasida o'z aksini topgan. Anbar otin xam inson axlokiy darajasini akl, ilm-ma'rifat bilan boglaydi va ijtimoiy tarakkiyotga akliy xamda axlokiy yuksaklik orkali erishish mumkin, degan akidaga amal qiladi. Uning asarlarida axloksizlik botkogiga botib borayotgan jamiyatga naftratni, shariat va tarikat namoyandalari aynib ketganligi, boylardan insof ko'tarilganligi xakidagi fikrlar mardona ilgari suriladi. «Mukimiyga», «Mingboshi kal Omil xajvi», «Olimjon xoji ta'rifi» kabi she'rlarida ana shu yo'nalishni ko'rish mumkin. Tankidiy-badiiy shakldagi bu yo'nalish «Karolar falsafasi» risolasida falsafiy-taxliliy shakl kasb etadi.

«Karolar falsafasi» asari asosan bir-birining ziddi bo'lmish ikki muammo-ijtimoiy adolat va ijtimoiy zulm tushunchalariga bagishlangan. Risola ko'p o'rinlarda falsafiy-majoziy talkinlardan iborat. Chunonchi, risola davomida ayniksa, uning birinchi faslida kora va ok ranglarning majoziy xamda botiniy moxiyati o'ziga xos tarzda ifodalanadi. Kora mexnati tufayli dunyoni yashnatayotgan insonlar kalbining okligi, ok tana-yu ok bilak kimsalar kilayotgan ishlarning koraligi ta'kidlanadi va ular shu orkali axlokiy mazmun kasb etadi. Anbar otin shunday deb yozadi: «Ul karo xalk oftob so'zanida mexnat kilib, o'zlari xar kancha kuyganlari xolda, xosillarini xamtovoklariga tuxfa kilurlar. Misol andokdurki, kazon bovujud koradur, o'zi o'tda kuyib karo bo'lgoni xolda ovkat pishurib odamlarni to'ydirur.

Karolar bordurlarki, alar o'zlari karo bo'lgoni xolda, ma'rifat nuri siyratlarida to'ladur va ul nurlarni fasoxat va til durdonalari vositasi ila olamga ok shu'la socharlar, Misol uldurki, karo charog o'zi karo yog, kuyundiga giriftor bo'lgoni xolda, nuri ilan kulbani ravshan kilur».

Risolaning ikkinchi faslida Anbar otin o'sha davrdagi ayollar axvolini, ularning bevosita va bilvosita ijtimoiy kamsitishlar natijasida o'z iktidori, istedodi, latofatini namoyon kila olmasliklarini aytib o'tadi. Ular, xatto, ko'cha-ko'ylarga zarurat yuzasidan, masalan, karindosh-urug'larini ko'rgani borish uchun chikkanlarida, eski paranjiga o'ranib, kampirlar kabi bukchayib yuradilar. Chunki agar kaddi komatini adl tutib, yoki ochilib-sochilib yursalar, unlarga erkaklar tajovuz kilishlari mumkin. Bunday axloksizlikning ildizi ijtimoiy adolatsizlikka borib takaladi: kambagalligi tufayli uylanish, oila boshligi bo'lish xukukidan maxrum bo'lgan bunday erkaklar shayton vasvasasiga tushib, shaxvoniy nafslarini tiyolmay koladilar. Lekin tarakkiyparvar shoira kelajakka katta ishonch bilan karaydi: bu ijtimoiy axlokiy illatlar albatta o'tib ketadi, xurlik, tenglik zamonlari keladi. Mana bu xakda Anbar otinning o'zi nima deydi: «Bir zamoni bo'lurki, kamina mushtipar kabi olijanob orzu kilgondan ziyoda bo'lur... alarni mazlumalar avlodi xatarsiz tavallud o'lib, yaxshi parvarish topub, xushro'y va xushxo'y, botamiz va vatando'st, sergayratu mexmondo'st bo'lub, kamolga etar. Ul zamonda barcha xalk soxibjamol bo'lur...»

Ul zamonda odam axloki ul darajaga eturki, xurusi mijoz gala xotunlik rusumini tark etar va xar er bitta xotin ila farogatvor kun kechirgay...

Ul vakt kizlar ilmi dunyoviy taxsiliga muyassar bulub, urfon taxtida karor topib, ellar va ulug'lar safiga doxil bo'lurlar, alar xayrat va mexnatda erlarga xamfo va yovar bo'lub, obro' topib, xurmat va ikromga sazovor bo'lurlar.»

Anbar otin adolatli podsho muammosiga aloxida to'xtalib, o'sha davr uchun nixoyatda original, kutilmagan va xozirgi zamonda xam axamiyatini yo'kotmagan fikrlarni bildiradi. U,

dastavval «o'rus keldi!» deganda xamma ma'rifat axli, endi xalkning, ijtimoiy-iktisodiy va ma'naviy xayoti yaxshi tomonga o'zgaradi deb kutganini, lekin bu ishonch oklanmagangini, aksincha, «o'rus podshox musulmonlarga zarrachayinki xalovat bermaganini» aytadi. Ba'zi bir ruslar xukmronligini oklaganlarga karshi shunday deydi: «Agar o'rus shoxi darxakikat odil bo'lsa, va aning xoxishi karam xalklar xam o'rus misoli ozod bo'lsun va barcha xaloyik o'rus birla barobar bo'lub ro'zgor kechirsun desa, amorat va xukmronlik konunini din konunlaridan mustasno keltursin.» Boshka bir o'rinda faylasuf-shoira: «Davlat ishini dini islomdin yirok tuting...», degan fikrni bildiradi.

Xo'sh, bu mustamlakachilik va adolatsiz tuzumdan kutilishning yo'li bormi? Anbar otin uning ikki yo'lini aytib o'tadi. Biri – aklni inson o'ziga vazir kilib, falsafiy mushoxada yordamida ish ko'rish orkali bunga erishish mumkin: «Vaktiki ilm daraja kilib, falsafa ravnak topsa, bu chigillarim kushoda bo'lur. Falsafa iborasi ila karshi va zid so'zlarni mukoyyyasa kilgonda bu chigillar ochilur.» Ikkinchi yo'l esa o'z-xak-xukukini ximoya etish maksadida amaliy xarakat kilish, mustamlakachilik zulmiga va adolatsizlikka karshi birlashmok, ko'lda kurol bilan chikmok. Bu yo'lni shoira shunday ifodalaydi:

«... albatta, aklu-idrok va jamoatga takya kilib, barcha shayx so'fiylardan yirok va barcha tarsu vaxmdin emin bo'lib, zolimlarga karshi muboriza kilmok, yakkalikdan xazar kilmok, bu tadbirlar ila zulmni nobud etib, zulmatni bartaraf kilmok zarurdir.»

Albatta, Anbar otinning barcha axlokiy karashlarini mutlak to'g'ri deb kabul kilish nojoiz. Chunonchi, u so'fiylik tarikatlarining xammasini moxiyatan reaksion, degan fikrni ilgari suradi va so'fiylarni mustamlakachi amaldorlar ray'iga karaydigan rasmiy din peshvolari bilan chalkashtirib yuboradi. Lekin, shunga karamasdan, Anbar otinning asarlari, ayniksa, «Karolar falsafasi» risolasi xozirgi kunda xam ijtimoiy-axlokiy axamiyatini yo'kotgan emas.

Bundan tashkari, Anbar otin shoira va faylasuf olima sifatida xam, shaxs sifatida xam kishini xayratga soladigan darajada matonatli, pokiza inson, yuksak axlok egasi bo'lgan. U umrini Turkiston xalklari ma'naviyatini yuksaltirishga bagishladi, nogiron bo'lishiga karamay, adolatning paxlavoni bo'lib kurashdi. Bugungi kunda mustakil O'zbekistonimizga bu tom ma'nodagi kaxramon ayol orzu kilgan kunlar keldi, Anbar otinning olimona va shoirona bashorati amalga oshdi.

Turkiston ma'rifatparvarlari orasidagi yana bir mutafakkir ta'limshunos, pedagog va axlorkshunos Abdulla Avloniydir (1887-1934). Uning XX asar boshlarida Turkistonda mashxur bo'lgan «Turkiy guliston yoxud axlok» (1913) asari axlokiy muammolarga jadidchilik nukta-nazaridan yondoshishi, ko'pchilikka tushunarli tilda yozilgani bilan ajralib turadi. Agar Anbar otinning «Karolar falsafasi» risolasida dolzarb axlokiy muammolarga majoziy-falsafiylik, ilmiy, nazariy xulosalar orkali yoritilsa, Avloniy asarida fazilatlar va illatlarga ko'prok tarif berish, ularni sharxlash yo'li bilan yondoshiladi.

Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axlok» asarida an'anaviy-falsafiy yondoshuv bo'lmish antropologik nukta-nazar bo'rtib ko'zga tashlanadi. Ammo bu yondoshuvning yangilangan moxiyati shunda ediki, tadkikot ob'ekti sifatida makon va zamondagi umumiy mavxumiy inson emas, balki, muayyan, XX asr boshlaridagi, milliy ozodlikka, yangicha xayot tarziga intilishni o'z oldiga niyat kilib ko'rgan Turkiston fukarosi olinadi. Ana shu yangi inson tarbiyasi bosh masala tarzida o'rtaga tashlanadi.

Faylasuf pedagog, avvalo, millatni tarbiyalashni o'z ustiga olgan tarbiyachi muammosiga to'xtaladi: otalar – to'yehi, ulokchi, bazmchi, ilm kadrini bilmagan, muallimlar – o'zlari tarbiyaga muxtoj, dorilmualliminni tugatishi kerak bo'lgan, mudarrislar esa – darslari beimtixon, islox yakiniga yo'lamaydigan kishilar. Shu bois millat yoshlari tarbiyasini usuli jadid tarafdorlari ta'lim-tarbiya tizimini zamonaviylashtirish, islox kilishga intilayotgan ziyolilar ko'lga olishi kerak. Avloniy Rossiya xukumati u er-bu erda yangicha maktablar ochgani – shunchaki jaxon jamoatchiligini chalgitish ekanini, ochik bo'lmasa xam, kuyidagi ishora bilan aytib o'tadi: «... xukumat xammaning otasidir. O'z fukarosining bolalarini tarbiya kilmak lozim. Shuning uchun bizning Rusiya xukumatimiz o'gay bo'lsa xam, xar erda bizlar uchun maktablar ochub, bolalarimizni tekin o'kitur.» Avloniy ana shu «o'gay tarbiyadan» ko'ra milliy tarbiyamiz usullarini yangilashni afzal biladi va va o'z davrini «Tarbiyaning zamoni – tarbiyaning ayni vakti

deb ataydi. Unig bu boradagi karashlari xanuz o'z kuchini yo'kotganmaganligini, tarbiya – xozir xam jamiyat uchun dolzarb muammo ekanini Prezident Islom Karimov mashxur nutklaridan birida (1995 yil 23 fevral) Avloniydan mana bunday deb ko'chirma keltiradi: «Ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy yozganidek, «Tarbiya bizlar uchun yo xayot – yo mamot, yo najot – yo xalokat, yo saodat, yo falokat masalasidir».

Avloniy tarbiyani, kadimgilar va o'rta asrlar musulmon Sharki mutafakkirlari an'analariga suyanib, uchga bo'ladi: badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi, axlok tarbiyasi. Shular orasidan axlok tarbiyasiga aloxida urg'u berib, uni «insonlarga eng muxim, ziyoda sharaf, baland daraja berguvchi» tarbiya deb baxolaydi. Fazilatlarni faylasuf-pedagog yaxshi xulklar, illatlarni esa – yomon xulklar deb ataydi. Fatonat, diyonat, sharaf, xayo singari musulmon Sharki uchun an'anaviy bo'lgan fazilatlar sharxi bilan birgalikda Avloniy vijdon, Vatanni suymak singari Turkiston mintakasi uchun yangi talkinda takdim etilgan fazilatlar xakida aloxida to'xtaladi. Vatanni suymok lozim bo'lsa, uning yo'lida jonini fido etmok yuksak axlokiy insonga xos fazilatdir. Inson Vatanni tanlamaydi. «Biz turkistonliklar o'z Vatanimizni jonimizdan ortik suyganimiz kabi, arablar Arabistonlarini, kumlik, issik cho'llarini, eskamular Shimol taraflarini, eng sovuk kor va muzlik erlarini boshka erlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, xavosi yaxshi, tiriklik oson erlarga o'z Vatanlarini tashlab xijrat kilurlar edi». Vijdon esa Avloniy nazdida, inson niyatlari va kilmishlarini aks ettiruvchi eng musaffo axlokiy ko'zgudir, «inson akli va fikrining xakikiy mezon».

Shuningdek, jadid axlokshunosligining allomasi intizom, iktisod, idrok va zako singari o'sha davrlarda xali kup kulok o'rganmagan fazilatlarni xam aloxida e'tibor bilan nazariy-amaliy taxlildan o'tkazadi, o'kuvchiga iloji boricha kiska va lo'nda tarzda takdim etishga intiladi.

Abdulla Avloniy «Turkiy guliston...» da «yomon xulklar» ga – illatlar taxliliga katta o'rin ajratadi. Millat tarakkiyotiga eng kuchli to'sik bo'ladigan illatlardan biri sifatida alloma jaxolatni keltiradi: «Jaxolat insoniyatning eng zo'r dushmani va yomon xulklarning boshligidir». Avloniy gazab, shaxvat, xasad, kizb, tama' singari illatlarga xam atroflicha ta'rif beradi.

Shunisi dikkatga sazovorki, Abdulla Avloniy axlokshunoslik tushunchalarining fakat pedagogik emas, balki xam falsafiy, xam badiiy jixatdan talkinini beradi. Chunonchi, u muayyan axlokshunoslik tushunchasi yoki axlokiy me'yorning sodda, lo'nda tarifini takdim etar ekan, ba'zi xollarda Sukrot, Aflotun, Arastu, Ibn Sino singari xakimlarning fikrlarini isbot tarzida keltirsa, goxo ularni nazmiy tizmalar bilan o'kuvchiga etkazishga xarakat kiladi. Umuman olganda, Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axlok» risolasi XX asr Turkiston axlokiy tafakkurida eng salmokli o'rinni egallaydigan, xam nazariy, xam amaliy axlok muammoalirini falsafiy va pedagogik yondoshuv orkali xal etishga bagishlangan yirik asardir.

Turkiston ma'rifatchilari axlokshunosligida tom ma'nodagi milliy kaxramonimiz Abdurauf Fitratning «Oila yoki oila boshkarish tartiblari» (1914) kitobi aloxida o'rin tutadi. Avvalo, shuni aytish kerakki, «Oila» o'zgacha bir shiddatli uslub bilan yozilgan. Unda xam tankidiy rux, xam da'vat ruxi kuchli Fitrat ona Turkistonni ozod ko'rishni istaydi, buning uchun xar bir turkistonlik oila bilim, axlok, a'mol va erk o'chogi bo'lmogi lozim. Mutaфakkir yangi oilani ana shu tartibda kurishga da'vat etadi. Har jixatdan soglom bo'lgan oila etishtirgan farzandlargina millatni yuksakka ko'tara olishini, uni istibdoddan kutkarishini aytadi: «Bu dunyo kurash maydonidir. Bu maydonning kuroli soglom jismu tan, akl va axlokdir. Lekin ana shu kurol-aslaxamiz sinib, zang bosib, chirib ketgan. Shunday kurollar bilan bu dunyoda bizga na saodat va na roxat bor...» – deydi alam bilan Fitrat.

Vatanparvarlik, millatparvarlik tamoyillaridan kelib chikib, muallif kitobning birinchi kismini, ma'lum ma'noda me'yoriy dasturilamal tarzida tartib beradi. Undan xar bir yangi oila kurmokchi bo'lgan turkistonlik kichik xajmdagi axlokiy-maishiy, gigienik-salamatlik komusi sifatida foydalanishi mumkin. Bundan tashkari, asarda oilaning moddiy tomonlari, tashkil topgandan boshlab, buzilishigacha bo'lgan xolatlarning axlokiy asoslari to'grisida xam to'xtalib o'tadi.

Kitobning ikkinchi kismi farzand tarbiyasiga bagishlangan. Fitrat xam tarbiyani an'anaviy yo'nalishda talkin etadi: jismoniy tarbiya, akliy tarbiya va axlokiy tarbiya. Ana shu uch tarbiya uygunligida xakikiy inson kamol topadi deb xisoblaydi muallif. Kitobning bu kismida Fitrat,

ma'lum ma'noda, o'ziga xos axlokiy tarbiya nazariyasini takdim kiladi. U ixtiyor erkinligi muammosini mayl tushunchasi orkali o'rta tashlaydi: baxt mayli, faoliyat mayli, aloka mayli, boshkalarga mexr-muxabbat mayli va x. k. Bularning xammasida xam insonni jamiyat a'zosi sifatida, xam ijtimoiy mavjudot sifatida olib karaydi. Shuningdek, u izzat-nafs, ayniksa, iroda masalasiga aloxida to'xtalib o'tadi. «Iroda va ixtiyor» sarlavxasi ostidagi kichik bobda Fitrat farzandni irodali kilib tarbiyalashga da'vat etadi, iroda tarbiyasining to'rt baddan iborat koida-boskichlarini taklif etadi. Bolani irodali kilib tarbiyalashda ota-onaning zo'ri emas, balki bolaga beriladigan muayyan erkinlik muxim ekanini ta'kidlaydi. «Ota-onalarning xak-xukuklari» bobida xam balogatga etgan farzandning erkinlik darajasi xakida fikr yuritiladi.

Umuman olganda, Fitratning «Oila» kitobida amaliy axlok bilan axlok nazariyasi muammolari uygunlashib ketgan. Lekin unda pedagogik-didaktik uslub emas, jangovor chorlov uslubi ustun. Fitrat uchun yuksak axlokiylik, erk va erksevarlik bilan mustaxkam boglik; Turkiston va turkistonlikni ozod ko'rish, ya'ni milliy mustakillik mafkurasi kitobning ruxiga singdirib yuborilgan. Uni o'kigan kishi na fakat axlokiy fazilatlar nimalardan iborat va ularga kanday erishish kerakligini, balki, milliy ozodlik, shaxsiy erkinlik nima-yu, unga kanday kilib erishish mumkinligini anglab oladi. Shu bois mutafakkir-jadid Abdurauf Fitratning «Oila» asari Turkiston milliy uygonishida benixoya katta rol o'ynadi. Ayni paytda, u xozir xam o'z axamiyatini yo'kotmagan ajoyib axlokiy-ma'rifiy risola sifatida aloxida e'tiborga molik.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ayollarning ilmi, xar jixatdan yuksak axlok-odob egasi bo'lishlari uchun ziyolilar orasida jiddiy xarakat avj oladi. Zero, oiladagi bola tarbiyasi ya'ni yosh avlod tarbiyasi asosan onalar ko'lida ekani xammaga ayon bo'lib koladi. Shu bois ilgor, ziyoli ayollar na fakat kizlar maktablarini ochib, maktabdorlik kilish, balki axlokiy-tarbiyaviy risolalar yozish yo'li bilan xam bo'lajak ziyoli onalarni voyaga etkazishga xissa ko'shadilar. Shu jixatdan Olimat ul-Banotning Sankt-Peterburgda 1898 va 1899 yillarda ikki marta nashr etilgan «Muosharat odobi» («Turmush odobi») asari o'z vaktida katta axamiyatga ega bo'lgan. «Agar xotun o'kigan bo'lsa, o'zining kim ekanligini, vazifasi nimadan iborat ekanligini shak-shubxasiz biladi. Bolalarini esa go'zal tarbiya kiladi, eri bilan yaxshi muomalada bo'ladi va nixoyat Allox Taolaning amriga muvofik xayot kechiradi», – deydi risola muallifi. Unda ayollarning turmushdagi o'rni, oilaviy vazifalari, er-xotin orasidagi munosabatlar, bolalar tarbiyasi uy tutish, nikox va muxabbat borasida fikrlar bildiriladi. Ayni paytda, uy xizmatchilariga munosabatda insof va adolat yuzasidan, ularning xam uy egalariga o'xshash inson ekanliklarini xisobga olib, ish ko'rish lozimligi ta'kidlanadi, turmushning okilona uyushtirilishi uchun xizmat kiladigan ibratli maslaxatlar beriladi. Boshka bir tatar ziyoli ayoli Faxr ul-Banot Sibgatulloxo kizining sakson etti sabokdan iborat «Oila saboklari» (1913) risolasi esa tarbiyaning turli tomonlarini birvarakay o'z ichiga oladi. Axlokshunos olima o'z risolasi moxiyatini kuyidagicha belgilaydi: «Oila saboklari xonimlarga, kizlar maktabi shogirdlariga oila vazifalari to'grisida foydali ma'lumot bergani kabi o'kuvda tamom engillik va bir tarafdin asosli bir axlok sabogi xamdin». U o'n ikkinchi sabokda tarbiyani «ilmi axlokning tani, negizi» deb ta'riflaydi. Asar falsafiy mushoxadalardan ko'ra ko'prok amaliy ko'rsatmalardan iborat. Ayni paytda, unda xam ma'naviyatga, xam moddiyatga zamonaviy munosabat masalasi o'rta tashlanadi, yuksak axlokli bolani voyaga etkazishda xar ikki yo'nalishdagi tarbiyaning muximligi ta'kidlanadi.

4. XX asr boshlarida amaliy axlok muammolari jadid matbuotida keng o'rin oladi. «Tarakkiy», «Sadoi Turkiston», «Ulug Turkiston», «Turon», «Xurshid» singari gazetalarda e'lon kilingan xajviy-jurnalistik asarlarda o'sha davr boyonlarining kolokligi, chor mamuriyatining to'rachiligi, paranjining yangi zamonga mos kelmayotgani, talabalarga 5 so'm iona kilish o'rniga, besh yuzlab so'mni restoranlarda foxishalarga sochayotgan axloksiz sarmoyadorlar kattik tankid ostiga olinadi. Maxmudxo'ja Bexbudiy, Munavvar kori Abdurashidxonov, xamza, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jaev, Abdurauf Fitrat, Abdulla Kodiriy, Abdulxamid Cho'lpon kabi Uygonish davrining buyuk namoyandalari o'z badiiy asarlarda axlok muammolarini dadil ko'tarib chikdilar va ana shu nashrlarda o'z publitsistikasi bilan xam faol ishtirok etdilar. Jadid matbuoti butun kuchini ozodlikni, Vatanni jondan sevuvchi, ilgor, tushungan, xar tomonlama kamol topgan erkin Turkiston fukarosini tarbiyalashni o'z oldiga vazzifa kilib ko'ydi. Afsuski, dastlabki fevral inkilobi bergan xurriyat uzokka cho'zilmadi. Bolsheviklarning 1917 yilning

25 oktyabrda amalga oshirgan davlat to'ntarishi tez orada uning yutuklarini yo'kka chikardi, Lenin boshchiligida ishlab chikilgan yangi mustamlakachilik rejasi asosida barcha tarakkiyparvar kuchlar katagon kilindi. Falsafiy fanlar, shu jumladan, axlokshunoslik xam tarakkiyotdan to'xtadi. Ular mafkuraga bo'ysundirilib, soxtalashtirildi; erkin fikr tag-tugi bilan ko'porib tashlandi. Shu sababli jadidchilik o'z oldiga ko'ygan vazifalarini to'la ado etolmadi. Lekin, shunga karamasdan Turkistondagi bu ma'rifatchilik xarakati kiska muddat ichida bo'lsa xam mazlum xalklarni ma'lum ma'noda uygota oldi.

Tayanch tushunchalar

Millat, Vatan, Vatansevarlik, Tarakkiyot, Adolat, Tarbiya, Oila, Diyonat, Sharaf, Hayo, Vijdon, Mayl, Ixtiyor, Iroda.

Takrorlash uchun savollar

1. Turkiston ma'rifatchiligining o'ziga xos xususiyatlari nimada?
2. Axmad Donish, Mukimiy, Furkat kabi ma'rifatchilarning asosiy goyalari nimalardan iborat?
3. Abayning axlokiy karashlarida kandy yangiliklar ko'zga tashlanadi?
4. Anbar otinning «Karolar falsafasi» risolasida ko'tarilgan muxim axlokiy muammolar kaysilar?
5. Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axlok» risolasining axlokiy-tarbiyaviy moxiyati nimalarda ko'rinadi?
6. Fitratning «Oila» asari jadidchilik axlokshunosligida kandy o'rin egallaydi?
7. Turkiston jadidlari axlokshunosligida matbuotning axamiyati kandy bo'lgan?
8. Vatanimiz axlokshunosligida jadidlar ta'limotlari kandy mavke egallaydi?

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iktisodiy istikbolining asosiy tamoyillari. T., «O'zbekiston», 1995.
2. Abay. Tanlangan asarlar. T., «afur «ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1995.
3. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axlok. T., 1993.
4. Anbar otin, She'rlar. Risola. T., «afur «ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1970.
5. Rizo SH. Ma'rifatparvarlikdan ma'rifatchilikka. «Tafakkur» jurnali, 1995 yil, 1-son.
6. Fitrat. Oila. T., «Ma'naviyat», 1998.

AXLOKNING KELIB CHIKISHI, UNDA IXTIYOR ERKINLIGINING AHAMIYATI VA AXLOK TUZILMASI (2 soat)

Reja:

1. Axlokning kelib chikishi.
2. Ixtiyor erkinligi va axlokiy tanlov.
3. Dastlabki axlokiy konun-koidalar va axlokiy tarakkiyot muammosi.
4. Axlok tuzilmasi.

1. Kadimiy ona sayyoramizdagi xayot odatda uch olamdan iborat deb kabul kilingan. Bular – nabotot, xayvonot va bashariyat olami; ularning o'zaro munosabatlari zaminimizdagi xayotning asosiy omili xisoblanadi. Har uchalasiga xam paydo bo'lish, rivojlanish, o'zini muxofaza qilish, nasl koldirishga intilish instinkti berilgan va xayotining bir kunmas-bir kun o'lim bilan nixoya topish kismati belgilangan. Chunonchi, o'simlik urugdan paydo bo'ladi, rivojlanadi, singan shoxlari o'rnini sirach chikarib, davolaydi – muxofaza kiladi, urugini koldirib, bir kun kuriydi. Hayvon shu xususiyatlar bilan birgalikda sezish a'zolari va kobiliyatiga xamda muayyan darajada idrok etish xislatiga ega. Insonda esa bulardan tashkari muloxaza qilish, fikrlash kobiliyati va uyat xissi, bir so'z bilan aytganda, akl bor. Uni Imom g'azzoliy oltinchi sezgi yoki ikkinchi yurak, yurak ichidagi yurak deb ataydi. Ana shu akl ixtiyor erkinligini, ixtiyor erkinligi esa axlokni takazo etadi.

Bu fikrni yoyibrok tushuntirish uchun insonning paydo bo'lishi tarixiga nazar tashlamok joiz.

Avvalo, shuni aytish kerakki, insonning paydo bo'lishi eng baxsli muammolardan biri xisoblanadi. Bu borada bir-biriga karama-karshi ikki karash mavjud. Biri – diniy, ikkinchisi – daxriycha karash. Diniy-e'tikodiy nukta nazardan odamni Xudo yaratgan. Daxriycha karash esa, buni inkor etib, odamni tabiat yaratgan, u tabiatning bir kismi, degan goyani ilgari suradi. Ular orasida ingliz tabiiyyotshunosi Charlz Darvin (1809-1882) fikrlari aloxida e'tiborga molik. U tabiiy turlarning tanlov yo'li bilan kelib chikishi xakidagi evolyutsion ta'limotni yaratdi. Darvin odam bilan odamsimon maymunlarning kardoshligini isbotlashga urindi va odam maymundan paydo bo'lgan jonzot degan xulosa chikardi. Darvincha-daxriycha karash yakin-yakingacha «sotsialistik lager» xududiga kirgan mamlakatlarda rasmiy, davlat yondoshuvi sifatida xukm surib keldi. Totalitar tuzumga asoslangan bu davlatlar tanazzulga uchragach, yana insonni Xudo yaratgan degan fikr ularda etakchilik mavkeini egalladi. Umuman, olganda, insoniyatning intellektual tarixida, xatto nisbatan daxriylik asri bo'lmish XX asrda xam, insonni Xudo yaratgan, degan fikr kamida to'kson foyizni tashkil etadi. Biz xam ana shu ko'pchilik tomonidamiz. Ayni paytda, kamchilik bildirgan va bildirayotgan aksil fikr xam yashash xukukiga ega ekanini tan olamiz.

Shuni xam aytish kerakki, ba'zilar, diniylik bilan dunyoviylik bir-biri bilan sigishadigan xodisalar, degan xavotirli savol tugiladi. Biz unga «Ha!» deb javob beramiz. Ular na fakat sigishadi, balki bir-birini takozo etadi. Xususan, dunyoviylik diniylikning mavjudlik sharti, ya'nibu dunyo bo'lmaganda, umumjaxoniy dinlar va mukaddas kitoblar nozil kilinmagan bo'lur edi. Ular bir-biri bilan sigishgani uchun xam bugun biz Arastuga, Forobiyga, Ibn Sinoga, Kantga, Ulugbekka, Nyutonga egamiz. Hamma tushunmovchilik bizda xali xam sho'rolar davridan kolgan sarkit-odatdan kelib chikadi: biz xali-xanuzgacha dunyoviylikni emas, daxriylikni, dunyoviy ilmlarni emas, markscha-lenincha deb atalgan soxta «fan»ni inkor etadi. Dunyoviylik esa jamiyatdagi diniylikni xam, daxriydikni xam fukarolarning vijdon erkinligi sifatida kabul kiladi. Shu bois bizning davlatimiz aslo daxriy davlat emas. Frantsiya, Olmoniya, Yaponiya, AKSH kabi dunyoviy davlat, ta'lim tizimimiz xam daxriylikka emas, dunyoviylikka asoslanadi.

Yukorida keltirganimiz, XX asr buyuk olmon faylasufi Karl Yaspers, odamni boshka jonzotdan keltirib chikarishning nojoizligi xakida gapirib, inson transtsendental bogliklikka ega, uning imkoniyatlarini, erkini xech bir jonzotniki bilan kiyoslab bo'lmaydi, inson xatto imkoniyatlari nakadar cheksiz ekanini o'zi xam bilmaydi, deganida uni uluglaganida, bizningcha,

tamomila xak edi. Agar diqqat kilsak, asrimiz mutafakkirining fikri Kur'oni Karim «Bakara» surasida marxamat kilingan kuyidagi oyatlarga xamoxangdir: «30. Eslang (Ey Muxammad), Parvardigoringiz farishtalarga: «Men Erda (Odamni) xalifa (yordamchi) kilmokchiman», deganida, ular aytdilar: « U erda buzgunchilik kiladigan, konlar to'kadigan kimsani (xalifa) kilasanmi? Holbuki, biz xamdu sano aytish bilan Seni ulug'laymiz va Sening nomingni mudom pok tutamiz». (Ollox) aytdi: «Men sizlar bilmagan narsalarni bilaman» va u zot odamga barcha narsalarning ismlarini o'rgatdi. So'ngra ularni farishtalarga ro'baro' kilib dedi: «Agar xalifalikka biz xakdormiz degan so'zlaringiz rost bo'lsa, mana bu narsalarning ismlarini Menga bildiring!» 32. Ular aytdilar: «Ey pok Parvardigor, biz fakat Sen bildirgan narsalarnigina bilamiz. Albatta Sen o'zing ilmu xikmat soxibisan». 33. (Ollox): «Ey Odam, bularga u narsalarning ismlarini bildir», dedi. (Odam) ularga barcha narsalarning ismlarini bildirganidan keyin (Ollox) aytdi: «Sizlarga, Men Eru osmonlarning sirlarini va sizlar oshkor kilgan va yashirgan narsalarni bilaman, demaganmidim?». 34. Eslang (Ey Muxammad), Biz farishtalarga Odamga ta'zim kiling, deyishimiz bilan sajdaga egildilar. Fakat Iblis kibr va or kilib – kofirlardan bo'ldi».

Vaxolanki, sajda bungacha fakat Tangrigagina bajo keltirilar edi. Demak, Xudo bu bilan barcha mavjudotlardan oliy, daraja nukta nazaridan o'zidan keyin turadigan buyuk zotni yaratganini e'lon etdi. Odam – Xudoning erdagi xalifasi. Shu o'rinda «xalifa» so'zining amaliy ma'nosi xakida to'xtalmok o'rinli. Uni oddiy xayotiy misol bilan tushuntiradigan bo'lsak, kosiblikka, xunarmandchilikka murojaat kilish makbul. Ma'lumki, kosib yoki xunarmand ustaning kadimda bir necha shogirdi bo'lgan. Ular orasidagi eng aklli, tadbirkori, ustaning muxabbatini kozongani usta tomonidan xalifa etib tayinlangan. Xalifaga usta o'zining bir kancha vakolatlarini, jumladan, biror yokka safarga ketsa, shu muddat mobaynida boshka shogirdlarni boshkarib, raxbarlik kilib turishni topshiradi. Shunday kilib, usta kaytib kelgunga kadar xalifa uning irodasini amalga oshirish bilan mashgul bo'ladi. Odam xam Olloxga nisbatan ana shunday xalifadir: to u kiyomatga kadar, ya'ni Tangri dargoxiga borgungacha nabotot va xayvonot olami ustidan xukmronlik kilib turadi. xukmronlik kilish uchun, ma'lumki, muayyan darajada erkinlikka, erkin xarakatni ixtiyor etish xukukiga ega bo'lish, falsafiy ibora bilan aytganda, ixtiyor erkinligi zarur. Ana shu ixtiyor erkinligi fakat insonga berilgan. Farishtalar bunday ma'naviy ne'matdan maxrum – ular fakat Olloxning buyrugini bajaradilar. Lekin insondagi ixtiyor kilish erkinligi xam cheklangan – u Ollox tomonidan Kur'oni karimda umumiy tarzda belgilab berilgan doiradagina mavjud bo'lishi kerak. Shu bois mutlak erkinlik insonga emas, fakat Yaratganga xos.

2. Insondagi ixtiyor erkinligi zaruriyat talabi bilan okilona, aklga bo'ysundirilgan ravishda, cheklanadi, ya'ni nisbiylashadi. Aks xolda, muayyan bir, bir necha inson yoki guruxning betiyik erkin ixtiyori na fakat boshka insonlar va guruxlar, balki nabotot, xayvonot olami, butun dunyo uchun fojeaga aylanishi mumkin. Ixtiyor erkinligini bunday cheklashning, aklga bo'ysundirishning asosiy vositasi axlokdir.

Shunday kilib, axlok – oliy mavjudotga ato etilgan oliy ne'mat. Ya'ni axlokning kelib chikishi iloxiy manba'dandir. Ana shu iloxiy asosni asrab-avaylab, tarakkiy toptirish xar bir insonning asosiy vazifasi, burchi. Shu bois o'z-o'zini va, iloji bo'lsa, o'zgalarni axlokiy tarbiyalash barcha mukaddas kitoblarda savob sanaladi.

Ixtiyor erkinligi tufayli inson xar kadamda axlokiy tanlov muammosiga duch keladi. Bu muammo kishida mas'uliyat xissi mavjudligidan dalolat beradi. Mas'uliyatni, o'zgalar va o'z vijdoni oldida javobgarlikni sezmagani kishi xoxlagan ishga ko'l urishi mumkin – uni o'z kilmishining okibati kiziktirmaydi, u fakat manfaat ustuvorligini tan oladi, xolos. Unday odamni axloksiz deb ataydilar. Zero inson yo ezgulikni, yo yovuzlikni tanlashi tufayli nimanidir ixtiyor etadi: axlokiy tanlov – xar bir xatti-xarakat, xar bir kilmishning ibtido nuktasi.

Umuman, inson va jamiyat axlokiy xayotida tanlovning axamiyati bekiyos. Masalan, tarixdan bir ta'sirchan vokeani olib ko'raylik: Bozorda mutasavvif alloma, ozarboyjon, eski o'zbek (turkiy), fors tillarida o'lmas asarlar yaratgan buyuk shoir Imoiddin Nasimiyning gazalini yod o'kiyotgan bir yosh yigitni kufirda ayblab, xibsga oladilar. Yigit oldida ikki yo'ldan birini tanlash turardi: yo piri Nasimiyni sotish va tavba kilib, banddan ozod bo'lish yoki gazalni o'zimmiki, deb o'limga tik borish. Pokdomon, or-nomusli yigit ikkinchi yo'lni tanlaydi. Kozi uning terisini

shilishga buyuradi. Olomon – tomoshabinlar yigiladi. Shu payt Nasimiy kelib koladi. Vokeadan xabar topgan Nasimiy oldida xam endi tanlov turardi – tanlamaslikning iloji yo'k edi: yo o'zini oshkor kilib, yosh yigitni jallod ko'lidan kutkazishi va uning o'rnini egallashi, yoki olomon orasidan sekin sirgalib chikib ketib, shogirdining o'limga maxkum etilishi evaziga o'z jonini asrab kolishi kerak. Buyuk mutasavvif shoir birinchi yo'lni tanlaydi: o'zini jallod ko'lga tutkazib, begunox yigitni ozod etadi. Kozi Nasimiyning terisini shilishga buyuradi. Jallod ishga kirishadi, atrofga kon sachraydi. Shunda kozi odamlarga, nari turinglar, bu kofirning tomchi koni biror eringizga tegsa, o'sha erni kesib tashlash kerak bo'ladi, deydi. Kozi gapini tugatar-tugatmas, Tangri irodasi bilan bir tomchi kon sachrab kelib uning jimjalogiga tegadi. Olomon kozidan barmogini kesib tashlashini talab kiladi. Endi kozining oldida tanlov turardi: yo barmogini kesishga berib, gapining ustidan chikishi yoki gapidan kaytib, sharmisor bo'lishi kerak. Kozi axlokiy nopok, ko'rkok va xudbin odam sifatida gapidan kaytadi. Nasimiy esa kiynokka mardonovor chidab, churk etmaydi, aksincha kozining axvolini ko'rib, istexzoli kuladi va so'nggi gazalini yoddan aytadi. Nasimiyning bu jasorati asrlardan-asrlarga o'tdi, ne-ne shoirlarning she'rlarida madx etildi, o'zi esa insoniy poklik va yuksak axlokiylikning o'lmas timsoli bo'lib koldi. Bir namuna sifatida buyuk turkman shoiri Maxtumkulining «Savol-javob» she'ridan kuyidagi sakkiz satrni keltirish mumkin:

Maxtumkuli – U nimadir, emadilar-to'ydilar?
U nimadir, ulug kunga ko'ydilar?
Ul kim edi tovonidan so'ydilar?
Shoir bo'lsang, shundan bizga xabar ber!

Durdi shoir – U diydordir, emadilar-to'ydilar,
U namozdir-kiyomatga ko'ydilar,
Nasimiyni tovonidan so'ydilar,
Bizdan salom bo'lsin, javobimiz shu!

Shunday kilib, ushbu misolda uch xil tanlovni, uch xil masu'liyatni va ixtiyor erkinligidan uch xil foydalanishni ko'rdik. Demak, xar bir insonning bu dunyoda axlokiy tanlov sinovidan o'tmasligi mumkin emas.

3. Dastlabki axlokiy konun-koidalar ana shu tanlovni ro'yobga chikarishga, yana xam anikrok aytganda, uni osonrok amalga oshirishga xizmat kilgan. Ilk axlokiy koida «o'zingga ravo ko'rmagan narsani boshkaga xam ravo ko'rma» mazmunida dunyoga kelgan. Uning xozirgi zamondagi o'zbekchasi «pichokni avval o'zingga ur, ogrimasa o'zgaga ur», «o'zingni er bilsang, o'zgani sher bil» kabi makollarda aks etgan. «Axlokning oltin koidasi» deb atalgan ushbu koida, bizningcha, eng kadimiy axlokiy talablardandir. Zero xun olish talabi keyinrok paydo bo'lgan va insonning asl moxiyatiga to'g'ri kelmaydigan koidalardan. Barcha mukaddas kitoblarda insonni zo'rlik bilan jonsiz kilishning mumkin emasligi ta'kidlanadi. Biz ko'rib o'tganimiz, bundan deyarli XXX asr mukaddam tarkala boshlagan zardushtiy dinining mukaddas kitobi «Avesto»dayok axlokiy konun-koidalar ishlab chikilgani dikkatga sazovor. Unda insonni inson tomonidan o'ldirishgina emas, balki it, ot kabi xayvonlarni jonsiz kilish, daraxt va o'simliklarni bexuda xalok etish kat'iyon man kilinadi, inson fakat ezgu o'y, ezgu niyat va ezgu a'mollar bilan yashashi lozimligi ta'kidlanadi. Bibliyoda Kobilni o'ldirgan Hobildan Tangri xun olmaslikni va uni o'ldirmaslikni talab etadi. Buddxa ta'limoti jonlini jonsiz kilishni eng katta gunox deb biladi. Injilda «o'z kavmdoshingni sev», «odam o'ldirma», degan da'vatlar asosiy koidalar sifatida namoyon bo'ladi. Kur'oni karimda esa xun olishdan ko'ra tovon olmok ma'kulligi aytiladi va musulmonlar o'zaro fakat go'zal munosabatlar kilishi lozimligi ko'rsatiladi. Demak, dastlabki axlokiy konun-koidalar mukaddas kitoblarda o'z aksini topgan zo'ravonlikka zo'ravonlik bilan javob bermaslik tamoyili asosida yaratilgan.

Ana shu, inson axlokiy xayotining asosi bo'lgan konun-koidalar xozir xam o'z axamiyatini yo'kotgani yo'k. Odamlar ularni ogir majburiyat deb bilmasdan, dil-dildan bajaradigan

zamonning tezrok kelishi uchun tinmay xarakat kilishlari axlokiy tarakkiyotdan dalolatdir. Zero ana shu yo'lda inson o'z Yaratganiga makbul komil inson bo'lib etishadi.

Hozirgacha bo'lgan bizdagi an'anaviy axlokshunoslikda axlokni tarixiy materializm tamoyiliga asoslanib davriylashtirish kabul kilingan: kuldorlik axloki, feodalizm axloki, burjua axloki v.x. Tarixiylik nukta nazarini rad etmagan xolda, biz bunday davriylashtirishga extiyot bo'lib munosabat kilishni tavsiya etardik. Negaki, u axlok ilmini soxtalashtirishga, bir tomonlama kat'iy xukm chikarishga asoslangan. Chunonchi, unda «kuldorlik axloki» degan tushuncha mavjud va u kat'iy ravishda «kul-rasmona odam emas, jonli narsa», degan tamoyil bilan ish ko'radi. Shunday ekan, u xolda, yukorida keltirganimiz, Kadimgi Misr donishmandi Pxatoteptning «Pandnoma»sidagi: «Kimmatbaxo toshdek yashirindir okilona so'z, xolbuki uni don tuyayotgan cho'ridan topish mumkin», degan xikmatini kanday tushunish mumkin? Yoki Kadimgi yunon masalchisi, kul Ezopga xo'jayinning munosabati, bekasining uni sevib kolishi yoki Kadimgi Rumoda ba'zi bir ozod etilgan kullarning keyinchalik senatorlardan xam kattarok obro'ga ega bo'lganini kanday izoxlaymiz. Yoki «O'tgan kunlar»dagi xasanalining Yusufbek xoji oilasidagi mavkei-chi? Xuddi shuningdek, o'rta asrlarda ajdodlarimiz yaratgan durdona pandnomalarda, odatda, amaldorlar va feodallar emas, balki oddiy xalk vakillari ko'p xollarda axlokiy jixatdan ustun kilib tasvirlanadi. Abu Bakr ar-Roziy o'zining «Kambagallar tabobati» degan nom bilan mashxur bo'lgan kitobida, xatto, mana bunday deb yozadi: «Ko'li kiska kishilarning bolalari kambagal va kamtarona yashayotganliklari tufayli xalol, fazilat egalari bo'lib etishishlari mumkin, zero ularning boshkalarga nisbatan sabr-tokat ko'rsatishlari, tarbiya xamda mashgulotlarda kiyinchiliklarga bardosh berishlari oson ko'chadi».

Xo'sh, bu misollar istisnomi? Aslo. Istisnoli xolatlarning bunchalik ko'p bo'lishi mumkin emas. Gap shundaki, «kuldorlik axloki» yoki «feodalizm axloki» deganda, aslida axlokiy tamoyil emas, balki mazkur davr yoki tuzum ilgari surgan xukukiy tamoyillar nazarda tutilgan. Natijada yukoridagi misollarda ko'rganimizdek, ichki axlokiylik bilan tashki xukukiylik doimo kurashib kelgan. Ana shu nomutanosiblik sababli ko'pgina mutafakkirlar chalkash xulosalar chikaradilar. Chunonchi, Sartr, AKShdagi fukarolar urushi davrida ko'tarilgan axlokiy muammolar xozir xam insoniyat oldida turibdi, bu borada yaxshilanish ro'y bergan emas, deydi. Demak, Sartr to'gridan-to'gri axlokiy tarakkiyot yo'k, degan fikrni ilgari suryapti. Bunga ko'shilib bo'lmaydi.

Agar ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, ixtiyor erkinligi, tanlov singari tushunchalar xanuzgacha o'z nomini saklab kolganini, o'zgarmaganini nazarda tutsak, balki Sartr xakdir. Lekin axlokiy tushunchalarning nomlari o'z-o'zicha mavxum va mantiqiy xodisalaridir. Ularning muayyanlashuvi va yashashi makon va zamon ichidagi inson xatti-xarakatlariga boglik. Masalan nomus tushunchasini olaylik. U yukorida keltirganimiz talon-xun olish davrida xam bor edi va ana shu xun olishning amalga oshirilishi orkali ma'no kasb etardi. Tarixga nazar tashlasak, xatto xun olish jarayonining xam tarakkiy topib borganini ko'rish mumkin. Hozirgi davrga kelib esa, xun olish axlok muammosi sifatida kun tartibidan chikib ketdi. Endi nomus tushunchasining asosiy kamrovi-boshkacha.

Demak, insoniyat tarixida axlokiy tarakkiyot bo'lgan va u davom etib kelmokda. To'gri, bu davom etish kat'iy tadrijiylikka ega emas. U goxo susayish, ba'zan esa bir oz ortga chekinish, ba'zan bir kancha muddat koim turish xususiyatlariga ega. Lekin katta davrlar va tarixiy oraliklarni olib karaydigan bo'lsak, axlokiy tarakkiyotning mavjud ekaniga ishonch xosil kilish kiyin emas. Mustabid tuzumlar va shaxslar keltirib chikargan axlokiy tanazzullar xammasi kiska muddatli xamda o'tkinchi xodisalaridir. Zero insonning asosiy moxiyati o'zini va o'z jamiyatini tarakkiy ettirib borish bilan belgilanadi. Axlok esa ana shu tarakkiyotdan xech kachon chetda turmaydi.

4. Axlok xakida gap borganda, albatta uning muayyan tuzilmasi, unga asos bo'lgan omillar, unsurlar to'grisida to'xtalmaslik mumkin emas. Axlok tuzilmasini, odatda, uch omil-asosdan iborat deb xisoblaydilar. Bular-axlokiy anglash (axlokiy ong), axlokiy xis etish (axlokiy xissiyot) va axlokiy munosabatlar (axlokiy xatti-xarakatlar). Ba'zi mutaxassislar (chunonchi, mashxur rus axlokshunosi A.I. Titarenko) axlokshunoslik mezoniy tushunchalarini (kategoriyalarini), axlokiy me'yorlar va tamoyillarni axlok tuzilmasi tarzida takdim etadilar. Bizning nukta nazarimizdan

bu fikr unchalik to'g'ri emas. Chunki mazkur tushunchalar, tamoyillar va me'yorlar ko'prok axlokka emas, balki uni o'rganadigan fanga – axlokshunoslikka taalluklidir. Umuman, shuni aytish kerakki, axlokshunoslik fanida ancha-muncha chalkashliklar mavjudki, ularning sababini mazkur fanning boshqa fanlarga nisbatan aloxida xususiyatlarga egaligidan, ya'ni unda ko'p xollarda ilmiy-nazariy jixatlarning ilmiy-amaliy tomonlar bilan omuxtalashib ketganidan kidirmok lozim.

Shunday kilib, axlok tuzilmasi uch asosiy omilni: axlokiy anglash, axlokiy xis etish va axlokiy munosabatlarni o'z ichiga oladi. Ayni paytda ana shu omillarning tuzilmadagi o'rni, to'g'rirog'i, mavkei masalasida xam turli xil karashlar mavjud. Ba'zi axlokshunoslar axlokiy anglashni, boshka birovlar axlokiy xissiyotning o'zini asosiy unsur deb talkin etadilar. Yana ba'zi birovlar axlokiy anglash-axlokiy ongga etakchilik mavkeini beradilar. Xo'sh, aslida kanday karash xakikatga yaqinrok?

Avvalo, shuni ta'kidlash kerakki, juda ko'p xollarda axlok tuzilmasidagi mazkur uch omil-unsurning birortasiz axlok tushunchasini tasavvur kilib bo'lmaydi. Boshkacha aytganda, axlokni inson ko'zi oldida gavdalanitiruvchi axlokiy munosabatlarning xis etish va axlokiy anglashsiz yuzaga chikishi, ya'ni mavjud bo'lishi mumkin emas. Bunday xolat axlokiy xis etishga xam, axlokiy anglashga xam taallukli. Zero tuzilmadagi bu uch unsur-omil bir-birisiz kamdan-kam mavjud bo'ladi, doimo bir-birini takozo kiladi.

Endi axlokiy anglashning tuzilmadagi etakchilik mavkeiga, to'g'rirog'i, asosiy unsur sifatidagi o'rniga kelsak, uni bu tarzda talkin etish, bizningcha, to'ri emas. Vaxolanki, sho'rolar davrida va xozirdagi rus olimlari orasida ba'zi g'arbdagi zamonaviy axlokshunoslik yo'nalishlarida ana shunday karash xukmron ekanini ko'ramiz. Aslida esa, tuzilmada poydevor unsur sifatida axlokiy xissiyot yoki axlokiy xis etish namoyon bo'ladi. To'g'ri, juda ko'p xollarda biror bir axlokiy karorning amalga oshuvi uzok yoki kiska vakt mobaynida o'sha karor okibatlari to'grisida ongli ravishda xulosa chikarishga, ularni avvaldan anglab etishga urinish bilan boglik bo'ladi, ya'ni biz o'z xatti-xarakatlarimizni axlokiy anglash elagidan o'tkazib, faoliyat ko'rsatamiz. Lekin o'sha anglab amalga oshirilgan axlokiy karor tubida, so'zsiz, axlokiy xissiyot yotadi. Demak, axlokiy xis etish axlokiy anglash uchun material vazifasini o'taydi.

Ba'zan esa o'sha «material» – xissiyotning o'zi axlokiy anglashni chetlab o'tib, munosabat tarzida namoyon bo'ladi. Bunga insonning favkulodda xolatlardagi xatti-xarakati misol bo'la oladi. Deylik, yukori tezlikda ketayotgan avtomobil oldidan yo'l o'rtasiga, koptokni kuvib, go'dak chikib koldi. Haydovchi tormozni bosish barobarida, shu xaxoti mashinasini keskin chetga buradi. Bola omon koladi, xaydovchi jaroxatlanadi, mashina pachok bo'ladi. Bu xolatda xaydovchining go'dakka nisbatan, mexr-shafkati, achinish xissi, inson bolasini oliy kadriyat sifatida xis kilishi muxim rol o'ynaydi. xaydovchi o'z xatti-xarakatini «okilona karorga» kelishi uchun, «etti o'lchab, bir kesib» amalga oshirmaydi – xamma narsa bir laxzada ro'y beradi. Bunda anglash emas, ong emas, oniy intuitsiya, o'z kavmdoshi xayotini asrashdek tabiiy-biologik xissiyot-instinkt xal kiladi, ya'ni mazkur xissiyot tom ma'nodagi anglash darajasiga ko'tarilib ulgurmasdanok munosabatga aylanadi.

Xulosa kilib aytganda, bizning axlokiy xayotimiz, barcha axlokiy tajribalarimiz, axlokiy faoliyatimiz ana shu uch omil asosida ro'yobga chikadi. Axlokiy kodekslarimiz, me'yorlarimiz va tamoyillarimiz ularga asoslanadi. Lekin aldov, yolg'on, soxtalik va totalitar axlokiy zugum xukmronlik kilgan davrlarda yoki mamlakatlarda axlokiy xissiyot, axlokiy anglash, axlokiy munosabatlar kabul etilgan kodekslar, me'yorlar xamda tamoyillarga ko'pincha to'g'ri kelmaydi. Rasmiy axlokiy konun-koidalar bilan xakikiy axlokiy intilishlar orasida ma'naviy jarlik paydo bo'ladi. Tilda bu konun-koidalar ko'klarga ko'tarilgani xolda, dilda, ich-ichdan ularga karshilik xukm suradi. Natijada jamiyat uchun fojea bo'lgan axlokiy so'z bilan axlokiy faoliyatning aloxida-aloxida mavjudligi ro'y beradi. Buni biz sho'rolar davridagi «kommunizm kuruvchisining axlokiy kodeksi» bilan shu kodeksni xayotga tatbik etishga yo'naltirilgan guruxlarning, «shu kodeks asosida yashayapmiz» degan odamlarning poraxo'rligida, tashmachiligida, xudbinligida, yolg'onchiligida ko'rganmiz.

Bunday nomutanosiblik, o'rtadagi ma'naviy jarlikning kelib chikishini agar aniklashtiradigan, ya'ni «maydalab» taxlil kiladigan bo'lsak, u maksad bilan vositalar muammosiga borib takaladi.

«Hamma baxtli yashaydigan», «kommunistik jannat»ni go'zal maksad deb bilguvchilar o'z maksadlariga jamiyatning bir kismini kirib tashlash, ta'kib etish, aldov, zo'rlik vositasida etishishga urindilar. Odamlarni zo'rlab baxtli kilmokchi bo'ldilar va muvaffakiyatsizlikka uchradilar. Iflos, nopok, konli vositalar, shubxasizki, xar kanday pokiza maksadni xam nopoklashtiradi, undan kishilarning ko'nglini koldiradi. Shu bois maksad va vositalar uygunligi, sifat nuktai nazaridan mosligi jamiyat xayotida, inson xayotida nixoyatda muximdir.

Biz shu o'ringacha, e'tibor kilsangiz, axlokni butun insoniyat uchun umumiy xodisa sifatida talkin etib keldik. Zotan axlok eng avvalo, umuminsoniy an'anaviy xodisadir. Asosiy axlokiy kadriyatlar, mushtarak axlokiy tushunchalar, axlokiy tamoyil va me'yorlar barcha mintakalar xamda millatlar uchun bir xil ma'no kasb etadi. Chunonchi, muxabbat, ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, vijdon, burch, insonparvarlik, odamiylik, baxt, to'grilik, rostgo'ylik, saxiylik va baxillik singari fazilat xamda illatlar tom ma'noda umuminsoniy xodisalardir. Zero o'zbekcha ezgulik yoki yovuzlik, inglizcha vijdon, frantsuzcha insonparvarlik, arabcha yolg'on, deysh mumkinmi? Albatta, yo'k.

Lekin, ayni paytda, axlokda umuminsoniylik xususiyatidan tashkari, mintakaviylik va milliylik xususiyatlari xam muxim axamiyat kasb etadi. Mintakaviylik va milliylik xususiyatlari axlokning nisbatan kichikrok kamrovga ega bo'lgan ko'rinishlarida – xulkiy xatti-xarakatlar, odob va etiketda yakkol ko'zga tashlanadi. Chunonchi, musulmon mintakasida dasturxon ustida bosh kiyimsiz o'tirish beodoblik xisoblanadi. Buning odobdan tashkari gigienik-ozodalik nuktai nazaridan xam axamiyati bor: ovkatlanish paytida ro'molsiz ayol yoki do'ppisiz erkak boshidan soch tolasi, kepak, chang-gard taomga yoki dasturxonga tushishi mumkin. Nasroniylar mintakasida esa aksincha dasturxon ustida bosh kiyimni echmaslik Xudo in'om etgan taom va dasturxonga xurmatsizlik sanaladi. Yoki amerikalik yigit o'zi kresloda o'tirib, oyoklarini kuldon va ichimlik ashyolari turgan stolchaga chalkashtirib tashlab, orom oladi va uning uchun bu tabiiy xol xisoblanadi. O'zbek uchun esa, stolga yoki xontaxtaga oyok ko'yib o'tirish – o'ta odobsizlik.

G'arbu Shark mintakalari odobida yana bir katta fark borki, bu xozirgi paytda g'arbda xukukning axlokdan, Sharkda axlokning xukukdan ustuvorligi masalasi. G'arb yoshlari, balogatga etgach, ota-onaga teng xukukli fukarolar sifatida munosabat kiladi, o'zining karshi fikrini to'ppa-to'g'ri, ota yo onasining yuziga tik karab, bayon kiladi va buni inson xukuklaridan, shaxs erkinligidan foydalanish deb biladi Shark yoshlari masalan, yapon yoki o'zbek ota-onaga tik gapirishni, to'g'ridan-to'g'ri karshi chikishni an'anaviy axlokiy koidalarning oyok osti kilinishi deb tushunadi, padari yo volidasiga ko'zini erga tikib, muloyim, o'z fikrini tovush ko'tarmay aytishni, ba'zan esa sukut saklashni afzal deb biladi, ularga bo'ysunishni burch sifatida olib karaydi. Afsuski, ba'zi çarb mamlakatlarida keksa avlodni yoshlar xukukiy xayotiga, erkinligiga gov deb bilish xollari mavjud. Bunga keyingi paytlarda Angliyada bir kancha yoshlar guruxlarining ko'chada ketayotgan kariyalarni tutib, do'pposlashlari okibatida yuzaga kelgan o'nlab sud jarayonlari guvoxlik beradi.

To'g'ri, sharkona etiket, odobiy konun-koidalarning an'anaviylik bilan boglik, ba'zi zamonaviy nuktai nazardan nuksli tomonlari bor. Lekin, shunga karamay, ularda insoniylik va mexr- okibat tuygulari xali xam mustaxkam ildizga ega. G'arbda esa xozirgi paytda bunday fazilatlarni uchratish tobora gayri tabiiy xolatga o'xshab kolayotir. Shu bois xozirgi paytda çarbning xukukiylik tamoyilini Sharkning axlokiylik tamoyili bilan uygunlashtirish zamonaviy jamiyat tarakkiyotida muxim rol o'ynaydi.

Tayanch tushnchalar

Ixtiyor erkinligi, Axlokiy tanlov, Mas'uliyat, Axlokiy tarakkiyot, Axlok tuzilmasi, Axlokiy ong (anglash), Axlokiy xissiyot, Alokiy munosabatlar, Maksad va vosita.

Takrorlash uchun savollar

1. Axlokning kelib chikishi xakidagi ikki xil fikrning asosiy moxiyati nimada?
2. Ixtiyor erkinligi nima?

3. Alokiiy tanlov nimalarga asoslanadi?
4. Dastlabki axlokiy konun-koidalar kaday axlokiy talablarni o'z ichiga oladi?
5. Axlokiy tarakkiyot, umuman, bormi?
6. Axlok tuzilmasi kaday unsurlardan tashkil topadi?
7. Alokning umuminsoniy, mintakaviy va milliy xususiyatlari nimalarda ko'rinadi?

ADABIYOTLAR

1. Kur'oni karim. T., «Cho'lpon», 1992.
2. Maxtunkuli. Tanlangan asarlar. T., «O'zadabiynashr», 1958.
3. Sher A. Shark falsafasi va ekzistentsiyachilik. «Soglom avlod uchun» jurnali, 1999 yil, 1-son.
4. Slovar po etike. M., Politizdat, 1989.
5. Shopengauer A. Svoboda voli i npravstvennost. M., «Respublika», 1992.
6. Yaspers K. Filosofskaya vera.//. Yaspers. Smysl i naznachenie istorii. M., Politizdat, 1991.

AXLOKNING MA'NAVIYAT TIZIMIDAGI O'RNI (2 soat)

Reja:

1. Ma'naviyat xakida umumiy tushuncha.
2. Axlokning boshka ijtimoiy-ma'naviy xodisalar bilan o'zaro alokalari: axlok va din, axlok va xukuk, axlok va siyosat, axlok va san'at, axlok va fan, axlok va mafkura.
3. Axlokning ma'naviyat tizimidagi birlashtiruvchilik axamiyati.

1. Mamlakatimiz mustakillikka erishganidan keyin dastlabki o'rtaga tashlangan eng dolzarb muammolardan biri-ma'naviyat bo'ldi. Hozir xam bu muammo jamiyatimizning diqqat markazida. Zero ma'naviyatsizlikning xar kanday jamiyatni tanazzulga olib borishi shak-shubhasizdir. Shu munosabat bilan, ma'naviyat o'zi nima-yu, u kanday kelib chikkan, degan masalaga to'xtalib o'tmok o'rinli. Bu masala esa bizni yana odamning paydo bo'lishi muammosiga murojaat etishimizni takozo kiladi.

Tangri insonning jismini loydan – moddiy materialdan yaratgach, unga jon, rux ato etdi. Endi inson rux va vujudning yaxlitligi sifatida fakat ruxdangina iborat farishtalardan ulugrok makomga ega bo'ldi. Ruxning vazifasi – vujudni boshkarish. Demak, odamda moddiylikdan ko'ra ruxiylik-ma'naviylik mantikan birlamchi. Buni inson sezgilarining «moddiylik» va «ma'naviylik» nisbatida ko'rish mumkin. Insondagi besh sezgidan fakat ikkitasi – biror moddiy narsaga tegib xis etish va biror narsaning ta'mini bilish orkali xis etishgina bevosita «moddiy sezish»ga taallukli. Kolgan uch sezgi – ko'rish, eshitish, xid bilish esa muayyan moddiy narsaga tegmagan xolda, «ma'naviy sezish» orkali u xakda tasavvurga ega bo'ladi. Buning ustiga avvalgi ikki sezgining biri inson jismoniy kuchini ko'llashda – kurish, buzish, jismoniy boshkarishda, ikkinchisi inson vujudi uchun zarur bo'lgan moddalarni ovkat sifatida kabul kilishda zarur. Kolgan uch sezgi esa insonga go'zallikni ko'rish, uni xunuklikdan farklashda, yokimli tovush bilan yokimsiz tovushni anglashda, xushbo'y xiddan badbo'ylikni ajratishda kerak. xar ikkala toifadagi sezgilar orkali xam inson roxatlanadi. Jismoniy mexnatdan olinadigan roxat va gastrologik lazzat –bir tomondan, go'zallikdan, yokimli tovushdan, xushbo'ylikdan olinadigan lazzat – ikkinchi tomondan. Har ikkala toifa sezgilar «xizmat»ini fikr tarozusiga solib ko'radigan bo'lsak, buning ustiga «oltinchi sezgi» – aklning mavjudligini xisobga olsak, «ma'naviy sezgilar» tosh bosib ketadi. Zero bu «korin to'ydirmaydigan» sezgilar insonning oliy mavjudot ekanini anglatuvchi belgilardir. To'gri, inson korin to'ydirishi kerak, lekin u korin to'ydirish uchun yashamaydi, balki yashash uchun korin to'ydiradi. Insoniy xayotning xayvoniy xayotdan farki xam shunda.

Aytilganlardan xulosa chikaradigan bo'lsak, uch «ma'naviy sezgi» orkali olinadigan lazzat, inson xayotining mazmuni-maksad, ikki «moddiy sezgi» esa ana shu maksadni amalga oshirish yo'lida vosita. xakikiy ma'naviy lazzatga erishish, tom ma'noda ma'naviyatli yashash uchun, tabiiyki, «vosita-sezgilar» xam pokiza, xaromdan yirok bo'lishi lozim. Zero nopok vositalar bilan erishilgan lazzat – ma'naviyat emas, u xuddi bir uyum go'ng ustida o'sgan atirgul kabi kishida afsus xissini uygotadi.

«Korin falsafasi»ga asoslangan, insonni fakat korni to'k, bir xilda fikrlovchi kommunistik jamoa a'zosi kilib tarbiyalashga uringan sho'rolar tuzumi materializmni – moddiyatchilikni iloxiylashtirish barobarida ma'naviyatga etarli e'tibor bermadi, uni ikkinchi darajali unsur deb xisobladi. Bizning xozirgi erkin jamiyatimiz esa, moddiyatchilikning axamiyatini inkor etmagan xolda, ma'naviyatchilik yo'nalishini ustuvor sanab, insonni eng avvalo, ma'naviyatli shaxs, o'z fikriga, o'z so'ziga, o'z erkiga ega ma'naviy individ, kolaversa fukarolik jamiyatining a'zosi ekanini, e'tirof etadi. Na fakat e'tirof etadi, balki ana shu yo'nalishda juda katta ishlarni amalga oshirishni asosiy vazifasi deb biladi.

Endi ma'naviyatning xayotda namoyon bo'lishi kanday ro'y beradi, u kanday soxalarni o'z ichiga oladi, degan savollarga e'tiborni karataylik. Bu borada xozirgi paytda turli xil karashlar, fikrlar mavjud. Zero ma'naviyat kamroviga kiradigan soxalar juda ko'p va xilma-xil. Shu bois

fakat ularning eng asosiylari, ya'ni ma'naviyatning shoxtomirlari bo'lmish unsur-soxalar xakidagina gapirish mumkin.

Ulardan biri va birinchisi – ezgulik; ikkinchisi – go'zallik; uchinchisi – e'tikod, ya'ni ana shu ezgulik va go'zallikning tom ma'nodagi timsoli bo'lmish Yaratganga e'tikod.

Mutlak ezgulik egasi bo'lmish Yaratgan insonni ezgu ishlar kilish, ezgulikka ezgulik bilan javob berish uchun yaratdi. Zero Tangri insonni yaratib, buyuk ezgulik namunasini ko'rsatgan ekan, uning bandasi bo'lmish odamzot xam ezgulikka ezgulik bilan javob berishi kerak: Olloxni sevishi, fakat ezgu a'mollarga, yaxshilikka kamarbasta turishi, o'z kavmdoshlariga xam, atrof-muxitga xam ezgulik nuktai nazaridan munosabatda bo'lishi shart. Ezgulik esa, bizga ma'lumki, axlokning, okilona xatti-xarakatlarning asosi, axlokshunoslikning mushtarak tushunchasidir. Demak, axlokiylik inson ma'naviyatining asosiy ustuni.

Mutlak go'zallik soxibi bo'lmish Yaratgan insonni go'zal mavjudot, o'zidan keyingi ikkinchi go'zallik yaratuvchi zot kilib bunyod etdi. Ayni paytda odamzot Olloxning Erdagi xalifasi sifatidagi Tangri in'om etgan atrof-muxitdagi go'zallikni, go'zal xulkni, go'zal a'mollarni asrash, ardoklashi lozim. Zero «Ollox go'zal va u go'zallikni sevadi». Ushbu xadisi sharif so'zlaridan shunday xulosa chikarish mumkin: Olloxni sevgan bandasi albatta go'zal bo'lishi va go'zallikni sevishi shart. Aks xolda u farishtalarga xam nasib etmagan xalifa degan sharaflil nomga noloyik. Go'zallik esa nozik xissiyotlarning, kalbni yumshatuvchi, mayinlashtiruvchi, insonga xilmlilik baxsh etuvchi, kalbni foriglantiruvchi nozik xissiyotlarning asosi, nafasatshunoslikning mushtarak tushunchasidir. Demak, go'zallikka muxabbat xam ma'naviyatning asosiy ustunlaridan.

E'tikodni esa, ezgulikka va go'zallikka muxabbatning, ularga iktido kilishning eng oliy darajasi deyish mumkin. Uning eng mukammal ko'rinishi o'zini din shaklida namoyon etadi. Dinlar xar xil bo'lishiga karamay, mukaddas kitoblarning moxiyati bir: inson mutlak ezgulik va mutlak go'zallik soxibiga e'tikod orkali komillikka erishadi. Zero, barcha dinlarning maksadi komil insonni tarbiyalash. Shu bois xam Kur'oni karimda xakikiy mo'min barcha nozil kilingan kitoblarning mukaddasligini tan olishi shart, deya kayta-kayta ta'kidlanadi.

Demak, xar bir inson o'z xayotini ana shu uch asosga kursagina, ma'naviyatli xisoblanadi. Axlok, – ma'naviyat tizimida eng salmokli o'rinni egallaydi va undagi boshka soxalar bilan mustaxkam alokada ish ko'radi. Endi ana shu alokalarning eng muximlariga kiskacha to'xtalib o'tamiz.

2. Avvalo, axlok bilan din masalasini olib karaylik. Bu borada yana, yukoridagi fikrlarga ko'shimcha kilib, shuni aytish mumkinki, moxiyatan din inson xayotining axlokiyligini takozo kiladi. Shu bois diniy-shar'iy tamoyillar va me'yorlar, xadisi sharifdagi o'gitlar axlok-odob koidalari bilan chambarchas boglik. Chunonchi, inson eng oliy kadriyat sifatida kat'iy muxofaza etiladi. Odam o'ldirish mumkin emas, odam o'ldirish eng ulkan axloksizlik xisoblanadi. O'grilik, birovning xakini eyish, munofiklik, aldash, yolg'on gapirish va shu kabi boshka turli illatlar xam diniy-shar'iy, xam axlokiy nuktai nazardan man etiladi. Aksincha, insonni e'zozlash, odamlarning bir-biriga ko'makdosh bo'lishi, to'grilik, rostgo'ylik, xalollik, raxmdillik, kavmdoshi kaday yuksak darajada bo'lmasin, unga xushomad kilishdan tiyinish, fakat Yaratgangagina siginish singari fazilatlar ayni paytda xam diniy takvo, xam axlokiy talab tomonidan ma'kullangan xatti-xarakatlardir. Shu bois axlokni dindan mustakil, muxtor ma'naviy xodisa sifatida talkin etuvchi markscha-lenincha karashlar mantikiy va ilmiy asosga ega emas. Din, ta'kidlaganimizdek, insonni axlokiylashtirishning vositasi tarzida ish ko'radi. Demak, diniy takvo bilan axlokiy talabning ildizi bir. xar ikki xolatda xam vijdon ko'zga ko'rinmaydigan boshkaruvchi murvat sifatida namoyon bo'ladi. Bu-botiniy ko'rinish; zoxiriy ko'rinish esa shar'iy xukmlar va xukukiyy konunlarda o'z aksini topadi.

Axlokiy talab xukukiyy konun-koidalarda o'z aksini topadi, deyish bilan biz axlok va xukukning mustaxkam alokaga ega ekanini tasdiklab turibmiz. Zero aslida xam shunday. Muayyan jamiyatdagi xukukiyy konun-koidalar o'sha mintaka xalki tomonidan asrlar mobaynida ishlab chikilgan axlokiy akidalar, tamoyillar, me'yorlar, shuningdek, nisbatan umumiylik xususiyatiga ega bo'lgan urf-odatlar zamirida vujudga keladi. Lekin ba'zi bir urf-odatlar, an'analar xukukiyy me'yorlar darajasiga ko'tarila olmasligi xam mumkin. Buning sababi, ularning,

avvalo, nisbatan xususiy tabiatga ega bo'lganida, kolaversa, axlokiy va xukukiy tarakkiyot talablariga javob bera olmasligida. Masalan, joxiliyat davrida arablarda kiz tugilsa, uni tiriklay ko'mib tashlash odati bo'lgan. Keyinchalik, musulmonlik yoyilganda, bu odat gayri muslimlik odati sifatida rad etildi. Hozirga kelib, unday xodisa xukukiy konunlar asosida jinoyat deb karaladi. Yoki bizning mintakada kadimda mavjud bo'lgan xun olish odati xam xozirda jinoyat sifatida jazoga loyik xisoblanadi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Ko'rinib turibdiki, axlok bilan xukuk, garchand, bir ildizga ega bo'lsa-da, ularning jamiyat axlokiy xayotini boshkaruv usuli xar xil: axlok asosan tushuntirish, pand-o'gitlar vositasida ish ko'rsa, xukuk majburiy usul, jazo choralari orkali ish olib boradi. Ayni paytda, shuni xam aytish kerakki, xukuk axlokka nisbatan ancha anik va ancha muayyan ichki bo'linishlarga ega. Chunonchi, xalkaro xukuk, fukaro xukuki, jinoiy xukuk, mexnat xukuki va x. k. nisbatan kat'iy chegaralangan xukukiy me'yorlar mavjud. Axlok esa xukukka nisbatan ancha keng kamrovli. Chunonchi, xukukiy konunlar mavjud tuzumga, muayyan shaxs va yosh doirasidagi kishilarga tadbik etilsa, axlokiy koidalar, xikmatlar, pand-o'gitlar barcha tuzumlar xamda turli yoshdagi kishilarga taallukli bo'ladi. Shuningdek, xukukiy me'yorlar anik adresni takozo kiladi, axlokiy koidalar esa mavxumligi va umumiyli bilan ajralib turadi.

Axlokning siyosat bilan alokasi xam nixoyatda kadimiy: ilk davlat yuzaga kelgandan buyon mavjud. Masalan, miloddan avvalgi XVIII asrda Bobilon podshosi Xammurapi tomonidan ishlab chikilgan konunlar majmui xukukiy xujjat bo'lsa-da, uning asosida axlokiy fazilat – adolatni barkaror etish yotadi. Zero Xammurapi bu konunlarni mamlakatda xakikat kilish, adolat o'rnatish, etim-esirlar va beva-bechoralarga ximmat, raxm-shafkat ko'rsatish maksadida joriy etganini ta'kidlaydi.

Axlokshunoslik tarixida axlok bilan siyosatning munosabatlari borasida ikki xil karash mavjudligini ko'rish mumkin. Ularning biriga ko'ra, siyosat axlokiy bo'lmogi lozim, ikkinchisiga binoan esa siyosat axlok bilan sigishmaydi.

Birinchi karash moxiyatan axlokni siyosatdan yukori ko'yadi: siyosat axlokka bo'ysundirilishi shart. Boshkacha kilib aytganda, maksadlar va vositalar birligiga erishmok lozim, ya'ni buyuk, pokiza ideallar fakat axlokiy pok vositalar orkali amalga oshirilmogi kerak. Lekin bunda axlok siyosat vazifasini bajarmasligi lozim. Aks xolda muayyan davlat institutlarining, xususan, xukuk-tartibot va xarbiy idoralar singari tashkilotlarning ishini ortikcha darajada cheklab, ularni juda zaiflashtirib ko'yish mumkin.

Ikkinchi karash esa, moxiyatan siyosatning axlok bilan xisoblashmasligini takozo etadi. Bu karash tarafdorlari axlokni siyosatga bo'ysundirishni, undan, kerak paytida, tamomila yuz o'girish lozimligini ta'kidlaydilar. Ular nazdida, axlok buyuk ideallarga erishuv yo'lidagi bir gov, jamiyatni umuminsoniy kadriyatlar bilan o'ralashtirib ko'yadi, ko'ngli bo'shlikka, sustkashlikka, pirovard natijada bosh-boshdoklikka olib keladi. Shu bois buyuk maksadlarga tezrok erishish uchun xar kanday vositadan foydalanish mumkin. Zero oxir-okibat erishilgan maksad yo'l ko'yilgan razilliklar, kattolliklar, aldovlar va firiblarni yuvib ketadi. Vaxolanki, bu usul orkali fakat vaktinchalik galabaga erishish mumkin. Okibatda esa, bu galaba na fakat yo'kka chikadi, balki maglubiyatga aylanadi. Misol tarikasida yana sho'rolar tuzumiga murojaat kilish mumkin. Zo'rlik, aldov va katagonlar bilan xalkni baxtli kilishga urinish, «xalk baxti» uchun millionlab odamlarning yostigini kuritish evaziga erishilgan galaba oxir-okibatda buyuk maglubiyat sifatida nixoya topdi. Yukorida keltirganimizdek, u ulug maksadlarni iflos vositalar bilan amalga oshirish o'sha maksadlarning xam toza emasligini amalda isbotlaydi. Endilikda sobik Sho'rolar Ittifoki tarkibiga kirgan xalklar axloksiz siyosat tufayli jaxondan ajralib kolgani, yolg'on, poraxo'rlik, ko'zbo'yamachilik bu mintakalar uchun odatga aylanib ketgani xammaga ma'lum. Bu illatlardan tozarish, kutilish uchun yana necha o'n yillar kerak ekani ko'zga ko'rinib turgan reallikdir. Demak, siyosatda axlokdan ko'z yumish, uni axlokiylashtirishda yuzaga keladigan ba'zi nuksonlardan yuz bor, ming bor ko'p va fojeiydir. O'z siyosatini tubdan axlokiylashtirish – xar bir zamonaviy davlatning xozirgi kundagi birlamchi vazifasi.

Axlok bilan san'atning o'z aro alokalari xakida gap ketganda, eng avvalo, uni et bilan tirnok tarzidagi yakinlik ekanini ta'kidlamok lozim. Chunki xar bir xakikiy san'at asarida asosiy ziddiyat sifatida ezgulik bilan yovuzlikning kurashi in'ikos etadi, insonparvarlik, xakikatgo'ylik,

to'grilik, adolat, muxabbat, sadokat singari fazilatlar tarannum etiladi, takdir, o'lim va o'lmaslik, xayotning mazmuni, baxtga erishish singari muammolar o'rta tashlanadi. Axlokiy ideal muammosi esa xar bir badiiy asarning shoxtomiri xisoblanadi. Masalan, Alisher Navoiyning Farxodi, Shirini, Shekspirning Romeosi, Julettasi, Oybekning Navoiysi mazkur mualliflar asarlaridagi axlokiy ideallardir. Ularsiz Navoiy, Shekspir va Oybek asarlarini tasavvur kilish mumkin emas.

Shunisi xam borki, ba'zi san'at asarlarida axlokiy idealga duch kelmaydi kishi, xatto biror bir ijobiy kaxramonni xam uchratmaydi – asar boshdan-oyok salbiy badiiy kiyofalar turish-turmushini aks ettirishga bagishlanadi. Bunday badiiy kiyofalarni muallif o'z zamonasi erishgan axlokiy daraja nukta nazaridan turib yaratadi. Misol tarikasida Bayronning «Beppo» dostonini, Gogolning «O'lik jonlar», Zavkiyning «Hajvi axli rasta», Abdulla Kodiriyning «Kalvak maxzumning xotira daftaridan» asarlarini keltirish mumkin. Bu asarlarda axlokiy muammolar, yuksak axlokiylik masalasi avvalgi misollardagidek bevosita emas, balki bilvosita – satirik usul orkali o'rta tashlanadi.

Bundan tashkari, so'z san'atida, ta'bir joiz bo'lsa, o'ziga xos «axlokiy janrlar» mavjud. Ularni xalk ogzaki ijodida xam, yozma adabiyotda xam uchratish mumkin: makol, matal xikmatlar, xikoyatlar, rivoyat, masal pandnoma v. x. shular jumlasidandir. Umuman olganda, axloksiz badiiy asarning bo'lishi mumkin emas, barcha san'at asarlari uchun axlokiylik umumiy zamin axamiyatiga ega.

Bundan tashkari san'at axlokshunoslik targibotchisi, axlokiy tarbiyaning eng kulay vositasi sifatida xam namoyon bo'ladi. Chunonchi, badiiy adabiyotning, kino san'ti, tasviriy san'at va teatr san'atining, ayniksa, bu borada axamiyati bekiyos. Bu san'at turlari yoshlarda axlokiy idealning shakllantirishda katta xizmat kiladi. Chunonchi, «urush-urush» o'yinlarida bolalarning mard, jasoratli, matonatli, vatanparvar va xalol amerikalik xindular sardoriga, Alpomishga, Go'ro'gliga va boshka xalk kaxramaonlariga taklidi fikrimizning dalilidir.

Axlokning fan bilan o'zaro alokadorligi masalasi xam muxim. Ba'zi bir karashlarga ko'ra, axlokning fanga aloksi yo'k. Bunday karashlarni to'gri deb bo'lmaydi. Zotan axlokshunoslik tadkikot ob'ekti sifatidagi axlokning makomiyok uning fanga alokadorligini ko'rsatib turadi.

Ayniksa, axlokning ijtimoiy fanlar bilan alokasi mikyoslidir. Chunonchi, ko'pgina ilmiy karashlar, nazariyalar insonni bevosita yoki bilvosita yuksak axlok egasi, donishmand va xalol inson bo'lishga chakiradi.

Lekin, ayrim nazariyalar xam borki, ularni axloksiz deb atash o'rinli. Bunga ko'plab misollar keltirish mumkin. Masalan, mashxur «Maltus nazariyasi». Ingiliz iktisodiyot nazariyotchisi Maltus (1766-1834) ilgari surgan goyaga ko'ra, axoli geometrik prgressiyaga, iste'mol maxsulotlari arifmetik prgressiyaga muvofik rivojlanadi. Axoli o'sa borib, er yuzida kashshoklik, ozik-ovkat etishmovchiligi vujudga keladi. Shu bois urushular olib borish tabiiy xol sifatida o'zini oklaydi. Maltus bu o'rinda urushni targib etish bilan axloksizlikning eng yuksak ko'rinishini namoyon etmokda. Shuningdek, insoniyat jamiyatini karama-karshi sinflarga bo'lib tashlashni, xokimiyatni zo'ravonlik, kon to'kish teror orkali ko'lga kiritishni va shu yo'sinda tutib turishni targib etuvchi markscha-lenincha sinfiylik xamda sotsialistik inkilob nazariyalari xam ilmdagi axloksizlikning bo'rtib ko'zga tashlanadigan namunasidir.

Ma'lumki, barcha fanlar, xususan, tabiiy fanlar xar biri o'z soxasida xakikatning ayon bo'lishiga xizmat kiladi. Axlokning pirovard natijasi esa insonni xakikatga olib borish, uni komil mavjudot kilib tarbiyalashdir. Ana shu nuktada axlok va fan bilvosita munosabatga krishadi. Ayni paytda ilm-fanda erishilgan olamshumul yutuklar insoniyat jamiyati oldiga yangi-yangi axlokiy vazifalar va muammolarni ko'yadi. Chunonchi, so'nggi paytlarda fan-texnika tarakkiyotining yuksak darajasi va ekologik buxronlarning yuzaga chikishi sababli ekologik axlokshunoslik singari axlok olamining yangi yo'nalishlari vujudga keldi; noosferadan yoki boshkacha aytganda texnosferadan etosferaga – axlokiy muxitga o'tish zarurati insoniyat jamiyati axlokiy madaniyati oldidagi eng dolzarb vazifa sifatida ko'yilmokda; zero bu vazifaning fakat axlokshunoslik doirasidagi muammogina emasligini, keng kamrovli ekanini, butun Er yuzining bundan keyin mavjud bo'lishi yoki bo'lmasligi muammosiga aylanganini bugun yakkol sezish mumkin.

Shu bois texnikaviy fanlar tarakkiyotining navbatdagi boskichlari fakat axlok talablariga mos, ta'bir joiz bo'lsa, axlokiy nazorat ositida amalga oshmogi lozim.

To'g'ri, ba'zilar bizga, fan – mutlak ob'ektiv xodisa, u moxiyatan xolis, shunga ko'ra, uni axlokkka bu kadar bo'ysundirish nojoiz, deb e'tiroz bildirishlari xam mumkin. Birok, fanni odamlar, turli xissiyot, extirosarga moyil, turli axlokiy fazilatlar, xatto illatlarga ega bo'lgan kishilar yaratishini yodga olsak, bunday e'tirozlarning o'zi nojoiz ekanligiga ishonch xosil kilamiz. Zero xar bir olimning ma'naviy-axlokiy xolati, uning o'z kashfiyotida kay darajadadir aks etmasligi mumkin emas. Xullas, fan xam bevosita, xam bilvosita axlok bilan boglik va aynan shu bogliklik tabiiy-texnikaviy fanlarni insoniylashtirish vazifasini bajaradi.

Axlok bilan mafkuraning alokasi xam jamiyat xayotida juda katta axamiyatga ega. Ma'lumki, xar bir mafkura muayyan goyalar va karashlar tizimidan iborat bo'ladi. Rasmona mafkurani axlokiy goyalarsiz tasavvur kilish kiyin. Lekin goya xech kachon o'z-o'zicha, shunchaki mavjud bo'lmaydi. U albatta insonda in'ikos topadi va muayyanlashadi. Bu xakda Hegel o'zining «Falsafiy bilimlar komusi» asarida shunday deydi: « ϕ oya xakida gapirganda, uni kandaydir olis va narigi tomondagi narsa tarzida tasavvur kilish kerak emas. ϕ oya, aksincha, butunisicha shu erda ishtirok etadi xamda, shunindek, xar bir ongda, kam deganda, buzilgan va zaiflashgan xoda mavjud bo'ladi». Demak, muayyan goyalarni, shu jumladan, axlokiy goyalarni o'zida mujassamlashtirgan kishilargina mafkurani yaratadilar va uni ommalashtiradilar.

Har bir demokratik davlat va jamiyatda bir necha mafkura mavjud bo'lishi tabiiy. Lekin ular ichidan biri etakchilik mavkeini egallaydi. Bu etakchilik zinxor boshka mafkuralarni inkor etmaydi va jamiyat a'zolari ko'pchiligi irodasini aks ettirishi bilan ajaralib turadi. Uni shuning uchun xam milliy mafkura deb atashadi. Erkin demokratik fukorolik jamiyatini o'z oldiga vazifa kilib ko'rgan bizning mamlakatimizda bu masalaga jiddiy e'tibor berilgan. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi birinchi bo'lim, birinchi bobning 12-moddasida shunday yozib ko'yilgan: «O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy xayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi.

Hech kaysi mafkura davlat mufkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas».

Demak, bizning davlat demokratiya tamoyillariga asoslangan xolda, barcha mafkuralarning yashash xukukini ta'minlovchi insitut sifatida ish ko'radi. Milliy mafkuramiz esa boshka biror-bir mafkurani kamsitmasdan, ko'pchilik jamiyat a'zolarining ijtimoiy-falsafiy, axlokiy-estetik goyalari tajassumi sifatida mamlakat va millat tarakkiyotiga xizmat kiladi. Chunonchi, u, eng avvalo, yuksak axlokiylikka asoslangan. Milliy mafkuramiz jamiyatimizda vatanparvalik, millatparvarlik, ziyolilik tamoyillarini ustuvor bilib, xar bir fukoroni buyuk davlat yaratishda ishtirok etishga chorlaydi. Ayni paytda, umumbashariy ma'naviy kadryatlarni e'zozlashga, boshka millatlar va elatlarga xurmat bilan karashga chakiradi, tenglar ichida teng bo'lish goyasini ilgari suradi. Bu mafkura xalkimiz ma'anviy mezonlariga, uning ezgulik va farovonlik xakidagi ideallariga, erksevarlik, tinchliksevarlik tamoyillariga mos keladi, shu sababli unga extiyoj bor.

Tarixdan axlokiylikni chetlab o'tishga yoki uni axloksizlikka nikob kilib, axlokni soxtalashtirib umr ko'rishga uringan mafkuralar xam bizga ma'lum. Ular, odatda, muayyan davlatning yagona mafkurasi deb e'lon kilinadi va u millatga yolg'on vositasida singdirishga uriniladi. Olmoniyada xitlerchilar ilgari surgan milliy sotsializm mafkurasi yoki sobik sho'rolar ittifokidagi komunistik mafkura shular jumlasidandir. xar ikkala mafkura xam o'zini tan olganlardan «mafkuraviy dushmanlar»ni jisman yo'kotishni talab etdi – eng buyuk axloksizlikni axlokiylik sifatida targib kildi. Lekin nikoblangan axloksizlikning umri uzok emas. Bu xolatni buyuk rus shoiri Aleksandr Pushkin «Tiklanish» degan she'rida bagoyat go'zal tasvirlagan:

Vaxshiy rassom mudrok, beizn,
Daxo suratini buzadi
Va u surat ustiga o'zan
Beburd suratini chizadi.

Lekin u yot bo'yoklar bir-bir
Ko'chib tushar yil sayin, ayon;

Va daxo ijodi bekusur
Avvalgidek bo'lur namoyon...

(Turob To'la tarjimasi)

Lenin, Stalin, Hitler singari «vaxshiy rassomlar» chizgan suratlar – totalitar tuzumlar mafkuralari kismatini shu she'rda ko'rish mumkin. Zero axlokiylik xar kanday mafkura muvaffakiyatining garovi xisoblanadi. Axlok bilan mafkura bir-biri bilan ana shunday uzviy boglik.

3. Ma'naviyat tizimidagi ijtimoiy xodisalarning axlok bilan munosabatlarini mana shu kiskacha tarzda ko'rib chikishimizning o'ziyok bizda axlokning o'rni xakida anik tasavvur uygotadi. Shu narsa ayonki, axlok mazkur jtimoiy xodisalar markazida turadi. U nafakat markaziy ijtimoiy xodisa, balki boshka ijtimoiy xodisalarni xarakatlantiruvchi ma'naviy kuch sifatida namoyon bo'ladi. Uni chetlab o'tishga intilish xar kanday mafkurani tanazzulga olib boradi, jamiyatni tom ma'nodagi ma'naviyatdan maxrum etadi. Shu nuktai nazardan karaganda, Prezident Islom Karimovning: «Aslini olganda, axlok – ma'naviyatning o'zagi», degan so'zlari yukoridagi fikrlarimiz uchun tabiiy xulosa bo'lib jaranglaydi. Darxakikat, axlok ma'naviyat tizimidagi eng ta'sirchan, eng bakuvvat xalka, usiz odamzot ma'naviyatini tasavvur kilish mumkin emas.

Tayanch iboralar

Ma'naviyat, Ma'naviyat tizimi, Axlok, Din, Hukuk, Siyosat, San'at, Fan, Mafkura.

Takrorlash uchun savollar

1. Ma'naviyat va ma'naviyat tizimi nima?
2. Axlok va dinning alokadorligi nimalarda ko'rinadi?
3. Axlok bilan xukukning o'zaro o'xshashligi va farki nimada?
4. Siyosatning axlokka munosabati kanday?
5. Axlok bilan san'at munosabatlarining chambarchasligi nimalarga boglik?
6. Axlok bilan fanning o'zaro munosabatlari fanning ob'ektivligiga ta'sir kiladimi?
7. Axlok va mafkuraning o'zaro alokadorligi jamiyat xayotida kanday axamiyatga ega?

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., «O'zbekiston», 1992.
2. Karimov I.A. O'zbekiston: Milliy istiklol, iktisod, siyosat, mafkura. T., «O'zbekiston», 1994.
3. Karimov I.A. Donishmand xalkimizning mustaxkam irodasiga ishonaman. «Fidokor» gazetasi muxbiri bilan suxbat. «Fidokor» gazetasi, 8 iyun, 2000 yil.
4. Imomnazarov M., Milliy ma'naviyat nazariyasiga chizgilar. T., «Shark» kontserni, 1998.

**AXLOKSHUNOSLIKNING ASOSIY MEZONIY TUSHUNCHALARI, AHLOKIY
TAMOYILLAR VA ME'YORLAR**
(2 soat)

Reja:

1. Axlokshunoslik mezoniy tushunchalari (kategoriyalari) ibtidosining xissiyotga borib takalishi.
2. Axlokshunoslik asosiy mezoniy tushunchalarining mohiyati.
3. Axlokiy tamoyillar, me'yorlar xamda ularning inson va insoniyat jamiyati tarakkiyotidagi ahamiyati.

1. Avval biz axlokiy xissiyotlarni axlokiy anglash uchun muayyan ma'noda material ekani to'grisida bir rov to'xtalib o'tgan edik. Bu xakda mumtoz faylasuflar xam e'tiborga sazovar fikr bildirganlar. Chunonchi, buyuk ingliz mutafakkiri Jon Lokk, tushunchada nimaiki bor ekan, u bundan avval xissiyotda mavjud bo'lgan, deb ta'kidlaydi. «Tabiat konuni borasidagi tajribalar» asarida u shunday deb yozadi: «Agar xissiyotdan aklga narsalar kiyofasi etkazib berilmasa, u xolda tafakkur uchun xech kanday material berilmagan bo'ladi va akl bilishin tarakkiy ettirishi borasida tosh, yogoch, kum va xokazo kurilish materiallarisiz me'mor bino kurishda kanchalik ish kila olsa, shunchagina ish bajara biladi». Aklni ideallashtirish, xissiyotni ikkinchi darajali omil chifatida talkin etish, afsuski, Lokk va unga o'xshash ba'zi mutafakkirlar fikrlarini xisobga olmaslik keyingi davrlarda, ayniksa, kuchaydi. xegel singari faylasuflar esa butun borlikni mantikiylashtirish yo'lidan bordilar. Lekin XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, g'arb allomalari bu yo'ning ko'p jixatdan yanglish ekanini angladilar. XX asr mutafakkirlari, ruxiy taxlil falsafasidagi yangi froydchilik okimining atokli namoyandalaridan biri Karl Yung shunday deb yozadi: «g'arb kishisi» ruxiy («psixologik», so'zini eshitganida, uning uchun «u shunchaki ruxiy» tarzida jaranglaydi. Uning uchun «psixe» – kalb kandaydir, achinarli darajada kichik, e'tiborga nologyik, shaxsiy, sub'ektiv v.x... Shu sababli «rux» (kalb) o'rniga «akl» so'zini ishlatishni ma'kul ko'radi...» Boshka bir o'rinda: «... barcha metafizik muloxazalar uchun ijodiy zamin aynan kalbning (ma'naviylikning) ko'zga ko'rinmas, etishib bo'lmas tarzdagi in'ikosi xisoblangan ongdir...», degan fikrni bildiradi. Darxakikat, «yurak va akl», «xissiyot va ong» baxsida g'arb, ayniksa, bizning XX asrda, so'zsiz, birinchilikni aklga, ongga beradi. Yukoridagi kabi fikrlar istisnoli xollardir. Shu bois axlokshunoslik nuktai nazaridan muxabbat xakida gap ketsa, uni xissiyot, deb yana buning ustiga, ta'riflash kiyin bo'lgan tuygu, deb ataydilar va uni tushuncha tarzida olib karashdan cho'chiydilar. Vaxolanki, muxabbat aynan axlokiy xissiyot va axlokshunoslikning bosh mezoniy tushunchasidir.

2. Muxabbat bosh mezoniy tushuncha sifatida deyarli barcha asosiy tushunchalarda va tamoyillarda o'z «xissa»siga ega. Na ezgulikni, na yaxshilikni, na vataparvarlikni, na insonparvarlikni muxabbatsiz tasavvur etib bo'lmaydi. O'tgan ma'ruzalarning ba'zilarida biz bu tushunchaning mohiyati, turlari xakidagi Iloxiy Ogustin, Imom g'azzoliy, Erix Fromm singari mutafakkirlar fikrlarini keltirgan edik. Ko'shimcha kilib shuni aytish mumkinki, u – insonni tashki va tarnstsendentral olam bilan boglovchi, uni yolgizlikdan olib chikadigan buyuk kuch. Muxabbatning ob'ekti doimo go'zallik, manfaatsiz go'zallik. U – Olloxmi, Vatanmi, yormi – muxabbat egasiga undan-da go'zalrok narsa yo'k. Ayni paytda bir ob'ektni sevgan kishi boshka ob'ektlarni xam sevmasligi mumkin emas. Deylik, yorga bo'lgan xakikiy muxabbat Vatanga, insoniyatga muxabbatni inkor etmaydi, aksincha, barkaror kiladi. Zero «o'z-o'zicha», yakka, «xudbin» muxabbatning bo'lishi mumkin emas. Inson o'zi o'zgaga aylanganida, o'zgani o'ziga aylantira olganida xakikiy muxabbat egasi xisoblanadi. Mana shu ob'ekt bilan sub'ekt orasidagi farkning yo'kolishi eng buyuk, eng mukammal lazzatdir. Buni mavlono Fuzuliy nixoyatda go'zal kilib, bir baytda shunday ifodalaydi:

Ishkdir ul, nasha'i komilkim, andandir mudom
Mayda tashviri xarorat, nayda ta'siri sado.

Komil nash'a, komil lazzatga fakat komil insongina erisha oladi. Demak, muxabbat inson axlokiy xayotining cho'kkisi, komillik belgisidir. Shu bois xakikiy muxabbat egalari yoshlar tomonidan doimo axlokiy ideal tarzida kabul kilinadi: Farxod va Shirin, Romeo va Juletta, Otabek va x.

Shuni ta'kidlash lozimki, muxabbat – oliy tuygu, shu ma'noda u oliy tushuncha. Lekin uni tuban, kuyi narsa – xodisalarga nisbatan xam ko'llash xollari uchrab turadi. Chunonchi, Fromm singari garblik mutafakkirlar, ba'zi rus faylasuflari muxabbat tushunchasini o'likka (nekrofil), mol-dunyoga, pulga nisbatan ko'llaydilar. Ularga nisbatan «o'chlik», «ruju», «xirs» singari tushunchalarni ko'llash ma'kul emasmikan?

Muxabbat xam, axlokshunoslikdagi ko'pgina tushunchalardek, «juftlik» xususiyatiga ega, uning ziddi – nafrat. Nafrat tushunchasi, albatta, muxabbat singari keng kamrovli emas. U aksil muxabbat tarzida namoyon bo'lgan ob'ektdan chetlashish, undan begonalashishni takozo etadi. Hazar, jirkanch xissi nafratning kundalik turmushidagi tor, «mayda» ko'rinishidir. Nafratning ularga nisbtan «yirikligi» uning ijtimoiy xodisa sifatida namoyon bo'lishidir. Ayni paytda, bu tushuncha gazabdan keskin fark kiladi. U, gazabga o'xshab, o'z ob'ektini yo'kotishga intilmaydi, undan fakat yuz buradi. Ko'rinishdan, nafrat kishida yokimsiz taassurot uygotsa-da, aslida u asosan illat emas, axlokiy fazilat sifatida insonning vijdonliligidan, botiniy jasoratidan dalolatdir.

Nafratdan tashkari yana rashk tushunchasi borki, u –ijtimoiy xodisa emas, fakat jinsiy muxabbat bilan yonma-yon keladi. Ma'lumki, muxabbat egasi o'z sevgisini va sevgilisini kizganib, asrab kolishga xarakat kiladi. Ana shu kizganish xissa me'yoridan oshib ketganda rashkka aylanadi. Rashk esa, uni kanchalik ta'rif-tavsif kilmaylik – me'yorning buzilishi, illat.

Mezoniy tushunchalar orasidagi yana bir juftlik – ezgulik va yovuzlik, ezgulik axlokshunoslikdagi eng asosiy kategoriyalardan. U inson faoliyatining asl moxiyatini anglatadi – Tangri irodasining inson kalbidagi tajassumi sifatida namoyon bo'ladi. «Ezgu o'y, ezgu so'z, ezgu a'mol» uchligi «Avesto» dan tortib, barcha mukaddas kitoblarda etakchi o'rinni egallashi xam shundan. Ezgulik – inson shaxsining komillikkka, baxtga, jamityani esa yuksak tarakkyoitga etkazuvchi vositadir. U insonning axlokiy faoliyati tufayli muayyanlashadi, yuzaga chikadi. Uni sinfiylik yoxud partiyaviylik kobigiga o'rash mumkin emas. Chunonchi, «sinfiy dushmanni», ya'ni biror bir shaxsni yoki guruxni fakat boshka sinfga mansub bo'lgani uchun jisman yo'kotish, kanchalik bo'yab-bo'jalmasin, ezgulik bo'lolmaydi. U tom ma'nodagi yovuzlikdir. Shu bois totalitar tuzumlarda ezgulikni bunday talkin etishning noilmiyligi, soxtaligi xozirgi kunda xammaga ayon.

Ezgulik va uning ziddi yovuzlik odatiy, kundalik xayot mezonlari bilan o'lchanmaydi, ular xam muxabbat singari kamrovli va ijtimoiylik xususiyatiga ega. Ezgulikning axlokiy ideal bilan boglikligi xam shundan. Shu tufayli u amaliyotda kaxramonlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, jasurlik singari tamoyillarni o'z ichga oladi.

Shuni xam aytish kerakki, muxabbat va nafrat juftlik tushunchasida nafrat muxabbatni inkor etmay, aksincha, uning barkarorligidan dalolat bersa, ezgulik va yovuzlik juftligida xar ikki tushuncha bir-birini tamomila inkor etadi. Na fakat inkor etadi, balki ular orasida xayot-mamot kurashi ketadi va bu kurash abadiy kurash sifatida, olamni xarakatga keltiruvchi kuch tarzida nomoyon bo'ladi.

Ezgulik va yovuzlikning yana bir o'ziga xos tomoni shundaki, bu juftlik tushuncha inson faolyaitini baxolash xususityaiga ega. Uni odam bolasining ulugligi va tubanligini o'lchaydigan mukaddas torozuga o'xshatish mumkin. Insonning komilligi, jamiyatning takomilga erishgan-erishmagani shu mezon bilan o'lchanadi. Chunonchi, Stalinning yovuz inson, sobik sho'rolar ittifokini esa jamiyat sifatida «yovuzlik saltanati» degan nom bilan atalib kelgani xech kimga sir emas.

Ezgulik va yovuzlik xakida gap borganida, yaxshilik va yomonlik nima, bu ikki juftlik mazmunan bir emasmi, degan savol tugiladi. Bu tabiiy. Chunki xozirgacha bizga ma'lum o'zbek tilidagi barcha axlokshunoslikka doir adabiyotlarda ezgulik va yovuzlik mezoniy tushunchalar sirasiga kiritilmagan, u bor-yo'gi yaxshilik va yomonlikning sinonimi tarzida takdim etib kelingan. To'gri, yaxshilik tushunchasining ko'gina unsurlari ezgulikdan, ezgulikning ba'zi

unsurlari yaxshilikdan joy olishini inkor kilish mumkin emas. Ularning ziddida xam shunday «singishib ketish» mavjud. Lekin bunday dalilllar aslo mazkur ikki juftlikni aynanlashtirishga asos bo'la olmaydi. Ular orasida kat'iy fark mavjud: ezgulik, yukorida aytganimizdek, ijtimoiylik xususiyatiga ega, yaxshilik esa unday emas. U asosan shaxsning odobiga, xulkiga boglik bo'lgan ijobiy xodisa. Zero unda, mardlik, ochikko'ngillilik, xalollik singari axlokiy me'yorlar tajassum topadi. Birok u kaxramonlik, jasorat, vatanparvarlik kabi tamoyillar darajasiga ko'tarila olmaydi. Misol tarikasida buyuk shoirimiz Alisher Navoiyning faoliyatini olaylik. U surunkasiga ijodiy mexnatga umrini bagishladi, xalki uchun, xalklar uchun «Xazoyin ul-maoniy»dek, «Hamsa»dek buyuk asarlar yaratdi. Bu ezgulik – abadiy, zero Navoiy asarlari millionlab odamlarga yuzlab yillar mobaynida zavk-shavk ulashib, ularni komillikka chorlab kelmokda. Ayni paytda, u ko'plab yaxshiliklar kildi – muxtoj odamlarga karz berdi, bergan karzidan kechib yubordi v.x. Uning bu yaxshiliklari, ajoyib ijobiy xodisa bo'lgani xolda, o'tkinchilik xususiyatiga ega, shuningdek, kaxramonlik xam, buyuk jasorat xam, vatanparvarlik xam emas. Demak, yaxshilikni yirik ijtimoiy xodisa – ezgulik bilan aynanlashtirish to'g'ri emas.

Bu ikki juftlikning yana bir farkli tomoni shundaki, ezgulik xech kachon yovuzlikka aylanmaydi, xar kanday zamonda, xar kanday sharoitda xam yovuzlik bo'lib kolveradi. Yaxshilik va yomonlikda esa bunday emas: biror ob'ektga kilingan yaxshilik boshka xar bir ob'ekt uchun yoki yaxshilik kilgan sub'ekt uchun yomonlikka aylanishi mumkin. Mashxur o'zbek xalk ertaklaridan biridagi ovchilar kuvib kelayotgan bo'rini kopga yashirib, kutkarib kolgan dexkonning xolatini bunga misol sifatida keltirish mumkin: bo'ri o'ziga yaxshilik kilib, o'limdan kutkargan odamni emokchi bo'ladi, xayriyatki, tulki dexkonning joniga ora kiradi.

Xullas, muayyan ijtimoiy cheklanganligiga karamay, yaxshilik va yomonlik xam ancha kamrovli mezoniy tushunchalardan.

Axlokshunoslikning yana bir kamrovli mezoniy tushunchasi-adolat. Uning ezgulik va yovuzlik xamda yaxshilik va yomonlikdan asosiy farki shundaki, adolatning o'zi biror bir kadriyatni anglamaydi, lekin kadriyatlar orasidagi nisbatni belgilaydi, ularni baxolash makomiga ega. Shu bois unda jamiyatni tartibga soluvchilik xususiyati bor; unda xam axlokiy, xam xukukiy talablar mujassamlashgan. Uni ma'lum ma'noda mikdor o'lchovchi xam deyish mumkin: u talab bilan takdirlashni o'lchab turadigan tarozudir. Adolat bor joyda ijtimoiy jabrga, beboshlikka yo'l yo'k. Adolatning mezoniylilik xususiyati, ayniksa, xukukda darxol ko'zga tashlanadi. xukuk vazirligining xatto adliya vazirligi deb atalishi, jinoyatga yarasha jazoni belgilovchi, xukm chikaruvchi idoralarning xalk sudi, odil sud degan nomlar bilan yuritilishi buning dalilidir. Lekin adolatni fakat xukkuiy tushuncha sifatida talkin etish to'g'ri emas. U, yukorida aytganimizdek, keng kamrovli axlokiy tushuncha. U na fakat fukorolar orasidagi munosabatlarni, balki davlat bilan xalk, jamiyat bilan shaxs o'rtasidagi alokalar mezonini xam o'z ichiga oladi. Xalk orasida ming yillar mobaynida odil podsho idealining yashab kelgani bejiz emas.

Deyarli bir yarim asr moybaynida adolatsizlikni milliy kamsitishni, milliy iftixor xissining oyok osti kilinishini, begona irodaning zo'rlab kabul kildirish kabi xolatlarni boshdan kechirgan xalkimiz, endlikda, mustakillikka erishib, adolatli fukorolik jamiyati tuzishga kirishdi. Adolat bugungi kunda bizning mustakil, kelajagi buyuk davlatimizning moxiyatini anglatuvchi tushunchaga aylanib bormokda.

Axlokshunoslikning nixoyatda ta'sir doirasi keng tushunchalaridan biri vijdonidir. Vijdon – Zigmund Froyd ta'biri bilan aytganda, alo men, men ustidan nazorat o'rnatib, uni boshkarib turuvchi ikkinchi, yukora darajadagi men. Agar uyat xissi insonning tashki, jamiyatga boglikligidan kelib chiksa, vijdon uning ichki o'z-o'ziga boglikligini namoyon etadi. Bu ichki bogliklik tashki bogliklikka nisbatan teran va doimiydir: uyat ma'lum bir vakt ichida odamning o'z nojo'ya xarakati tufayli yuzaga kelgan o'ngaysizligi bo'lsa, vijdon azobi, bu oddiy o'ngaysizlik emas, balki kalbdagi, odamdagi odamiylikka e'tikodning faryodi, talabi, uni kondirmas ekansiz, xech kachon azob to'xtamaydi. Uyat bilan vijdonni, shu bois, dengizdagi muz togiga – aysbergga o'xshatish mumkin: yuzaga uyat tarzida chikib turgan kismi teranlikdagi kismidan yuz, balki ming barobar kichik.

Vijdon xam boshka ba'zi axlokshunoslik mezoniy tushunchalari kabi baxolash xususiyatiga ega. Lekin bu baxolash xech kachon ob'ektga karatilmaydi, u sub'ektning xatti-xarakatlarini

baxolaydi, ya'ni unda sub'ekt o'zi uchun ichki ob'ekt vazifasini o'taydi. Ba'zan jamiyat talablari bilan vijdon o'rtasida ixtilloflar chikishi mumkin. Bunda vijdon emas, jamiyat talablarining o'tkinchilik xususiyati, ma'lum ma'noda eskirganligi aybdordir. Zero vijdon ko'zga ko'rinmas, lekin ulkan va mutlak aybsiz axlokiy xodisadir.

Ko'pincha vijdon tushunchasi o'rnida iymon iborasini uchratish mumkin. Iymon aslida diniy tushuncha. Lekin xayotda vijdon tushunchasining sinonimi tarzida ishlatiladi. Masalan, kimnidir birov «iymonli odam» deganida, uning musulmonlikka iymon keltirgan-keltirmagani xakida o'ylab o'tirmaydi, buning ustiga, u odam musulmon emas, nasroniy bo'lishi xam mumkin. Chunki gap bu erda o'sha odamning dindorligi xakida emas, balki vijdonli, xalol, rostgo'y ekanligi to'grisida ketyapti. Shu ma'noda vijdon bilan iymonni egizak tushunchalar deyish mumkin.

Afsuski, odatda, ko'pchilik adabiyotlar vijdon mezoniy tushunchasiga «sub'ektiv» xodisa tarzida karab adolat, burch, nomus singari tushunchalarni unga karaganda ijtimoiy axamiyatlirok deb baxolash, ularni, «to'rga chikarish» xollari tez-tez uchrab turadi. Vaxolanki, vijdonsiz odamdan xech kachon adolatni xam, burchga sadokatni xam, or-nomusni xam kutish mumkin emas. Vijdonli odamlargina xakikiy erkin, demokratik fukorolik jamiyatini yarata oladilar. Zero vijdon, eng avvalo, o'zgalarga nisbatan burch va mas'uliyatni takozo etadi.

Yana bir muxim mezoniy tushuncha – burch. Burch, moxiyatan, jamiyat, davlat va shaxslarga nisbatan muayyan individdagi munosabat, ular oldidagi majburiyat. U yukorida aytganimizdek, vijdon, e'tikod mas'uliyat kabi tushunchalar bilan mustaxkam boglik. Umuman, xayotda insonning xar bir xatti-xarakati zampirida burch tushunchasi – burchga sadokat yoki xiyonat yotadi. Burchning insonlik burchi, musulmonlik burchi, nasroniylik burchi, farzandlik burchi singari keng kamrovli, barcha davrlar uchun umumiy bo'lgan tushunchalari xam, jurnalistik burchi, shifokorlik burchi, olimlik burchi kabi kasbiy odob doirasidagi tushunchalari xam mavjud. Burch tushunchasining o'ziga xos jixatlaridan yana biri – uning vakt va jamiyatda muayyanlashish xususiyati. Chunonchi, bir tuzum yo jamiyatda ijobiy xisoblangan burch talablari ikkinchi bir tuzum yoki jamiyat uchun salbiy ma'no kasb etishi mumkin. Sobik sho'rolar fukarosining o'sha davrdagi mavjud tuzum oldidagi burchi xozirgi kunda o'ta salbiy xodisa sifatida baxolanishi bunga yorkin misol bo'la oladi.

Harbiylashgan va o'ta mafkuraviylashgan, ya'ni yagona mafkura xukmronlik kilgan jamiyatlarda esa burch omma xamda shaxs xayotida fojeiy xodisaga aylanadi. O'ta ustalik bilan yo'lga ko'yilgan targibot natijasida bunday jamiyatlar a'zolari okni – kora, korani – ok deb kabul kiladilar. Buni umumbashariy milliy kadriyatlarni oyok osti kilgan beshafkat sho'rolar sotsializmi yoki fashistlarning milliy sotsializmi yakol isbotlab berdi. Yuz minglab, xatto millionlab odamlar aldandilar, keyinchalik, uzok yillar mobaynida vijdon azobida yashadilar. Demak, jamiyat kurishda totalitarchilikka yo'l ko'yilishi o'sha jamiyat a'zolarini burchni noto'gri tushunishga va buning okibatida axloksizlikka olib keladi.

Shuni xam aytilish kerakki, ba'zi xollarda burch shaxsning ko'pgina mayl-istaklariga karshi boradi: uni xuzur xalovatdan turmush lazzatlaridan maxrum etadi. Masalan, Furkat mustamlakachilar mafkurasiga xizmat kilganida, uning xayoti roxat farogatda kechishi mumkin edi. Lekin u Vatan oldidagi, millat oldidagi burchni deb muxojirlikning ogir kismatiga duchor bo'ldi: uni mustamlakachilar mamlakat xududidan chikarib yuborib, kayta kiritmadilar. Furkat xorijda vafot etdi.

Ba'zan burch tufayli odamlar o'z sevgisidan, jon-dilidan sevgan kishisidan kechishga xam majbur bo'ladilar. Xullas, burch axlokshunoslik mezoniy tushunchalari ichidagi eng «kattik ko'l», eng «shafkatsizi».

Mezoniy tushunchalardan yana biri – nomus. Nomus tushunchasi bir tomondan, burch bilan boglik bo'lsa, ikkinchi jixatdan, kadr-kimmat tushunchasiga alokadir. Zero nomus moxiyatan shaxsning o'z kadr-kimmatini anglab etishi, shu kadr-kimmatning jamiyat tomonidan tan olinishi yoki olinmasliga munosabati bilan belgilanadi. Goxo uni or tushunchasi bilan chalkashtirish, xollari xam uchrab turadi. Lekin aslida, nomusga nisbatan or ancha tor kamrovdagi, nisbatan zalvarsiz tushuncha. Chunonchi, oriyatli odam deganda, o'z so'zining ustidan chikadigan, sadaka tarzida kilingan muruvvatlardan baland turadigan shaxs tushuniladi. Beor odam esa – o'z

sha'niga aytilgan gaplarga parvo kilmay, ishini bajarib ketaberadigan, aytilgan-aytilmagan joylarga sukilib kiraveradigan surbetnamo kishi. Nomusning esa toshi ogir – ijtimoiylik xususiyatiga ega, keng kamrovli. Nomus yo'lida inson xatto o'z xayotidan kechishi mumkin, odamlar o'z nomusi, oila nomusi, millat nomusi deb kurashadilar. Bu xakda ko'plab badiiy asarlar yaratilgan. Mexnat, sport singari soxalarda jamoa nomusi xam aloxida axamiyatga ega; shu o'rinda nomus obro' tushunchasi bilan boglanib ketadi. Bularning xammasi o'zini xurmat kilish, o'ziga nisbatan atrofdegilarning xurmat-izzatini yo'kotmaslik uchun o'z-o'zini nazorat kilish xissidan kelib chikadi.

Biz yukorida ko'rib o'tganlarimiz – asosiy mezoniy tushunchalarning barchasi baxolash tabiatiga ega. Yana kator muxim axlokiy tushunchalar borki, ular o'z echimini talab kilishi bilan, ya'ni muammolik xususiyati bilan ajralib turadi. Ideal, baxt, xayotning ma'nosi, singari tushunchalar shular jumlasidandir. Biz ular orasidagi eng kamrovlisi bo'lishi axlokiy ideal tushunchasiga nisbatan batafsilrok to'xtalib o'tamiz.

Bir karaganda, idealda xam baxolash xususiyati mavjuddek tuyuladi. Lekin aslida u kiyoslashga asoslanadi. Antika tomoni shundaki, idealda nomavjud, xayoldagi insonga, vokelika real, mavjud, xayotdagi xodisalar kiyoslanadi, ya'ni bor narsa yo'k narsa bilan o'lchanadi. Zero ideal xayotda mavjud bo'lishi mumkin emas – bu xammaga ayon gap. Buning ustiga, ideal xozirgi zamonda xam, kelajakda xam bo'lmaydi, uning mavjudlik sharti-o'tgan zamon. Lekin, shunga karamay, inson ideal sari intiladi, o'z xayotini unga kiyoslaydi, unga taklid kiladi. U inson xayotidagi eng oliy axlokiy talabki, uning bajarilishi shaxsni komillikka etkazadi. Albata, xayotda bunday bo'lmaydi, lekin inson ana shu komillikni o'ziga namuna bilib, idealga intilib yashashi jarayonida nisbiy komillikka erishadi.

Dunyoviy ideal bilan, to'g'rirog'i, ijtimoiy-axlokiy ideal bilan diniy ideal, bir karaganda, o'xshashdek ko'rinsa-da, aslida keskin fark kiladi. Chunonchi, musulmonlar uchun-Muxammad alayxissalom, nasroniylar uchun – xazrati Iso, yaxudo dinidagilar uchun – xazrati Muso ideal xisoblanadi. Ular ideal sifatida xech kachon o'zgarmaydi, boki. Ijtimoiy-axlokiy ideallar esa o'zgarishi mumkin va ko'p xollarda o'zgarib turadi. Masalan, sho'rolar davrida o'sha tuzum asoschisi Lenin – eng yuksak axlokiy ideal sifatida talkin etilardi va ko'pchilik tomonidan shunday kabul kilanardi. Hozir esa «Kuch-adolatda!» degan shiorni xayotining ma'nosi deb bilgan buyuk ajdodimiz Amir Temur ko'pchilik tomonidan ijtimoiy-axlokiy ideal, adolatli davlat raxbarining ideal timsoli tarzida kabul kilinadi. Demak, muayyan tuzum talablaridan kelib chikkan xolda, ijtimoiy-axlokiy ideallar o'zgarishi mumkin. Faoliyati nikoblangan axloksizlikdan iborat bo'lgan. Lenin, Stalin, Hitler kabi ijtimoiy ideallarning umri uzok bo'lmasa-da, xar xolda ideal edilar, aldangan ko'pchilik ularni namuna deb bildilar.

Bunday salbiy xodisalariga karmay, ideal, umuman, insonniyat jamiyatida, shaxs xayotida ijobiy, yorug mayok vazifasini o'tab kelmokda, bundan keyin xam uning asosiy vazifasi shunday bo'lib kolajak. Chunki idealda xar bir inson o'z baxtining xissiyotli irfodasini ko'radi, xayotining ma'nosini unga karab intilishda deb biladi.

3. Asosiy mezoniy tushunchalar – kategoriyalar singari axlokiy tamoyillar xam axlokiy anglash shakllaridan xisoblanadi. Ularda axlokiy talab nisbatan umumiy tarzda ko'zga tashlanadi.

Ular jamiyat tomonidan shaxsga ko'yiladigan talab tarzida namoyon bo'lib, insonning axlokiy moxiyatini, uning xayoti mazmunini, odamlar bilan o'zaro alokalaridagi asosiy jixatlarini belgilab beradi. Natijada tamoyillar, inson xatti-xarakatining umumiy yo'nalishini ko'rsatgan xolda, ko'pgina axlokiy me'yorlar uchun asos bo'lib xizmat kiladi.

Axlokiy tamoyillarning eng kadimiy va eng muximlaridan biri – insonparvarlik. U – insonning yuksak ijtimoiy vazifasini belgilaydigan va barkaror etadigan goyalar, karashlar va e'tikodlar majmui, shaxs erki, kadr-kimmati, uning baxtli bo'lish xukukini talab etish imkonining mavjudligiga engilmas ishonch. Insonparvarlik tamoyilini, Ovro'po Uygonish mutafakkirlari dastlab ilgari surganlar, degan fikr mavjud. Aslida, insonparvarlik dastavval Sharkda o'rta tashlangan, insoniylik, insonparvarlik degan ma'noni bildiruvchi «namlulu» so'zi bundan 3-4 ming yillar avvalgi kadimgi Somir mix xatlarida uchraydi.

Insonparvarlik – umuminsoniy kadriyatlar sirasiga kiradi. Uni sho'rolar davridagi sinfiylik nuqtai nazaridan soxtalashtirish proletar diktaturasi va totalitar sotsialistik tuzum xamda ular ijodkorlarining insonparvarligi xakidagi afsonalar juda kiska umr ko'rdi. Sotsializm mafkurachilarining bu boradagi say'-xarakatlari o'sha davrlardayok noilmiyligi, yolgonga sugorilganligi bilan kishilarning gashini keltirgan edi. Bunday insonparvarlikni xalk kabul kilmaydi. Chunki u aynan o'ta mavxum «xalk» tushunchasiga karatilgan, vaxolanki insonparvarlik markazida muayyan shaxs turmogi lozim. xar bir shaxs insoniy xukuklarini ta'minlash uchun kurashish – mana, insonparvarlikning asosiy vazifasi. Bu borada umumbashariy ma'naviy kadryatlarni ustuvor deb bilgan bizning davlatimiz xam mamlakat ichkarisida, xam dunyo mikyosida ko'zga ko'rinarli ishlar kilmokda.

Agar insonparvarlik tamoyili shaxsning barcha insoniy xak-xukuklari ximoyasida tursa, ya'ni ancha keng kamrovli va umumiy intilish bo'lsa, erkparvarlik tamoyili uning ma'lum ma'noda muayyanlashgan bir kismi xisoblanadi. Erkparvarlik insonning eng oliy xukuki – erkin, ozod yashash xukukini ximoya kilishi bilan muximdir. Zero erksiz inson – asir, erksiz millat – kul, erksiz mamlakat–mustamlaka. Erkparvarlik, avvalo, o'z millati o'z Vatani erki uchun, kolversa, boshka millatlar va vatanlar erki uchun kurashni xayotining maksadi kilib ko'ygan insonlar tamoyilidir. Ayni paytda, bu tamoyil keng ijtimoiy siyosiy ma'noda xam ko'llaniladi. Buni erkparvar davlatlar faoliyatida ko'rish mumkin.

Odatda, erkparvar shaxslar muayyan davrning kaxramonlariga aylanadilar. Zero ular o'zgalar erki uchun o'z erkini, o'z xayotini kurbon kilishdan xam cho'chimaydilar. Buning yorokin misoli buyuk ingliz mumtoz shoiri Jorj Bayron siymosidir. U ingliz bo'laturib, o'z Vatani Angliyada Irlandiya ozodligi, irlandlar erki uchun kurashdi: ko'pchilikning xayrati va nafratiga uchradi, Vatanni tark etishga majbur bo'ldi. O'z yurtida erk uchun kurashish baxtidan maxrum bo'lgan shoir o'zga vatanlar erki uchun kurashga otlandi, Italiyani Avstriya istibdodidan ozod kilish xarakatining raxbarlaridan biriga aylandi. Bu xakda u shunday deb yozgan edi:

Erk uchun Vatanda kilolmasang jang,
Sen ko'shni vatanlar erki deb kurash;
Yunonu Rumoning tugan tut tarang,
Boshingni tika bil erk uchun sarkash!
Ezgulik yo'lida bo'lsang kaxramon,
Sen inson erki deb kurashsang azot,
Bir, kuni, sirtmokdan gar kolsang omon,
Jo'mard deb alkagay seni odamzot!

Italiyadagi ozodlik xarakati maglubiyatga uchragach, u kadim Yunonistonni Turkiya zulmidan ozod kilish uchun kurashdi. U Yunonistonda, botkoklik yonidagi Missolungi shaxrida ogir bezgakdan vafot etdi. Uning o'limi xam istibdodga karshi shiorga aylandi: ko'zgolonchilar: «Bayron uchun!» degan jangovar xaykirik bilan jangga otildilar. Benazir, Yunonistonning ozod kilingan kismi general-gubernatori, erksevar ko'mondon va ulug inson xotirasiga yunon xalki yigirma bir kun kora kiyib, motam tutdi. Hamma cherkovlarda Bayron xakkiga ibodat kilindi. Darxakikat, erkparvarlik tamoyilini xayotining ma'nosi deb bilgan insonlarning ma'naviy umri boki, ular kelajak avlodlar uchun ideal bo'lib koladilar.

Eng ma'lum va mashxur tamoyil, bu – vatanparvarlik. U insonning o'z Vataniga muxabbatini, uni asrab-avaylashga bo'lgan ishtiyokini anglatuvchi axlokiy tushuncha. Uni ko'pincha Vatan dushmanlariga karshi ma'naviy-mafkuraviy kurol sifatidagina talkin etadilar.

Aslida esa, bu tamoyilning kamrovi ancha keng – u insonparvarlikning nisbatan muayyanlashgan shakli. U, eng avvalo, o'z vatandoshlari erkini asrash uchun kurash, inson ozodligi yo'lidan xatti-xarakatlardir. Vatan ximoyasi, bu – inson ximoyasi, millat ximoyasi. Lekin bu ximoya, yukorida aytganimizdek, fakat jang maydonida emas, balki barcha soxalarda namoyon bo'ladi. xar bir soxada Vatan erishgan muvaffakiyatlardan kuvonch, muvaffakityasizliklardan kaygu xissini tuyush, Vatan bilan gururlanish, uning xar bir karich eri,

binosining xar bir gishtiga, kadimiy obidalariga, ilm-fan va san'atdagi yutukulariga mexr bilan karash, ularni ko'z korachigidek asrab-avaylash – bular xammasi vatanparvarlikdir.

Hozirgi paytda yoshlarimizda vatanparvarlik tuygusini tarbiyalash, ularni Vatan ma'nosini teran anglab etishga o'rgatish, vatanparvarlik – yuksak axlokiy tamoyil ekanini tushuntirish fanizمنىng dolzarb vazifasi xisoblanadi.

Yana bir muxim axlokiy tamoyil, bu – millatparvarlik. U ma'lum ma'noda, vatanparvarlik tamoyilining yanada muayyanlashgan shakli. Zero millatni sevish keng ma'noda Vatanni sevish degani. Vatansiz millatning bo'lishi yoki rasmona erkin va baxtli yashashi mumkin emas.

Lekin millatparvarlikni millatchilik bilan korishtirib yubormaslik lozim. Millatchilik o'z millatini ajratib olib, unga buyuklik makomini berishga intilish bo'lsa, millatparvarlik, boshkalarni kamsitmagan xolda, o'z millati ravnaki uchun kurashish, bu yo'lda, lozim bo'lsa, o'z xayotini xam fido kilish demakdir. U insonparvarlik bilan xam chambarchas boglik. Chunki o'z millatini chin dildan sevmagan odam xech kachon boshka millatlarni seva olmaydi.

Asl millatparvar – milliy o'zligini anglab etgan inson. U o'z millati bilan faxrlanadi, o'z millati bilan butun jaxonning faxrlanishini istaydi. Chunonchi, Navoiy do'ppi bilan to'n kiygan o'zbekni xar kanday shox jamolidan afzal ko'radi:

Shoxu toju xil'atekim, men tomosha kilgali
O'zbekim boshida kalpok, egnida shardogi bas.

Lekin Navoiy shu faxrlanishi, gurulanishi barobarida o'zgalarga kibr bilan karagan emas, aksincha, o'zga til vakili bo'lmish Jomiyga bagoyat xurmat-izzat ko'rsatib, unga, pirim, deb ko'l bergan.

Asl millatparvar insonlarning umri millatning umri kabi mangudir. Millat yo'lida o'z jonini tikkan Munavvar kori, Bexbudiy, Fitrat, Cho'lpon singari minglab fidoiylarni xam xalkimiz xech kachon unutmaydi.

Shuningdek, tinchlikparvarlik, jo'mardlik singari axlokiy tamoyillar xam insoniyat xayotida muxim axamityaga ega. Chunonchi, tinchlikparvarlik urushning, kon to'kishning xar kanday ko'rinishini inkor etadi. Ba'zi ulug'davlatchilik va buyukmillatchilik ruxi xukmron bo'lgan jamiyatlarda tinchlikparvarlar kuvgin kilinadi, turmalarga tashlanadi. Lekin ular o'z tamoyillaridan xech kachon kaytmaydilar. Ular insoniyatni barcha baxsli masalalarini tinch yo'l bilan xal kilishga chakiradilar, Er yuzida tinchlik o'rnatish uchun tinimsiz kurash olib boradilar. Jo'mardlik tamoyili esa Sharkda kadimdan mavjud. Ovro'poda uni altruizm nomi bilan Ogyust Kont ilimiy muomalaga kiritgan. U kishida o'z kavmdoshiga aychinish xissidan, unga baxt va farovonlik tilash tuygusidan kelib chikadi, moxiyatan beminnat xayriyaga asoslanadi. Bundan tashkari, bizning milliy axlokshunosligimizda o'zbekchilik, mexmondo'stlik kabi tamoyillar mavjud. Ular millatimizning eng yaxshi an'analariга sadokat tuygusidan kelib chikadi va o'zbek kishisiga xos bagri kenglik, do'stga, mexmonga borini bagishlashdek fidoyilik xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Ayni paytda, bu tamoyillarni suiste'mol kilishi xollari xam xozirgi paytda tez-tez uchrab turadi. Shunga karamay, o'zbekchilik va mexmondo'stlik tamoyillari xalkimizning o'ziga xosligini ta'kidlaydi. Jaxonning juda ko'p xalklari bu tamoyillar egasi bo'lmish o'zbek millatiga doimo extirom, xavas va xayrat bilan minnatdorchilik bildiradilar.

Inson xayotida axlokiy me'yorlar xam katta axamiyatga ega. Ular tamoyillarga nisbatan ancha sodda, umumlashmagan, tor kamrovli. Ularni kundalik xayotimizda ma'lum axlokiy tamoyillarning amalga oshish murvatlari xam deyish mumkin, ular axlokiy talablarning eng oddiy shakli sifatida ro'yobga chikadi. Halollik, rostgo'ylik, xushmomalalik, boodoblik, kamtarlik singari me'yorlar ayniksa, dikkatga sazovar. Shuni xam aytish kerakki, xalollikni uning dastlabki tor diniy mazmunida-kaysi taom xarom-u, kaysinisi xalol, degan ma'noda tushunmaslik lozim. U allakachon umuminsoniy ma'no kasb etgan me'yorga aylangan. xalollik, rostgo'ylik vijdon tushunchasi bilan boglik, insonning o'zgaga munosabati o'ziga munosabatidek sof bo'lishini talab etuvchi me'yorlardir.

O'nlab me'yorlar orasida bu ikkisiga to'xtalishimizning sababi shundaki, mustamlakachilik davrida, ayniksa, sho'rolar xukumronlik kilgan chorakam bir asr vakt mobaynida yolgon, aldov,

nopoklik, xaromxo'rlik, munofiklik singari illatlar xalkimizga shu kadar ustalik bilan singdirildiki, xozirgi paytda ko'pchilik odamlar xalollik va rostgo'ylik ustidan xatto kuladigan bo'lib kolganlar. So'z bilan ish birligi yo'kolgan, kogozdagi chiroyli gaplar xayotga to'g'ri kelmaydi. Lekin bularning xammasi afsuski, odatiy xoldek kabul kilinadi. Shu bois mustakilligimizning dastlabki kunlaridanok bu illatlarga karshi kurash boshlandi. xozirgi kunda davlatimiz milliy ma'naviy kadriyatlarni tiklashni, odamlarni xalol, insofli, adolatli bo'lishga chakirishni o'z ichki siyosatining muxim kismi deb bilgan xolda ish tutmokda. Zero ko'z o'ngimizda yolg'on, aldov, ikkiyuzlamachilik nimaligini deyarli bilmaydigan jamiyatlar, millatlar gullab-yashnamokda. Yaponiya, Olmoniya, Frantsiya, AKSH, Buyuk Britaniya singari mamlakatlar shular jumlasidan.

Shunday kilib, kiskacha bo'lsa-da, axlokshunoslik mezoniy tushunchalari, axlokiy tamoyillar va me'ryolar nima ekanini, ularning shaxs xamda jamiyat axlokiy xayotida nakadar muxim o'rin tutishini ko'rib chikdik.

Tayanch tushunchalar

Muxabbat va nafrat, Ezgulik va yovuzlik, Yaxshilik va yomonlik, Adolat, Vijdon, Burch, Nomus, Ideal, Insonparvarlik, Erkiparvarlik, Vatanparvarlik, Millatparvarlik, Tinchlikparvarlik, Jo'mardlik, Halollik, Rostgo'ylik, Xushmuomalalik, Kamtarlik.

Takrorlash uchun savollar

1. Muxabbatning axlokshunoslik mezoniy tushunchasi (kategoriyasi) sifatidagi mohiyati nimada?
2. Ezgulik va yovuzlik mezoniy tushunchalarining ijtimoiylik xususiyatlari nimada?
3. Yaxshilik va yomonlikning ezgulik va yovuzlikdan farki nimalarda ko'rinadi?
4. Adolatning jamiyat va shaxs axlokiy xayotidagi o'ri kandy xususiyatlar bilan belgilanadi?
5. Nima uchun Vijdon axlokshunoslikning eng muxim mezoniy tushunchalaridan xisoblanadi?
6. Burch tushunchasining axlokiy mohiyatini kandy izoxlash mumkin?
7. Nomus tushunchasining axlokiy xayotdagi axamiyati nima bilan belgilanadi?
8. Idealning mohiyati va inson xayotida tutgan o'ri kay tarzda namoyon bo'ladi?
9. Axlokiy tamoyillarning inson kamolotiga ta'siri kay tarzda ro'y beradi?
10. Shaxs xayotida alokiy me'yorlar kandy o'rin tutadi?

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iktisodiy istikbolining asosiy tamoyillari. T., «O'zbekiston», 1995.
2. Karimov I.A. Halollik va fidoyilik faoliyatimizning asosiy mezoni bo'lsin. T., «O'zbekiston», 1994.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmokda. T., «O'zbekiston», 1999.
4. Karimov I.A. Donishmand xalkimizning mustaxkam irodasiga ishonaman. «Fidokor» gazetasi, 2000 yil, 8-iyun.
5. Aristotel. Nikomaxova etika; Bolshaya etika.// (Aristotel. Sochineniya v 4-x tomax, t-4., M., «Mysl» 1983.
6. Gazali Abu Xamid. Voskreshenie nauk o vere. M., «Nauka», 1980.
7. Gegel G. Filosofiya prava. M., «Mysl», 1990.
8. Slovar po etike. M., Politizdat, 1989.
9. Fromm Erix. Dusha cheloveka. M., «Respublika», 1992.

**OILA, FUKAROLIK JAMIYATI VA DAVLATNING AXLOKIY ASOSLARI HAMDA
SHAXS AXLOKIY TARBIYASI
(2 soat)**

Reja:

1. Oila – ilk axlokiy maskan sifatida.
2. Fukarolik jamiyati va davlatning axlokiy mohiyati.
3. Axlokiy madaniyat va kasbiy odob muammosi.
4. Axlokiy tarbiya xamda uning yo'llari va vositalari.

1. Oilani fukarolik jamiyatining, davlatning eng muxim xujayrasi deyishadi. Chunki xar bir jamiyat a'zosining, bo'lajak fukuroning tarbiyasi oiladan boshlanadi. Oila uch jihatni: o'zining bevosita ko'rinishi bo'lmish nikoxni; oilaviy mulk va anjomlar xamda ular xakidagi gamxo'rlikni; bolalar tarbiasini o'z ichiga oladi.

Avvalo, nikox xakida to'xtalib o'taylik. Konunga binoan nikox tuzish shartlarida eng muximlari – nikoxga kiruvchilarning o'zaro roziligi va ularning nikox yoshiga etganliklari. Bizda yigitlar uchun – 18, kizlar uchun – 17 nikox yoshlari kilib belgilangan. Bu – masalaning xukukiy tomoni. Uning ikkinchi – axlokiy tomoni xam borki, u sevgi bilan boglik. Nikox tuzishdan avval ikki yosh orasida gox ochik sevgi – muntazam uchrashuvlar, axdu paymonlar kilish yoki orkavorotdan bir-birini yoktirishi xollari bo'lishi mumkin. Har ikkala xolda xam rozilik o'zgarmas shart xisoblanadi.

Ba'zan, kadimda Shark xalklarida, shu jumladan o'zbeklarda kizning yoki yigitning rozilgisiz to'y kilib yubora berishgan, ota-onalar kelishsa – bas, degan fikrlarni uchratadi kishi. Ayniksa, bunday gaplar sho'rolar davrida tinimsiz takrorlanar edi. Vaxolanki, bunday xol kam bo'lgan, uni musulmonchilik inkor etadi. Rivoyat kilishlaricha, paygambarimiz Muxammad alayxissalom uylariga sovchi kelganida, kizlari Fotimadan doimo rozilik so'rganlar va rad javobi olganlar. Fakat Hazrat Ali sovchi ko'rganlarida, Bibi Fotima rozilik berganlar. Demak, farzandninng roziligini olish bizga paygambarimizdan kolgan sunnat.

Hozirgi kunda xam ko'pgina yoshlarimiz sovchi orkali turmush kuradilar. Odatda sovchi kelib ketgach, yigit bilan kiz uchrashtiriladi, ikkalasi bir-birini ma'kul ko'rsagina, fotixa kilinib, to'y taraddudi ko'riladi. Juda ko'p xollarda bunday yoshlar o'rtasida keyinchalik xakikiy muxabbat shakllanadi. Abdulla Kodiriy «o'tgan kunlar» romanida tasvirlagan Otabek bilan Kumush o'rtasidagi sevgini buning mumtoz namunasi desa bo'ladi. Ochigini aytish kerakki, muxabbatning xam o'z darajasi bor: Layli bilan Majnunning muxabbati xamma sevishtanlarga xam nasib etavermaydi. Bunday romantik-sururiy sevgi real xayotda kamdan-kam uchraydi. Buning ustiga, oilaviy muxabbat ma'lum ma'noda salobatli, ko'prok yashirin tarzda namoyon bo'ladi.

Keyingi paytlarda nikox bilan muxabbatning o'zaro chikishmasligi xakida G'arb mutafakkirlari tez-tez yozadigan bo'lib kolganlar. Chunonchi, Erix Fromm industrial jamiyatda muxabbat kamdan-kam xam uchraydigan xodisa ekanini, nikoxning asosida boshka–moliyaviy, siyosiy, iktisodiy sabablar yotishini ta'kidlaydi. Umuman, F'arb olamida bunday xodisa anchadan buyon mavjud. Shu jihatdan Jorj Bayronning «Don Juan» she'riy romanidagi kuyidagi satrlar dikkatga sazovor:

Bu juda kayguli xodisa shaksiz,
Insonning kajligi, jinoyati bu;
Ildizi gar bitta bo'lsa xam, xargiz
Chikishmas nikox va muxabbat mangu:
Sirkaga aylangan vinodak, esiz,
Nikox mast kilmovchi taxir, nordon suv,-
Vakt undan jannatliy bo'yni oladir,
Ro'zgoru oshxona xidi koladir.

Garchi bu satrlar yarim kinoya, yarim xazil kabilida bo'lsa-da, ularda ma'lum ma'noda xayotiy asos bor. Agar muxabbat xar ikki tomondan e'zozlab, avaylab-asralmasa, undagi jannatiy bo'yni yo'kotib ko'yish xech gap emas. Zero dunyodagi xamma narsa -xodisalar kabi muxabbat xam parvarishga muxtoj.

Nikox o'z moxiyatiga ko'ra axlokiy xodisa. Unda extiroslar axlokka bo'ysundiriladi. Oddiy birga yashashda esa tabiiy extiyotni kondirish birinchi o'rinda turadi, nikoxda u ikkinchi darajali mavke egalaydi.

Oilaning yana bir jixati – uning o'z mulkiga egaligi. Agar nikox oilaning botiniy ko'rinishi bo'lsa, oilaviy mulkni uning tashki ko'rinishi deyish mumkin. Oilaning mavjud bo'lishi uchun ishlab topiladigan mablag xam zarur. Oila uchun topiladigan ana shu mablag, shubxasiz axlokiy tabiatga ega: oila boshligi oila a'zolarini xalol edirib-ichirishi, kiydirishi lozim. Oilani erkak kishi boshkaradi. U nafakat «topib keladi», balki oilaviy mulkka xo'jayinchilik kilish, uni taksimlash xukukiga xam ega.

Oilada bolaning axamiyati nixoyatda katta. Ota bolada o'z jufti xalolini, ona esa sevimli erini ko'radi: bolada er xotinning muxabbati predmetlashadi, jonlanadi. Bola – oilani tutib turuvchi jonli muxabbat. Bolalar oilada umumiy oilaviy mulk xisobiga eb-ichadilar, tarbiya oladilar.

Oilada bolalar intizomli bo'lib o'smoklari, ota-onaga bo'ysinislari lozim. Lekin bu intizom kullikka o'rgatish emas, balki bolalariga xos erka-tantiklik, o'zboshimchalik singari salbiy xususiyatlarni yo'kotishiga xizmat kilishi kerak. Ota-onaga bo'ysunishdan bosh tortishga yo'l ko'yish bolaning kelajakda ko'pol badxulk nokamtarin bo'lib etishuviga olib keladi. Shu bois oila ilk axlokiy tarbiya o'chogi sifatida xam katta axamiyatga ega.

Oila buzilishi xam mumkin. Buning turli sabablari bor. Biri – oilani axlokiy nuktai nazardan buzilishi. Bunda bolalar balogatga etgach, erkin shaxs sifatida yangi oilaga asos bo'lishlari – o'gil bolalarning uylantirilishi, kizlarning erga berilishi nazarda tutiladi.

Uylantirilgan farzandlarga xam, erga berilgan kizlarga xam yangi oila kurish va uni moddiy jixatdan dastlabki paytlarda muxtojlikdan saklab turish uchun etarli bo'lgan uy-ro'zgor ashyolari ajratiladi. Shuningdek, oilaning tabiiy buzilishi xam mavjud. Unda ota-onaning, yoki otaning vafoti tufayli oila mulkining meros bo'lib bir yoki bir necha farzandga o'tishi munosabati bilan oila buzilishi mumkin.

Bundan tashkari, nikox bekor kilinishi munosabati bilan oila buziladi. Aslida nikox xam diniy, xam dunyoviy nuktai nazardan buzilmasligi kerak. Lekin o'rtada xiyonat sodir bo'lishi yoki yana boshka bir xil sabablar tufayli nikoxni fakat axlokiy obro'ga ega, konun bilan tan olingan idoralar, masalan sud, va vakolatli ruxoniy bekor kilishi mumkin, zero u, aytganimizdek, axlokiy xodisa. Har bir jamiyat mana shu so'nggi turdagi oila buzilishiga karshi kurashadi. Bunday oila buzilishi kancha kamaysa, u o'sha jamiyat axlokiy takomillashib borayotganini anglatadi.

2. Dastlabki axlok maskani bo'lmish oilalar yigindisi fukarolik jamiyatini, millatni tashkil etadi. Fukarolik jamiyati moxiyatan oila bilan davlat o'rtasidagi daraja. Garchand, uning tarakkiyoti davlat tarakkiyotidan keyinrok ro'y bersa xaa, u albatta davlatni takozo etadi, ya'ni fukarolik jamiyatining yashashi uchun uning oldida mustakil nimadir bo'lishi kerak. Fukarolik jamiyati zamonaviy dunyomizda vujudga keladi, zero, xozirgi paytdagina fukarolar xukuki xakikatan xam inobatga olinadi. Fukarolik jamiyatida xar bir odam o'zi uchun maksad. Birok, u boshkalar bilan o'zaro munosabatda bo'lmasdan turib, o'z maksadiga to'la erisha olmaydi: boshkalar uning maksadga etishishi yo'lidagi vositadir. Natijada xar bir aloxida maksad boshkalar bilan o'zaro munosabatlar vositasida, ularning farovonlikka intilishini kanoatlantirgani xolda, o'zi xam kanoatlanadi. Boshkacharok kilib aytganda, fukarolik jamiyatida yaxshi, badavlat, baxtli, xukuki yashash uchun bo'lgan xar bir fukaroning intilishi pirovard natijada butun jamiyatning o'shanday yashashiga olib keladi.

Fukarolik jamiyati, shunday kilib, bir kishining extiyojini uning mexnati vositasida kondirishi barobarida, shu mexnat vositasida barcha kolganlarning xam extiyojini kondiradi. U o'z a'zolarining shaxsiy erkinliklari va xukuklarini ximoya kiladi, odil sud vositasida ular mulkiga

daxl kilinishiga yo'l ko'ymaydi. Fukarolik jamiyati turli tabakalardan tashkil topadi. Ular orasida tabakaviy yoki sinfiy ziddiyat singari xodisalar ro'y berishi mumkin emas. Chunki bunda shaxs – davlat fukarosi, muayyan inson manfaatlari birinchi o'rinda turadi va bu manfaatlar, aytganimizdek, xam axlokiy, xam konuniy jixatdan ximoya kilinadi.

Mamlakatimizda xozir erkin, demokratik fukarolik jamiyatini tuzishga kirishganmiz. Bu jamiyat, ma'lum ma'noda, garbliklar tasavvuridagi fukarolik jamiyatlaridan fark kiladi. G'arbda bu borada e'tibor asosan xukukiy yo'nalishning ustuvorligiga karatilsa, bizda axlokiy-ma'naviy yo'nalishning ustuvorligini ko'rish mumkin. Shu nuktai nazardan olib karaganda, biz kurayotgan fukarolik jamiyati G'arb dunyosi uchun o'rnak bo'lishi mumkin. Bu faxrlanish xissidan kelib chikkan balandparvoz gap emas. Masala shundaki, G'arb jamiyatlari xozirgi paytda axlokiylikni xukukiylikning yukori boskichi sifatida kabul kilmokdalar. Lekin ular uchun «axlokiy o'rin bo'shatishdan» ko'ra «xukukiy o'rinni egallab turish» na fakat konuniy, balki zavklirok tuyuladi. Bizning mentalitetimizda esa, buning aksi – xar bir «axlokiy o'rin bo'shatish» o'zbek kalbiga kuvonch, o'z insonlik burchini bajarganlik xissini to'ldiradi.

Bundan tashkari, bizda fukarolik jamiyati kurishni ma'lum ma'noda tezlashtiradigan, G'arb mentalitetiga xos bo'lmagan maxallalar bor. O'zbek maxallalari tom ma'noda axlokiy tarbiyaning maskani; oila kattalari bolaga kanchalik tarbiya bera olsa, o'sha oila yashayotgan maxallaning tarbiya borasidagi xissasi xam shuncha bo'ladi, desak xato kilmaymiz. Buning ustiga, maxallada xalkimizning kadimiy demokratik an'analari xozir xam o'z kuchini yo'kotgan emas. Maxallada yashayotgan, xukumat a'zosi xam, millioner tijoratchi xam, farrosh xam, odiy o'kituvchi xam bir xildagi maxalladoshlik xukukiga ega. Chunonchi, maxallanig oksokoli oddiy o'kituvchi bo'lishi mumkin va ko'p xollarda shunday xam. Hukumat a'zosi yoki millioner esa, maxallada fakat maxalladoshlik «lavoziyida» bo'ladi. Ularning farklanishi fakat axlokiy jixatlari bilangina belgilanadi. Ana shu xususiyatlari bilan maxalla o'z-o'zini boshkarish tuzilmasi sifatida oiladan fukarolik jamiyatiga o'tish uchun axlokiy ko'prik bo'lib xizmat kiladi. Bunday oralik boglovchi tuzilma, yukorida aytganimizdek, G'arb olamida yo'k. Demak, shunga ko'ra xam, bizda fukarolik jamiyatiga o'tish nisbatan osonrok kechadi, degan fikr bildirish mumkin. Bu borada Respublikamiz Prezidenti Islom Karimovning: «Shu ma'noda maxallani o'z-o'zini boshkarish maktabi, ta'bir joiz bo'lsa, demokratiya darsxonasi, deb atash mumkin», degan so'zlari ayni xakikatdir.

Buyuk olmon faylasufi Hegel davlatni axlokiy goyaning voke bo'lishi deb ta'riflaydi va tabiiy munosabatlarni ma'naviy munosabatlar bilan mukoyasa kilib, oilani –xissiyotga, fukarolik jamiyatini – asabning ta'sirlanish kobiliyatiga, davlatni esa o'zi uchun asab tizimiga o'xshatadi; u o'z ichida botinan tashkil topgan, biroq uning yashashi o'zida ikki xolatning tarakkiy topishi bilan boglik, bular – oila va fukarolik jamiyati. Davlat aklning ro'yobga chikishi sifatida xar bir shaxs ixtiyoriga mosdir. Odatda, davlatning maksadi o'z fukarolarini baxtli kilish deb xisoblanadi. Agar fukarolar kiynalsa, ularning sub'ektiv extiyoj-maksadlari kondirilmasa, davlatning mustaxkamligi shubxa ostida koladi. Davlatning asosi – siyosiy tuzum. Uning takdiri xam ana shu siyosiy tuzumga boglik.

Ko'pdan-ko'p turli-tuman boshkaruv va tashkiliy institutlardan iborat bo'lgan davlatning eng muxim axlokiy vazifalaridan biri-tarbiya. Davlat tomonidan maktabgacha bo'lgan tashkilotlarda, maktablarda va oliy o'kuv yurtlarida ta'lim bilan ko'shib olib boriladigan tarbiya aloxida axamiyatga ega. Agar mazkur tarbiyada ommabop usullarning toshi bosib ketsa, u xol maktarli emas; yoshlarning o'zligini anglagan shaxs bo'lib etishuvi mushkullashadi. Shu bois imkon boricha tarbiyada individual yondoshuvga intilish maksadga muvofik.

Demokratik tamoyillarni amalga oshirish jarayonlarida davlat, xamma fukaro baravar teng, degan usulda ish ko'rmasligi lozim; xammaning xukukiy tengligini tan olgan xolda, ijtimoiy tenglashtirish tamoyiliga yo'l ko'ymaslik kerak.

Davlatning mavjud bo'lish sharti, eng avvalo, uning suverenitetida. Bunda xalk tashki olamga nisbatan mustakil bo'ladi va o'z davlatini shu mustakillik asosida tuzadi. Biz mustakillikka erishganimizdan keyin o'z davlatimizni kadimiy davlatchiligimizning eng yaxshi an'analari bilan birga zamonaviy demokratik tamoyillar asosida kurishga kirishdik. Davlatimiz xam ma'naviy-

axlokiy, xam jismoniy tarbiyaga katta axamiyat berib kelmokda. 2000-yilning «Soglom avlod yili» deb atalishi bejiz emas; yosh avlod tarbiyasi bizda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Mana, ko'rinishidan juda oddiy bir misol. O'zini eng insonparvar davlat deb e'lon qilgan Sho'rolar Ittifoki bunyodga kelganidan boshlab, deyarli yarim asr mobaynida bola tugilgach, onani uch oy ishdan ozod kilardi; ona uch oylik chakalokni bogchaga tashlab, ishga chikishga majbur bo'lardi, aks xolda u buyruk bilan ishdan bo'shatilardi. Keyinchalik bu tarbiya ta'tili 1 yil kilib belgilandi. Bizning davlatimiz esa tashkil bo'lgani barobaridayok bola tarbiyasini yuksak ijtimoiy-axlokiy xodisa sifatida e'tirof etib, yangi tugilgan bola tarbiyasi uchun onaga 3 yillgacha muddat berdi. Uch yilgacha onaning ish joyi saklanib turadi. Shu birgina misolning o'ziyok totalitar tuzum davlati bilan demokratik davlat nakadar katta fark kilishini ko'rsatib turadi. Totalitar tuzum davlati yolgon, aldov – axloksizlik instituti. Biz tanlagan demokratik davlatning asosida esa yuksak axlokiylik yotadi.

3. Davlat va fukarolik jamiyatidagi axlokiy yuksaklik darajasini ular fukarolari axlokiy madaniyati belgilaydi. Axlokiy madaniyat shaxsning jamiyat axlokiy tajribalarini egallashi va bu tajribalardan boshka odamlar bilan bo'lgan munosabatlarida foydalanishi, o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borishi singari jixatlarni o'z ichiga oladi. Kiskasi, u shaxs axlokiy tarakkiyotining belgisi xisoblanadi. Zero axlokiy madaniyat axlokiy tafakkur madaniyatining kator unsurlarini o'z ichiga olgan tuzilmadir. U shaxsning o'zgalar bilan o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladi.

Axlokiy madaniyatning eng muxim unsurlaridan biri-muomala odobi. U moxiyatan o'zaro xamkorlikning shakllaridan biri. Inson zoti bir-biri bilan xamkorlik kilmasdan, o'zaro tajriba almashmasdan, bir-biriga ta'sir ko'rsatmasdan rasmona yashashi mumkin emas. Muomala odam uchun extiyoj, zarurat, soglom kishi usiz ruxan kiynaladi, kayfiyati tushib boradi. Bu o'rinda buyuk ingliz yozuvchisi Daniel Defo kalamiga mansub mashxur «Robinzon Kruzoning sarguzashtlari» asarini eslashning o'ziyok kifoya: Jumaboyni topib olgan Robinzonning nakadar kuvonishiga xam sabab ana shunda.

Muomala odobi boshka kishilar kadr-kimmatini, izzatini joyiga ko'yishni, an'anaviy axlokiy me'yoriy talablarni bajarishni takazo etadi. Shuning barobarida, u insondagi yaxshi jixatlarni namoyon etishi, ko'zga ko'rsatishi bilan xam ajralib turadi. Uning eng yorokin, eng sermazmun va eng ifodali namoyon bo'lishi so'z, nutk vositasida ro'y beradi. So'zlash va tinglay bilish, suxbatlashish madaniyati muomalaning muxim jixatlarini tashkil etadi. Shu bois muomala odobi o'zini, eng avvalo, shirinsuxanlik, kamsukumlik, bosiklik, xushfe'llilik singari axlokiy me'yorlarda namoyon kiladi.

Muomala odobining yana bir «ko'zgusi» bu –insoniy karash, nigox. Ma'lumki, odamning karashida, yuz ifodasida, ko'l xarakatlarida uning kay sabablardandir tilga chikmagan, so'zga aylanmagan xissiyoti, talablari o'z aksini topadi. Chunonchi, suxbatdoshining gapini oxirigacha eshitmay, ko'l siltab ketish – muomaladagi madaniyatsizlikni anglatadi. Ba'zan karab ko'yishning o'zi so'zdan xam kuchlirok ta'sir ko'rsatadi. Deylik, bir kuruvchi usta o'z shogirdining xatti-xarakatlaridan noroziligini bildirish uchun bosh chaykab, jilmayib ko'yishi mumkin. Ikkinchi usta esa, bir laxza o'krayib karash bilan munosabatini ifodalaydi. Birinchi usta yuz ifodasi va xatti-xarakati bilan; «Obbo shovvoz-ey, sal shoshilibsan-da, xa, mayli, zarari yo'k, shunakasi xam bo'ladi», degan ma'noni anglatga, ikkinchi ustaning karashidan; «Yana ishni rasvo kilibsan-ku, padarla'nat, kachon odam bo'lasan?!», degan so'zlarni ukish mumkin. Shubxasiz, birinchi usta muomalada odobga rioya kilgan bo'lsa, ikkinchisi uning aksi – shogirdining emas, o'zining odobsizligini ko'rsatmokda.

Umuman olganda, muomala odobi kishilarning nasixat va odob o'rgatishsiz bir-biriga ta'siri, tarbiya va o'z-o'zini tarbiya vositasi sifatida dikkatga sazovor. Shu sababli yoshlarimizda muomala odobini shakllantirish xozirgi kunda jamiyatimiz oldida turgan muxim vazifalardan. Bunda ota-onaning, maxalla-ko'yning ta'siri katta. Undan foydalana bilash kerak. Zero axlokiy komillikka erishish muomala odobini egallashtan boshlanadi.

Axlokiy madaniyat yakkol ko'zga tashlanadigan munosabatlar ko'rinishidan biri, bu – etiket. U ko'prok insonning tashki madaniyatini, o'zaro munosabatlardagi o'zni tutish konun-

koidalarining bajarilishini boshkaradi. Agar muomala odobida inson o'z munosabatlariga ijodiy yondoshsa, ya'ni bir xolatda bir necha muomala kilish imkoniga ega bo'lsa, etiket muayyan xolat uchun fakat bir xil koidalashtirib ko'yilgan xatti-xarakatni takozo etadi.

Etiketning kamrovi keng, u, ma'lum ma'noda, xalkaro mikyosda kabul kilingan muomala konun-koidalarini o'z ichiga oladi. Masalan, siyosiy arbob etiketi, mexmondorchilik etiketi va x. k. Etiketga rioya kilishning mumtoz namunasini biz tez-tez televizor ekrani orkali ko'rib turamiz. Prezidentimiz Islom Karimovga xorijiy mamlakatlar elchilarining ishonch yorliklarini topshirish marosimlarini eslang. Unda fakat bir xil xolat, xalkaro mikyosda o'rnatilgan koida xukmron. Uni Prezidentning xam, elchilarning xam buzishga xakki yo'k. Yoki juda oddiy, kichkina bir misol: dasturxonda tanovul payti, pichokni o'ng ko'lda ushlash zamonaviy mexmondorchilik etiketining kat'iy koidalaridan biri sanaladi – uni buzish atrofdagilarda xayrat va istexzo uygotadi. Shu bois etiketni odat tusiga aylantirilgan, kat'iylashtirilgan muomala odobi deyish xam mumkin.

Etiket – takallufning mayda-chuyda jixatlarigacha ishlab chikilgan odob koidalari sifatida ijobiy, kishining ko'zini kuvontiradigan muomala xodisasi. Lekin, ayni paytda, u asl axlokiy asosini yo'kotgan majburiy mulozamat tarzida xam namoyon bo'ladi: etiket koidalarini bajarayotgan kishi aslida o'z xoxish-ixtiyoriga karshi ish ko'rayotgan bo'lishi xam mumkin. Bu jixatdan u munofiklikning bir ko'rinishiga aylanadi. Masalan, siz ertalab ishga shoshilib, darvozadan chikdingiz, deylik. Ro'parangizda tanishingiz yoki ko'shningiz uchraydi. Siz ko'rishib, xol-axvol so'rashib uni: «Kani uyga kiramiz, choy kilamiz, bir xangomalashamiz», deb ichkariga taklif kilasiz. Lekin, aslida, siz uning uyga kirishini aslo istamaysiz, vaktingiz yo'k, xatto, shu uchrashganda ketgan vaktingizni o'ylab, pitirlab turibsiz. Demak, siz o'z istagingizga karshi, etiket-mulozamat yuzasidan yolg'on gaplarni aytasiz, xunuk eshitilsa xam na chora – munofiklik kilasiz. Shunga karamay, umuman olganda, etiket shaxsni muayyan tartib-koidaga, kanday ichki ruxiy sharoitda bo'lmasin, bosiklikka, muloyimlikka va sabr-tokatga o'rgatishi bilan axamiyatlidir.

3. Axlokiy madaniyat kasbiy odobda xam yakkol ko'zga tashlanadi. Chunki inson voyaga etib, bir kasbning boshini tutgach, o'z kasbi doirasida odamlar bilan muntazam munosabatda bo'ladi. Bu munosabat, bir tomondan, xamkasabalar davrasida ro'y bersa, ikkinchi jixatdan, u kasb talabiga binoan uchrashadigan turli toifadagi odamlar bilan yuzaga keladi. Ayni paytda, kasbiy odob axlokiy madaniyatning eng yuksak shakllaridan biri, uning jamiyat axlokiy xayotidagi o'rni yuksak. Shu bois kasbiy odobga bafurjarok to'xtalish joiz.

Har bir jamiyatda muayyan guruxlar borki, egallagan kasblari ularni boshka jamiyatdoshlariga nisbatan imtiyozli darajaga olib chikadi. Ko'pchilik jamiyat a'zolarining xayot-mamotlari, sogligi, ma'naviy soglomligi, xukukiy ximoyasi, ilmiy saloxiyatining namoyon bo'lishi kabi omillar o'shanday imtiyozli kasb egalarining o'z kasbiy burch mas'uliyatini kay darajada xis etishlariga, xalollik va vijdon yuzasidan ish ko'rishlariga boglikligi xammaga ma'lum. Chunonchi, tabobat xodimini, jarroxni olaylik. Deylik, u xar bir operatsiya kunida bir necha kishini xayotga kaytaradi; yuzlab odamlar uning yordamiga muxtoj, unga umid va ishonch ilinji bilan karaydilar. Bordi-yu, shaxsiy manfaat yo'lida jarrox o'z bemoriga xiyonat kilsa-chi, ya'ni, uni kasddan xalok etsa-chi? Kim uni shunday kilmasligini kafolatlaydi? Yoki jurnalistni olaylik. U shaxsiy manfaati yo'lida, kasbining kamyobligidan foydalanib, begunox kishilarni ma'naviy azobga ko'yishi, atayin jamiyat oldida sharmanda kilishi va shuning xisobiga o'zining ba'zi bir muammolarini xal kilib olishi mumkin emasmi? Mumkin. Zero, to xakikat yuzaga chikkuncha, noxak tankidga uchragan shaxsning adoi tamom bo'lishi xech gap emas. Xo'sh, jurnalistning shunday kilmasligini kim kafolatlaydi? Shu bois boshkalarining ko'lidan kelmaydigan ishlarni bajara oladiganlar faoliyatida o'zboshimchalik, manfaatparastlik, xudbinlik va kasbni suiste'mol kilish singari illatlarga yo'l ko'ymaslik uchun, shuningdek, ular axlokiy darajasini yuksak boskichda turishini ta'minlash maksadida ko'p xollarda o'zaro koidalar majmui yaratilgan. Bu koidalar majmui, odatda, kasamyod yoki me'yorlar ko'rinishini olgan. Uni buzish o'ta odobsizlik va axloksizlik, xatto jamiyatga xiyonat tarzida baxolanadi. Bunday kasamyodlar juda uzok tarixga ega. Misol tarikasida xozirgi kunda xam o'z axamiyatini yo'kotmagan Kadimgi Yunon Hakimi xippokrat (milodgacha V-IV

asrlar) tomonidan kiska va lo'nda shaklda tuzilgan, tabobat xodimlari kasbiy odobi, konun-kodalari jamlangan mashxur «Hippokrat kasami»ni keltirish mumkin.

Tarixda o'z dushmanini davolagan tabiblar xam ko'p uchraydi. Chunonchi, kadimgi xind eposi «Ramayana»da (II-asr) bexush yotgan Lakshman boshida turgan devlar shoxining xos tabibi kechinmalari shu jixatdan muxim. Tabib oldida ikki yo'l bor edi: biri – saltanat dushmanini muxtoj bemor sifatida davolash, ikkinchi yo'l davolashdan bosh tortish bilan uni o'linga maxkum etish. Tabib uzok muloxazadan so'ng, tabiblik odobi koidalariga bo'ysunishni – Lakshmanni davolashni afzal ko'radi. Zero kasbiy odob konun-koidalari talabiga ko'ra, bemor to'shagi ustidagi tabib uchun do'st yoki dushman degan tushunchalar o'z ma'nosini yo'kotadi, uning koshida fakat tibbiy yordamga intizor, shafkatga muxtoj, zaif inson yotadi. Davolanib xayotga kaytgan Lakshman devlar mamlakatining tengsiz buyuk jangchisi va saltanat valiaxdi Indirjidni jangda xalok etadi xamda tabib fukaro bo'lgan Lanka davlatining tanazzuliga yo'l ochadi. Lekin, kitobxon tabibni xiyonatkor yoki sotkin demaydi, aksincha, uning ma'naviy jasaratiga, xalolligiga, kasbiy burchiga sodikligiga xayrat bilan tasannolar o'kiydi. Yoki mashxur rus olimi akademik Andrey Saxarovning takdirini olaylik. Buyuk nazariyotchi, fizik, termoyadro soxasida tengi yo'k mutaxassis, vodorod bombasining asosiy kashfiyotchisi, Vatan mudofaasini mustaxkamlashdagi xizmatlari uchun o'nlab orden va medallar soxibi, ikki marta Sotsialistik Mexnat Kaxramoni, obro'li, badavlat bu insonga nima etishmasdi? Nega u xammasidan kechishga – ommaviy kirgin kurollarini, jumladan, o'zi yaratgan vodorod bombasi sinovlariga ochik bayonotlar bilan karshi chikishga axd kildi. Natijada katagonlarga asoslangan Sho'rolar tuzumi uni ilmiy jamoatchilikdan ajratib, poytaxtdan olisdagi Rossiya shaxarlaridan biriga badarga kildi, uning nomini matbuotda yoki kitoblarda kayd etilishini ta'kikladi. Vaxolanki, u xammadan izzatlirok yashay olishi mumkin edi. Saxarov yuksak axlok yo'lini tanladi – olimlik burchi, odobi talablarini bajarishni xar kanday boylik, izzat-ikromdan baland ko'ydi. Buyuk olim o'z kashfiyoti insonning eng oliy xukuki bo'lmish – yashash xukukiga raxna solishi mumkinligi va kisman solayotgani uchun uni amalda ko'llanilishiga karshi kurashdi. U sho'rolar mafkurasining o'zini Vatan mudafaasi kuvvatini susaytirishga xarakat kilgan salkam xiyonatkor fukaro deb e'lon etishiga, boshiga bexisob tuxmatlar, ta'na-dashnomlar yogdirishiga sabot bilan chidadi, axdidan kaytmadi, yovuzlik saltanati ko'lida o'z olimlik iste'dodining ko'g'irchok bo'lishiga, xarbiy murvatga aylanishiga yo'l ko'ymadi. Oxir-okibatda u inson xukuklarining jaxon tan olgan eng buyuk ximoyachilaridan biri sifatida butun insoniyat taxsiniga sazovor bo'ldi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Bulardan tashkari, muallimlik odobi, xukuk-tartibot xodimlari odobi, muxandis odobi singari birkancha kasbiy odob turlari borki, ular xam jamiyatda axlokiy munosabatlar silsilasida muxim axamiyatga ega. Shuni xam aytish kerakki, barcha kasbiy odob konun-koidalarining ta'sir doirasi, mikyosi bir xil emas. Ba'zi bir kasbiy odobning buzilishi oddiy odobsizlik doirasidan chikib, axloksizlikka aylanib ketadi. Masalan, raxbarlik odobidagi ba'zi nuktalarga tuxtalaylik. Raxbar kuyi lavozimdagilarga mensimay, ko'pol munosabatda bo'lishi, o'ziga ishonib topshirilgan xudud yoki tashkilotdagi oddiy odamlar arz-dodiga, orzu-istaklariga to'ralarcha sovukkon karashi odobsizlikka kirsas, uning shaxsiy boylik orttirishi yo'lida korruptsiya vositasida mamlakat, viloyat yoki tashkilot manfaatlarini kurbon kilishi axloksizlik, na fakat raxbarlik kasbiga balki Vatanga xam xiyonat tarzida baxolanishi mumkin. Ba'zan kasbiy odobni kasbiy axlok deb atalishi xam shundan.

Yukorida keltirilganlardan ko'rinib turibdiki, kasbiy odob muammosi, ba'zilar o'ylaganidek, axlokshunoslikning mayda masalaridan emas. Uni xar tomonlama o'rganish kasbiy erkinlik va kasbiy burch munosabatini tadkik etish XXI asr axlokshunosligida muxim o'rin egallayajak. Zero kasbiy odob shaxs va jamiyat axlokiy xayotida o'zini amaliy axlok tarzida namoyon etuvchi ma'naviy xodisa sifatida baxolanishi lozim.

4. Insonning axlokiy xayoti uning axlokiy tarbiyasi bilan chambarchas boglik. Zero axlokiy tarbiya insonning shaxs bo'lib etishuvini ta'minlaydigan uzluksiz jarayonlaridan biri. Unda individ axlokiy kadriyatlarni anglab etadi, o'zida axlokiy fazilatlarni barkaror etadi, axlokiy tamoyillar va me'yorlar asosida yashashga o'rganadi. Axlokiy tarbiya insoniyat tarixi mobaynida

ikki muxim masalaga javob izlaydi: bulardan biri-kanday yashamok kerak, ikkinchisi – nima kilmog-u, nima kilmaslik lozim. Ana shu savollarga javob izlash jarayoni axlokiy tarbiyaning amaliy ko'rinishidir.

Tarbiya ona kornidan boshlanadi degan gap bor. Uning asl ma'nosi, avvalo, ota-onaning o'zi axlokiy tarbiya ko'rgan bo'lishi kerak degani. Zero kush inida ko'rganini kiladi: ota-ona oilada yuksak axlok namunasini ko'rsatishi lozim.

Shuni xam aloxida ta'kidlash lozimki, axlokiylik insonda fakat axlokiy tarbiya vositasidagina vujudga keladi, degan moddiyatchilik karashlari ko'p yillar mobaynida xukmronlik kilib keldi. To'g'ri, axlokiy tarbiyaning axamiyati nixoyatda katta. Lekin axlokiylik insonga uning insoniylik belgilaridan eng muximi sifatida ato etilgan iloxiy ne'mat. Shu ma'naviy ne'mat – asosni axlokiy tarbiya yordamida takomillashtiramiz. Aks xolda maymun va itlardan xam axlokiy mavjudot tarbiyalab etkazishimiz mumkin bo'lur edi.

Shunday kilib, axlokiy tarbiya inson farzandini takomilga, komillikka etkazish yo'llaridan biri. Uning vositalari ko'p. Ularning bir kismi an'anaviy tarbiya vositalari bo'lsa, yana bir kismi zamonaviy vositalar. Odatda, xar ikki turdagi vositalardan foydalaniladi. Chunonchi, maktabgacha bo'lgan axlokiy tarbiyada ertak va rivoyatlar vositasidagi an'anaviy tarbiya bilan o'yinchoklar va o'yinlar vositasidagi zamonaviy tarbiya muvaffakiyatli ko'llaniladi; bunda bolaning kizganchiklik, girromlik kilmaslikka, xalol bo'lishga o'yinlar yordamida da'vat etiladi. Bolalar axlokiy tarbiyasida televidenie, radio, ko'g'irchok teatri, kino san'ati katta rol o'ynaydi.

Umuman, axlokiy tarbiyaning eng kuchli vositasi-san'at. Bu vosita axolining barcha tabakasini, turli yoshdagi shaxslarni kamrab oladi. Ayniksa, san'atning badiiy adabiyot turi keng kamrovli. Ertakdan tortib, romangacha bo'lgan janrlarda chop etilgan asarlar shaxsning axlokiy shakllanishida ulkan xizmat ko'rsatadilar. Ular orkali kitobxon tarbiyalanuvchi sifatida ezgulik va yovuzlik nimaligini badiiy idrok etadi; ideal tanlashda xam ularning axamiyati katta. Bundan tashkari, badiiy adabiyotning bevosita axlokiy tarbiyaga mo'ljallangan xikoyatlar, rivoyatlar va nasixatlar majmualari borki, biz ularni, yukorida ko'rganimizdek, pandnomalar deb ataymiz: «Kalila va Dimna», «Kobusnoma», «Guliston», «Zarbulmasal» singari bunday mumtoz asarlar an'anaviy axlokiy tarbiya vositasi sifatida necha asrlardan buyon kanchadan-kancha avlodlarga xizmat kilib keldi, bundan buyon xam shunday bo'lib kolajak.

Axlokiy tarbiyaning barcha zamonlar uchun dolzarb bo'lgan yo'li bu – namunaviylik tamoyili. Oilada, avvalo, yukorida aytilganidek, ota-ona bolaga axlokiy namuna bo'lishi kerak. Maktabda va oliy o'kuv yurtida muallimlarning ta'lim berish usullaridan tortib, to «mayda-chuyda» xatti-xarakatlarigacha o'z shogirdlari tomonidan shaxsiy namuna tarzida kabul kilinishini nazardan kochirmaslik lozim. Ustoz-shogirdlik munosabatlaridagi muomala odobi, xalollik, rostgo'ylik yoshlar axlokiy tarbiyasining shakllanishini ta'minlovchi omillardandir.

Hozirgi paytda axlokiy tarbiyaning eng kuchli zamonaviy vositasi sifatida televideniени keltirish mumkin. U deyarli barcha san'at turlarida yaratilgan asarlarni ekranlashtirish va ekranda ko'rsatish imkoniga ega. Bundan tashkari, unda maxsus axlokiy tarbiyaga bagishlangan muntazam ko'rsatuvlar xam berib boriladi. O'zbek tilidagi «Otalar so'zi-aklning ko'zi», «Rivoyat», «Okshom ertaklari» singari ko'rsatuvlar bunga misol bo'la oladi. Shu bois televidenie xech kachon engiltaklikni targib etuvchi ko'shiklar, salkam pornografik reklamalar, inson kalbini kattiklashtiradigan «o'ldir-o'ldir»lardan iborat videofilmlar korxonasi bo'lib kolmasligi kerak.

Axlokiy tarbiyaning akliy-ma'naviy va jismoniy tarbiya bilan ko'shib olib borilishi maksadga muvofik. O'shanda jamiyatimiz xar jixatdan kamol topgan fukarolik jamiyatiga aylanadi. Mamlakatimizda buning uchun barcha xukukiy-ijtimoiy shart-sharoitlar yaratilgan.

Tayanch tushnchalar

Oilalar, Nikox, Tarbiya, Fukarolik jamiyati, Davlat, Axlokiy madaniyat, Muomala odobi, Etiket, Kasbiy odob, Axlokiy tarbiya.

Takrorlash uchun savolar

1. Oila va uning uch asosiy jixati nimalardan iborat?
2. Nikoxning axlokiy mohiyati nimada?
3. Muxabbat va nikoxning o'zaro mos kelish-kelmasligi nimalarga bog'liq?
5. Fukarolik jamiyati kandy tuzilma?
6. Davlatning axlokiy asoslari kay tarzda ko'zga tashlanadi?
7. Muomala odobining inson xayotidagi o'rni kandy namoyon bo'ladi?
8. Etiket nima?
9. Kasbiy odob shaxs va jamiyat ijtimoiy xayotida kandy mavke egallaydi?
10. Axlokiy tarbiya nima xamda uning asosiy vositalari va yo'llari nimalarni o'z ichiga oladi?

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T., «O'zbekiston». 1998.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmokda. T., «O'zbekiston». 1999.
3. Karimov I.A. Donishmand xalkimizning mustaxkam irodasiga ishonaman. «Fidokor» gazetasi, 2000 yil, 8-iyun.
4. Gegel G. Filosofiya prava. M., «Мысль», 1990.

MUNDARIJA

1-mavzu. AXLOKSHUNOSLIK FANI, UNING TADKIKOT DOIRASI, MAKSADI VA VAZIFALARI.....	2
2-mavzu. KADIMGI DUNYO AXLOKSHUNOSLIGI	9
3-mavzu. O'RTA ASRLAR MUSULMON SHARKI MUTAFAKKIRLARINING AXLOKIY TA'LIMOTLARI.....	19
4-mavzu. YANGI DAVR AXLOKSHUNOSLIGIDAGI ASOSIY TA'LIMOTLAR VA YO'NALISHLAR.....	32
5-mavzu. TURKISTON MA'RIFATCHI- JADIDLARINING AXLOKIY KARASHLARI	58
6-mavzu. AXLOKNING KELIB CHIKISHI, UNDA IXTIYOR ERKINLIGINING AHAMIYATI VA AXLOK TUZILMASI	66
7-mavzu. AXLOKNING MA'NAVIYAT TIZIMIDAGI O'RNI	73
8-mavzu. AXLOKSHUNOSLIKNING ASOSIY MEZONiy TUSHUNCHALARI, AHLOKIY TAMOYILLAR VA ME'YORLAR.....	79
9-mavzu. OILA, FUKAROLIK JAMIYATI VA DAVLATNING AXLOKIY ASOSLARI HAMDA SHAXS AXLOKIY TARBIYASI	87